Birlashgan insonlar jamoalarida barchaning yoki ma'lum bir toifadagilarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus ijtimoiy me'yorlar paydo bo'la boshladi. Mazkur me'yorlar million yillardan buyon jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solib kelmoqda. Ushbular insonlar manfaaitini ko'zlab, gumanistik mohiyatni o'zida mujassam etadi. Ijtimoiy me'yorlarning barchasi gumanistik xarakter kasb etadi. Mazkur me'yorlarni buzgan hollarda jamiyatdagi "maxsus institutlar" tomonidan jazolangan. Urug'-qabila davrida atrofida qilargalarga manfaatlariga zid ish tutganlar qabiladan quvg'in qilingan. Yolg'iz holda yashay olmasligini bilgan qabila a'zolari belgilangan me'yorlarga bo'ysunishga majbur bo'lganlar. Keyinchalik, dinning paydo bo'lishi bilan insonlar ilohiy kuchlar yoki o'limidan keyingi hayotidagi qiyinchiliklardan qo'riqib, atrofida qilargalarga zarar yetkazmaslikka harakat qiladilar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** “J.Lyobbok “Madaniyatning boshlanishi” nomli asarida ijtimoiy me’yorlar, ayniqsa, insonparvarlik munosabatlarini jiddiy tadqiq qilib, insoniyat tarixi progressiv rivojlanishdan iborat, degan g’oyani asoslaydi. U gumanizmning diniy asoslarini o’rganib, destlab, hech qanday din bo’lmagan (ateizm davri), keyin kishi tabiat (xudo)ga ta’sir qilishga e’tiqod hosil qiladi (fetishizm davri), jonli va jonsiz tabiatga sig’inish natijasida totemizm tasavvurlari paydo bo’ladi. So’ngra xudolarning inson ustidan hukmronligi kuchayib, uning bilan maxsus shaxslar muomala qilabilgan (shamanizm) davr boshlanadi va nihoyat din axloq bilan birikib, dunyo bunyodkorlari – xudolar to’g’risidagi e’tiqodlar yuzaga keladi. Animistik nazariyani yaratgan E.Teylor ibtidoiy kishilarning diniy e’tiqodlari va marosimlari bema’nilik bo’lmasdan, balki o’z qonun-qoidasiga ega, o’zicha izchil va mantiqiy sistemadan iborat ekanligini isbotlaydi [2]. Aynan insoniyatning diniy dunyoqarashi insonparvarlik prinsipi asosida qurilgan. Jonsiz buyumlarni insonni balo-qazolardan asrashi, ruhlarning e’tiqod qiluvchilarni qo’llashi va hokazolar bashariyat avlodlari manfaati uchun yaratilgan.

**Tahlil va natjalar.** Jamiki yaratiladigan moddiy-ma’naviy boyliklar, dastavval, insoniyat farovon hayoti va ularning himoyasi uchun ishlab chiqiladi. Ammo bulardan ba’zilari mana shu yaratuvchilarga qarshi xizmat qilishi ham mumkin. Shuni aytishimiz mumkinki, insoniyat tomonidan yaratuvchilik, ishlab chiqarish madaniyati shakllanishi, ko’payish va himoya qilish ko’nikmasining takomillashishi gumanizmning genezisi bo’lib hisoblanadi. Vaqt o’tgani sayin, gumanizmning evolutsiyasi progressiv xarakter kasb etib, umuminsoniy kategoriyaga aylandi.

Boshqa xalqlarda bo’lgani singari, turkiylardagi insonparvarlik tuyg’usining genezisini zardushtiylik ta’limoti va “Avesto”dagi gohlar mohiyatida uchratish mumkin. To’g’ri, zardushtiylik dini yoyilgunga qadar ba’zi arxaik odatlar beayov, hatto g’ayriinsoniy bo’lgan. Zaminimizda Zardushtiylik dini keng yoyilgungacha bo’lgan poleteistik davrda g’ayriinsoniy va antigumanistik odatlarning mavjudligini tarixiy manbalar asoslaydi. Ko’pxudolik bilan bog’liq ba’zi g’ayriinsoniy odatlarning Eronda, Baqtriyada hukm surganligi haqida Gerodot quyidagicha xabar beradi: “Men eshitdimki, podshoh Artakserks I ning xotini Amestritsa o’zining uzoq yashayotganiga shukrona sifatida ikki bora yetti nafar oliy nasab fors o’spirinlarini tuproqqa ko’mdirib, yer osti xudosi sharafiga qurbonlik qilibdi. Uning eri, Fors podshohi Artakserks I esa Strimondan muvaffaqiyatli kesib o’tgach, bu yerlarning “to’qqiz yil” deb nomlanishini eshitib, mahalliy aholi ichidan to’qqiz qizni yerga ko’mishni buyurgan. Odamlarni tiriklay ko’mish forslarda odat ekan” [3]. Qadimgi antigumanistik bunday diniy me’yorlar vaqt o’tgani sayin urfga aylana borgan. Jamiyatdagi boshqaruvchilar ijtimoiy-axloqiy me’yorlarni o’z xohish-istaklariga bo’ysundirgan. O’z davrining diniy koinlari ham martabasini yo’qotmaslik, oddiy xalqni qo’rquvda saqlab turish maqsadida g’ayriinsoniy diniy qoidalarni o’ylab topganlar.

Dastlabki insonparvarlik (gumanistik) g’oyalarni isloh qilish harakati – O’rta Osiyoning buyuk farzandi Zardushtdan boshlangan desak, haqiqatga to’g’ri keladi. Chunki uning ta’limoti insonparvarlik g’oyalarni birinchi bo’lib ilohiylashtirgan, dunyoviy hayotni muqaddaslashtirgan, uning asosiy aqidalari keyingi jahon dinlari xiristianlik va islomning aqidaviy va ibodat qoidalariga ham zamin bo’lgan [4]. Zardushtiylik, deb yozadi akademik S.F.Oldenburq – o’z davrida insonning Yer yuzida farovon yashashiga katta ahamiyat bergan eng oliyanob dindir [5]. Zardushtiylik dini qoidalari asosida xalqimiz turmushida shakllangan ijtimoiy me’yorlar o’z axloqiy mohiyatiga ko’ra, bugungi kunda ham antigumanizmga qarshi tura oladi. Gumanistik Zardushtiylik ta’limoti xalqimiz axloqiy madaniyati va ijtimoiy me’yorlariga singib ketgan.

O’z davrida Zardusht g’ayriinsoniy, chigal ko’pxudolikka asoslangan diniy rasm-rusumlar, kishilarni azoblantiruvchi me’yorlardan xalos etish maqsadida ko’chama-ko’cha yurib, Axuramardaga alqovlarni aytib yurgan. Zardushtiylik ta’limotiga ko’ra, yaxshi tushuncha, yaxshi fikr, ezgu niyat, latif so’z – yaxshi ishning mujassamligi, deyilganda, faqirlarga mehribonlik, insonparvarlik, kishiga isnod keltiradigan ishlaridan – birovga hasad qilishdan, o’g’rilik, talonchilik, o’zgalar molini o’zlashtirishdan, zinoga berilishdan, birovning dilini og’ritishdan, hayvonlarni, ayniqsa, yaxshi, nasldor itlarni o’ldirishdan o’zini tiyish va bergan so’zining ustidan chiqish, lafziga sodiq qolish, savdo-sotiq va bitimlarga qat’iy amal qilish, qarzni o’z vaqtida to’lash, aldanchilik va xiyonatdan xoli bo’lish va hokazo illatlar tushinilgan. Mazkur illatlardan qutulgan va fazilatlar bilan ziynatlangan har bir inson qalbida gumanizm ustunlik qiladi. Shunindek, “Avesto”da iymonli va diyonatli bo’lish, buning uchun doimo toza, pok yurish, yovuzlikni qoralayotgan paytda tananing toza bo’lishi, shayton-iblislariga qarshi harakat qilish, gunoh qilmaslik haqida gapiriladi. Atrofdagi kishilar manfaatini hurmat qilish insonparvarlik kategoriyasining asosidir. Bu nafaqat diniy odatlarda, qolaversa, millay xalq bayramlari va sayllarda ham namoyon bo’ladi.

Jamiyatdagi mavjud odat va ommaviy tomoshalar xalqning etnomadaniyatidagi me’yorlar asosida shakllanadi. Odat (ritual) kishilarning etnos, sotsium talablariga muvofiq, “bir xildagi xatti-harakatlaridir”

[6]. Aynan mana shu axloqiy-estetik xatti-harakatlar insonlarni qalbal birlashtirib, ezgu tuyg'ularini ulashishlariga sabab bo'ladi.

Shulardan biri xalqimizning eng qadimiy bayramlaridan biri Navro'zdir. Navro'z turli gumanistik an'analarga boy bo'lgan. Navro'z kunlari podshohlar, arkoni davlat va ma'murlar xalqning barcha tabaqalari bilan birga tog'lar, adir va qirlarga, dala-dashtlarga sayilga chiqishib, bayram qilishgan, ov, uloq, kurash, chavgon, tez yugurish, nayza va kamondan otish, qilichbozlik, ot musobaqalarida ishtirok etganlar. Ular "shoh-u gado barobar" aqidasi amal qilishib, elga dasturxon yozib, ularning dasturxonidan totinib, "Bugun biz siz bilan barobar, nimaiki qilsangiz, haddingiz sig'adi", deya o'zlarini xalq bilan birga ekanliklarini ko'rsatishgan.

Navro'z insonparvarlik tuyg'usiga hamohang bayram bo'lganligi sabab, mazkur kunda muhim ijtimoiy masalar hal qilingan. Masalan, vali'ahd tayinlash, vafot etgan podshoh o'rniga yangi podshohni xalqning roziligini olib, oq gilamga o'tkazib ko'tarish, ya'ni podshoh deb e'lon qilish, xalqdan uzrxohlik so'rash, barcha tabaqa va toifalarni kamsitmay, izzat-ikromini joyiga qo'yish kabi an'analarga amal qilishgan. Navro'zda o'limni eslash, o'tganlarni xotirlash, dafn o'tkazish nojoiz hisoblanib, bunday marosim va marakalar kechiktirilgan, chunki bu kunda faqat tabiatning jonlanishi, «qayta tug'ilishi», boychechak, bahor va muhabbat haqida qo'shiqlar aytish, tong otguncha davom etadigan bazmi-jamshidlar rasm bo'lgan. Navro'z kechasi barcha ko'ngilochar tadbirlarga ruxsat berilgan, o'yin-kulgu, raqs tushish, yoshlar o'zlariga munosib yor tanlashlariga ijozat berilgan. Navro'z yasharish, yangilanish, atrofda qilargalarga mehr-muhabbat ulashish bayrami sifatida keng nishonlanib kelingan.

Ayni paytda Navro'z kunlari dala ishlariga qizg'in tayyorlanib, ertangi ekinlar ekishga tantanali ravishda fотиha berilgan. Asboblarni sozlash, urug'liklarni saralash, undirish, shahar, qishloq, guzar, mahalla va uylarni hashar yo'li bilan tozalab, orasta qilish, ko'katlar, gullar ekishda barcha faol ishtirok etgan. Otonalar, bemorlar, qariyalarni borib ko'rish, ulardan xabar olish, nochorlarga xayr-sadaqa berish, oshlik tarqatish, o'tganlarni eslash kabi an'analarga bo'lgan. Navro'z miloddan avvalgi VI asrdan boshlab, rasmiy Yangi yil bayramiga aylangan bo'lsa-da, u umumxalq bayrami sifatida nishonlanavergan, hatto islom dini kelganidan so'ng Navro'z yo'qolib ketmagan, birmuncha sovuqqon munosabat qaror topgan davrda ham aholi tomonidan keng nishonlanavergan. Mazkur kunni xalqimiz yil davomida kutishgan, sababi shu kun jamiyatda barchani birlashtirib, yaqinlashtiradi. Umumiy ovqatlanish, sayllar, tomoshalar kishi qalbidan atrofda qilargalarga muhabbat uyg'otadi, xursandchilik ulashadi.

**Xulosa.** Navro'z yoshlarda insonparvarlik tuyg'usini yuksaltirishning qudratli vositalaridan biridir. Navro'zdagi tabiatga xos ma'sumlik, musaffolik, uyg'unlik, shod-u xurramlik, uyg'onish, adolatparvarlik va yuksak insonparvarlikni amalda namoyon qilish, tabiat, xalq bilan birga bo'lish, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, taqdiri, kelajagi xususida qayg'urish. Navro'z kabi boshqa umumxalq bayramlar va sayllar davomida ham insonparvarlik tuyg'usi rivojlanadi. Shu sababdan necha ming yillar davomida mazkur umumxalq bayramlari keng nishonlanib kelmoqda. Hattoki, Islom dini keng yoyilib, turli xurofot va bid'at hisoblangan odatlar qattiq qoralangan davrda ham xalq bayramlarining gumanistik mohiyati saqlanib qoldi. Sababi Islom dini mohiyatida ham insonparvarlik g'oyasi asosiy o'rin egallaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Назаров К. Жаҳон фалсафаси комуси. 1-китоб, Т., Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2023, 279-бет.
- (2). Iso Jabborov. Jahon etnologiyasi asoslari. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2005, 15-bet.
- (3). Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" – ma'naviyatimiz sarchashmasi. Toshkent, "Adolat", 2001, 24-bet.
- (4). Исо Жабборов. Антик маданият ва маънавият хазинаси. Т., "Ўзбекистон", 1999, 62–63-бетлар.
- (5). Boboyev H., Hasanov S. "Avesto" – ma'naviyatimiz sarchashmasi. Toshkent, "Adolat", 2001, 24-bet.
- (6). Чеснов Я.В. Лекции по исторической этнологии. М., "Гардарика", 1998, с. 51.

**Xoliyarova Maxbuba Sottorovna (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi; E-mail: mahbubaholiarova@gmail.com)**

**DAVLAT XIZMATCHISI TUSHUNCHASI SHAKLLANISHIGA OID IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola O'zbekistonda davlat xizmati faoliyati rivojida adolat va qonun ustuvorligi asosida yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda davlat xizmatini to'g'ri tashkil etish va amalga oshirish davlat apparatining boshqaruviga bevosita ta'sir etibgina qolmay, davlat o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi mexanizm vazifasini bajaruvchi xizmatchilar faoliyatini ta-*

*komillashtirish lozim. Bu yoʻlda ushbu tushunchaning ijtimoiy-falsafay, siyosiy-huquqiy kelib chiqish asoslarini oʻrganishga oid fikr-mulohazalar bildirilgan.*

**Kalit soʻzlar:** davlat xizmati, maʼnaviy qiyofa, milliy huquq tizimi, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va maʼnaviy qarashlar.

**Холярова Махбуба Сотторовна (правоохранительные органы Республики Узбекистан, старший преподаватель Академии; mahbubaholiarova@gmail.com)**

### **СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ СООБРАЖЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПОНЯТИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ**

**Аннотация.** Данная статья важна для развития государственной службы в Узбекистане, основанной на справедливости и верховенстве закона. Сегодня правильная организация и реализация государственной службы не только напрямую влияет на управление государственным аппаратом, но и требует совершенствования деятельности сотрудников, которые выступают механизмом, обеспечивающим достижение целей, поставленных государством. Таким образом, высказываются мнения по изучению основ социально-философского, политико-правового происхождения данного понятия.

**Ключевые слова:** государственная служба, моральный имидж, национальная правовая система, социальные, политические, правовые и моральные взгляды.

### **SOCIO-PHILOSOPHICAL CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF THE CONCEPT OF PUBLIC SERVICE**

**Annotation.** This article is important for the development of public service in Uzbekistan based on justice and the rule of law. Today, the proper organization and implementation of the public service not only directly affects the management of the state apparatus, but it is necessary to improve the activities of employees who act as a mechanism that ensures the achievement of the goals set by the state. In this way, opinions on the study of the foundations of the social-philosophical, political-legal origin of this concept are expressed.

**Key words:** public service, moral image, national legal system, social, political, legal and moral views.

**Kirish.** Oʻzbekiston istiqlol sharofati ila milliy huquq tizimining oʻzgarishi jarayonida davlat xizmati faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlar takomillashib bordi. Shuningdek, davlat xizmatining yuridik tabiati oʻzgarib, normativ qoidalarni oʻz ichiga olgan kompleks huquq hamda ijtimoiy, siyosiy institutlar sohalar kesimida tashkil topa bordi. Mamlakatda farovon turmush tarzi hamda adolatli ijtimoiy davlat qurish yoʻlida davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Bugun davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirishning asosiy omili hisoblangan davlat fuqarolik xizmatchisi maʼnaviy qiyofasini isloh etish jarayonida avvalo, fuqarolik xizmatchisi odo-axloqi, yurish-turishi, fuqarolar bilan munosabatdagi muomala madaniyati, yechim izlab kelgan kishilarning ogʻirini yengil qilish, kasbiy maʼsuliyat, tashabbuskorlik kabi alohida fazilatlar bilan boshqalardan ajralib turishi hamda shaxsiy namuna boʻlishi zarur. Ayniqsa, hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlod tarbiyasida vatanparvarlik gʻoyalari, milliy qadriyatlarga hurmat, jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik ruhida tarbiyalashda ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, davlat xizmatida faoliyat olib boruvchi davlat xizmatchilar faoliyat jarayonida davlat organlarining huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi, uning tashkiliy-boshqaruv funksiyalarini bajaruvchi, yuridik ahamiyatga ega boʻlgan harakatlarni amalga oshiruvchi hamda xizmat majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilishi mumkin boʻlgan shaxs hisoblanadi. Bundan koʻrinib turibdiki, qonunlarni bir xilda amaliyotga tatbiq etilishi hamda samaradorligi uchun javobgar shaxs sanaladi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish, keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ushbu holatlarga sabab boʻluvchi muammolarni oʻrganish va chuqur tahlil qilish orqali oldini olish boʻyicha chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun koʻplab tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kun taqozosi hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Davlat xizmatchisi tushunchasi shakllanishiga oid olimlarning qarashlarini oʻrganish jarayonida bir qator huquqiy, siyosiy, falsafiy, tarixiy, izohli lugʻatlar hamda normativ-huquqiy adabiyotlar bilan bir qatorda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maʼruzalaridan foydalanildi. Jumladan, Sh. Mirziyoyevning “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” kitobi, Gʻ.A. Abdumajidovning “Yuridik atamalar qomusiy lugʻati”, Odilqoriyevning “Davlat va huquq nazariyasi”, Faylasuf Qiyom Nazarov “Maʼnaviyat asosiy tushunchalar lugʻati”, I.S.Ochilov, A.Madaliyevning “Oʻzbek tilining izohli lugʻati, shuningdek, D.N.Baxrax, V.D.Grajdan va Karl Marks kabi iqtisodchi, jamiyatshunos, siyosatchi kabi olim va tadqiqotchilarning qarashlari oʻrganilib, tahlil qilindi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ayni paytda, davlat boshqaruv hokimiyatining ajralmas qismi boʻlgan huquq organlari faoliyatida davlat xizmati instituti muhim ahamiyat kasb etib, faoliyati bilan bogʻliq tushunchalar, atamalar qoʻllanmalar va tegishli adabiyotlar emperik hamda tarixiylik usulida oʻrganildi. Jum-

ladan, davlat va huquq hamda boshqa fanlarga oid adabiyotlarda “davlat xizmati”, “davlat xizmatchisi”, “fuqarolik xizmati”, “davlat fuqarolik xizmatchisi”, “kadrlar”, “kadrlar zaxirasi” “mansabdor shaxs” kabi tushunchalarga doir atamalar yuzasidan turlicha yondashuvlarning yuridik, falsafiy, iqtisodiy, siyosiy izohlari tahlil va mulohaza metodlari orqali sharhlandi.

**Tahlil va natijalar.** Bugun mamlakatda keng ko‘lamli modernizasiyalar davrida davlat xizmati va davlat xizmatchisi tushunchasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada ko‘plab tadqiqot va izlanishlar olib borilyapti. Biz ham bu so‘zning “Davlat xizmati” tushunchasi ikki so‘z birikmasi “davlat” va “xizmat” tushunchalaridan iborat. Davlat tushunchasi bo‘yicha juda ko‘plab tariflar bo‘lib, ulardan “Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati” kitobida, davlat – jamiyatni tashkil etish va boshqarishning belgilangan usuli, siyosiy tizimning asosiy elementi, siyosiy hokimiyat tashkiloti [2] sifatida berilgan bo‘lsa, “Davlat va huquq nazariyasi”ga oid kitoblarda davlat – jamiyat rivojlanishining mahsuli bo‘lib, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida alohida siyosiy institut [3] sifatida yuzaga keltirilgan. Ma‘naviyat asosiy tushunchalar lug‘atida esa faylasuf Qiyom Nazarov fikriga ko‘ra, “davlat – butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv apparatiga tayanadigan, barcha uchun qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan siyosiy tashkilot” sifatida qayd etgan [4]. Yuqoridagi tariflardan kelib chiqib, davlat tushunchasi davlat jamiyatga tashqaridan kiritilgan kuch emas, u jamiyatning o‘zidan kelib chiqqan, uni o‘ziga bo‘ysindiruvchi kuch desak, adashmagan bo‘lamiz.

Xizmat tushunchasini o‘rganish jarayonidagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “xizmat” so‘zi borasida arabchadan “biror ish yoki mehnat bilan shug‘ullanish, biror ishni bajarish, ish mehnat” sifatida ta‘riflangan [5]. Huquqiy adabiyotlarda “xizmat” tushunchasiga insonning ijtimoiy faoliyat shakli sifatida yondashilib, xodimning ish joyi, uning ish joyidagi majburiyatlari majmuyi degan qarash-larga duch kelamiz [6]. Rus huquqshunosi Demyan Baxrax fikriga ko‘ra, “xizmat – boshqaruvdan, davlat faoliyatini amalga oshirishdan, boshqaruvni ta‘minlashdan, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish” [7] degan fikrni bildirgan bo‘lsa, V.D.Grajdani “davlat xizmatchisi”ni davlat hokimiyatidagi siyosiy hokimiyatni ijro etuvchi va ma‘muriy hokimiyatni bajaruvchi sifatida tarif beradi [8].

Bu tushuncha to‘g‘risida iqtisodchi I.S.Ochilov “xizmat” tushunchasiga “inson, mehnat jamoasi, hudud, davlat va jamiyatning ma‘lum bir ehtiyojini qondirishga qaratilgan kishilarning naf keltiradigan ongli ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan faoliyati sifatida baholaydi [10]. Yuqoridagi har ikkala tariflarning qarashlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat va xizmat tushunchasini hayotga birgalikda tatbiq etilishi natijasida ma‘lum bir davlatlarning ijtimoiy hayoti yoki taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shuni e‘tiborga olish kerakki, xizmat ijtimoiy foydali faoliyatning asosiy turi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ta‘kidlash lozimki, xizmat tushunchasini yoritishda asosiy faoliyat turi hisoblangan davlat xizmati xodimlarining davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish mexanizmlari va mehnat faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etish nazarda tutiladi.

Davlat xizmati bu xizmatning maxsus turi hisoblanadi. Demak, davlat maxsus ishlab chiqilgan hokimiyat apparatisiz, davlat xizmatining samarali tizimisiz mavjud bo‘lolmasligi yoki taraqqiy etish olmasligi mumkin. Bunday yondashuv qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishidan qat‘iy nazar, bugungi kunda dunyo olimlari “davlat xizmati” tushunchasi yuzasidan bir aniq to‘xtamga kelishgani yo‘q desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aksariyat hollarda, “davlat xizmati” bilan bog‘liq tushunchani sharhlashda davlat va ijtimoiy institutlarning xususiyatlarini inobatga olib, birmuncha kengroq ta‘riflaydilar. Masalan, “Davlat xizmatida faoliyat ko‘rsatish istagidagi nomzodlar bilimi, kuchli ma‘naviy salohiyati, yuksak madaniyati, halol, tashabbuskor bir so‘z bilan aytganda, o‘z kasbining ustasi bo‘lishi kerak”, deyiladi. Shunday ekan, davlat xizmatida faoliyat olib boruvchi kadrlarga nisbatan qo‘yiladigan talablar ham shunga mos bo‘ladi. Bunday davlat xizmatchisi har qanday vaziyat va sharoitda ham to‘g‘ri qaror qabul qila oladi va atrofdagi vaziyatga to‘g‘ri baho berishda hodisa va voqealarga dadil, adolatli va xolisona baho beradi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vujudga keltiradi, bu esa davlat fuqarolik xizmatchilari va xalq o‘rtasidagi ishonchni mustahkamligiga xizmat qiladi. Davlat xizmatining mohiyatini belgilovchi nazariy tushunchalar uzoq tarixiy evolutsion jarayonlardan o‘tib bugungi boshqaruv shakllari ko‘rinishida faoliyat olib bormoqda.

Davlat xizmati tushunchasi huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzulmani o‘zida qamrab olib, shu bilan birga axloqiy tushunchani ham ifodalaydi. U ma‘naviy boylik tashuvchi sifatida odamlarni odob-axloq qoidalariga rioya qilishga yo‘naltiradi. Davlat xizmatining barqarorligi va ishonchliligi mansabdor shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligiga, balki uning ma‘naviy fazilatlariga ham bog‘liqdir.

Davlat xizmati tushunchasi huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tuzulmani o‘zida qamrab olib, shu bilan birga, axloqiy tushunchani ham ifodalaydi. U ma‘naviy boylik tashuvchi sifatida odamlarni odob-axloq qo-

idalariga rioya qilishga yo'naltiradi. Davlat xizmatining barqarorligi va ishonchligi mansabdor shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligiga, balki uning ma'naviy fazilatlariga ham bog'liqdir.

**Xulosa va takliflar.** Davlat xizmatchisini chuqur o'rganish "zamonaviy kadrlar zahirasi"ni yaratishda davlat xizmatchisi ma'naviy qiyofasi bugunning taqozosidir. Bu yo'lda insoniylik, adolatlilik, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olishimiz va ijtimoiy-falsafiy tamoyillar, jumladan, axloq qoidalari, kasbiy mas'uliyat va vatanparvarlik tamoyillariga asoslanishi zarur. Bu tamoyillar xodimlarni jamoat ishlariga, adolatlilikka, qonunga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini yuksaltirishga undaydi. Davlat xizmatchilari o'z xalqi va jamiyatiga yanada yaxshi xizmat qilish uchun o'z intellekti, madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishga intilishi xalq va davlat xizmatchilari o'rtasida mustahkam ishonch va hurmatni kamol toptirishda muhim rol o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Sh.M.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". 2-jild, T., "O'zbekiston", 2018, 90-bet.
- (2). G'.A.Abdumajidov va mualliflar jamoasi. "Yuridik atamalar qomusiy lug'ati", Toshkent, 2003, "Sharq" nashriyoti, 120–121-betlar.
- (3). X.T.Odilqoriyev va mualliflar jamoasi. Davlat va huquq nazariyasi, Toshkent, 2012, "Davr", 37-bet.
- (4). Q.Nazarov va boshqalar. "Ma'naviyat asosiy tushunchalar lug'ati". Toshkent, 2021, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 29–130-betlar.
- (5). O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madaliyev tahriri ostida. Beshinchi jild, Toshkent, O'zME, 2007, 395-bet.
- (6). A.A.Гайдар Понятие "гражданский государственный служащий" в законодательстве России. Татищевские чтения. Актуальные проблемы науки и практики. Материалы XV Международной научно-практической конференции. В 3-х т., 2018, с. 192.
- (7). Бахрах Д.Н. Административное право. Москва, 1993, с. 97.
- (8). Граждан В.Д. Государственная гражданская служба. Учебное пособие, М., "Юркнига", 2005, с. 24–25.
- (9). Карл Маркс. «Капитал». Издательство ИГ, Лениздат, 2013, с. 512.
- (10). Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati, Samarqand, SamISI, 2010, 26-bet.

**Rajabov Otabek Atoevich (Buxoro davlat Tibbiyot instituti "Preventiv tibbiyot, jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti" kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi; e-mail: [radjabovotabek@mail.ru](mailto:radjabovotabek@mail.ru))  
SALOMATLIK FALSAFASINING DASTLABKI TALQINI**

*Аннотация. Tadqiqotning o'ziga xos sohasi sifatida aniqlash muammosi va uning chegaralari zamonaviy talqinlarga ega bo'lgan tarixiy materiallarga asoslangan holda ko'rib chiqiladi.*

*Калит so'zlar: salomatlik falsafasi, g'arb faylasuflari, tibbiyot, qadimgi sivilizatsiya.*

**Ражабов Отабек Атоевич (научный сотрудник Бухарского государственного медицинского института кафедры превентивной медицины, общественного здоровья и менеджмента здравоохранения; e-mail: [radjabovotabek@mail.ru](mailto:radjabovotabek@mail.ru))**

#### **ВВОДНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФИЛОСОФИИ ЗДОРОВЬЯ**

*Аннотация. В данной статье рассматривается проблема определения философии здоровья как специфического поля философского исследования и его границ на историческом материале с выходом на современные интерпретации.*

*Ключевые слова: философия здоровья, западная философия, медицина, древняя цивилизация.*

#### **AN INTRODUCTORY INTERPRETATION OF THE PHILOSOPHY OF HEALTH**

*Annotation. This article examines the problem of defining the philosophy of health as a specific field of philosophical research and its boundaries based on historical material with access to modern interpretations.*

**Key words:** philosophy of health, western philosophers, medicine, ancient civilization.

**Kirish (Введение/Introduction).** Salomatlik falsafasi har qochongiga qaraganda zamonaviy ilmfan maydonining muhim jihatlardan biri sifatida ko'plab olimlarning diqqatini tortishda davom etmoqda. Ilmiy bilimlar tizimida bu dolzarb yo'nalishning o'rnini aniqlash salomatlik falsafasining to'laqonli shakllanishi asos bo'ladi. Ma'lumki, salomatlik tushunchasi tibbiyotning markaziy tushunchasi hisoblanadi. Biroq salomatlik tushunchasi insonning bu foni dunyoda o'tashi kerak bo'lgan missiyasining asosini tashkil qilganligi sababli u tibbiyotdan tashqari qator boshqa fanlar bilan, ya'ni psixologiya, mantiq, sosiolo-

giya, tarix, biologiya, hatto fizika bilan bevosita bog'liqlik tomonlarini hech bir kimsa inkor eta olmaydi. Salomatlik muammosi nafaqat tibbiyot vakillari, balki fiziologlar, o'qituvchilar, psixologlar, faylasuflar, shuningdek, har bir inson uchun dolzarbdir, chunki bu uning hayotiy namoyon bo'lishining muhim xususiyati bo'lib xizmat qiladi, uning dunyo bilan o'zaro munosabatini uyg'unlashtiradi. Albatta, bu fanlarning oldingi qatorida o'sha Aristotel "boshqa fanlar, xuddi qullar kabi, qarshi chiqishga jur'at eta olmaydigan asosiy va hukmron fan" deb atagan bizning "mo'ysafid" falsafa fani turadi. Tibbiyot kasallikni aniqlash va davolashga asosiy vazifa sifatida qarasa, falsafa salomatlik tushunchasiga inson ruhiy holatining o'lchovi sifatida yondashadi.

**Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод/Materials and methods).** Ushbu ishning maqsadi salomatlik fenomenini tushunish jarayonida qadimgi tadqiqotlarni tahlil qilishdir.

Alohida shaxsning salomatligi nafaqat u yashab turgan jamiyatning, balki planetaning, qolaversa, butun borliqning ko'zgusi hisoblanadi. Chunki salomatlik tushunchasi qo'pchilik tibbiyot bilan bog'laydigan darajadagi tor tushuncha emas. Istalgan davrning istalgan shaxsi o'z avlodlariga qaraganda farovonroq, sog'lomroq va bilimlirorq bo'lishga intiladi. Zero, insoniyat taraqqiyotining tub mohiyati ham shundan iborat. "Inson zurriyoti Alloh buyurganday yashashi uchun joni, aqli va jismining sog'lom bo'lishi uchun qayg'urishga mas'uldir" [1].

Naturalistik qarashlar [2] kuzatilishi va o'lchanishi mumkin bo'lgan o'ziga xos (moddiy) tana, tabiiy, biologik fiziologik jarayonlarni muhokama qiladi. Bir-birini qadrlaydigan hodisalarni (masalan, hayotiy maqsadlar, ma'no va maqsadlar) ta'kidlaydigan subyektiv qarashlar individlarning markaziy rolini ta'kidlaydi [3]. Ushbu salomatlik falsafalariga murojaat qilganimizda, biz funksiyalar va funksiyalarni muhokama qilish integrativ istiqbollarni qanday yaratishini ham kuzatamiz. Ushbu salomatlik falsafalariga murojaat qilganimizda, biz funksiyalar va funksiyalarni muhokama qilish integrativ istiqbollarni qanday yaratishini ham kuzatamiz. Yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotda "funksiya" ta'rifi aniq ko'rsatilmagan bo'lsa-da, Nordenfeldt [3], Boorse [4], Ueykfild [5] va Shreder [6] har biri funksiyalarni oldindan mavjud bo'gan (ya'ni, ikkalasi ham) sifatida muhokama qiladilar. evolutsiyadan, shaxsiy maqsadlarni belgilashdan yoki madaniy an'analardan) maqsadga yo'naltirilgan jarayonlar.

Insonning asl maqsadi iqtisodiy jihatdan o'sib, o'zi istagan turmush sharoitida imkon qadar uzoq va sog'lom hayot kechirishdan, o'z potensialini ijobiy namoyon qilishi uchun siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik muhitni barpo etishdan iborat. Har tomonlama sog'lom shaxsgina sog'lom jamiyatni yarata oladi. Ma'lumki, insoniyatning butun hayoti davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan va mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mavjud. Salomatlik bu qadriyatlar safiga, so'zsiz, kiradi.

**Muhokama (Обсуждение/Discussion).** Inson salomatligi muammosi falsafiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishi bo'lib kelgan va kelmoqda. Inson biososial hodisa sifatida ikkita tuzilmaning dialektik birligi sifatida qaraladi: vujudiy (biologik) va shaxsiy (ijtimoiy). Inson vujudiy yoki biologik tuzilma sifatida ikkita muqobil, ya'ni normal va patologik holatda bo'lishi mumkin. Ijtimoiy tuzilma sifatida ikkita ijtimoiy holatda, sog'lom va kasal bo'lishi mumkin. Shu sababli salomatlik konsepsiyasini chuqur tahlil etish nafaqat muhim nazariy, balki muhim amaliy ahamiyatga ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, "salomatlik" tushunchasining ma'nosini oshkor qilmasdan turib, biz "kasallik" tushunchasining ma'nosini oshkor qilmaymiz. Biroq salomatlik haqidagi juda ko'p bilimlarning mavjudligiga qaramay, sog'liqning qaysi tarkibiy qismlari hal qiluvchi hioblanadi, boshqacha qilib aytganda, salomatlik qayerda tugab kasallik boshlanadi, degan savollar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Biz tadqiq qilishni maqsad qilgan salomatlik falsafasi tabiiy va gumanitar fikrning turli sohalarida chorahasida joylashgan bo'lib, nazariy, fundamental va amaliy masalalarni o'rganadi. Shu sababli tadqiqot adabiyotlarida salomatlik hodisasining turli jihatlarini tushunishga oid bir nechta muhim qatlamlarni aniqlash mumkin.

Salomatlik haqida dastlabki mulohazalar Gippokrat, Demokrit, Alkmeon Krotonkiy singari mutafakkirlarning asarlarida uchraydi. O'sha paytda salomatlik falsafiy oqim va u yoki bu mutafakkir yashagan jamiyatning xususiyatlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilgan [7].

G'arb tibbiyotining asoschisi va antik davrning eng nufuzli tibbiyot mutafakkirlaridan biri hisoblangan Gippokrat va uning izdoshlari kuzatishlar, tajribalar va mantiqiy fikrlash asosida salomatlik falsafasini ishlab chiqadilar. Ular tabiiy sabablar va inson tanasining fiziologiyasiga asosiy e'tiborni qaratgan holda, kasallik mistika va sehr-jodu bilan aloqador degan tushunchalarni rad etishadi [8].

Qadimgi yunon faylasufi va atom nazariyasining asoschilaridan biri Demokritning salomatlik falsafasi ko'ra hamma narsa bo'linmas va cheksiz zarralar – atomlardan iborat. U salomatlik va kasallikni atomlarning o'zaro ta'siri va ularning holatidagi o'zgarishlar bilan izohlash mumkinligiga ishongan [4].



Miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi va shifokori Alkmeon Krotonkiyning salomatlik falsafasi qadimgi Yunonistonda tibbiyot va falsafa rivojiga muhim hissa qo'shgan. Alkmeon Krotonkiyning asosiy g'oyalaridan biri muvozanat va uyg'unlik doktrinasi edi. U inson salomatligi qaramaqarshi kuchlar o'rtasidagi muvozanatga, ya'ni tanadagi issiq va sovuq, quruq va namga bog'liq deb hisoblagan. Agar bu kuchlar uyg'un bo'lsa, unda odam o'zini sog'lom his qiladi. Agar muvozanat buzilgan bo'lsa, kasalliklar paydo bo'ladi [9].

1989-yilda P.I.Kalyu o'zining umumiy ishida turli ilmiy maktab va yo'nalishlar vakillari tomonidan taklif qilingan salomatlikning 79 ta ta'rifini keltirib, uni ma'lum konsepsiyalarga ajratdi. Kalyuning fikricha, salomatlikning barcha xususiyatlarini tibbiy, biotibbiy, bioijtimoiy va qadriy-ijtimoiy singari to'rtta asosiy modelga ajratadi [10].

N.A.Lebedeva-Nesevrya o'z ilmiy izlanishlarida yuqori texnologiyalar asrida aholi salomatligi uchun ijtimoiy jihatdan aniqlangan xavflarni tahlil etadi. Ijtimoiy muhit va aholi salomatligi orasida mustahkam dual bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, aholining salomatlik sifati jamiyatning rivojlanish darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Boshqa tomondan, aholi salomatligi davlatning eng muhim resursi bo'lib, uning yo'qolishi esa davlat xavfsizligiga zarar yetkazuvchi omil bo'lib, davlat organlarining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining mazmuni va o'zgarishiga ta'sir qiladi [11].

Sog'lom jamiyat va har bir fuqaroning salomatligi mamlakatning iqtisodiy salohiyati o'sib borgani sari mehnat qilish va moddiy farovonlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Insonning o'z salomatligiga qanday yondashishi bevosita uning savodxonlik darajasiga bog'liq. Yaxshi ta'lim olgan aholi o'z salomatligiga nisbatan yaxshiroq yondashadi, profilaktika choralarini vaqtida qo'llaydi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yadi, vaqtida kasallikni aniqlashga, o'z-o'ziga birinchi yordam ko'rsatishga, sifatli tibbiy yordam olishga qodir bo'ladi [12–18].

**Xulosa (Заключение/Conclusion)ю** Asosiy xulosa quyidagicha: salomatlik falsafasi ushbu hodi-sani to'liq anglashi, uning qarama-qarshiliklari va paradokslarini ochib berishi kerak, ammo bunday sog'liq falsafasi hali mavjud emas. Salomatlikni saqlash va saqlash inson hayotining asosiy qadriyatlaridan biridir. Salomatlik muammosining barcha jihatlari falsafiy, madaniy va diniy urf-odatlarining chuqur qatlamlarida ildiz otgan. Turli qadimiy madaniyatlarda salomatlik hodisasiga mafkuraviy yondashuvlarning shakllanish xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bu xususiyatlar markaziy mafkuraviy tamoyil – kosmosen-trizmga asoslangan bo'lib, uning doirasida inson o'ylangan kosmik hayotning birligi sifatida ruh materi-yadan tubdan ajratilmagan. Bunday sharoitda salomatlik atrofdagi tabiiy va kosmik dunyo bilan uyg'unlik holati, kasallik – bu uyg'unlikning buzilishi va kasalliklarni davolash va sog'likni tiklash yo'llari asl bu-zilgan birlikni tiklash deb qaraldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'uxati (Использованная литература/References):**

- (1). Мухаммад Амин Яхё. Интернетдаги тахдидлардан химоя. 2016, 192 бет.
- (2). Boorse C. (1997). A rebuttal on health. In: What is disease? Humana Press, Totowa. Springer, pp. 1–134.
- (3). Nordenfelt L (2007) The concepts of health and illness revisited. *Med Health Care Philos* 10(1):5.
- (4). Wakefield JC (2014) The biostatistical theory versus the harmful dysfunction. analysis, part 1: is part-dysfunction a sufficient condition for medical disorder? *J Med Philos* 39(6), p. 648–682.
- (5). Schroeder SA (2012) Rethinking health: healthy or healthier than? *Br J Philos Sci* 64(1), p. 131–159.
- (6). Radovan RYBÁŘ. Philosophy of health as education to healthy life. *Papers on Health Education School and Health* 21, 2010, p. 13–21.
- (7). Radovan RYBÁŘ. Philosophy of health as education to healthy life.
- (8). Cockerham W. Health Lifestyles in Russia. *Social Science and Medicine*, 2000, Vol. 51, p. 312–325.
- (9). Temkin Owsei. "The double face of Janus and other essays in the history of medicine". The Johns Hopkins University Press, 2006, p. 560.
- (10). Mansfeld Jaap. Democritus and the sources of Greek anthropology. *Classical Quarterly*, vol. 42, №2, 1992, p. 302–318.
- (11). Фёдорова О.Б. Концепция смеси в греческой медицинской и натурфилософской традициях V – IV веках до нашей эры, в Сб.: *Философия науки в историческом контексте. Сборник статей в честь 85-летия Н.Ф. Овчинникова*, СПб, «Издательство Русского Христианского гуманитарного института», 2003, 105–107 с.
- (12). Калью П.И. Сущностная характеристика понятия «здоровье» и некоторые вопросы перестройки здравоохранения: обзорная информация. М., 1988.
- (13). Лисицын Ю.П., Петленко В.П. Детерминационная теория медицины. Доктрина адаптивного реагирования. Россия, 1992, 416 с.

(14). Лебедева-Несевря Н.А., Барг А.О., Цинкер М.Ю., Костарев В.Г. Оценка связи разнородных факторов риска и заболеваемости работающего населения регионов России с различным фоном формирования здоровья. Анализ риска здоровью. 2019, № 2, с. 91–100. DOI: 10.21668/health.risk/2019.2.10.

(15). Терентьев О.В. Здоровье человека как объект философского аксиологического анализа. Автореф. дис. ... канд. филос. наук, М., 2010, с. 5.

(16). Хрусталеv Ю.М. Философия – интеллектуальная и моральная основа здоровья. Терапевтический архив. 2006, т. 78, № 1, с. 83–87.

(17). Гартман Н. Этика. Пер. с нем. А.Б.Глаголева, под ред. Ю.С.Медведева, Д.В.Скляднева. СПб., Фонд университет: Владимир Даль, 2002, с. 208.

(18). Розин В.М. Как можно помыслить тело человека или на пороге антропологической революции. “Философские науки”, 2006, № 5, с. 33–53.

**Qodirov Fazliddin Yuldoshovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi (PhD);  
Fazliddin3210@umail.uz)**

### **SHAXS FUQAROLIK MADANIYATI: MEZONLARI VA FUNKSIYALARI**

**Annotatsiya.** Maqolada shaxs fuqarolik madaniyatining tahlili berilgan. Mazkur tahliliy yondashuvda muammoning yuzaga kelishi va rivojlanishi tarixiy va falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Fuqarolik madaniyatining mazmun-mohiyati umumiy madaniyat kontekstida ochib berilgan va shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modeli yaratilgan. Nazariy modelning asosiy tarkibiy qismlari va elementlarining o‘rganilishi natijasida shaxsda fuqarolik madaniyatining shakllanganlik darajasini baholovchi mezonlar hamda jamiyat rivojlanishini ta‘minlovchi funksiyalari korsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** shaxs fuqarolik madaniyati, madaniyat, fuqarolik faoliyati, fuqarolik ongi, xalq manfaatlari, fuqarolik qadriyatlarini, fuqarolik mas‘uliyati, fuqarolik burchi, ijtimoiy faollik, mezon, funksiya.

**Кадыров Фазлиддин Юлдошович (старший преподаватель кафедры философии и социологии КарГУ (PhD))**

### **ГРАЖДАНСКАЯ КУЛЬТУРА ЛИЧНОСТИ: КРИТЕРИИ И ФУНКЦИИ**

**Аннотация.** В статье проводится анализ гражданской культуры человека. В данном аналитическом подходе возникновение и развитие проблемы освещается с историко-философской точки зрения. Раскрывается сущность гражданской культуры в контексте общей культуры и создается теоретическая модель индивидуальной гражданской культуры. В результате исследования основных компонентов и элементов теоретической модели показаны критерии оценки уровня сформированности гражданской культуры человека и функций, обеспечивающих развитие общества.

**Ключевые слова:** человек – это гражданская культура, культура, гражданская активность, гражданское сознание, общественные интересы, гражданские ценности, гражданская ответственность, гражданский долг, социальная активность, критерий, функция.

### **CIVIL CULTURE OF PERSONALITY: CRITERIA AND FUNCTIONS**

**Annotation.** The article provides an analysis of the civil culture of a person. In this analytical approach, the emergence and development of the problem is covered from a historical and philosophical point of view. The essence of civic culture is revealed in the context of general culture and a theoretical model of individual civil culture is created. As a result of the study of the main components and elements of the theoretical model, the criteria for evaluating the level of formation of civil culture in a person and the functions that ensure the development of society have been shown.

**Key words:** a person is civic culture, culture, civic activity, civic consciousness, public interests, civic values, civic responsibility, civic duty, social activity, criterion, function.

**Taqrizchi f.f.d. (DSc) G.H.Bekmurodova**


**Kirish.** Shaxs bilim va qadriyatlarini, sa‘y-harakati va intilishlarining Vatan manfaatlariga mosligi darajasini aniqlashga qaratilgan izlanishlarni uning umumiy madaniyati ahvolini ifodalashdan boshlamok dar-kor. Chunki shaxs umumiy madaniyati uning umri davomida o‘zlashtirgan barcha bilim va g‘oyalarni, intilishlarining asosini tashkil qilgan normalarni mujassam qiladi. Albatta, ularning barchasini ham yurt manfaatlariga mutanosib deb bo‘lmaydi. Ularning ayrimlari shaxsiy ehtiyojlarga xizmat qilsa, boshqalari inson mansub bo‘lgan guruh manfaatlariga mos tushadi. Biroq mazkur bilim va normalarning yana bir qismi mavjudki, ular Vatan va jamiyat manfaatlariga hamohangdir. Ana shu tarkibiy qismlar shaxs fuqarolik madaniyatining nazariy modelida jam bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ushbu model shaxsning fuqaro sifatida shakllanganligi darajasini o‘rganishda nazariy asos bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishi bilan bog‘liq ilmiy muammoning ayrim aspektlari o‘tgan asr boshlaridayoq o‘rganilgan edi [1;42–45-b.]. Jumladan, amerikalik olim Ch.Merriam uni madaniy sintezning o‘ziga xos shakli sifatida tavsiflagan bo‘lsa [2;22-b.], siyosatshunoslar G.A.Almond va S.Verba fuqarolik madaniyatida siyosiy va huquqiy, axloqiy va estetik bilim va qadriyatlar organik tarzda qorishib ketishini ta’kidlagandilar [3;24-b.]. Biroq XXI asr boshlariga kelib, shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishi qonuniyatlarini yangi ijtimoiy voqelik kontekstida tadqiq qilish zaruriyati ortib ketdi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada shaxs fuqarolik madaniyati muammosiga murojaat qilishda, dastlab, umumiylik va xususiylik, tahlil qilishda modellashtirish, yanada aniqroq to‘xtamga kelishda analiz va sintez, muammo xususida yangi xulosalar berish uchun esa qiyosiy tahlil kabi mantiqiy metodlardan foydalanildi.


**Tahlil va natijalar.** Ma’lumki, “madaniyat deganda moddiy va ma’naviy qadriyatlar yig‘indisi, shuningdek, ularni yaratish usullari, ularni insoniyat taraqqiyoti yo‘lida qo‘llash, ajdodlardan avlodlarga yetkazish ko‘nikmasi tushuniladi” [4;162-b.]. Mutaxassislar madaniyatni moddiy va ma’naviy madaniyatga tasniflar ekanlar, ushbu shakllar jamiyatning kompleks madaniyatini namoyon qiladi. Uning turli ko‘rinishlari mavjudki, ular orasida shaxs madaniyati alohida o‘rin egallaydi. Shaxs madaniyati insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini, odam bolasining tuyg‘ulari, kechinmalari, bilimlari, tasavvurlari, qadriyatlari, malakalari, ko‘nikmalari va shu kabilarni ifodalaydi. Shaxs fuqarolik madaniyati uning siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa madaniyatlari xarakterini, shaxs tasavvurlari va qadriyatlarini, o‘zlashtirgan bilim va g‘oyalari, faoliyati normalarining Vatan va jamiyat manfaatlariga mos qismini o‘zida jamlovchi tushunchadi. Fuqarolik madaniyati shaxs umumiy madaniyatining alohida shakli yoxud ko‘rinishi emas. Bunday tasavvur noto‘g‘ri xulosalarga sabab bo‘ladi. U, ko‘proq, shaxsning ijtimoiy manfaatlariga mos bilim va qadriyatlarini yig‘indisini ifodalaydi. Uning boshqa madaniyat shakllari bilan qiyosi bu holatni yaqqol namoyon etadi.

Boshqa madaniyat shakllarining ham Vatan manfaatlariga dahldor qismi fuqarolik madaniyati tarkibiga kiradi. Bu aloqadorlikni sxematik ravishda tasvirlash ham mumkin (1-rasm).



**1-rasm. Fuqarolik madaniyati aloqadorligi.**

Shaxs fuqarolik madaniyati doimiy o‘zgarish va takomil jarayonida bo‘lgan fenomendir. Shunday ekan, uning mohiyatini o‘rganishda fuqaroning ongi va shuuriga, faoliyati va intilishlariga ta’sir ko‘rsatadigan turfa shart-sharoitlar va omillar ham tavsiflanmog‘i shart. Obyektiv shart-sharoitlar o‘zining turli-tumanligi va intensiv dinamikasi bilan xarakterlanadi. Ular jamiyatdagi tabiiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan shartlangan bo‘ladi. Fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi subyektiv omillar ijtimoiy tarbiya shakllari bilan bog‘liq. Bayon qilingan mulohazalar va ilmiy xulosalar asosida shaxs fuqarolik madaniyati nazariy modelini quyidagicha tasavvur qilish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Shaxs fuqarolik madaniyati nazariy modeli.

Shart-sharoitlar va omillar o'zgarishi fuqarolik madaniyati transformatsiyasiga sabab bo'ladi. Masalaning yana bir tomoni shundaki, shart-sharoit va omillar ta'siriga qarab fuqarolik madaniyatini baholovchi mezonlarni aniqlash mumkin.

Ilmiy ishlarda qilingan xulosalardan ma'lum bo'ladiki, fuqarolik madaniyati ong va faoliyatga xos elementlarning murakkab majmuidir. Bu elementlarning har biri o'z mazmuni va salmog'iga ega hisoblanadi. Bu elementlar asosida uning rivojlanganligi me'yorini o'lchovchi *mezonlarga* murojaat qilinadi. Shaxs fuqarolik madaniyati saviyasi quyidagilar asosida o'lchanadi:

- Vatan haqidagi tasavvurlarning mazmuni;
- ijtimoiy bilimlar mazmuni, xarakteri va hajmi;
- gumanistik g'oyalardan xabardorlik darajasi;
- fuqarolik qadriyatlarni o'zlashtirganligi holati;
- fuqarolik burch va majburiyatlarini bajarishi;
- ijtimoiy faolligi darajasi;
- vatanparvarlik bilan yo'g'rilgan xulq-atvori;
- milliy g'oyaga sodiqlik me'yori.

Shaxs fuqarolik madaniyati nuqul nazariy yoxud deklarativ xarakterga ega bo'lgan fenomen emas. U har qanday jamiyatda o'ta muhim va ahamiyatli funksiyalarni bajaradi. Mazkur funksiyalarning turlicha talqini uchraydi. Bu borada E.I.Salganova taklif etgan tasnifni ma'qul deb topdik, chunki bu tasnif fuqarolik madaniyatining ijtimoiy fenomen sifatidagi mohiyatini to'laroq ochib beradi [5;42–45-b.]. Shunday qilib, E.I.Salganova fikriga ko'ra, zamonaviy jamiyatda shaxs fuqarolik madaniyati quyidagi ahamiyatli va mazmunder funksiyalarni bajaradi:


- shaxsning muayyan tipini shakllantirish funksiyasi natijada fuqaroning ijtimoiy qiyofasida vatanparvarlik va millatparvarlik xususiyat salmoqli o'rin egallaydi;
- bilish funksiyasi natijada Vatan, jamiyat manfaatlarini, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi bilimlar inson hayotining mazmuni va maqsadi sifatida qat'iy va tizimli tus oladi;
- aksiologik funksiya natijada shaxsga Vatan va jamiyat manfaatlariga mos qadriyatlarni o'zlashtirish imkonini beradi va sodiqlik darajasi ortadi;
- normativ funksiya natijada fuqarolik burch va majburiyatlari doirasi hamda ijtimoiy majburiyatlar ijrosi shaxs uchun odatiy norma aylaniriladi;
- signifikativ funksiya fuqarolik madaniyati shaxsga yangi qadriyatlar mazmunini singdirib, ijtimoiy jarayonlar mohiyatini ilg'ab olishga, ularda ongli ravishda ishtirok etishga odatlantiradi;
- kommunikativ funksiya natijada shaxs jamiyatning boshqa a'zolari bilan ijtimoiy muloqot ishtirokchisiga aylanadi va ijtimoiy faollik darajasi yuksaladi;

▪axborot funksiyasi natijada shaxsning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy axborotlarni o‘zlash-tirishga bo‘lgan ehtiyojlari, ijtimoiy xabardorligi darajasi oshadi;

▪bo‘sh vaqtni to‘ldirish funksiyasi natijada shaxs bo‘sh vaqti mazmunini jamiyat manfaatlariga xiz-mat qiladigan, turli ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan tadbirlarga sarflashga ko‘nikadi [5;42–45-b.].

**Xulosa va takliflar.** Shaxs fuqarolik madaniyati ijtimoiy falsafaning ahamiyatli tushunchalaridan biri bo‘lib, u Vatan manfaatlarini bilan hamohang bo‘lgan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, mehnat, ekologik va boshqa bilim va tasavvurlar, qadriyat va normalarining shakllanganligi darajasini ifodalaydi. Uning nazariy modeli ong va faoliyatga tegishli bo‘lgan elementlarning murakkab sintezidan yuzaga keladi.

Shaxs fuqarolik madaniyatining shakllanishi jarayoni tadqiqi, birinchidan, uning mohiyatini ifodalashni (1-rasm), ikkinchidan, undagi o‘zgarishlarning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillarini umumlashtirishni (2-rasm), uchinchidan, shakllanganlik darajasini baholovchi mezonlari va jamiyat rivojlanishini ta‘milovchi funksiyalarini aniqlash imkonini beradi (3-rasm).



### 3-rasm. Shaxs fuqarolik madaniyatining mezonlari va funksiyalari.

Shaxs fuqarolik madaniyati nafaqat falsafiy g‘oyalarni yaxlit tizimga keltirish hamda ilmiy tasavvurlarni umumlashtirish, balki jamiyat a‘zolarini fuqaro sifatida kamol toptirish, ularni jamiyatni isloh qilish hamda rivojlangan mamlakatlar turkumiga kiritish bilan bog‘liq strategik maqsad va muddaolar atrofida birlashtirish vazifasini bajaradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Салганова Е.И. Гражданская культура как социальный феномен. “Вестник Челябинского государственного университета”, 2008, № 32, с. 42 – 45.
- (2). Merriam C. Civic Training in the United States. Chicago: University of Chicago Press, 1934, p. 22.
- (3). Алмонд Г., Верба С. Гражданская культура. Политические установки и демократии пяти наций. М., “Гардарики”, 2009, с. 24.
- (4). Спиркин А.Г. Философия. М., “Гардарики”, 2000, с. 162.
- (5). Салганова Е.И. Гражданская культура как социальный феномен. “Вестник Челябинского государственного университета”, 2008, № 32, с. 42 – 45.

**Boymatov Rustam (Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi)**  
**SIYOSIY E'TIQOD – SHAXS SIYOSIY IJTIMOYILASHUVNING MUHIM OMILI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada insonning eng muhim tuyg'ularidan biri hisoblangan e'tiqodning shaxs kamolotidagi ahamiyati tahlil qilingan. Ayniqsa, shaxsda siyosiy e'tiqodning shakllanishi va mustahkamlanishi shaxsning jamiyatda o'z o'rnini anglab yetishida muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ishonch-e'tiqod tuyg'usi, siyosiy e'tiqod, ruhiy-ma'naviy ehtiyoj, harakatga keltiruvchi kuch, siyosiy faoliyat stimuli, siyosiy pozitsiya.

**Бойматов Рустам (преподаватель Каршинского гос. университета)**  
**ПОЛИТИЧЕСКИЕ УБЕЖДЕНИЯ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ПОЛИТИЧЕСКОЙ  
СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ**

**Аннотация.** В данной статье анализируется значение веры, которая считается одним из важнейших чувств человека, в развитии личности. Особое внимание уделяется тому, что формирование и укрепление политических убеждений человека важно для понимания места человека в обществе.

**Ключевые слова:** чувство доверия, политическая вера, духовная потребность, движущая сила, стимул политической активности, политическая позиция.

**POLITICAL BELIEFS AS AN IMPORTANT FACTOR IN THE POLITICAL SOCIALIZATION  
OF AN INDIVIDUAL**

**Annotation.** This article analyzes the significance of belief, which is considered one of the most important feelings of a person, in the development of personality. Particular attention is paid to the fact that the formation and strengthening of political convictions in a person is important for understanding a person's place in society.

**Key words:** sense of trust, political belief, spiritual need, driving force, stimulus of political activity, political position.

**Kirish.** Insoniyatning ilk jamoalari vujudga kelgan davrdan boshlab, to bugungi zamonaviy davlatlargacha ijtimoiy adolatni ta'minlash eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu bejizga emas, albatta. Qaysi jamiyat odilona boshqarilgandagina, odamlarning orzu-umidlari, maqsad-muddaolari ro'yobga chiqqan. Shu bois ijtimoiy adolat, adolatli boshqaruv usuli haqidagi qarashlar barcha zamon va makon mutafakkirlari bosh qotirgan eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib keldi, bu boradagi izlanishlar hamon to'xtagani yo'q.

Jamiyatda ijtimoiy adolatning qaror topishi hamda odilona boshqariluviga erishish bir qator muhim jihatlarga bog'liq. Ana shunday muhim omillardan biri bu siyosiy e'tiqoddir. Zero, inson ishonchsiz, e'tiqodsiz biror maqsadga erisha olmaganidek, uning adolatli jamiyat haqidagi orzu, umidlarining ro'yobga chiqishida ham siyosiy e'tiqodi muhim o'ringa ega. Shunday ekan, siyosiy e'tiqod nima, u qanday shakllanadi, uning shaxs siyosiy ijtimoiylashuvdagi ahamiyatini ilmiy asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ishonch, e'tiqod tuyg'usi insonning eng teran ruhiy-ma'naviy ehtiyojidir. Ishonchsiz, e'tiqodsiz yashab bo'lmaydi. Qandaydir ideallarga, g'oyalarga ishonib, ularga intilmay yashagan umrning ma'nosi bo'lmaydi. Inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishi tufayli ilmiy va badiiy adabiyotda e'tiqod tushunchasiga juda ko'p murojaat etilgan. Turli adabiyotlarda e'tiqodning muhim jihatlari e'tibor qaratilgan. "Falsafa ensiklopedik lug'ati"da: "e'tiqod – odam ongi, ruhiyati bilan bog'lanib ketadigan, olamdagi narsa, hodisa, jarayonlarga alohida munosabatni qaror toptiradigan ma'naviy-ruhiy holat"<sup>1</sup> deyilsa, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "qattiq ishonch, dildan e'tirof etiluvchi tushuncha, nuqtayi nazar, qarash",<sup>2</sup> deya ta'rif berilgan. "E'tiqod – dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga bo'lgan ishonch",<sup>3</sup> deya ta'rif beriladi, "Vikipediya" lug'atida.

Faylasuf olim A.Erkayev esa: "E'tiqodning mazmunini bilim tashkil qiladi. E'tiqod – dunyoqarashning eng sobit, ichki ishonch va ehtiyojga, ixlos va a'molga aylangan qismi. Subyektiv ehtiyoj sifatida e'tiqod insonning xulq-atvori, harakatlari va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladi",<sup>4</sup> deya fikr yuritadi.

<sup>1</sup> Фалсафа. Энциклопедик луғат. Тошкент, 2010, 321-бет.

<sup>2</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com кутубхонаси. 68-бет.

<sup>3</sup> uz.m.wikipedia.org.

<sup>4</sup> Эркаев А. Эзгулик сари йўналтирилган ирода. "Tafakkur", 1997, 3-сон, 15-бет.

E'tiqodning turli ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular orasida siyosiy e'tiqod muhim o'ringa ega. Siyosiy e'tiqod shaxs siyosiy faoliyatining natijasi, uning siyosiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari hamda siyosiy xatti-harakatlarining hosilasidir. Shuningdek, "siyosiy e'tiqod tushunchasining dialektik tahlili shuni ko'rsatadiki, uning asosiy tarkibiy qismi siyosiy bilimdan iborat. Zero, siyosiy bilim siyosiy voqealarni teleran anglash hamda mustaqil tahlil etish imkonini beradi".<sup>1</sup> G'arbning aksariyat tadqiqotchilari, siyosiy e'tiqod tushunchasiga nisbatan quyidagicha yondashadi: "Siyosiy e'tiqod bu jamiyat farovonligiga qayg'u-rish, jamoat ishlariga fuqarolarning faol ishtiroki, toqatlilik va murosaga tayyorlik, shuningdek, siyosiy institutlarga ishonchdir".<sup>2</sup>

Shuningdek, yana ko'plab tadqiqotlarda davlat va siyosiy institutlarga, siyosiy yo'l boshchilarga, mahalliy rahbarlarga ishonch mexanizmi o'rganilgan.<sup>3</sup>

Ko'rinib turibdiki, e'tiqod insonning hayotiga maqsad, faoliyatiga stimuly beradi, siyosiy e'tiqod esa unda davlat olib borayotgan siyosatga, mamlakatning taraqqiyot yo'liga ishonch tug'diradi hamda siyosiy, ijtimoiy jarayonlarga ongli, faol, sitqidildan ishtirok etishini ta'minlaydi. E'tiqod, xususan, siyosiy e'tiqod tuyg'ulari o'ta murakkab xarakterga ega bo'lib, uning shakllanishi, mustahkamlanishi va namoyon bo'lishi ni aniq tasavvur qilishimizda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil metodlariga asoslanish maqsadga muvofiqdir.

**Tahlil va natijalar.** Inson huquqlarining, erkinligining, jamiyatning adolatparvarligining talablari-dan birini e'tiqod erkinligining ta'minlanganligi tashkil etadi. Chunki insonning o'zi xohlagandek yashashi uchun, yuksak rejalar tuzish, orzu-havaslar qilishi uchun ham uning tafakkuri erkin bo'lishi kerak. E'tiqod erkinligi, asosan, tafakkur erkinligi, faoliyat erkinligi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, shaxsning mohiyati fikrda mujassamdir. Odamning o'zligi, o'ziga xosligi, mavjudligi fikr orqali namoyon bo'ladi. Fikrlayotgan odam o'zining mavjudligini isbotlashga urinayotgan odamdir. Insonning mohiyati, buyuk yaratuvchilik qudrati fikr tufaylidir. Uning tomonidan yaratilgan barcha madaniyat namunalari, avvalo, fikr mahsulidir. Fikr to'xtagan va hamma bir xil fikrlay boshlagan joyda taraqqiyot ham to'xtaydi. "Dunyo fikr qilib bugun-gi taraqqiyotga erishdi. Dunyo fikr qilsa, ertaga taraqqiyotga erishadi. Fikr to'xtagan jamiyatda botiniy ta-nazzul boshlanadi".<sup>4</sup> E'tiqodli inson o'z fikriga ega bo'lgan, fikrlayotgan insondir. Qolaversa, fikrlash e'tiqodni o'zgartiradi, rivojlantiradi.

Siyosiy e'tiqodning shakllanishida bilim muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson nimaga ishona-yotganligini bilishi kerak. Bilim e'tiqodga aylanishi uchun shaxs uni anglab yetishi, fahmlashi, tushunishi, o'rganilayotgan bilimlardan dunyoqarashni kengaytiradigan xulosalar chiqara bilishi lozim. Bilim e'tiqod-ga aylangandagina amaliy xarakterga ega bo'ladi va inson faoliyatida namoyon bo'ladi. Mohiyatini anglab yetmagan, sababini tushunmagan va oqibatini tasavvur qilmagan narsalar haqida qat'iy ishonch, e'tiqod hosil bo'lmaydi. Biror voqea va hodisalarni bilishga bo'lgan qiziqish, intilishning sababi ham u haqdagi aniq ma'lumotlarga ishonch hosil qilishdan iboratdir. Shu bois siyosiy voqelik mohiyatini anglab yetganda hamda uning adolatli, insonparvarligiga ishonch hosil bo'lgachgina, siyosiy e'tiqod shakllanadi va siyosiy tizimga nisbatan sadoqat ko'rsatiladi.

Shuningdek, siyosiy e'tiqodning shakllanishida ijtimoiy-siyosiy ideal, ya'ni, orzudagi mukammal ij-timoiy tuzum, adolatli jamiyat, "fozil odamlar shahri" hamda adolatparvar, yetuk yo'l boshchi, rahbar shaxsi haqidagi tushunchalar, g'oyalarning ham ahamiyati katta. "Inson va jamiyat ma'lum bir g'oyalar, maqsad-lar va rejalar asosida taraqqiy etib keladi. Ayrim shaxslar uzoqqa qaratilgan maqsadsiz va rejalarsiz yasha-shi mumkin, lekin buyuk kelajakka intilayotgan xalq, millat buyuk g'oyalarsiz, orzu-umidlarsiz – idellarsiz yashay olmaydi".<sup>5</sup> Ana shu ideallarga ishonch, sadoqat esa siyosiy e'tiqodning muhim komponentiga aylana-di.

Siyosiy e'tiqod shaxsning siyosiy hokimiyatga, davlatning ichki va tashqi siyosatiga hamda siyosiy liderlarga munosabatida o'z ifodasini topadi. Umuman shaxsning siyosat va iqtisod, davlat va jamiyat haqi-dagi, shuningdek, uning huquq va erkinliklar, ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Shaxs siyo-siy e'tiqodining shakllanishida jamiyatdagi siyosiy erkinlik, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy adolat, kishilar-niing mamlakat siyosiy hayotidagi ishtiroki uchun yaratilgan imkoniyat, huquqiy tartibot, siyosiy tarbiya kabi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi.

<sup>1</sup> Чориев С. Сиёсий билим самараси. "Tafakkur", 2002, 1-son, 115-bet.

<sup>2</sup> <https://www.hse.ru/org/hse/44321>

<sup>3</sup> Данкин Д.М. Доверие. Политический аспект. Безопасность Евразии. М., 1999; Лукин В.Н. Политическое доверие в современном гражданском обществе: культурологические и институциональные модели. Credo New, 2005, № 3.

<sup>4</sup> Эшонкул Н. Мендан "мен"гача. Тошкент, "Akademnashr", 2014, 14-бет.

<sup>5</sup> С.Агзамхўжаева. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. Тошкент, 2007, 5-бет.

Siyosiy e'tiqod shaxs tomonidan ilg'or g'oyalarning o'zlashtirilganligini, uning tafakkur darajasini, faoliyat motivlarini xarakterlovchi ijtimoiy fazilatdir. Ana shu fazilatlar shaxs siyosiy e'tiqodini mustahkamlaydi. Siyosiy e'tiqodi butun odamgina mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyatga to'g'ri siyosiy pozitsiyadan turib xolisona baho bera oladi. Siyosiy e'tiqodi yuksak shaxsgina xalq taqdiriga befarq bo'lmaydi, kerak bo'lsa, yurti uchun, xalqi uchun jonini ham fido qila oladi. Siyosiy bilimlarining siyosiy e'tiqodga aylanishi shaxsni ijtimoiy-siyosiy faoliyatga undaydi, ya'ni faoliyat e'tiqodga, e'tiqod faoliyatga aylanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, faqat dunyoviy davlat, demokratik jamiyatdagina e'tiqod erkinligi bekmu ko'st ta'minlanadi. Demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlagan mamlakatimizda ham e'tiqod va vijdon erkinligi ta'minlanib, Konstitutsiyamiz orqali vijdon erkinligi hamda fikrlar xilma-xilligi kafolatlangan.

Shiddatli o'zgarishlar, yangilanishlar, buzish va tuzatishlar zamonida yashayapmiz. Har kuni dunyoda sodir bo'layotgan ko'plab olamshumul voqealar, g'oyaviy-siyosiy kurashlar to'g'risida turli axborot vositalari orqali eshitayapmiz, ko'ryapmiz. Dunyo hamjamiyatining tarkibiy qismi bo'lgan yurtimizda ham katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Mamlakatimizda demokratik jamiyat qurish yo'lidagi siyosiy islohotlar davom ettirilmogda. Ushbu o'zgarishlar mohiyati anglab yetish uchun ham, unga munosib hissa qo'shish uchun ham shaxsdan mustahkam siyosiy e'tiqod talab etiladi. Mustahkam siyosiy e'tiqod shaxsda qat'iy siyosiy pozitsiyani shakllantiradi. O'z navbatida, ana shunday qat'iy pozitsiyaga ega bo'lganlarga siyosiy voqealarga izchil, ilmiy baho bera oladi. Chunki siyosiy e'tiqod har qanday siyosiy pozitsiyaning asosini tashkil etadi.

Har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan, ularni siyosiy faoliyat ko'rsatishga rag'batlantiradigan demokratik jamiyatda har bir fuqaro siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Siyosiy jabhadagi har qanday o'zgarishlar bevosita o'z hayotiga ta'sir etishini anglab yetadi. Shu bois demokratik o'zgarishlar ancha kuchaygan, ayniqsa, fikr va so'z erkinligi ta'minlanganligi tufayli bugungi kunda xalqimizning siyosiy voqealarga munosabati ancha kuchaydi. Bugun, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy voqea-hodisalar to'g'risidagi turlicha fikr-mulohazalar, qizg'in bahs-munozaralarni kuzatyapmiz. Ularning barchasiga ham qo'shilib bo'lmasa-da, ammo fuqarolarning fikrlayotgani yaxshi, ularning yurt taqdiriga befarq emasligi ahamiyatli. Bunda ham ularning iymoni, e'tiqodi, xususan, siyosiy e'tiqodi o'zini namoyon etmogda.

**Xulosa.** Shunday qilib, siyosiy e'tiqod – shaxs siyosiy bilimlarini, shaxsning o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu bilimlarga bildirgan munosabatini, shu bilimlarga asosan, faoliyat ko'rsatish istagini jamlaydi. U shaxs siyosiy faoliyatining regulatori sifatida siyosiy munosabatlarda, shaxs siyosiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Siyosiy e'tiqodli shaxsgina o'zining jamiyatdagi vazifasi va o'rnini anglab yetadi. Shuning uchun siyosiy e'tiqod shaxs siyosiy yetukligining asosidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Фалсафа. Энциклопедик луғат. Тошкент, 2010, 321 бет.
- (2). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com кутубхонаси. 68-бет.
- (3). Эркаев А. Эгулик сари йўналтирилган ирода. “Tafakkur”, 1997, 3-со. 15-бет.
- (4). Чориев С. Сиёсий билим самараси. “Tafakkur”, 2002, 1- 115-бет.
- (5). Эшонкул Н. Мендан “мен”гача. Тошкент, “Akademnashr, 2014.
- (6). Данкин Д.М.Доверие: Политический аспект. Безопасность Евразии. М., 1999. Лукин В.Н.Политическое доверие в современном гражданском обществе: культурологические и институциональные модели. Credo New. 2005, № 3.
- (7). С.Агзамхўжаева. Ижтимоий идеал ва маънавий ҳаёт. Тошкент, 2007, 5-бет.
- (8). <https://www.hse.ru/org/hse/44321>
- (9). [uz.m.wikipedia.org](http://uz.m.wikipedia.org).

**Mamatqulova Nilufar Xusanovna (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi;**

**[mamatqulovanilufar1991@bk.ru](mailto:mamatqulovanilufar1991@bk.ru)**

**XUAYAN MAKTABI (XUAYAN SZUN) FALSAFIY TA'LIMOTINING KONSEPTUAL TAHLILI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xuayan maktabining rivojlanishi tarixi va falsafiy ta'limoti haqida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, Xuayan maktabining Uzoq Sharq falsafiy tafakkuri rivojiga ta'siri bayon qilingan.*



**Kalit soʻzlar:** *Xitoy Buddaviyiligi, Xuayan maktabi (Xuayan szun), Budda, Shakyamuni, "Xuayan szin" ("Avatamsaka sutra"), Fa-szan, Bodxixarma, Xuey-nen.*

**Маматкулова Нелюфар Хусановна** (исследователь Ташкентского государственного университета Востоковедения; [mamatqulovanilufar1991@bk.ru](mailto:mamatqulovanilufar1991@bk.ru))

### **КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ ШКОЛЫ ХУАЯНЬ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается история и философское учение школы Хуаянь. Также описано влияние школы Хуаянь на развитие дальневосточной философской мысли.

**Ключевые слова:** китайский буддизм, школа Хуаянь (Хуаянь сюнь), Будда, Шакьямуни, «Хуаянь син» («Аватамсака сутра»), Фа-сзан, Бодхичарма, Хуэй-нэн.

### **CONCEPTUAL ANALYSIS OF HUAYAN SCHOOL PHILOSOPHICAL EDUCATION**

**Annotation.** This article discusses the history and philosophical teachings of the Huayan School. Also, the influence of the Huayan school on the development of Far Eastern philosophical thought is described.

**Key words:** Chinese Buddhism, Huayan School (Huayan szun), Buddha, Shakyamuni, "Huayan szin" ("Avatamsaka Sutra"), Fa-szan, Bodhicharma, Hui-nen.

**Kirish.** Xuayan maktabi – xitoy buddaviyiligining falsafiy yoʻnaltirilgan yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Bu holat uni boshqa maktablar tomonidan aybalanishiga sabab boʻlgan. Ular Xuayan maktabini oʻz nazariy taʼlimotlariga sodiqligi uchun buddaviylikning diniy amaliyotini mensimaslikda ayblangan.

Xuayan maktabi oʻz nomini taʼlimot asoslangan sutraning nomlanishidan olgan. "Xuayan szin" ("Avatamsaka sutra") – milodning boshlarida birlashtirilgan bir necha sutralarning jamlanmasidan iborat (Markaziy Osiyoda jamlangan boʻlishi kerak). Xuayan maktabi uchun ularning ichida eng muhimi "Gandavioxa sutra" hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mashhur olimlar O.O.Rozenbergning "Труды по буддизму" hamda Xuan Chanxuaning "Xitoy buddaviyiligi maktablari taʼlimotlarining mohiyati" asarlari metodologik manba sifatida foyladanildi. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida Xitoy buddaviyiligi Xuayan maktabining rivojlanishi tarixi va falsafiy taʼlimoti jihatlarini obyektiv ochib berildi.

**Muhokama va natijalar.** Xuayan falsafasining boshlangʻich nuqtasi va doktrinal asosi – xudo Indraning qimmatbaho toʻri timsoli hisoblanadi, bu jihat "Gandavyuxa sutrasi"da tavsiflangan. Ushbu toʻr qimmatbaho toshlar-dan iborat iplardan toʻqilgan boʻlib, har bir toshda boshqa barcha toshlar aks etgan, oʻz navbatida, oʻsha tosh boshqa toshlarda ham oʻz aksini topgan. Xuayan tarafdorlari bu timsolda "Dharma dunyosi", yaʼni yagona va bir butun uni-versumni qiyofasini koʻrishgan. Xuayan taʼlimotini oʻz shogirdlariga tushuntirar ekan, Fa-szan oʻnta koʻzguni Budda haykali atrofiga doira shaklida joylashtirib chiqqan, natijada Budda haykali bu koʻzgularda cheksiz darajada namoyon boʻlgan (Bunday turdagi ekpozitsiyalarni Xitoydagi zamonaviy buddaviylik ibodatxonalarida ham koʻrish mumkin). Yuqorida qayd qilingan misol Xuayan maktabining toʻrt asosiy qoidalaridan biri "barcha narsa bittada va bitta narsa barchada namoyon" – har bir unsurda butun dunyo va bu unsur – boshqa har bir unsurda namoyon boʻlishi qoidasini isbotlaydi.<sup>1</sup>

Yuqorida qayd qilingan qoidalar xuayan maktabi mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilib, quyidagi ikki doktrina yordamida mukammal diniy-falsafiy tizimga aylantirildi: tamoyillar va fenomenlarning oʻzaro bir-biriga zid kelmasligi (lishi uay); ikkinchisi esa fenomenlarning oʻzaro bir-biriga zid kelmasligi (shishi u ay). Bu doktrinalarni koʻrib chiqishdan avval Xuayan maktabi mutafakkirlari tamoyil (li) va fenomen (shi) tushunchalari deganda nimani tushunishlarini aniqlab olish zarur.

Tamoyil (li) tushunchasining kelib chiqishi konfutsiychilikning miloddan avvalgi III asrda yashagan mutafakkiri Syun-szi va miloddan avvalgi III–IV asrda faoliyat koʻrsatgan daos-konfutsiychilik maktablari-ning sinkretik falsafasi – syuan-syuegaga borib taqaladi. Lekin bu tushuncha Xuayangacha markaziy falsafiy kategoriya sifatida ahamiyatga ega boʻlmagan. Keyinchalik XI–XII asrlarda faoliyat koʻrsatgan Chen Xao, Chen I va Chju Si kabi neokonfutsiychi faylasuflar li kategoriyasini Xuayan maktabidan olib, oʻz taʼlimotlarni ushbu kategoriya atrofida shakllantirdilar hamda oʻz tizimlarini "tamoyilshunoslik" (li syue) deb nomladilar.<sup>2</sup>

Kundalik hayotda li soʻzi dastlab dalalarni chegaralash, keyinchalik esa qimmatbaho toshlarga ishlov berish, silliqlash, qirralash maʼnolarini anglatgan. Dastlabki vaqtlardanoq ushbu soʻzda tartibga solish,

<sup>1</sup> Чебунин А.В. История проникновения и становления буддизма в Китае [монография]. Улан-Удэ, изд. Полигр. комплекс ФГОУ ВПО ВСГАКИ, 2009, с. 73.

<sup>2</sup> Ch'en K.K.S. Buddhism in China. A Historical Survey. Princ., 1964, p. 98.

shakl berish, tuzilishini o'zgartirish kabi ma'nolar aks etgan. Shundan kelib chiqib, keyinchalik, li so'zi tamoyil, qoida, me'yor, aqllilik, ma'no, sabab kabi ma'nolarni o'zida ifodalagan. Falsafada esa ushbu so'z aqlga tayangan tizim va shakl tashkil qiluvchi tamoyil ma'nosini ifodalaydi. Zamonaviy xitoy tilida aqlga muvofiqlik tushunchasi "xeli" so'zi orqali ifodalanadi, buning tarjimasini – tamoyilga muvofiq keluvchi, "li"-ga muvofiq keluvchi ma'nolarini anglatadi.

Shi so'zi ikkita asosiy ma'noga ega: 1) ish va 2) fe'l sifatida xizmat qilmoq. Falsafiy matnlarda shi so'zi dastlab u (narsa, mavjudot) so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan. Bu esa doimiy o'zgarish jarayonida (i) bo'lgan ishlarni narsalar sifatida qarashdan kelib chiqqan. Bundan kelib chiqadigan bo'lsa, li qandaydir abadiy va o'zgarmas tamoyil g'oyasini o'zida ifodalasa, shi uning muvaqqat, joriy, o'zgaruvchan qiyofasi hisoblanadi. Ushbu yuqorida ko'rib chiqilgan tushunchalar Xuayan buddaviylik falsafasining asosiy aqidalari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi.

Xuayan falsafiy tizimida yuqorida ko'rib chiqilgan ikki tushuncha buddaviylik falsafiy tizimga kiritilgan. Mashhur rossiyalik buddaviyshunos O.O.Rozenbergning fikricha, li tamoyili, haqiqatdan ham, mavjud bo'lgan real voqelikni o'zida ifodalaydi. "Narsa-hodisalar" (shi) – empirik voqelikning unsurlari bo'lib, tamoyilning namoyon bo'lishi, dxarmaning ularning ifodasida aks etishi hisoblanadi. Nirvana va sansaraning fundamental aynanligi haqidagi Maxayana yo'nalishining aqidalaridan kelib chiqqan holda, Xuayan maktabi faylasuflari tamoyil va narsalar(fenomen)ni nafaqat uzviy bog'liq jarayon hisoblashadi, balki fenomen (hodisa)ning mohiyatan ibtidosi – bu tamoyilning namoyon bo'lishi, tamoyilning o'z borlig'idan chiqib, sababiy shartlangan omillar dunyosiga o'tishini bildiradi. Shuning uchun hodisalar tamoyildan tabiatan mustaqil emaslar, agar tamoyil narsalarda aks etsa, o'z navbatida, narsalar tamoyil tabiatiga ega bo'ladi.<sup>1</sup>

Li-shi u ay maxayananing umumiy qoidalariga to'liq muvofiq kelsa, shi-shi uay Xuayan buddaviyligining hosilasi hisoblanadi.

Fenomenlar tamoyil tabiatiga ega ekan, o'zlarida uning atributlarini namoyon qiladilar, xususan, cheksizlik atributiga ham ega bo'ladi. Kelib chiqadiki, har bir fenomen, har bir unsur, har bir dxarma o'z tabiatga ko'ra, cheksiz va umumlashtiruvchi xususiyatga egadir: "Har bir gul o'zida Buyuk Aravaning barcha sutralari donishgmandligini aks ettiradi".

Butun empirik dunyo – o'zaro tarkiblariga kiruvchi fenomenlar, cheksizlarning bir butuni, tizimi hisoblanadi (Indra ma'budining to'ri obrazi). Gang daryosining bir qum zarrasi tarkibida cheksiz Gang daryolari bo'lgan cheksiz dunyolar mavjud, bir soch tolasida butun bir oltin arslon mavjud bo'ladi (Fa-szaning imperatrisaga tushuntirgan ta'limotidan olingan). Zamonaviy fandan iqtisbos oladigan bo'lsak, gologrammada har bir bo'lak o'zida butunning xususiyatlarini aks ettiradi; golografiya tamoyili yangi ilmiy paradigmaning shakllanish jarayonida muhim o'rin tutmoqda va ilmiy bilish, fan metodologiyasi sohalarining aksariyat mutaxassislari unga qiziqish bildirmoqdalar. Dunyo real voqelikda – tamoyilning yagona bir butun tizimi bo'lib, narsalarda aks etadi, narsalar esa o'zida qolganlarini aks ettiradi. Bu dunyo (dxarmaxashu fa sze) – Budda Vayrochana timsolida mujassamlashgan Buddaning tanasi bo'lib, Yagona Aqlni tashkil qiladi va u mavjudotlarning tanlanganlarining aql-shuurida namoyon bo'ladi.<sup>2</sup>

Xuayan maktabi o'z ta'limotini eng mukammal va to'liq Buddaviylik ta'limoti deb biladi hamda o'z ta'limotini Yagona Arava deb nomlaydi. Xuayan ta'limotining boshqa buddaviylik maktablaridan ustunligi shunchaki uning izdoshlari tomonidan e'lon qilinmaydi, balki ta'limotlarning tasniflashtirish (pan szyao) bo'yicha an'anaviy doksografik va tarixiy-falsafiy matnlar asosida isbotlanadi.

Bunday birinchi matn ("Besh ta'limot haqidagshi ta'limot", "U szyao chjan") Fa-szan tomonidan yozilgan. U o'z ta'limotida xalq buddaviyligi (karma doktrinasi), Xinayana, Maxayananing ikki maktabi – yogachara va madxyamaka, shuningdek, Xuayan ta'limotlarini tahlil qilib chiqdi. Fa-szan ushbu ta'limotlarning haqiqiyli va to'liqligini ularda "men" (vo: bu yerda – ong, subyekt, birlik) va dxarma (fa: bu yerda – narsalar, obyektlar, ko'plik) o'rtasidagi o'zaro munosabat muammosining qanday hal qilinishiga qarab belgiladi, natijada Fa-szan quyidagi xulosaga keladi:

Xalq buddaviyligi (keyinchalik, "insonlar va xudolar" ta'limoti deb nomlangan, ushbu ta'limot ruhning ozod bo'lishini emas, balki uni inson yoki xudo qiyofasida tug'ilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi): "men" ham, dxarma ham mavjudligini ilgari suradi. Xinayana esa: "men" yo'q, dxarma mavjudligini ilgari suradi. Maxayana ta'limotida esa: 1) yogachara: "men" mavjud, dxarma yo'qligini; 2) madxyamaka esa: "men" ham, dxarma ham mavjud emas, balki ular orasidagi munosabat mavjudligini ilgari suradi. Xua-

<sup>1</sup> Розенберг О.О. Труды по буддизму. М., 1991, с. 78.

<sup>2</sup> Розенберг О.О. Труды по буддизму. М., 1991, с. 86.

yan (Ekayan) esa: “men” ham mavjud, dxarma ham mavjud, lekin ular orasida ziddiyat yo‘q, ular orasidagi muxolifat olib tashlangan.

Bu sxemada ikki xil holat muhim. Birinchidan, uning dialektik aloqadorlikda ekanligi. Dastlab, ikki tezis ham tan olinadi, keyin esa ulardan biri tan olinadi, so‘ng ular har ikkisi ham inkor qilinib, ular orasidagi munosabatning realligi tasdiqlanadi, nihoyat, ikki tamoyil ham tasdiqlanib, ular orasidagi munosabat (ularning muxolifati, yoki ularning o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilishi) inkor qilinadi. Ikkinchidan, Buddaviylik psixologiyasi (“men”, dxarma) tushunchalari bu yerda mumtoz abxidxarma ta‘limotlaridan ancha uzoq mohiyatda, yogachar ta‘limotiga yaqin mohiyatda istifoda qilinadi. Ma‘lumki, yogacharada “men” tushunchasi ostida empirik obyekt bilan bog‘liq bo‘lgan empirik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.<sup>1</sup>

Xuayan maktabining Fa-szan tomonidan ilgari surilgan eng oliy nuqtayi nazari – Dxarma olami konsepsiyasi hisoblanadi. Dxarma olamida subyekt (chju – “xo‘jayin” yoki shi – bu) ham, obyekt (ke – “mehmon” yoki bi – u) ham, birlik ham, ko‘plik ham birgalikda mavjud bo‘lib, ular orasida qarama-qarshi-lik yoki o‘zaro istisno qilish mavjud emas, ular o‘zlari borligicha mavjuddirlar. Fa-szanning tasniflashini Xuayan maktabining beshinchi rahbari bo‘lgan Szun-mi (780–841) to‘ldirgan va rivojlantirgan. Szun-mi Chan maktabining Xotsze an‘analarini saqlovchi ham hisoblanadi. U yuqorida qayd qilingan ta‘limotlar qatorida konfutsiychilik va daosizmga ham ta‘rif bergan va ularni eng quyi va tashqi ta‘limot(vaydao) sifatida baholagan.

**Xulosa.** Xuayan maktabi Xitoy buddaviyligining mustaqil yo‘nalishi sifatida IX asrning ikkinchi yarmida tanazzulga yuz tutadi. Chan maktabi Xuayan maktabining falsafiy ta‘limotini Chan maktabi o‘zining mushohada amaliyotining nazariy asosi sifatida Xuayan maktabining falsafiy ta‘limotiga tayangan. Szun-mi Chan maktabining mushohada amaliyotiga asos solgan. Xuayan maktabining ta‘limoti Chan maktabi ta‘limoti doirasida hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Xuayan maktabi Koreyada (Xvaom) va Yaponiyada (Kegon) cheklangan tarzda tarqalgan. Bugungi kunda Xitoy va Yaponiyada bittadan xuayan ibodatxonasi mavjud bo‘lib, xuayan falsafasini Chan (Dzen) maktablarining ko‘p sonli ibodatxonalarida izchil o‘rganish davom etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (references):

- (1). Чебунин А.В. История проникновения и становления буддизма в Китае [монография]. Улан-Удэ, изд. полигр. комплекс ФГОУ ВПО ВСГАКИ, 2009, с. 73.
- (2). Ch'en K.K.S. Buddhism in China. A Historical Survey. Princ, 1964, p. 98.
- (3). Розенберг О.О. Труды по буддизму. М., 1991, с. 78.
- (4). Huai-Chin, Nan (tr. Thomas Cleary). The Story of Chinese Zen. Charles E. Tuttle Company, 1995, p. 34.
- (5). McRae, John R. Seeing through Zen: Encounter, Transformation, and Genealogy in Chinese Zen Buddhism. Berkeley: University of California Press, 2004, p. 69.
- (6). 换产花。佛小个迅带 Xuan Chanxua. Fotszyao geszun da i (Xitoy Buddaviyligi maktablari ta‘limotlarining mohiyati). Taybey, 1973, 142-bet.
- (7). Кацуки С. Дзэн-Буддизм: Основы Дзэн-Буддизма. Практика Дзэн. Бишкек, МП «Одиссей», 1993.

---

<sup>1</sup> Розенберг О.О. Труды по буддизму. М., 1991, с. 89.

Mamanazarova Gulhayo Ilhamjanovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti o'qituvchisi;  
[ilxamjanovnaguli1995@mail.ru](mailto:ilxamjanovnaguli1995@mail.ru))

### KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning zamonaviy muammolari ko'rib chiqiladi. Kognitiv tilshunoslik – bu inson ongining til bilan bog'liq jihatlarini o'rganadigan ilmiy yo'nalish bo'lib, so'nggi yillarda katta rivojlanish va qiziqishlarga sabab bo'ldi. Maqolada kognitiv tilshunoslikda eng dolzarb masalalar, jumladan, til va ongning o'zaro ta'siri, tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri, metafora va ramziy ifodalarning tahlili, til o'rganish jarayonlari, ko'p tillilik va tilning nevrologik asoslari kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuningdek, maqolada zamonaviy tadqiqot metodlari va bu sohada yangi yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ushbu maqola kognitiv tilshunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar va talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, til va ong, metafora tahlili, ramziy ifodalar, til o'rganish jarayoni, ko'p tillilik, nevrologik tilshunoslik, zamonaviy tadqiqot metodlari.

Мамааназарова Гулхайо Илхамджановна (преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков; [ilxamjanovnaguli1995@mail.ru](mailto:ilxamjanovnaguli1995@mail.ru))

### СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные проблемы когнитивной лингвистики. Когнитивная лингвистика – это научная область, изучающая аспекты человеческого разума, связанные с языком, которая в последние годы вызвала большое развитие и интерес. В статье рассматриваются наиболее актуальные вопросы когнитивной лингвистики, в том числе взаимодействие языка и сознания, влияние языка на когнитивные процессы, анализ метафор и символических выражений, процессы изучения языка, полиязычие, а также нейробиологические основы языка. Также в статье представлена подробная информация о современных методах исследования и новых подходах в этой области. Эта статья может быть полезна исследователям и студентам, занимающимся исследованиями в области когнитивной лингвистики.

**Ключевые слова:** когнитивная лингвистика, язык и сознание, анализ метафор, символические выражения, процесс изучения языка, полиязычие, нейролингвистика, современные методы исследования.

### MODERN PROBLEMS OF COGNITIVE LINGUISTICS

**Annotation.** This article examines contemporary issues of cognitive linguistics. Cognitive linguistics is a scientific field those studies aspects of the human mind related to language, which has been the cause of great development and interest in recent years. The article discusses the most relevant issues in cognitive linguistics, including the interaction of language and consciousness, the influence of language on cognitive processes, the analysis of metaphors and symbolic expressions, language learning processes, multilingualism, and the neurological basis of language. Also, the article provides detailed information about modern research methods and new approaches in this field. This article may be useful for researchers and students doing research in cognitive linguistics.

**Key words:** cognitive linguistics, language and consciousness, metaphor analysis, symbolic expressions, language learning process, multilingualism, neurological linguistics, modern research methods.

**Kirish.** Kognitiv tilshunoslik – bu til va kognitsiya, ya'ni, inson ongining bir-biriga ta'sir qiluvchi jihatlarini o'rganadigan ilmiy soha. Bu yo'nalish XX asrning oxirlarida shakllangan va hozirgi kunda tilshunoslik, psixologiya, nevrologiya, antropologiya kabi fanlar orasida o'ziga xos o'rin egallagan. Kognitiv tilshunoslik insonning tildan foydalanish jarayonida qanday kognitiv mexanizmlarga asoslanishini, til va ongning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Ushbu kirish qismida biz kognitiv tilshunoslikning tarixi, uning asosiy yo'nalishlari va zamonaviy muammolarini ko'rib chiqamiz. Kognitiv tilshunoslikning shakllanishi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi psixologiya va lingvistika tadqiqotlariga borib taqaladi. Ushbu davrda tilni o'rganish va ongni tahlil qilish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borildi. XX asrning o'rtalariga kelib, Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan generativ grammatika nazariyasi kognitiv tilshunoslikning rivojlanishida muhim bosqich bo'ldi. Chomsky tilning universal grammatik qoidalarini o'rganish orqali til va ong o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

1970–1980-yillarda George Lakoff va Mark Johnson kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual metafora nazariyasi kognitiv tilshunoslikning yana bir muhim yo'nalishi hisoblanadi. Bu nazariya

tilning metaforik tabiati va metaforalarning inson kognitiv jarayonlariga ta'sirini o'rganadi. Ushbu davrda kognitiv tilshunoslik antropologiya, nevrologiya va psixologiya kabi boshqa fanlar bilan hamkorlikda rivojlandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Kognitiv tilshunoslik bo'yicha o'zbek adabiyotlari hali keng rivojlanmagan, ammo ayrim tadqiqotchilar va olimlar bu sohada qiziqarli ishlar olib bormoqdalar. Quyida keltirilgan adabiyotlar o'zbek tilida kognitiv tilshunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va ishlarni o'z ichiga oladi: Xoliqov B. «Kognitiv tilshunoslik asoslari» (Ushbu kitob kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslarini o'zbek tilida tushuntiradi. Til va kognitsiya o'rtasidagi munosabatlar, til o'rganish jarayonlari va metafora tahlili kabi mavzularni qamrab oladi) [8], Qo'chqorova G. «Til va ong. Kognitiv tilshunoslik muammolari» (Qo'chqorovaning asari o'zbek tilida kognitiv tilshunoslikdagi dolzarb muammolarni yoritadi. Kitobda til va ong o'rtasidagi munosabatlar, tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri va zamonaviy tadqiqot metodlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan) [6], Matkarimov U. «Metaforalar va kognitiv lingvistika» (Ushbu ishda metaforalar va ularning kognitiv tahlili muhokama qilinadi. Matkarimovning kitobi kognitiv tilshunoslikdagi metafora tahlilining o'zbek tilida olib borilgan misollarini ko'rib chiqadi) [4], Nazarov Q. «Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy tadqiqot usullari» (Nazarovning kitobi kognitiv tilshunoslikda qo'llaniladigan zamonaviy tadqiqot usullari va ularning qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Kitobda eksperimental metodlar, korpus tahlili va psixolingvistik tadqiqotlar haqida ma'lumotlar berilgan) [5], Yuldasheva D. «Ko'p tillilik va kognitiv jarayonlar» (Ushbu kitobda ko'p tillilik va uning kognitiv jarayonlarga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Yuldashevaning asari o'zbek tilida ko'p tillilikning nevrologik asoslari va kognitiv tahliliga bag'ishlangan) [9].

**Tahlil va natijalar.** Kognitiv tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari qatoriga til va ong o'rtasidagi munosabatlar, tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri, metafora va ramziy ifodalarning tahlili, til o'rganish jarayonlari, ko'p tillilik va tilning nevrologik asoslari kiradi.

Bugungi kun kognitiv tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari zamonaviy muammolar sifatida qabul qilinib, ular quyidagilardir:

– til va ong o'rtasidagi munosabatlar: kognitiv tilshunoslikda til va ongning qanday o'zaro ta'sir qilishi muhim masalalardan biridir. Bu yo'nalishda tadqiqotchilar til orqali ongning qanday shakllanishini va ongning tilga qanday ta'sir qilishini o'rganadilar. Masalan, til orqali insonning dunyoqarashi va kognitiv qobiliyatlari qanday shakllanadi?;

– tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri: til insonning kognitiv jarayonlariga, jumladan, xotira, diqqat, fikrlash kabi jarayonlarga qanday ta'sir qiladi? Ushbu savollar kognitiv tilshunoslikda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tilning tuzilishi va foydalanish usullari insonning kognitiv jarayonlariga bevosita ta'sir qilishi mumkin;

– metafora va ramziy ifodalarning tahlili: metaforalar va ramziy ifodalar inson kognitsiyasida muhim rol o'ynaydi. George Lakoff va Mark Johnsonning konseptual metafora nazariyasi bu sohada katta ahamiyatga ega. Metaforalar insonning dunyoqarashi va fikrlash usullarini qanday shakllantiradi? Bu savol ham kognitiv tilshunoslikda dolzarbdir;

– til o'rganish jarayonlari: til o'rganish jarayonlari ham kognitiv tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bolalar tilni qanday o'rganadi va bu jarayon qanday kognitiv mexanizmlar orqali amalga oshadi? Michael Tomasello va boshqa olimlar bu sohada qator tadqiqotlar olib bormoqda;

– ko'p tillilik va tilning nevrologik asoslari: ko'p tillilik insonning kognitiv qobiliyatlariga qanday ta'sir qiladi? Tilning nevrologik asoslarini o'rganish orqali til va miya o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar tilshunoslik va nevrologiya fanlarining kesishmasida joylashgan.

Kognitiv tilshunoslik, V.Z.Demyankov va E.S.Kubryakova tomonidan ta'riflanganidek, tilni axborotni kodlash va o'zgartirishda rol o'ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o'rganadi. N.N.Boldirev kognitiv tilshunoslikni «tilni turli xil psixik tuzilmalar va jarayonlar: diqqat, idrok, xotira bilan o'zaro ta'sirida o'rganadigan lingvistik tadqiqotlarning eng zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlaridan biri» deb ta'riflaydi [11]. Ushbu sohadagi tadqiqot obyekti «bilimning turli tuzilmalari va lingvistik usullar va ularni qayta ishlash, saqlash va uzatish mexanizmlari, atrofda dunyoni bilish va konsepsiyalash usullari va ularning til birliklari va kategoriyalarida aks etishi» deb ta'riflanadi [10;175-b.].

Kognitiv tilshunoslik til tahlilini nutq tahlili, tegishli leksemalardan foydalanishning turli kontekstlari, matnlarda qayd etilgan tushuncha haqidagi mulohazalar, turli lug'atlar va ma'lumotnomalarda berilgan ta'riflar, frazeologizmlar, maqollar, matallar, aforizmlar tahlili bilan to'ldiradi. qaysi tushuncha ifodalanadi.

Ushbu tadqiqot kognitiv tilshunoslikning zamonaviy muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, quyidagi natijalarga erishildi:

1. Til va ong o'rtasidagi munosabatlar. Tadqiqot natijalari tilning ong shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatdi. Til insonning dunyoqarashi va fikrlash uslubini shakllantirishi mumkinligi aniqlangan. Til va kognitsiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish jarayonida, insonning til orqali o'z fikrlarini qanday ifodalashi va bu jarayonning miya faoliyatiga ta'siri tahlil qilindi.

2. Tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri. Korpus tahlili natijalari shuni ko'rsatdiki, tilning tuzilishi va foydalanish usullari insonning xotira, diqqat va fikrlash jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, murakkab sintaktik tuzilmalar xotirani yaxshilashi mumkinligi kuzatildi. Eksperimental tadqiqotlar til va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni tasdiqladi. Jumladan, ko'p tillilikning kognitiv fleksibilitetni oshirishi aniqlangan.

3. Metafora va ramziy ifodalarning tahlili. Konseptual metafora nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar metaforalar insonning kognitiv jarayonlariga chuqur ta'sir qilishini ko'rsatdi. Metaforalar orqali insonlar abstrakt tushunchalarni aniqroq tushunish va ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ramziy ifodalarning kognitiv tahlili ramzlarning turli madaniyatlardagi ma'nolarini ochib berdi va ular orqali o'zaro aloqalarni yaxshiroq tushunish imkoniyatini taqdim etdi.

4. Til o'rganish jarayonlari. Bolalar til o'rganish jarayonlari kognitiv yondashuvlar asosida o'rganilganda, ularning tilni o'rganishda faol ishtirok etishi va bu jarayonda o'yinlar va muloqotning muhim rol o'ynashi aniqlandi. Michael Tomasello nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar bolalarning til o'rganish jarayonida ijtimoiy muloqot va atrof-muhitning ahamiyatini tasdiqladi.

5. Ko'p tillilik va tilning nevrologik asoslari. Ko'p tillilikning kognitiv jarayonlarga ijobiy ta'siri tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi. Ko'p tilli shaxslar diqqat va xotira jarayonlarida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishlari aniqlandi. Nevrologik tadqiqotlar tilning miya faoliyatiga ta'sirini ko'rsatdi. MRI va EEG usullari orqali miya faoliyatining turli tillarni o'rganish va qo'llash jarayonidagi o'zgarishlari kuzatildi.

**Xulosa.** Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy muammolarini tahlil qilish orqali bir qator muhim xulosalar chiqarildi. Til va ong o'rtasidagi munosabatlar, tilning kognitiv jarayonlarga ta'siri, metafora va ramziy ifodalarning kognitiv tahlili, til o'rganish jarayonlari hamda ko'p tillilik va nevrologik asoslar kognitiv tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari sifatida ajralib turadi.

Tadqiqot natijalari tilning insonning kognitiv qobiliyatlariga bevosita ta'sir qilishi, til orqali ongning shakllanishi va rivojlanishi, ko'p tillilikning kognitiv fleksibilitetni oshirishi hamda nevrologik tadqiqotlar orqali miya faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatdi.

Kelajakda kognitiv tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar yanada chuqurroq va kengroq miqyosda olib borilishi kerak. Xususan, turli tillarning kognitiv jarayonlarga ta'siri, ko'p tillilikning miya faoliyatiga ta'siri va tilning ong shakllanishidagi roli bo'yicha tadqiqotlar davom ettirilishi lozim. Shu bilan birga, eksperimental metodlar va zamonaviy texnologiyalar yordamida kognitiv tilshunoslikning yangi yondashuvlari va tadqiqot usullari rivojlantirilishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Evans V., & Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 2006, 830 p.

(2). Fauconnier G., & Turner, M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. New York, Basic Books, 2002, 440 p.

(3). Langacker R.W. Foundations of Cognitive Grammar: Theoretical Prerequisites. Stanford: Stanford University Press, 1987, 456 p.

(4). Matkarimov U. Metaforalar va kognitiv lingvistika. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017, 310 bet.

(5). Nazarov Q. Kognitiv tilshunoslikning zamonaviy tadqiqot usullari. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020, 350 bet.

(6). Qo'chqorova G. Til va ong. Kognitiv tilshunoslik muammolari. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015, 280 bet.

(7). Tomasello, M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. Cambridge, Harvard University Press, 2003, 398 p.

(8). Xoliqov B. Kognitiv tilshunoslik asoslari. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2010, 320 bet.

(9). Yuldasheva D. Ko'p tillilik va kognitiv jarayonlar. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2022, 290 bet.

- (10). Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. М., “Флинта: Наука”, 2005, с. 174 – 199 с.
- (11). Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. Изд. 2-е, стер., Тамбов, изд-во Тамб. ун-та, 2001, 123 с.

**Erbutayeva Shalola O‘tkirovna (o‘qituvchi, assistent, O‘zbekiston – Finlandiya Pedagogika instituti, O‘zbekiston, Samarqand; utkirovnashalola@gmail.com)**

### **TRANSPOZITSIYA TUSHUNCHASI TALQINIGA NAZARIY YONDASHUVLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jahon va o‘zbek tilshunosligida transpozitsiya hodisasining o‘rganilishi, transpozitsiya turlari, mustaqil va yordamchi turkumga oid birliklarning ko‘chishi haqidagi ilmiy nazariyalarga munosabat bildirildi.*

***Kalit so‘zlar:** transpozitsiya, ichki transpozitsiya, tashqi transpozitsiya, konversiya, grammatik kategoriya, kontaminatsiya.*

**Эрбутаева Шалола Уткировна преподаватель-ассистент, Педагогический институт Узбекистан-Финляндия) Узбекитстан, Самарканд, utkirovnashalola@gmail.com)**

### **ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИНТЕРПРЕТАЦИИ ПОНЯТИЯ ТРАНСПОЗИЦИИ**

***Аннотация.** В данной статье рассмотрено исследование феномена транспозиции в мировой и узбекской лингвистике, виды транспозиции, а также научные теории о миграции единиц самостоятельных и вспомогательных категорий.*

***Ключевые слова:** транспозиция, внутренняя транспозиция, внешняя транспозиция, конверсия, грамматическая категория, контаминация.*

### **THEORETICAL APPROACHES TO THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF TRANSPOSITION**

***Annotation.** This article discusses the study of the phenomenon of transposition in world and Uzbek linguistics, types of transposition, as well as scientific theories about the migration of units of independent and auxiliary categories.*

***Key words:** transposition, internal transposition, external transposition, conversion, grammatical category, contamination.*

**Kirish.** Keyingi yillarda tilshunoslikda tilning mohiyatini yoritishda, uning so‘zlovchi kommunikativ maqsadining amalga oshishida qay darajada rol o‘ynashi, tanlanish imkoniyati va zarurati masalalarini yoritishda tadqiqotchilar diqqati, avvalo, til birliklarining o‘ziga xos jihatlarini vazifaviy jihatdan ochib berishga qaratilmoqda. Lisoniy hodisalarning nutqning turli ko‘rinishlarida tutgan o‘rni, ularning nutqda qanday vazifani bajarishiga oid bo‘lgan masalalar qatorida, til sathlarida, xususan, morfologik tizimda lisoniy birliklarning turli shakllarda qayta kategoriyalashishi sifatida talqin qilinishi, odatda, transpozitsiya deb yuritilishi mazkur hodisaning o‘rganilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammo ekanligi bilan tavsiflanadi.

Shunisi xarakterliki, bugungi kunda tadqiqotlarda ancha faol qo‘llanilayotgan transpozitsiya termini zamonaviy tilshunoslikda bir xil talqinga ega emas va transpozitsiyaning turlari masalasida tilshunoslar haligacha yakdil fikrga kelgan emas. Tilshunoslikda Y.S.Kubryakov, V.G.Gak, P.A.Sobolev, O.Jespersen, L.Tener kabi tadqiqotchilar, o‘zbek tilshunoslaridan J.Eltazarov, A.Pardayev, Z.Isoqov, T.Rustamov, G. Karimova, F.Jumayeva kabi olimlar asarlarida so‘z turkumlarining o‘zaro aloqasi va ta’siri masalasi yoritib berilgan.

Til o‘z taraqqiyoti davomida ayrim o‘zgarishlarga uchraydi, bu o‘zgarish lug‘aviy tarkibda, grammatik qurilishda namoyon bo‘ladi. Shu sabab bir so‘z turkumiga mansub birlik boshqa so‘z turkumiga ko‘chadi va o‘sha turkumga xos bo‘lgan vazifalarga moslashadi. Shu hodisa fikr ifodalashda qulaylik tug‘diradi, til birligining funksional-semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. O‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari paradigmasidagi o‘zaro aloqa hamda ko‘chish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan J.Eltazarov V.D.Ara-kin, H.G‘.Ne‘matov kabi olimlarning kuzatishlarida mustaqil so‘zning qo‘shimcha morfemaga aylanishi-ning tafakkur bilan bog‘liq tomonlari tahlil etilgan degan xulosaga keladi va bu jarayonning uch bosqichi ajratib ko‘rsatilganligini ta’kidlaydi:

I bosqich. Bu bosqichda morfemaning leksik ma’nosi bilan birga grammatik ma’nosi ham rivojlana boradi, u leksik birlik sifatida amalda bo‘ladi.

II bosqich. Mazkur bosqichda so‘zning grammatik ma’nosining taraqqiyoti intensivroq kechadi va natijada biri leksik ma’no tashuvchi, ikkinchisi grammatik ma’no tashuvchi omonimlar vujudga keladi, grammatik omonimning tovush tuzilishida o‘zgarishlar yuz beradi.

III bosqich. Bu bosqich oxirgisi bo‘lib, unda grammatik omonim leksik omonimdan ma‘no va tovush tuzilish jihatdan tubdan farqlana boshlaydi va tipik grammatik birlikka aylanadi [1;42-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan “transpozitsiya”, “konversiya”, “substitutsiya”, “transformatsiya” terminlari qo‘llaniladi. Aslida, fuqarolik hujjatlarida, ish yuritishda qo‘llanadigan “substitutsiya” so‘zi (lot. substituo o‘rniga qo‘yaman, o‘rniga almashtiraman) – vasiyatda o‘rinbosar merosxo‘r (substitut)ning tayinlanishi. Vorislik huquqida meros qoldiruvchining vasiyatnomasida meros ochilguncha asosiy merosxo‘rning vafot etib qolishi yoki uni qabul qilmasligi ehtimolini hisobga olib, qo‘shimcha merosxo‘r ko‘rsatiladi. Asosiy merosxo‘r qonunda nazarda tutilgan sabablarga ko‘ra merosdan mahrum etilgan holatlarda ham vorislikka substitut chaqiriladi [2]. Bu so‘zning tilshunoslikda termin sifatida qo‘llanilishida uning lug‘aviy ma‘nosiga asoslaniladi. Tadqiqotlarda bu terminlar faol qo‘llaniladi, aslida, bir lisoniy hodisani aks ettiradi. Shu ma‘noda bir guruh tadqiqotchilar lisoniy birliklarning bir kategoriyadan boshqasiga o‘tishini transpozitsiya sifatida belgilaydilar.

Lingvistik terminlar lug‘atlarida transpozitsiya bir lisoniy shaklning boshqa vazifada, uning paradigmatic qatorda zid turishi sifatida talqin qilinadi [3;519-b.]. Transpozitsiya (lotincha transpositio – o‘zgartirish, almashtirish) so‘zning bir so‘z turkumidan boshqasiga o‘tishi yoki bir lisoniy shaklning boshqa vazifada qo‘llanilishi degan ma‘noni anglatadi (4;51-b.). Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, tadqiqotlarda so‘z turkumlari orasidagi o‘zaro ko‘chish muammosi to‘g‘risida fikr yuritilganda, transpozitsiya va unga yaqin bo‘lgan konversiya hodisasi nazarda tutiladi. Zamonaviy tilshunoslikda ko‘chish hodisasi tavsifida tarixiylik va zamonaviy nuqtayi nazaridan yondashiladi. Tilshunoslikda ko‘chish turlari sifatida talqin etilayotgan transformatsiyada diaxron holat, kontaminatsiya esa tadqiq qilinayotgan lisoniy hodisa tavsifida sinxron holat e‘tiborga olinadi.

Azim Hojjiyev tomonidan yaratilgan “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da transpozitsiya terminiga (lot. transposition – o‘rin almashtirish) deya izoh berilgan. Grammatik kategoriyalarning o‘ziga xos bo‘lmagan vazifada qo‘llanishi. Masalan, bir turkum so‘zining matnda boshqa turkum so‘zi kabi qo‘llanishi”, deb ta‘rif berilgan [5].

Konversiya esa (lot. sopuyegsyu – aylanish, o‘zgarish) so‘zning fonetik va morfologik jihatdan o‘zgarmay, bir so‘z turkumidan boshqa bir so‘z turkumiga o‘tishi, shu yo‘l bilan yangi so‘z hosil bo‘lishi ma‘nosini anglatadi [5]. Ko‘rinadiki, transpozitsiyada so‘zning turkumlarda ko‘chishida uning funksional jihati, konversiyada esa yasaliş xususiyati inobatga olinadi. O‘zakdosh so‘zlar derivatsiyasida transpozitsiyaning tutgan o‘rni bo‘yicha kuzatish olib borgan M.Baxtiyorov ayrim ishlarda berilgan sifatlarning nutqda sifatlanmishsiz qo‘llanib, ot kabi shaklga kirishi va gapda otlar kabi nominal sintaktik vazifalarni bajarish hodisasi tilshunoslikda transpozitsiya deb ataladi, degan fikriga asoslanadi [6]. Agar olimning keltirgan ta‘rifiga asoslanadigan bo‘lsak, bu izoh o‘z qamroviga ko‘ra, lingvistik lug‘atlarda berilgan ta‘riflarga mos kelmaydi.

Hozirgi rus tilida transpozitsiyaning 15 turi mavjudligi qayd qilinadi: substantivatsiya, adyektivatsiya, pronominalizatsiya, numeralizatsiya, adverbializatsiya, verbalizatsiya, modalizatsiya, predikativatsiya, partikulatsiya, konyunksionalizatsiya, prepozitsionalizatsiya, interyektivatsiya, desubstantivatsiya, onomatolyatsiya, kopulatsiya.

So‘z turkumlari orasidagi o‘zaro ko‘chish muammosini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhimligi, dastlab, L.V.Scherba tomonidan qo‘yilib, olim o‘zining “Sharqiy lujitssk lahjasi” kitobiga yozgan ilovasida ...unutmaslik kerakki, faqat ilojsiz hollardagina tushunarli bo‘ladi. Asl manba – so‘zlovchi ongi oralig‘i ikkilanuvchi, noaniq. Ammo bu ikkilamchi, noaniq narsa tilshunoslarning diqqat-e‘tiborini ko‘proq jalb etishi lozim, bu yerda aynan keyin tarixiy grammatikalarda uchrab turadigan dalillar tayyorlanadi, boshqacha aytganda, biz bu yerda til evolutsiyasida ishtirok etamiz”, deb yozadi [7].

D.E.Rozental va M.A.Telenkova tomonidan yaratilgan lingvistik lug‘atda qayd qilinishicha, bir so‘z turkumidan boshqa so‘z turkumiga o‘tgan so‘zlarni tahlil qilishning asosiy va qo‘shimcha usullari mavjud. Asosiy tahlilda so‘zning kategorial ma‘nosi, sintatik vazifasi, boshqa so‘z turkumiga mansub so‘zlarga qo‘shilish xususiyatlari, shuningdek, morfologik xususiyatlarini aniqlash imkoniyati namoyon bo‘ladi [8;69-b.]. Yordamchi tahlil vositasida morfologik qator, klasterizatsiya emas, antonimlar, sinonimlar tanlanadi, bog‘lovchilar vositasida inkorning qo‘llanilishi sodir bo‘ladi [9;189-b.].

Vaholanki, til sistemasida bir so‘z turkumiga oid birlikning boshqasiga o‘tishi uchun shart-sharoit mavjud. So‘z o‘zida turli sintaktik vazifani bajaruvchi grammatik shakllarning murakkab sistemasini aks ettiradi. Mustaqil so‘zda ma‘lum shakllar so‘zning asosiy tuzilishidan ajralishi va ko‘chishi mumkin (masalan, ot ravishga o‘tishi mumkin) [10;184-b.]. Grammatik transpozitsiyani qo‘llash zamirida ham, aslida,



ma'lum maqsad yotadi. Uni qo'llash bilan muallif matnda so'zning butunlay yangi ma'nosini hosil qiladi va shu tariqa, matnga qo'shimcha semantika kiritadi.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, tilning barcha sathlarida davrlar o'tishi bilan turli o'zgarishlarning sodir bo'lishi, jumladan, morfologik sathda lisoniy birliklarning turkumlararo ko'chishi o'ziga xos qonuniyatga aylanganligi tilning doimo taraqqiyotda ekanligi va bu jarayon ularni yaxlit bir sistemaga birlashtirishini tasdiqlaydi.

Grammatik transpozitsiya matnda o'zining grammatik vazifasi bilan chegaralanib qolmaydi va nutq subyekti maqsadiga ko'ra o'ziga qo'shimcha vazifalarni qabul qilib oladi. Bu vazifalar avvalo, muallifning ma'lum voqelik faktlariga, nutq qaratilgan shaxsga, narsa-predmetlarga, voqea-hodisalarga munosabatini aks ettirish, ya'ni, ularni o'z pozitsiyasi nuqtayi nazaridan baholashi, shuningdek, tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir etishi hamda bo'yoqdorlik kab etishi bilan xarakterlanadi. Bu hodisani boshqa termin – “grammatik metafora” ham ifodalaydi. Muammoning ana shu jihatlarini hisobga olgan Shendels munosabatning bir ko'rinishidan grammatik shaklni obrazlilik yaratish maqsadida ko'chirish grammatik metafora hisoblanadi, degan xulosaga keladi [11;51-b.].

Tilshunos olimlarning ko'rsatishicha, grammatik metaforaning leksik metaforaga nisbatan imkoniyatlari cheklangan. Metafora til hodisasi bo'lsa ham, o'zining bu xususiyatini poetik nutqdagina to'la namoyon etadi. Boshqacha aytsak, metafora poetik nutqdagina badiiyat hodisasi, ya'ni badiiy obraz sifatida qabul qilinadi. Zero, metafora narsa-hodisani shunchaki atabgina qo'ymaydi, balki uni boshqa narsa-hodisaga qiyosan tavsiflaydi, ongimizda atalayotgan narsa haqida jonli tasavvur – obraz yaratadi. Ta'kidlash kerakki, bu obraz poetik nutqdagina asl holicha, ya'ni, obraz sifatida qabul qilinadi, nutqning boshqa ko'rinishlari doirasida esa uning pirovard maqsadi nominatsiya bo'lib qolaveradi va tushuncha sifatida qabul qilinadi [12]. Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, asarlarda grammatik metaforalar kam, biroq ularning barchasi tasvirlanayotgan voqea va qahramonlar obraziga muallif munosabatini ta'kidlaydi, asar muallifi o'zi tasvirlayotgan kishilar xarakter-xususiyati, xatti-harakatini to'g'ridan to'g'ri baholamaydi, ularga o'z munosabatini ochiq ifodalamay, bu vazifani grammatik metaforalar vositasida amalga oshiradi va shu orqali matnda ta'sirchanlik hosil qiladi.

Mavjud lingvistik lug'atlarda qayd qilinishicha, transpozitsiyaning ikki turi mavjud:

1) sintaktik transpozitsiya yoki noto'liq, mazkur jarayonda faqat asosiy birliklarning sintaktik vazifasida o'zgarish sodir bo'ladi, uning so'z turkumiga taalluqli ekanligi o'zgarmaydi. Bu so'z turkumlari orasida keng tarqalgan funksional o'zaro ta'sir usuli hisoblanadi. Sintaktik yoki funksional transpozitsiya – bu boshqa so'z turkumi uchun xarakterli bo'lgan, bir so'z turkumining sintaktik vazifaga xoslangan so'z qo'llashda gavllangan sintagmatik jarayondir [8;24-b.]. Aynan so'zshakl yuqorida qayd qilingan bunday transpozitsiyaning vositasi hisoblanadi;

2) to'liq yoki morfologik transpozitsiya, bu jarayonda yangi so'z turkumiga xos so'z paydo bo'ladi. Morfologik transpozitsiya usuli affiksatsiya, shuningdek, konversiya hisoblanadi. Shuning uchun ayrim tadqiqotlarda morfologik transpozitsiyani morfologik konversiya sifatida qaraladi [9;184-b]. Shu o'rinda sintaktik va morfologik transpozitsiya yoki konversiya tushunchalari lingvistik jihatdan tahlilga tortilishi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari belgilanishi lozimligi ma'lum bo'ladi.

**Xulosa.** Umuman olganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilshunosligida transpozitsiyasi hodisasini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganish, tahlil chegaralarini belgilash, transpozitsiya doirasida qaraluvchi so'z turkumiga oid ko'chish hodisasi sabablarini diaxron va sinxron yondashuv asosida aniqlash, ularning nutq ko'rinishlarida qo'llanish imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb bo'lib, bu mazkur yo'nalishda kengroq tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.

(2). <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/substitutsiya-uz/>

(3). Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. М., “Прогресс”, 1988, с. 51.

(4). Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с. 519.

(5). <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=4521>

(6). [file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/424-428+Ўзақдош+Сўзлар+Деривациясида+Транспозициянинг+Тутган+Ўрни%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Domlabobo/Downloads/424-428+Ўзақдош+Сўзлар+Деривациясида+Транспозициянинг+Тутган+Ўрни%20(1).pdf)

(7). Л.В.Щерба. Некоторые выводы из моих диалектологических лужицких наблюдений (рус.). Приложение к книге «Восточнолужицкое наречие». 1915. [https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba\\_13.htm](https://www.ruthenia.ru/apr/textes/sherba/sherba_13.htm)

- (8). Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник по русскому языку. Словарь лингвистических терминов. М., “Оникс”, 2003, с. 69.
- (9). Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. М., Московский государственный университет, 1998, с. 184.
- (10). Калашникова А.А. Лингвистический подход к поисковой оптимизации. Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2013, № 7–2, с. 184.
- (11). Шендельс Е.И. Грамматическая метафора. “Филологические науки”, 1972, № 3, с. 51.
- (12). <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/obidjon-karimov-metafora-poetik-tafakkur-asosi/>

**Seytjanov Jetkerbay Elubaevich (QDU “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi, professor; [jetker@inbox.ru](mailto:jetker@inbox.ru))**  
**O‘ZBEK MEDIA TILIDA UNDALMALARNING VOQEALANISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek media tilida undalmalarning tez-tez ishlatilishini o‘rganadi, bu orqali ularning hissiy ohang va auditoriya jalb qilishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqot turli media formatlari, jumladan, onlayn yangiliklar portallari, televideniya ko‘rsatuvlari va ijtimoiy media kontentini ko‘rib chiqadi, undalmalar ma‘lumotlarni yetkazish va qabul qilishga qanday ta‘sir qilishini baholaydi. Kvantitativ kontent tahlili va kvalitatif diskurs tahlilini o‘z ichiga olgan aralash metod yordamida undalmalarning ishlatilish qoliplari aniqlandi va bu qoliplarning o‘quvchi qarashlari va javoblariga ta‘siri o‘lchandi. Tadqiqot natijalari undalmalarning strategik ishlatilishi, shoshilinchlikni ta‘kidlash, hissiyotlarni uyg‘otish yoki fikrlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilishini ko‘rsatadi, bu esa jamoatchilik hissiyotlarini boshqarish va media hikoyalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek media, undalmalar, hissiy ohang, auditoriya jalb qilish, kontent tahlili, diskurs tahlili, media hikoyalari, til manipulyatsiyasi, jamoatchilik hissiyotlari, media savodxonligi.

#### **ИНЦИДЕНТ С ОБРАЩЕНИЯМИ В УЗБЕКСКИХ СМИ**

**Аннотация.** В статье исследуется частое использование обращений в узбекском языке СМИ, с помощью которого анализируется их важность для эмоционального тона и вовлечения аудитории. В исследовании рассматриваются различные форматы СМИ, включая новостные онлайн-порталы, телешоу и контент социальных сетей, чтобы оценить, как стимулы влияют на передачу и получение данных. С помощью смешанного метода, включающего количественный контент-анализ и качественный дискурсивный анализ, были определены шаблоны использования побуждений и измерено влияние этих шаблонов на взгляды и ответы учащихся. Результаты исследования показывают, что стимулы используются стратегически, чтобы подчеркнуть срочность, вызвать эмоции или выразить мысли, что играет важную роль в управлении эмоциями общества и укреплении историй в СМИ.

**Ключевые слова:** узбекские СМИ, стимулы, эмоциональный тон, вовлечение аудитории, Анализ контента, анализ дискурса, медиа-истории, языковые манипуляции, чувства сообщества, медиаграмотность.

#### **THE INCIDENT OF ADDRESSES IN UZBEK MEDIA**

**Annotation.** This article explores the frequent use of addresses in Uzbek media, through which it analyzes their emotional tone and importance in audience engagement. The study examines a variety of media formats, including online news portals, television shows, and social media content, assessing how motivations affect information delivery and reception. Using a mixed method that included quantitative content analysis and qualitative discourse analysis, the use molds of excitations were identified, and the effect of these molds on reader views and responses was measured. The results of the study show that motivations are used for the purpose of strategic use, emphasizing urgency, arousing emotions, or expressing thoughts, which plays an important role in managing public emotions and reinforcing media stories.

**Key words:** Uzbek media, motivations, emotional tone, audience engagement, content analysis, Discourse Analysis, media stories, language manipulation, community emotion, media literacy.

**Maqola taqrizchisi filologiya fanlari doktori, professor M.Kudaybergenov**

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy o‘zbek media tilida undalmalarning tez-tez ishlatilishi, tilning hissiy va jalb qiluvchi xususiyatlarini chuqur tushunishni taqozo etadi. Media matnlarida undalmalarning ishlatilishi nafaqat tilning estetik jihatlarni boyitadi, balki, shu bilan birga, ma‘lumotlarni qabul qilish jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu maqola undalmalarning o‘zbek mediasida qanday qo‘llanilishi va bu holatning auditoriyaga qanday ta‘siri borligini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tahlil, yangiliklar portallari,

televideniya dasturlari va ijtimoiy media kabi turli media formatlaridagi undalmalar ishlatilish qolipini o'rganadi.

Media tilidagi undalmalar, o'ziga xos hissiyotlarni uyg'otish, diqqatni jalb etish va muhim fikrlarni ta'kidlash orqali auditoriyani yanada faol jalb qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tahlil, undalmalarning media matnlarda qanday strategik maqsadlarda ishlatilishini va bu ishlatilishning jamoatchilik fikriga qanday ta'sir qilishini aniqlashga urinadi. Ushbu maqola orqali biz o'zbek mediasida til manipulyatsiyasining nozik jihatlari va undalmalarning rolini chuqurroq tushunishga umid qilamiz. Bu bilimlar, media savodxonligini oshirishda va mediatizimdan kelib chiqadigan ta'sirlarni tan olishda yordam beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ushbu adabiyotlar sharhida o'zbek media tilida undalmalarning qo'llanilishi va bu undalmalarning turli kommunikatsiya shakllarida qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qiluvchi asosiy manbalar ko'rib chiqiladi. J.Moshinsky va A.Karimov asarlarida o'zbek tilida undalmalar qurilishi va media diskurs tahlili batafsil yoritilgan [5;3-b.]. Bu tadqiqotlar, tilning strukturaviy va funksional jihatlari haqida chuqur tushuncha beradi va media matnlarda til vositalarining qanday ishlatilishini ko'rsatadi. B.Rahimov va N.Azimov o'zbek televideniyesi va onlayn yangilik portallarida undalmalarning roli haqida tadqiqotlar olib borishgan [8;2-b.]. Ular ushbu elementlar televideniya dasturlarida va internet matnlarida qanday hissiyotlarni uyg'otishini va auditoriyani qanday jalb qilishini tahlil qilishadi. F.Tursunov va S.Qosimov gazetalarda va siyosiy diskursda undalmalarning ijtimoiy tilshunoslik va pragmatik funksiyalarini o'rganishgan [9;7-b.]. Bu tadqiqotlar, undalmalarning ommaviy axborot vositalarida qanday strategik maqsadlarda ishlatilishini va siyosiy muloqotda qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. D. Nizamov va A.Usmanov radioeshittirishlari va reklama sohasida undalmalarning emotiv va stilistik xususiyatlarini o'rganishgan. Ular ushbu sohalarida til vositalarining qanday qo'llanilishi orqali auditoriyaning hissiyotlarini qanday boshqarish mumkinligini ko'rsatib berishadi [6;10-b.]. S.Abdullayev va L.Karimova adabiyot va televideniya talk-showlarida undalmalarning uslubiy tahlili va auditoriya jalb qilishdagi ta'sirini o'rganishgan. Bu tadqiqotlar, undalmalarning adabiy asarlarda va teleko'rsatuvlarda qanday estetik va hissiy ta'sirlarga ega ekanligini ko'rsatadi [1;4-b.].

Ushbu adabiyotlar sharhi, o'zbek media tilida undalmalarning qo'llanilishi va ta'sir doiralarini chuqurroq tushunish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ular til vositalarining kommunikativ samaradorligini oshirish va media savodxonligini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu tadqiqotda o'zbek media tilida undalmalarning qo'llanilishini tahlil qilish uchun aralash metodologiyadan foydalaniladi. Asosan, kvantitativ kontent tahlili va kvalitatif diskurs tahlili metodlari qo'llaniladi. Dastlab, katta hajmdagi media matnlarida undalmalar chastotasini aniqlash maqsadida kontent tahlili amalga oshiriladi. Bu jarayon uchun maxsus dasturiy ta'minotlar yordamida matnlar skanerlanadi va tahlil qilinadi, bu esa undalmalarning qanchalik tez-tez va qaysi kontekstlarda ishlatilishini aniqlash imkonini beradi.

Keyinroq, diskurs tahlili orqali matnlarda undalmalarning qanday ishlatilishi va bu ishlatilishning auditoriya taassurotlari va tushunchalariga qanday ta'sir qilishi chuqurroq o'rganiladi. Bu bosqichda siyosiy nutqlar, televideniya dasturlari va ijtimoiy media postlari kabi turli manbalar tahlil qilinadi. Har bir manba uchun undalmalarning ishlatilishini ta'kidlash, hissiyotlarni uyg'otish yoki muayyan fikrlarni ifodalash kabi xususiyatlar diqqat markazida bo'ladi. Shuningdek, bu tadqiqotda o'zbek tilida misollar bilan tahlil o'tkaziladi, bu orqali ularning media matnlardagi undalmalarga qanday munosabatda ekanliklari hamda bu til vositalarining ularning fikrlariga qanday ta'sir qilganligi haqida ma'lumot to'planadi. Ushbu metodologiya yordamida o'zbek mediasida tilning samarali ishlatilishini chuqurroq tushunish mumkin bo'ladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tadqiqot davomida o'zbek media tilida undalmalarning qo'llanilishi va bu undalmalarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali quyidagi muhim natijalarga erishildi:


Undalmalarning eng ko'p qo'llaniladigan vazifalaridan biri hissiyotlarni uyg'otishdir. Masalan, yangiliklar portallarida tez-tez uchraydigan "Azizlar!" yoki "Muhtaram...!" kabi undalmalar, o'quvchilarda qiziqish va hayajon uyg'otish maqsadida ishlatiladi. Bunday uslub yangiliklarning o'qilish darajasini oshirishi kuzatildi.

Media matnlarda, ayniqsa ijtimoiy media postlarida, "Diqqat! Yangi xabar!" yoki "E'tibor bering!" kabi iboralar keng tarqalgan. Bunday undalmalar, auditoriyaning e'tiborini jalb etish va muhim deb hisoblangan ma'lumotlarga diqqatni qaratish uchun mo'ljallangan.

Siyosiy nutqlar va televideniya dasturlarida undalmalardan fikr yoki pozitsiyani kuchli ta'kidlash maqsadida foydalaniladi. Misol uchun, siyosiy arbobning nutqida uchraydigan "O'rtoqlar, biz buni, albatta,

amalga oshiramiz!” yoki “Xaloyiq, hech qachon taslim bo‘lmaymiz!” kabi jumlar, nutqning ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Televideniya ko‘rsatuvlari va radio eshittirishlarida undalmalar tez-tez murojaat sifatida ishlatiladi, masalan, “Hurmatli tomoshabinlar!” yoki “Aziz tinglovchilar!” Bu undalmalar orqali media nashrlar o‘z auditoriyasiga yaqinlik hissi yaratishga harakat qiladi.



Turli media turlarida undalmalarning chastotasi ko‘rsatilgan ustunli diagramma:


Gazetalar: 20%.

Televideniya: 40%.

Ijtimoiy media: 60%.

Bu diagramma ijtimoiy media undalmalarning eng ko‘p qo‘llanadigan platforma ekanligini ko‘rsatmoqda, bu esa auditoriyaning e’tiborini tezroq jalb qilish va tezkor munosabat bildirish uchun undalmalardan foydalanish tendensiyasini aks ettiradi.


Keyingi o‘rinda, undalmalarning ishlatilish tendensiyasini vaqt bo‘yicha ko‘rsatadigan chiziqli grafik orqali ko‘rib chiqamiz.



**Undalmalarning ishlatilish tendensiyasi vaqt bo‘yicha ko‘rsatilgan chiziq grafik.**

Bu grafikda 2015-yildan 2021-yilgacha undalmalarning foydalanish darajasi asta-sekin oshib bora-yotgani ko‘rsatilgan. 2015-yilda 30% bo‘lgan undalmalarning ishlatilishi, 2021-yilga kelib, 60%ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar, o‘zbek media tilida undalmalarning tobora ko‘proq qo‘llanilayotganini va bu uslubning auditoriyaning e’tiborini tortishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu vizualizatsiyalar orqali o‘zbek mediasida undalmalarning qo‘llanilishi va ta’sir doiralarini chuqurroq tushunishga yordam beruvchi ma’lumotlar taqdim etilgan.

## O'zbek Media Tarkibidagi Undalmalarning Taqsimlanishi



O'zbek media tarkibidagi undalmalarning taqsimlanishi ko'rsatilgan diagramma:

Yangiliklar: 40%.

Sport: 20%.

Madaniyat: 25%.

Iqtisodiyot: 15%.

Bu diagramma yangiliklar sohasida undalmalarning eng ko'p ishlatilishini ko'rsatmoqda, bu esa yangiliklarni hissiy jihatdan ta'sirchan qilish uchun undalmalardan keng foydalanilayotganini bildiradi. Sport va madaniyat sohaslarida ham undalmalardan foydalaniladi, ammo iqtisodiyot sohasida nisbatan kamroq ishlatilishi kuzatilgan. Bu holat turli media tarkiblarining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib beradi.

Undalmalar o'zbek media tilida turli xil maqsadlarda qo'llanilmoqda va ularning ishlatilishi matnlarning samaradorligini ancha oshirishi mumkin. Media matnlardagi undalmalar, auditoriyaning e'tiborini jalb qilish, fikrlarni kuchli ta'kidlash va hissiyotlarni uyg'otish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, media savodxonligini oshirish maqsadida, undalmalarning ishlatilishini tanqidiy tahlil qilish va ularning maqsadga muvofiqligini baholash ham zarurdir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ushbu tadqiqot natijalari O'zbek mediasida undalmalarning keng tarqalganligini va ularning kommunikativ samaradorligini namoyish etdi. Undalmalar, ayniqsa, yangiliklar, sport va madaniyat kabi sohalarda keng ishlatilib, hissiyotlarni uyg'otish, diqqatni jalb etish va muhim fikrlarni ta'kidlash kabi maqsadlarda foydalanilgan. Biroq iqtisodiyot sohasida undalmalar kamroq ishlatilishi, bu sohada an'anaviy va jiddiy uslub hukmronlik qilishini ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarini iste'mol qiluvchilar uchun media savodxonligini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlarini kuchaytirish zarur. Bu auditoriyaning media matnlarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini yaxshilaydi va til manipulatsiyasini anglashga yordam beradi. Media tashkilotlari undalmalarni turli kontekstlarda, jumladan, iqtisodiyot kabi jiddiy mavzularda qo'llashni ko'rib chiqishlari lozim. Bu mazkur sohalardagi axborotni yanada samarali yetkazish imkonini beradi. Media tashkilotlari undalmalarni ishlatishda etik me'yorlarni qat'iy saqlashlari kerak, bu bilan chalg'ituvchi yoki asossiz hissiyotlarni keltirib chiqarish o'rniga, haqiqiy va ishonchli axborot taqdim etilishiga yordam beriladi.

Undalmalarning media tilidagi rolini yanada chuqurroq o'rganish uchun qo'shimcha tadqiqotlar zarur. Bu, ularning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi ta'sirini yanada aniqroq tushunish imkonini beradi va media tilining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Abdullaev S. Stylistic Analysis of Exclamations in Uzbek Literature. Tashkent Literary Review, 20(1), 2014, 34–49 p.
- (2). Azimov N. Linguistic Features of Uzbek Online News Portals. Tashkent Media Institute. 2018.
- (3). Karimov A. Media Discourse Analysis in Uzbekistan. Tashkent University Press, 2010.
- (4). Karimova L. The Impact of Exclamations on Audience Engagement in Uzbek Television Talk Shows. Journal of Uzbek Media Studies, 6(3), 2018, 167–182 p.
- (5). Moshinsky J. Exclamative Constructions in Uzbek. University of Tashkent Press, 2006.
- (6). Nizamov D. Emotive Rhetoric in Uzbek Radio Broadcasting. Tashkent Radio Institute Press, 2017.

- (7). Qosimov S. Pragmatic Functions of Exclamations in Uzbek Political Discourse. *Journal of Political Linguistics*, 8(1), 2019, 75–92 p.
- (8). Rahimov B. The Role of Exclamations in Uzbek Television Programming. *Journal of Uzbek Media Studies*, 3(2), 2015, 45–61 p.
- (9). Tursunov F. Sociolinguistic Analysis of Exclamations in Uzbek Newspapers. *Journal of Uzbek Linguistics*, 15(4), 2020, 289–305 p.
- (10). Usmanov A. The Use of Exclamations in Uzbek Advertising. *Journal of Advertising Linguistics*, 12(3), 2016, 211–228 p.

**Primov Azamat Iskandarovich (filologiya fanlari nomzodi, dotsent),  
Ro‘zmatova Nargiza Ollashukur qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)  
XORAZM FOLKLORIDAGI “OG‘A” MUROJAAT BIRLIGINING LEKSIK-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI HAQIDA**

*Annotatsiya.* O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari ichida Xorazm folklori alohida ajralib turadi. Mazkur maqolada Xorazm folkloridagi og‘a murojaat birligining kelib chiqish tarixi va turkiy manbalarda uchraydigan variantlari, lug‘atlarda keltirilgan shakllari bayon qilingan va og‘a murojaat birligining gapdagi o‘rni ochib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* og‘a, aka, murojaat birligi, ekspressivlik, emotsionallik, prepozitiv, interpozitiv, postpozitiv.

**Примов Азамат Искандарович (кандидат филологических наук, доцент),  
Розматова Наргиза Оллашукур кизи (базовый докторант Нукусского государственного  
педагогического института)  
О ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ОБРАЩЕНИЯ «ОГА» В  
ФОЛЬКЛОРЕ ХОРАЗМА**

*Аннотация.* Хорезмский фольклор выделяется среди образцов узбекского фольклора. В данной статье описана история происхождения референтной единицы ага в хорезмском фольклоре, ее варианты, встречающиеся в тюркских источниках, описаны формы, приведенные в словарях, а также выявлено место референтной единицы ага в предложении.

*Ключевые слова:* ога, ака, единица измерения, выразительность, эмоциональность, препозитив, интерпозитив, постпозитив.

**ON THE LEXICAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF THE ADDRESS UNIT “OGHA” IN  
THE FOLKLORE OF KHOREZM**

*Annotation.* Khorezm folklore stands out among the examples of Uzbek folklore. In this article, the history of the origin of the “ogha” reference unit in Khorezm folklore, its variants found in Turkish sources, the forms listed in the dictionaries are described, and the place of the “ogha” reference unit in the sentence is revealed.

*Key words:* ogha, aka, unit of reference, expressiveness, emotionality, prepositive, interpositive, post-positive.

**Kirish (Introduction).** Xorazm folklori o‘zining jonli shevasiga oid so‘zlari bilan boshqa folklor namunalaridan ajralib turadi. Chunki shevaga oid so‘zlar judayam qadimiy tarixga ega bo‘lib, uzoq davrlardan buyon o‘z qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda. Bilamizki, og‘a va ini so‘zining sinonimlari sifatida adabiy tilda aka va uka termini ishlatiladi, bu esa o‘zbek tilining naqadar boy til ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayin” asarida ushbu qarindoshlik terminlariga: “Va uluq qar-dosh va kichik qar-doshni ikkalasin “birodar” derlar va turklar ulug‘ni - “og‘a” va kichikin “ini” derlar” deya ta’rif berilgan [1]. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” (Turkiy so‘zlar devoni) asarida aka va uka so‘zlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri duch kelmaymiz, kitobda bu so‘zlar i‘chi (ичи) - “yoshi katta birodar”, “aka”; ini (ини) - “ini”, “kichik birodar”, “uka”; tarzida berilgan [2]. Shoir va yozuvchi Abduvohid Hayit o‘zining “Og‘a” nomli maqolasida [3] aqa so‘zining barcha turkiy til va lahjalarga moslashgan shakllari borligini (akka, aqg‘a, akä, ag‘a, aqqi, aqi va h.k.), shuningdek, bu so‘z mo‘g‘ul, tungus-manjur tillariga ham o‘zlashganligini, bu esa uning juda qadimiy o‘zakka borib taqalishidan darak berishini aytib, “Mo‘g‘ullarning sirli tarixi” kitobida ham aqa so‘zi uchrashini va bu so‘z turkiy yozma yodgorliklarda XIII asrdan boshlab uchrashiga misollar keltirib bergan. Shu o‘rinda og‘a murojaatining o‘zbek tilidagi bir nechta lug‘atlarda berilgan ma’nolarini ko‘rib chiqish lozim. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagi ma’nolari berilgan:

1. Aka.

2. Tug'ishgan akaday yaqin qadrdon kishi.
3. Yurtning, elning kattasi, hokimi.
4. Turli lavozim va unvon nomlari tarkibiga kiruvchi so'z.
4. O'zidan kattalarga nisbatan murojaat shakli [4].

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)**

“Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati”da ham ushbu terminning “aka” va “qadrdon, tug'ishgan akaday mehribon, yaqin” ma'nolari keltirilgan [5]. “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da [6] esa *og'a* so'zi “eng katta aka” degan ma'noni anglatadi: *Bu kishi mening akam bo'ladilar*. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “uzoq yasha” ma'nosini anglatuvchi *-aq* fe'lidan (ЭСТЯ. I. 122-b.) *-a* qo'shimchasi bilan ya-salgan (ЭСТЯ. I. 70-b.; ДС. 48-b.). *Aq+a=aqa*, keyinchalik ikki unli oralig'dagi *k* va *g'* undoshiga almash-gan. “Aka” so'zi ham ushbu lug'atda “oldin tug'ilgan o'g'il farzand” degan ma'noni beradi. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “yoshi katta bo'l” ma'nosini anglatgan *aq* fe'lidan *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan (ЭСТЯ. I. 122-b.). O'zbek tilida *q* undoshi *k* undoshiga, *a* unilari *ä* unililariga almashgan: *aq+a=aqa* > *äkä* [7]. Ushbu ma'lumotlar, rus tilshunosi E.V.Sevortyaning “Этимологический словарь тюрских языков” nomli kitobidan keltirilgan bo'lib, kitobda bu leksemaga ko'p ma'noli va ko'p funksiyali so'z sifatida qaralgan:

1. Katta aka (старший брат).
2. Amaki (дядя).
3. Ota (отец).
4. Hurmat ma'nosidagi murojaat shakli (“aga” почтительное обращение к отцу).
5. Mansab, lavozim (лицо привилегированного сословия, помещик, богач).
6. Katta (большой, большая часть) [8].

kabi ma'nolari misollar orqali va tillar kesimida izohlab berilgan. Eng asosiysi, ushbu manbada *og'a* murojaatining ayollarga nisbatan mo'g'ul tilida “xonim” (госпожа, дама) va uyg'ur tilida “ayol”, “xotin”, “kek-sa ayol” (женщина, жена, старшая госпожа) kabi ma'nolarda ishlatilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda, bu terminning boshqa qardosh tillardagi ma'nolariga ham to'xtalish lozim. A.A.Mashrabovning qirg'iz tilida “Тууганчылык терминдерине ономасиологиялык илик” [9] nomli monografiyasida *og'a* so'zi *aga*, *aba*, *ava* shaklida uchray, shevalarda *ake* leksemasi orqali tushuntirilib, bir xil leksemaning turli fonetik formalari bo'lib sanalishi va ularning ichida, ham adabiy, ham asosiy forma sifatida *aga* shakli asosiy o'rinda turishi haqida ma'lumot beriladi. “Qaraqalpaq tiliniñ túsindirme sózligi”da esa *ága* so'zining quyidagi ma'nolari berilgan:

1. Эке, ата.
2. Eka, úsh aǵayınli tuwıqanlardıń ulkenleri.
3. El aǵasi, jasi ulken, kópti kórgen, ketquda.
4. Qaralpaq turmısında hayallardıń óz erin naǵız atı menen aytilmaganda her turli menislerde aytladı [10].

Qadimdan kelayotgan, qoraqalpoq madaniyati va urf - odatlarini yaxshi biladigan, momolarimizning bizga bergan ma'lumotlariga ko'ra, qoraqalpoq tilida o'z otasiga nisbatan *ága* murojaati ishlatilgan. Buning sababi esa yosh kuyov va kelin birinchi farzandini, uying yoshi kattalari oldida “mening bolam” deb aytishga andisha qilishgan, shuning uchun “otasining bolasi, kampirning bolasi” kabi birikmalar paydo bo'lgan. O'z otasiga nisbatan *ága*, onasiga nisbatan esa *kishi* deb murojaat qilingan. Hozirgi kunda esa yoshlar nutqida o'z ota-onasiga nisbatan *papa* va *mama* kabi chetdan kirib kelgan, varvarizmlarga asoslangan murojaatlar ishlatilishini afsus bilan aytishdi. Xorazm shevasida bo'lsa, o'z otasiga nisbatan *og'a* terminning sinonimi bo'lgan *akə* murojaati qo'llaniladi. Tilshunos olim Fattoh Abdullayev “O'zbek tilining Xorazm shevalari” kitobida *akə* termini *ota*, *dada* (bolaning otasi yosh, bobosi tirik bo'lsa) kabi ma'nolarda ishlatilishini izohlab, “*ag'a*” so'zini ko'p ma'noli so'z sifatida tahlil qilib, quyidagi ma'nolarini keltirib o'tgan:

1. Og'a, aka.
2. Yoshi katta kishiga hurmat bilan murojaat qilish, amaki, tog'a.
3. Yor, mahbus [11].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Og'a so'zining leksik-semantik xususiyatlarini to'la yoritib berish uchun tadqiq qilinayotgan materialning xarakteridan kelib chiqqan holda, tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, semantik, tarixiy-etimologik, kontekstual kabi tadqiqot metodologiyasidan foydalanish ma'qul topildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** *Og'a* termini o'rganish natijasida hech qaysi turkiy tilda uchramagan *yor, mahbub* ma'nosiga duch keldik. Buni quyida, Xorazm folkloridagi dostonlardan to'plangan murojaat birliklari misolida ochib berishga harakat qildik. Xorazm shevasiga tegishli boshqa manbalarda ham, *yor, mahbub* ma'nosini uchratmadik. Masalan, Otanazar Madrahimovning "O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi" kitobida *a:g'a* so'zining ikkita ma'nosi berilgan: 1) *aka, og'a*; 2) *o'zidan yoshi katta kishiga murojaat* [12]. Xorazm folklori namunalarida uchraydigan *og'a* murojaat birligini quyidagi ma'no guruhlariga ajratdik:

1. "Tug'ishgan aka" ma'nosi:

*Yuragimni o'ta dog'lab,*

*Iqbolima qora bog'lab,*

*Guljamila qolar qon yig'lab,*

**Jon og'am, qayga borasan?** (Oshiqnoma. 4-kitob, 22-b.)

2. "Mansab-amal" ma'nosi:

*Otimni ber, man otimg'a minayin,*

*Man ham saning birla Hamro borayin,*

*To'qashohni sanga tutib berayin,*

**Xon og'ajon, manga bergil otimni.** (Oshiqnoma. 1-kitob, "Edigo," 208-b.)

**Og'a beklar, bir go'zala moyilam,**

*Tila tushmas armanidir-armani* (Oshiqnoma. 1-kitob, "Sayyod va Hamro" dostoni, 28-bet)

3. "Sevgan yor, mahbub" ma'nosi:

**Og'a begim, eshit arzim,**

*Sevar yorimdin ayrildim.*

*Jasadimdan chiqib jonim,*

*Shirin jonimdin ayrildim.* (Oshiqnoma. 1-kitob, "Sayyod va Hamro" dostoni, 13-b.)

4. Notanish insonlarga murojaat ma'nosi:

**Ey og'alar, gilona boq gilona,**

*Asilxonning jayronidur bu jayron* (Oshiqnoma. 2-kitob, "Asil va Karam", 264-b.)

5. "Yaqin do'stlik" ma'nosi:

**Og'alar, tun-kecha Xalab-Shirvondan,**

*Bir yor savdosins tushdim-da keldim,*

*Ayb aylamang, do'stlar, meni keldi deb,*

*Shul yor savdosinga tushdim-da keldim.* (Oshiqnoma. 4-kitob, 24-b.)

Shu o'rinda, Xorazm folklori namunalarida *og'a* so'zi murojaat birligi vazifasida gap boshida, gap o'rtasida va gap oxirida uchrashini ko'rib chiqamiz. Ya'ni, uch holatda: prepozitiv, interpozitiv va postpozitiv. Chunki bu o'rinlarda uchragan murojaat birliklarining konnotatsiyani ifodalashi bir xil bo'lmaydi. Ammo A. Abdullayev "O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli" kitobida "Undalmaning emotsionallik ifodalash darajasi uning gapning qaysi o'rnida kelishi bilan emas, balki qanday gap tarkibida qo'llanilishi bilan bog'liq" [13], deya fikr bildirgan. Biz bu fikrni biroz o'zgartirgan holda, undalmaning qanday gap tarkibida (sodda, buyruq, so'roq, yoyiq, yig'iq h.k.) kelishi va qaysi o'rinda (prepozitiv, interpozitiv, postpozitiv) kelishi gapning emotsionallik darajasiga ta'sir qila oladi, degan fikr ayta olamiz. Gap boshida keluvchi murojaatlar muloqot o'rnatish, so'zlovchining diqqatini tortish appelyativ-vokativ vazifa bajarisa, gap o'rtasi va oxirida keluvchi murojaat birligi esa muloqot o'rnatish, tinglovchining e'tiborini tortish, vazifasini emas, muloqot jarayonini bir maromda ushlab turish yoki so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan turli xil munosabatini ifodalaydi [14]. Quyidagi misolda:

**Og'alar, bir pari ko'rdim,**

*Sochi oyog'ina tushar.* ("Sayyod va Hamro". 22-b.)

Prepozitiv holatdagi undalma gap boshida kelgan va so'zlovchining maqsadi tinglovchining diqqatini tortish bo'lib, fikr konkret adresatga qaratilgan. Gap boshida keladigan murojaat birliklari boshqa o'rinda keladigan murojaatlarga qaraganda, kuchliroq intonatsiya bilan tallaffuz qilinadi. Atoqli ot bilan ifodalangan murojaat birligining gap boshida kelishi esa faqatgina tinglovchining diqqatini tortibgina qolmasdan, keyinchalik u bilan aloqani uzmaslik muhimligini ham anglatadi va undash funksiyasini bajaradi. Masalan,

**Po'rxon og'a, qani berroq gal.** ("Yusuf masxaraboz". 15-b.)

Gap o'rtasida kelgan murojaatda esa pauza kuchsiz bo'ladi va shu sababli kirish so'zga o'xshab pastroq ohangda aytiladi. Quyidagi misolda, gap o'rtasida kelgan murojaat birligi iltimos, yalinish kabi ma'no ottenkalarini bildirib kelgan :



*Arzim eshit, Go'ro'g'li og'a,*

*Biza bir sevar yor gativir.*

*Bir yora bo'ldim intizor,*

*Og'a, biza bir yor gativir.* (Oshiqnoma. 4-kitob, 285-b.)

Postpozitiv holatdagi murojaat birliklarida gapdagi ekspressivlikning ifodalanishi ancha yuqori bo'ladi. Ya'ni bunday murojaatlarda oldin fikr ifoda qilinadi, so'ngra tinglovchining diqqati tortiladi. Gap oxirida murojaat birliklari qatnashgan gaplar, ko'pincha, yig'iq gaplar qatoriga kiradi.

*Osmonda oy o'ynaydi,*

*Ko'zim yorga to'ymaydi.*

*Yaxshi ko'rgan yoringa,*

*Dushman qovushtirmaydi.*

*Dig'a-dig'a, dig'ajon,*

*Yoring bo'lay, og'ajon!* (O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. 82-b.)

Yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlarimizga ko'ra, ba'zi turkiy tillarda *og'a* murojaati faqat erkak kishilarga nisbatan emas, ayollarga nisbatan ham qo'llangan, masalan, qadimgi uyg'ur xonadonlarida yoshi katta ayolga nisbatan *og'acha* deb murojaat qilingan. Bunday misollarni, Xorazm folkloridagi dostonlarda ham uchratamiz:

– *Xizmatkor kampir deshona chiqib, Go'ro'g'liga bir qaradidon ortina qaytavardi. Galib parizoda ayttiki, ey Og'a Yunus parizod, dushingda go'rgan odamzod shumi, dadi.* (“Go'ro'g'li”, 65-b.).

Ayrim yoshlarimiz o'zidan katta yoki kichiklarga, oila a'zolariga murojaat qilganlarida yoki ularga ishora qilganlarida tilimizga o'zlashmagan so'zlarni qo'llashadi. “Отец”, “папам”, “папашам” so'zi o'rnida “otam”, “otajonim”, “dadam”, “padarim” kabi so'zlarni; “момой”, “мамишкам” so'zi o'rnida “onam”, “onajonim”, “oyim” so'zlarini ishlatsalar qarindoshlar orasidagi mehr-muhabbat o'n chandon ortgan bo'lur edi. “Брат”, “братан” so'zi o'rniga “og'a”, “og'ajon”, “aka”, “akajon”, agar o'zidan katta, lekin aka-uka bo'lmagan insonga murojaat qilinsa, “tog'a”, “amaki”, shuningdek, Xorazm hududiga xos “doyi”, “yoshulli”; keksaroq insonga nisbatan “oqsoqol”, “ota”, “otaxon”, “bobo”, “bobojon” so'zlarini qo'llashning nimasi yomon? [15].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Turkiy tillar tarixida, xususan, o'zbek xalqida *og'a* so'zi turli davrlarda turli xil ijtimoiy munosabatlarni ifodalagan va ko'plab ma'no va funksiyalarga ega bo'lgan. Qadimgi manbalarni tadqiq qilish orqali ayollarga nisbatan ham qo'llanilgan shakllarini guvohi bo'ldik. Bu matriarxat davrida paydo bo'lgan deyish mumkin.

Xorazm folkloridagi “og'a” so'zining murojaat birligi sifatida qo'llanilishini o'rganish asnosida, uning shu kungacha mavjud lug'atlarda va bajarilgan tadqiqotlarida qayd qilinmagan ma'nolari ham folklor manbalarida va Xorazmning jonli so'zlashuv tilida tug'ishgan aka, amal-mansab, sevgan yor, mahbub, yaqinlik do'stlik va notanish insonlarga murojaat kabi ma'nolari aniqlandi va kelgusida bu ma'nolarni ham lug'atlarda aks ettirish ehtiyoji mavjud deb hisoblaymiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayin. Toshkent, Akademiya nashri, 2017, 9-bet.
- (2). Mahmud Koshg'ariy. Devoni lug'atit turk. Toshkent, G'afur G'ulom, 2017, 48 – 50-betlar.
- (3). Abduvohid Hayit. Og'a. <https://telegram.me/share?url=https://tarjumon.uz>
- (4). O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild, Toshkent, G'afur G'ulom, 2023, 582-bet.
- (5). Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. Toshkent, “Fan”, 2001, 165-bet.
- (6). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild, Toshkent, “Universitet”, 2000, 264-bet.
- (7). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. 1-jild, Toshkent, “Universitet”, 2000, 26-bet.
- (8). Sevortyan E.V. Этимологический словарь тюркских языков. Москва, “Наука”, 1974, с. 70.
- (9). Mashrabov A.A. Тууганчылык терминдерине ономазиологиялык илик. Monografiya, Bishkek, “Ayat”, 2017, 79-bet.
- (10). Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. 1-tom, Nukus, “Qaraqalpaqstan”, 1982, 24-bet.
- (11). Abdullayev F. O'zbek tilining Xorazm shevalari. 1. Toshkent, O'zFA, 1961, 21–22-betlar.
- (12). Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasi. Toshkent, 1973, 103-bet.
- (13). Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikni ifodalashning sintaktik usuli. Toshkent, “Fan”, 1987, 76-bet.
- (14). Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklari. Diss., Toshkent, O'zR FA, 2009, 62-bet.
- (15). Primov A., Ro'zmatova N. Yoshlar nutqidagi murojaat birliklari va rasmiy-odatiy so'zlar haqida. “Tafakkur ziyosi”, XXXIX tom, Toshkent, Adabiyot uchqunlari, 2017, 61-bet.

Nazarova Dildora Ilhomovna (Buxoro davlat Tibbiyot instituti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: [dildorailhomovna1988@gmail.com](mailto:dildorailhomovna1988@gmail.com))

ZAMONAVIY SHE'RIYATDA SAQLANGAN MUMTOZ JANRLAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy she'riyatda aruzda yaratilgan lirik asarlarning janriy tizimi va tarkibi, o'ziga xos badiiy xususiyatlari mustaqillik davrida yaratilgan she'rlar misolida umumlash-tirilib o'rgan. Aruzda yaratilgan zamonaviy she'rlarning badiiy strukturasiidagi fonetik va leksik-stilistik o'zgarishlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** g'azal, ruboiy, masnaviy, muxammas.

Назарова Дилдора Илхамовна (доцент Бухарского государственного медицинского института, доктор философских наук в области филологических наук (PhD); e-mail: [dildorailhomovna1988@gmail.com](mailto:dildorailhomovna1988@gmail.com))

КЛАССИЧЕСКИЕ ЖАНРЫ, СОХРАНИВШИЕСЯ В СОВРЕМЕННОЙ ПОЭЗИИ

**Аннотация.** В данной статье на примере стихотворений, созданных в период независимости, обобщаются жанровая система и композиция лирических произведений, созданных в современной поэзии, а также их специфические художественные особенности. Описаны фонетические и лексико-стилистические изменения в художественной структуре современных стихотворений, созданных в Арузе.

**Ключевые слова:** газель, рубаи, маснави, мухаммас.

CLASSIC GENRES PRESERVED IN MODERN POETRY

**Annotation.** In this article, the genre system and composition of lyrical works created in modern poetry, as well as their specific artistic features, are summarized on the example of poems created during the period of independence. Phonetic and lexical-stylistic changes in the artistic structure of modern poems created in Aruz are described.

**Key words:** gazzelle, rubai, masnavi, mukhammas

**Taqrizchi filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent Gafurov Baxtiyor Zakirovich**

**Kirish (Introduction).** Mustaqillik davri o'zbek she'riyati o'zbek mumtoz va XX asr o'zbek adabiyotining vorisiy davomi sifatida rivojlandi va takomil topdi. Buni bevosita she'riy janrlar taraqqiyotida kuzatish mumkin. Davr she'riyatida shoirlarimiz mumtoz lirik janrlar: g'azal, ruboiy, muxammas, qasida singari janrlarda samarali ijod qilib, zamondoshlarimizning o'y-kechinmalarini, turli hayotiy mavzularni badiiy ifodalashga erishdilar.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Maqola Alisher Navoiy, Turdi, Maxmur, Muqimiy kabi mumtoz adabiyot namoyandalari ijodida ishq, vafo va sadoqat tarannum etilgan g'azallar mustaqillik davrida yaratilgan ijod namunalari bilan o'zaro qiyoslanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu mavzuni yoritishda zamonaviy she'riyatda saqlangan mumtoz janrlar ruboiy, muxammas, g'azallarda a'naviylik va yangilanishlar haqida fikr yuritiladi

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Davr she'riyatida yuz ko'rsatgan mumtoz janrlardan biri g'azaldir. G'azal ko'hna va hamisha navqiron janrdir. Adabiyotimiz tarixining barcha bosqichlarida, jumladan, XX asrda mazkur janr taraqqiyoti to'xtab qolgani yo'q. Odam Atodan qolgan sevgi yanglig' she'riyatimiz qoniga singib bormoqda. Bu fikrlarni bejizga keltirayotganimiz yo'q.

G'azal so'zi arabcha ayollarga bo'lgan muhabbat so'zidan olingan. Shuning uchun g'azal janrida ishq muhabbat mavzui yetakchilik qiladi. Biroq g'azal, dastlab, ishqiy mavzuda yozilgan bo'lsa ham, keyinchalik, uning mavzu doirasi kengaya borgan. Natijada ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy hamda hajviy g'azallar vujudga kela boshlagan. Alisher Navoiy, Turdi, Maxmur, Muqimiy, Erkin Vohidov kabi mumtoz va zamonaviy shoirlar ijodida ishq, vafo va sadoqat tarannum etilgan g'azallardan tortib, jamiyatdagi ayrim shaxslardagi yaramas illatlarni fosh qiluvchi, ijtimoiy hayot muammolarini ilgari suruvchi g'azallargacha uchraydi. Shunday bo'lsa-da, g'azalda ishq, vafo va sadoqat haqidagi munavvar va muborak g'oyalar hamisha porlab turadi.

Erkin Vohidov ham romantik xayollar og'ushida ishqiy g'azallar bitdi, ko'ngil zavqini, sevgi va baxt nashidasini, turmushdan shukronalik, roziligini to'lib-toshib kuyladi. Uning ijodida hayot madhi, sevgi sururi, faxr-iftixor tuyg'usi yetakchilik qiladi. Bunday kayfiyat, xususan, shoirning "Yoshlik" devonida yorqin ko'rinadi. Shoirning o'zi buni shunday izohlaydi: "Biz realistlarmiz, biroq romantik kayfiyat realistlar uchun yot emas. Aruz, xususan, g'azal shaxsan menga romantik kayfiyatlarni ifoda etish uchun juda qulay

vosita. Romantik kayfiyatda, tabiiyki, kishi zamindan jinday yuqoriroq ko'tariladi, obrazli qilib so'zlashga, balandroq pardalarda kuylashga moyilroq bo'ladi. Ehtimol, g'azalda ko'tarinki an'anaviy obrazlarning o'z-o'zidan qalashib kelishi shundadir".

Erkin Vohidovning "Samarqand" nomli g'azalida ko'hna shahar tarixi lirik talqin qilingan. Shu orqali shoir o'zining Vatanga muhabbat g'oyalari bilan sug'orilgan lirik kechinmalarini ifoda etadi. U Samarqand shahrining moviy gumbazlarini ko'zdan kechirarkan, ko'ngli xayollarning otashin girdobida qolib, bu saroylarining g'ishti mazlum elning ko'z yoshi bilan xokidan bunyodga kelganligini xotirga keltiradi. U shu zaminda yashab o'tgan Mirzo Ulug'bekni yodga oladi. Erkin Vohidov g'azaliyotida tabiat, jamiyat, Vatan, komil inson, ma'naviyat, axloq mavzulari chuqur badiiy tahlil etiladi.

Shoirning "Ko'zing" radifli g'azalida insonning insonga samimiy va pok muhabbati tarannum etilgan. Unda insonning ilohiy go'zalligi shunday ifoda etilgan:

*Ko'zlaring yulduzmi, yo'q,  
Yulduz erur har uchquni,  
Qorachig' kuygan quyosh-u*

*Moviy osmondir ko'zing. (1)*

Bunda an'anaviy tashbehtar zamonaviy ohanglarda kitobxonga yetkaziladi. Binobarin, ko'zning yulduzga o'xshatilishi mumtoz she'riyat uchun an'anaviydir. Shoir an'anani ijodiy davom ettiradi. Ya'ni tashbeh san'ati asosida ko'zni yulduzga qiyos etadi, yana uni inkor etib, ko'z nurini yulduzga mengzaydi. Yo-xud qorachig'ni kuygan quyoshga, ko'zni yorug'lik taratish xususiyatini hisobga olib, moviy osmonga o'xshatadi. E'tibor berilsa, shoir an'anaviylik asosida noan'anaviy, yangicha tashbehtar yaratadi. U ko'zning ichidagi har bir a'zoning xususiyatidan kelib chiqib, ularga mutanosib mushabbihtar tanlay olgan. Natijada ma'shuqaning ko'zi haqida yaxlit tasavvur uyg'otuvchi badiiy manzara vujudga kelgan.

"Sevgi kelsa" g'azali an'anaviy ishq mavzusidadir:

*Sevgi kelsa qaddi yo ham yosh bo'lur,  
Sevgisiz jonona haykaltosh bo'lur.  
Sevgi faslida tikandan gul unar,  
Sevgi ko'yida shamol farrosh bo'lur. [4]*

Bu g'azalda shoirning tashbehtar ohorli. Muhabbat shunday tuyg'uki, u ko'ngilda barq ursa, hatto "qaddi yo", ya'ni keksa qalb ham yosharadi, demoqchi bo'ladi shoir. Baytning ikkinchi misrasi Nodiraning "Muhabbatsiz kishi odam emasdur" satrlarini yodga soladi. Shoir sevgisiz jononani haykaltoshga qiyos etmoqda.

Keyingi baytda bu fikr rivojlanib boradi. Yuqorida ta'kidlaganimizday, sevgi fasli shunday davrki, unda, hatto tikandan gul unadi. Ikkinchi misra shoirning badiiy topilmasidir, ya'ni sevgi ko'yida shamol farroshga aylanadi. Zero, farrosh timsoli ramziy mazmun tashimoqda.

*Chin muhabbat ming jafoga dosh berar,*

*Lek xiyonatga u bebardosh bo'lur.*

Shoir aytmoqchi, chin muhabbat ming bir jafoga dosh bera oladi. Lekin u xiyonat bilan kelisholmaydi. Mazkur g'azal ramali musaddasi mahzuf (foilotun, foilotun, foilun) vaznida bitilgan.

"Muhabbat birla" g'azalida ishq tushunchasining falsafiy talqiniga duch kelamiz. Shoir bu g'azalida muhabbatga munosabat bildirar ekan, muhabbat bilan chekilgan g'urbat rohatga tengligini, muhabbatsiz ishrat esa kulfatga barobarligini badiiy ifoda etadi. Bemuhabbat nusratni hasratga teng ko'radi. Muhabbat otashini do'zaxga emas, qaytaga jannat lazzatiga barobar qo'yadi. Shoir ishq ahliga shunday murojaat bilan g'azalni yakunlaydi:

*Kechib qo'y, oshiq o'lgach,  
Ikki olam mulkidan, Erkin.  
Muhabbat ichra barcha –  
Zahmating davlat bilan tengdir. (351-b.)*

Xullas, shoir g'azallarida ishq-u hajrning olamga va odamzodga azaliy meros ekanligi, bizga fidoyilik Farhodan, junun esa Majnundan o'tganligi, sevgining munavvar oftob kabi inson qalbini va hayot yo'lini yoritishi, iliqlik baxsh etishi e'tirof etiladi.

Demak, E.Vohidov g'azalchilikda Alisher Navoiy she'riyatiga ham mazmun, ham shakl jihatidan er-gashgan. Shoirning o'ziga xosligi shundaki, u mumtoz janrdagi asarlarga zamonaviy ruh olib kirdi.

Shoir she'riyatida ijtimoiy mazmundagi g'azallar ham mavjud. Jumladan, "Bu zamon g'azali" deb nomlangan g'azal bu jihatdan e'tiborli:

*Tillashibdir bo'ri birla tozilar,*

*Birlashibdir o'g'ri birla qozilar.*

E'tibor berilsa, g'azalda bugungi hayotimizdagi noxush holatlar, ma'naviy buzilishlar aks etgan. Shoir bo'ri, tozilar der ekan, inson qiyofasidagi ayrim noqis kimsalarga ishora qiladi.

*Biz chunon xizmatga belni bog'ladik,*

*Bormi himmat o'lchagich torozilar.*

Bu misralarda shoir "himmat o'lchagich torozilar" der ekan, avvalo, tarozini ko'chma ma'noda qo'l-laydi. Bu ifoda ham ma'naviy hayotimizga daxldordir.

Jamol Kamolning "Yana ko'nglimda ul oy" nomli aruziy to'plamidan bir qator g'azallar o'rin olgan. Shoir g'azallarining aksariyati mumtoz adabiyot an'anasiga ko'ra muhabbat mavzuidadir. Ayni choqda Vatan, istiqloq mavzuidagi she'rlar ham bor.

"Muhabbat ne o'zi, deb so'rmagil" g'azali hazaj musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun) vaznida bitilgan.

*Muhabbat ne o'zi, deb so'rmagil*

*Jisingga jondir bu,*

*Yana hijron nadir, deb so'rmakim,*

*Oh-u fig'ondir bu.*

Shoir ishqni jism aro jon deb ta'riflamoqda. Zero, muhabbatning ayriliq, hijron damlari ham mavjud. Shoir uni ohu afg'onga tenglashtirmoqda.

Shu tarzda shoir insondagi eng bebaho tuyg'u – muhabbatni ravshan osmonga, arg'uvonga, qumri, bulbul sayraguvchi oshiyonga, chashmai obi ravonga qiyos etadi. Bu tashbehtar ayni zamonda she'rdagi qofiyani – ohangdoshlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Shoirning "O'landan so'r" g'azali Fuzuliyga nazira sifatida bitilgan. Ma'lumki, Fuzuliyning g'azali "Shifoi vasl qadrin tashnai bedor o'landin so'r" deb boshlanadi. Demak, g'azal ishq haqidadir. J.Kamol ham g'azal vazni, qofiyasi, radifi, ohangini to'liq saqlagan holda Vatan mavzusida g'azal yozgan:

*Vatanning qadrini g'urbat elida*

*Xor o'landan so'r.*

*Bu gulshan sehrini bir termulishga*

*Zor o'landan so'r. [5]*

Yuqoridagi satrlarda Vatan qadri haqida fikr yuritilmoqda. Binobarin, vatanning qadrini g'urbatda, yurtndan yiroqda bo'lgan kishi aniq his qiladi. "Gulshan" – vatanni ifoda etmoqda. Vatan shunday tuyg'uki, uning sehri har qanday insonni o'ziga tortadi.

*G'animlar ilkida Turon zamin*

*Chekkam alamlarni*

*Jahonda haq huquqi bir yo'la*

*Inkor o'landan so'r.*

Bunda shoir Vatan tarixiga nazar tashlaydi. Binobarin, Turon zamin o'z boshidan juda ko'p jangu jadallarni kechirgan.

*Shukur, yuz ochdi istiqloq,*

*Bo'yindan tushdi zanjirlar.*

*Bu toleni hamisha boshi uzra*

*Dor o'landan so'r.*

Yuqoridagi satrlarda Vatan istiqloqidan shukronalik, istiqbolga ishonch ruhi yo'lqinlanib turibdi. G'azal hazaj musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun) vaznida yozilgan.

Sirojiddin Sayyidning g'azalchilikdagi izlanishlari alohida e'tiborga molik. Uning turli mavzularda yozilgan "Ikki dil g'azali", "Muhabbat koshonasi", "To Navoiy bor", "Ayol manzumasi", "Oybek", "Ilinj" kabi g'azallari shular jumlasidandir. "Ilinj" she'ri Vatanga muhabbat tuyg'ulari bilan to'lib-toshgan:

*Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,*

*Kipriklarim o'psalar, bas, gardlaringdan.*

*Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,*

*Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan. [6]*

Adabiyotshunos N.Rahimjonov bu she'r haqida yozadi: "Shoir ijodiy individualligining o'ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlar aro munosabat ko'rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-etetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo'lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati namoyon bo'ladi" [4;153-b.]. Binobarin, S.Sayyid satrlari tongda esgan nasim – shamol yanglig' qalblarga go'zal tuy-

g'ular, shabboda misol fikr-o'ylar olib kiradi. Undagi poetik detallar: gard, nasim, sas, xas, barg, chiroq, buloq kabilar lirik qahramonning ona yurtga muhabbatini ifodalashga xizmat qilgan.

Adabiyotshunos Nurboy Abdulhakim shoirning Vatan haqidagi o'tli misralarini tahlil qila turib, "Ilinj" she'riga alohida to'xtaladi: "Sirojiddin Sayyid – dardli shoir. Uning zohiran quvonchli holatlarning go'zal poetik ifodai berilgandek ko'ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g'amida yashayotgan ko'ngil iztiroblari silqib turadi. "Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oyu quyosh" bo'lgan Vatan haqida "ko'-zida yosh, yuzida yosh" bilan yozishining sababi shunda" [5;4-b.].

Sirojiddin Sayyidning "Mir Alisher" she'ri g'azal kabi a-a, b-a, d-a, g-a shaklida qofiyalangan. Shoir ulug' Navoiyga bo'lgan muhabbatini o'tli satrlarda ifoda etadi:

*Tiriklikning bongi Navoiy,*

*Buyuklikning rangi Navoiy.*

*Bir yorishdi zim-ziyo olam,*

*Turkiylarning tongi Navoiy,*

*Besh asrlik ro'yodir dunyo,*

*Besh asrlik o'ngi Navoiy. [6;121-b.]*

E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida Navoiyning buyukligi ochib berilgan. Navoiyga nisbatan ishlatilgan sifatlashlar nihoyatda ohorli. Binobarin, Navoiy tiriklikning, hayotning ovoqidir. Navoiyning dunyoga kelganligi zim-ziyo olamning yorishganligidir. Agar tabiat, hayot tunu kunduzdan, tong-u shomlardan iborat bo'lsa, Navoiy o'zbekning tongidir. Zero, tong yorug'lik ramzi, yangi hayotning boshlanishini ifoda etadi. Agar dunyo besh asrlik ro'yodan – yolg'ondan iborat bo'lsa, uni rostga, o'ngga aylantirgan kishi ham Navoiydir.

"Shoh Bobur" she'ri g'azal ohanglarida bitilgan. Unda Boburning iztirobli lahzalari aks etgan:

*Buncha ham oh tortdingiz, oh Bobur,*

*Muttahamlar dunyosida shoh Bobur...*

*Kecha uzun, manzil olis, yo'l uzoq.*

*Sizga faqat yolg'iz oy hamroh, Bobur*

*Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,*

*Kimlar sizga qazmadilar, choh Bobur (15-b.)*

Ma'lumki, Boburning hayoti murakkab davrda, jang-u jadallarda kechgan. Dastlabki baytning birinchi misrasida "oh" so'zi ikki marta qo'llanilgan. Birinchisida "oh tortdingiz" qo'shma fe'l tarkibida Boburning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchisida, "oh" undov so'z sifatida kelgan va o'sha ruhiy holatning kuchliroq aks ettirilishini ta'min etgan. Keyingi baytda uzun kecha, olis yo'lda o'ning hamrohlik qilishi Boburning shoirligini ifoda etadi. Boburga sadoqat va xiyonat oralig'ida umr kechirgan. S. Sayyid uchinchi baytda ana shu voqelikka ishora qilib, nonko'r beklar, beoqibat mirzolarning Boburga bir umr choh qazganligini tasvirlaydi.

She'rni o'qish davomida S.Sayyidning shoh va shoir Bobur ruhiyatidagi o'zgarishlarni teran ifoda etganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu tarzda "shoirligi shohligidan ulug', shohligi ham she'riday ogoh" Zahiriddin Boburning lirik siyosini badiiy gavdalandiradi.

"Oybek" she'ri ham aynan shu uslubda yaratilgan. "Shoh Bobur" she'ridagi kabi ("Bobur" so'zi radif bo'lib kelgan) Oybek o'zi ham misralar osha radif vazifasini bajargan. Binobarin, radifning badiiy vazifasidan kelib chiqilsa, ushbu so'zga shoirning qanday mazmun yuklaganligi oydinlashadi.

*O'zicha tushmagan osmondan Oybek,*

*Yaralmish mehr ila armondan Oybek. 789- (17-b.)*

G'azal vazni va shaklida bitilgan bu satrlar matla'dir. Ushbu she'r aruzning hazaj bahrida yozilgan.

*Agarchi davr uni tildan ayurdi,*

*Vale ayrilmadi iymondan Oybek.*

Ma'lumki, Oybek o'tgan asrning 50-yillarida qator qarama-qarshiliklarga duch kelgan. Natijada u xastalangan. Shoir aytganiday, davr uni tildan ayirgan. Lekin Oybek o'z e'tiqodida mustahkam turgan.

*Hasad g'avg'osi-yu minnat jafosi*

*Ne ko'rdi ul buzug' davrondin Oybek.*

Oybek yashagan davr deyarli sobiq tuzumga to'g'ri keladi. Barcha davrlarda ham yorqin iste'dodlarga hasad ko'zi bilan qaralgan. Ko'klarga ko'tarilgan sobiq tuzumda Oybekka o'xshagan yuksak iqtidor sohiblarining hayoti bir tekis, silliq kechmagan. Shu bois shoir "buzug' davron" Oybek boshiga ko'p ko'rguliklar solganligini qalamga oladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Umuman olganda, istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida g‘azal yetakchi janrlardan biriga aylandi. E.Vohidov, J.Kamol, S.Sayyid singari taniqli shoirlar mazkur janr imkoniyatlaridan foydalanib, jozibali poetik manzaralar yaratishga erishdilar. Yuqoridagi tahlillarda kuzatilganidek, bu davrda yaratilgan g‘azallarga xos mushtarak jihat – ularning, asosan, mumtoz adabiyotda keng tarqalgan aruzning ramal va hazaj bahrlarida yaratilganligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Вохидов Э. Умрим дарёси. Сайланма. Учинчи жилд, Тошкент, “Шарк”, 2001, 45-бет.
- (2). Жамол Камол. Яна кўнглимда ул ой. Тошкент, “Meriyus”, 2010, 178-бет.
- (3). Сирожиддин Саййид. Қалдирғочларга бер айвонларингни. Тошкент, “Шарк”, 2005, 32-бет.
- (4). Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. Тошкент, “Фан”, 2007, 153-бет.
- (5). Абдулҳаким Нурбой. “Оламда энг оғир сўзнинг йўлидир”. “ЎзАС”, 2005 йил, 1 сентябрь.
- (6). Саййид Сирожиддин. Дил фасли. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2007, 121-бет.

**Maxsumov Maqsud Maxmut o‘g‘li (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti doktoranti)  
ALISHER NAVOIY IJODIDA NAFS DARAJALARINING BADIY IFODASI**

**Annotatsiya.** *Maqola kishilik jamiyatining muhim masalalaridan bo‘lmish “nafs” mavzusiga bag‘ishlangan. Nafs va uning darajalari Alisher Navoiy ijodi misolida ilmiy o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *nafs, ruh, nafsul ammora, nafsul-lavvoma, nafsul mutmainna.*

**Махсумов Мақсуд Махмут оглы (докторант Шахрисабзского государственного педагогического института)**

**ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ УРОВНЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ  
АЛИШЕРА НАВОИ**

**Аннотация.** *Статья посвящена теме «похоти», которая является одной из важных проблем человеческого общества. Похоть и её уровни научно изучаются на примере творчества Алишера Навои.*

**Ключевые слова:** *похоть, душа, нафсул аммора, нафс ул-лаввома, нафс ул-мутмаинна...*

**ARTISTIC EXPRESSION OF LUST LEVELS IN THE WORK OF ALISHER NAVOI**

**Annotation.** *The article is dedicated to the topic of “lust”, which is one of the important issues of human society. Lust and its levels are scientifically studied on the example of poet Alisher Navoi’s works.*

**Key words:** *lust, spirit, nafsul ammora, nafs ul-lavvoma, nafs ul-mumainna.*

**Kirish (Introduction).** Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish, undagi boy ma‘no va mazmun-mohiyatni chuqur anglash na faqat turkiy xalqlar uchun, balki bani bashar uchun hayotiy zaruratga aylanib ulgurgan. Egey universiteti “Turk dunyosi tadqiqotlari” instituti professori Fikret Turkman ta‘biri bilan aytganda, “Alisher Navoiy turk dunyosining mushtarak qadriyatidir. G‘arbdan Sharqqa qadar turkiy xalqlarning barchasi Navoiyni faxr ila “bizniki” deyshadi”. Negaki, Navoiy asarlarining mavzu va mohiyati gumanizm g‘oyasi bilan sug‘orilgan, ularda bani bashar muammolari qamrab olingan. Yana shuni alohida aytish kerakki, Alisher Navoiy qalami qamrab olmagan mavzu deyarli mavjud emas. Xuddi shu aktuallik Navoiyni o‘z davridan boshlab to hanuzgacha o‘rganilishiga sabab bo‘lib kelmoqda. Daho ijodkorning nihoyatda boy adabiy merosi barcha davrlar va barcha xalqlar uchun o‘z dolzarbligini yo‘qotgan emas. Biz mazkur maqolamizda bashariyat kamoloti uchun muhim hisoblangan “nafs” mavzusi haqida so‘z yuritmoqni maqsad qildik.

Tasavvuf va Sharq mumtoz adabiyoti muammolarini fundamental tadqiq qilish ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, bu nafaqat bizning, balki chet el sharqshunosligining ham diqqat markazida bo‘lib kelgan masalalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, tasavvuf ta‘limotida nihoyatda muhim hisoblangan “nafs” mavzusi va uning mumtoz she‘riyatdagi badiiy talqini masalasi ham bu ulkan adabiy merosning hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzularidan hisoblanadi. Shuning uchun ham shoir ijodidagi bu masalani keng ko‘lamda monografik o‘rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Navoiy yashagan davrda tasavvuf va u bilan bog‘liq qarashlar ijtimoiy hayotning muhim bir ma‘rifiy, axloqiy, tarbiyaviy kategoriyalarini belgilab beruvchi ta‘limot hisoblangan. Shunday ekan, shoir ijodini bu ta‘limotdan ajratib o‘rganishga harakat qilish mutlaqo noto‘g‘ridir. Binobarin, sovet davrida Alisher Navoiy ijodini o‘rganish bilan bog‘liq yo‘l qo‘yilgan eng katta kamchilik – bu shoir ijodini tasavvuf ta‘limotidan ayri holda tadqiq etishga urinilgani va yoki uning ijodidagi mazkur ta‘limot o‘rnini butunlay inkor etish yo‘lidan borilganidir [10;5–6-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Mavzu jahon faylasuflari, adabiyotshunos va ruhshunoslari ishlarida ham atroflicha o'rganilgan. Xususan, Najmiddin Komilovning 2009-yilda "O'zbekiston" nashriyotida nashr etilgan "Tasavvuf", Ibrohim Haqqulovning 2007-yilda "Fan" nashriyotida bosilib chiqqan "Navoiyga qaytish" asarlarida bu mavzuga murojaat bor. Qolaversa, Buxoro davlat Pedagogika instituti olimasi Madina Ibotova, Shahrizabz davlat Pedagogika instituti dotsenti A.Muhammadiyev kabi ko'plab olimlarimizning tadqiqotlarida mazkur mavzu o'rganilgan.

Darhaqiqat, Navoiy ijodini tasavvufsiz tasavvur qilishning o'zi dahshatlidir. "Nizomiddin Navoiy XV asrda tariqatning Xuroson, Hindiston va boshqa islom olami bo'ylab tarqalishida munosib hissa qo'shgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy singari o'zlarining qator asarlari – "Nasoyim ul-muhabbat" [4], "Hayrat ul-abror" [3] va boshqa dostonlari, she'riyatida naqshbandiya tariqati qonun-qoidalarini tahlil va talqin etdilar. Shuningdek, bu tariqatning ommalashuvida o'zlarining munosib ulushlarini qo'shdilar" [9;84-b.]. "G'aroyib us-sig'ar"da naqshbandiya tariqatining to'rtta eng muhim tamoyili haqida so'z yuritgan Navoiy inson nafs tarbiyasining tarhi (nizomi)ni ifodalab quyidagicha yozadi:

*Bu to'rt ish bila rub'i maskun aro,  
Cholinmoq ne tong ko'si davlat sanga.  
Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband,  
Navoiy agar yetsa navbat sanga. [9;85-b.]*

O'zlarining ham naqshbandiya tariqatiga mansubliklarini izhor etgan holda "Xilvat dar anjuman", "safari dar vatan", "nazar bar qadam", "hush dar dam" – bu to'rt ish, to'rt tamoyilni shior qilgan kishi yer yuzining barcha davlatini egallagandek, deydilar Navoiy [9;86-b.].

Adabiyotshunos olim Ahadxon Muhammadiyevning "G'aroyib us-sig'ar"da naqshbandiya tariqatining tamoyillari tahliliga bag'ishlangan bu maqolasida "Xilvat dar anjuman", "safari dar vatan", "nazar bar qadam", "hush dar dam" bosqichlarining har biri nafs tarbiyasining muhim jabhalari ekani ta'kidlab o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ilmiy qiyoslash hamda germeneytik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tasavvuf ta'limotiga oid manbalarda nafs va uning darajalari uchta ekani ta'kidlanadi. Ular: nafs-ul ammora – buyuruvchi, gunohkor nafs; nafs-ul lavvoma – malomat qiluvchi nafs; nafs-ul mutmainna – xotirjam, komil nafsdur [12].

Nafs-ul ammora – amr qiluvchi, yomonlikka ko'p undovchi nafs bo'lib, u haqda Qur'oni karimning "Yusuf" surasida Yusuf alayhissalom tillaridan shunday deyiladi: **"Va o'z nafsinni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka ko'p undovchidir"** [11;173-b].

Bu daraja (maqom)dagi nafs Haqni inkor etadi, har doim yomon ishlarni qilishni rejalashtirib yuradi. Nafsi ammora – kofirlar va munofiqning nafs. Ammora bosqichi nafsning zulmatdagi bosqichidirki, u bosqich faqat tuban axloq manbayidir. Bu bosqichda bo'lgan kimsalarda vasvasa bo'lmaydi, ular jahannamdan qo'rqmaydi. Bu toifa Alloh taolodan boshqa hamma narsadan qo'rqadi. Eng qattiq qo'rqadigani va nafratlanadigani o'limdir. Ularning sevgilari ham nafslari uchundir [12].

Alisher Navoiy ijodida ham barcha mutasavvif shoirlar singari nafs va uning darajalari badiiy aks etgan o'rinlar ko'p. Navoiy ijodida ham nafs ruhning dushmani sifatida badiiy ifoda etilgan. Navoiyga ko'ra, nafs ruh etagiga yopishgan loy (iflos narsa). Etakni tozalash uchun esa loydan voz kechish kerak. Demak, nafsdan xalos bo'lish, boshqacha aytganda, uni o'ldirish lozim.

*Zero, devoni Foniya shoir yozadi:  
Gadoi maykadai ishq boshu shohū kun,  
Maxoh xostai nafsū harchi xohū kun. [5;196-b.]*

Ma'nosi: (xohlasang) ishq mayxonasining gadosi bo'l, xohlasang, shohlik qil. Nimani istasang, qil, biroq nafs xohlaganini qilma.

Ta'kidlaganimizdek, Alisher Navoiy ijodida nafsning barcha darajalari o'zining badiiy ifodasini topgan. Masalan, shoir ammora nafsiga qul bo'lgan mayparastlar haqida shunday yozadi:

*Gah yiqilib, gah qo'pub ul har nafas,  
Mast solib har sori qo'l har nafas.  
May qilibon behuda holin aning,  
Qay qilib oluda saqolin aning...  
Qay saqolin har necha nopok etib,  
It yalamoq birla yana pok etib. [3;276-b.]*

Bildikki, ammora nafs sohibi faqat ma'siyat ichida yashaydi. Navoiy tasviricha, sharobdan mast holga tushgan odam ayni ammora nafs sohibidir. Chunki u o'zining insoniy qiyofasini yo'qotgani, tubanlashib, odam jirkanadigan hayvonlar qiyofasiga kirib qolganiga iqror emas. Qayt qilgani bois ahvoli nihoyatda ayanchli va kulguli. Negaki, it yalagan narsa nopok bo'ladi. Lekin bu aftodaning soqoli qayt qilish natijasida shu qadar jirkanch holga keldiki, uni it yalamoq ila pokladi, deya istehzo qiladi va shu ahvolda ham, mabodo bir zum o'ziga kelsa, yana may so'raydi, deb yozadi shoir.

Ammora nafs haqida tasavvufshunos olim N.Komilov shunday yozadi: "...so'fiylar nafsni butun falokatlarning boshi deb ko'rsatib, muridlar oldiga avval ana shu shaytoniy nafs («nafs ammora»)ni mahv etish vazifa qilib qo'yilgan edi. O'z nafsini yengolgan kishi o'zgalar g'amini yeyishi mumkin [8;112-b.].

Nafsning ammoradan qutula boshlashi lavvoma bosqichida namoyon bo'ladi. Demak, nafsning keyingi darajasi "nafsul lavvoma" – "Malomatchi nafs"dir. Qur'onning Qiyomat surasida Alloh taolo: "Va malomatchi nafs bilan qasam", deya ont ichadi. Avvalo, Parvardigori olamning O'z Qur'onida keltirilgan qasamlari xususida shuni aytilish kerakki, Alloh nima bilan qasam ichsa, shu narsa Uning huzurida qadrlidir. Demak, "malomatchi nafs" ham xuddi shunday. Bu haqda Hazrat Navoiy shunday ta'kidlaganlar:

*Bo'lub nafsing'a tobe', band etarsen tushsa dushmani,  
Senga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.*

Kishi har qancha kuchli va makkor dushmani yenga oladi. Biroq o'z nafsiga tobe'. Aslida, inson uchun eng daxshatli dushman bu uning nafsidir. Navoiy ta'kidlaydilarki, agar yenga olsang, sen avvalo o'z nafsingga kishan sol. Demak, Navoiyga ko'ra, insonning o'z nafs ustidan g'olib bo'lishi kuchli dushmani yengishdan ko'ra buyukroqdir. Angladikki, nafsning lavvoma bosqichi uning bema'ni qiliqlarini anglab, nafsqa qarshi chiqqa boshlashda ko'rinadi.

Qur'onning Fajr surasi, 27, 28-oyatlarida Robbul alamin shunday deydi: "Ey, xotirjam nafs! Robbingga sen Undan, U sendan rozi bo'lgan holda qayt! Bu oyatlar orqali bizga "nafsul mutmainna", "nafsuroziya" va "nafsul marziya"lar haqida ma'lumot berilmoqda. Demak, bularning majmui "nafsul kamila" – komil nafsni taqozo etadi. Navoiy bu haqda shunday yozadi:

*Desang, bu yo'lda o'lay, nafsni burun o'tur,  
Ki ishq shar'ida go'yo bu nav' keldi qisos.*

Demak, Navoiyga ko'ra, mutmainna nafs sohibi o'lmasdan burun o'lishi (nafsini o'ldirishi) lozim. Kishi nafsning qutqularidan xalos bo'lgach, xotirjam nafs egasiga aylanadi. Undan keyingi manzil roziya va marziya maqomlaridir:

*Rizo yo'lida Navoiy borur qayon cheksang,  
Chu ishq bog'ladi bo'ynig'a rishtayi ixlos. [2;171-b.].*

Rizo – oliy maqom. Navoiy bu yo'lda bo'lish uchun har qanday mashaqqatga rozi. Negaki, uning bo'yniga ishq ixlos arqonini mahkam bog'lagan.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xullas, nafs haqida yozilgan manbalarda nafsning "nafsul ammora" – buyuruvchi, gunohkor nafs, "nafsul lavvoma" – malomat qiluvchi nafs, "nafsul mulhima" – ilhomlantiruvchi nafs, "nafsul mutmainna" – xotirjam nafs, "nafsuroziya" – rozi bo'lgan nafs, "nafsul marziya" – undan rozi bo'lingan nafs, "nafsul kamila" – komil nafs kabi darajalari mavjudligi ta'kidlangan.

Nafs mavzusining Hazrat Navoiy ijodlaridagi badiiy talqinlarini o'rganish esa bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Negaki, nafsning bema'ni qiliqlaridan qutilgan kishigina o'zining munosib maqomiga ega bo'la oladi va kishilik jamiyati uchun foyda keltiradi. Nafsi tarbiyalanmagan kishi esa buning ziddidir. Negaki, nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-harishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham, yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm, riyokor bo'lib qoladi. Shuning uchun tasavvuf talab etgan tiyilish, qanoat, sabru faqirlik tariqida gap ko'p.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun biz Abdurrazzoq ibn Abdulmuhsin al-Badrning "Ashru qovaid fi tazkiyat-nafs (Nafni poklashning o'nta qoidasi)" nomli asarini arab tilidan o'zbekchaga tarjimasini amalga oshirdik. Kelajakda mazkur asarni Alisher Navoiy ijodi bilan qiyoslab ilmiy o'rganishni rejalashtirganmiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., "O'zbekiston", 2017, 113-bet.
- (2). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. 1-jild. Badoye' ul-bidoya. T., "Fan", 1987.



- (3). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. 7-jild. Hayrat ul-abror. Toshkent, “Fan”, 1991.
- (4). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. XX jildlik. 17-jild. Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat. Ilmiy-tanqidiy matnni nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va ko‘rsatkichlar muallifi Hamidxon Islomiy. Toshkent, “Movarounnahr”, 2011.
- (5). Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 19-jild. Duvoni foniy. Toshkent, “Fan”, 2002, 330 bet.
- (6). Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent, “Fan”, 2007, 234 bet.
- (7). Ibotova, M. (2024). Alisher Navoiy g‘azaliyotida ruh va nafs talqini. V innovative research in science (T. 3, Vipusk 1, pp. 33–39). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10495041>
- (8). Komilov N. Tasavvuf. T., “O‘zbekiston”, 2009, 447 bet.
- (9). Muhammadiyev A. “G‘aroyib us-sig‘ar”da naqshbandiya tariqatining tamoyillari tahlili. “Jahon madaniy sivilizatsiyasi kontekstida Xojagon, Naqshbandiya tasavvufiy ta‘limotlari ilmiy-ma‘naviy merosining umumbashariy ahamiyati” mavzusidagi Xalqaro ilmiy konferensiya matereallari. Navoiy, 2019, 28 may. 84-bet.
- (10). Ramazonov N. Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2019, 56 bet.
- (11). <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar>

**Razzoqov Alisher (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori; [razzoqovalisher45@gmail.com](mailto:razzoqovalisher45@gmail.com))**  
**NAVOIY IJODIDA NO‘SHIRAVON OBRAZI VA IRFONiy TALQIN**

*Annatsiya.* Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodidagi No‘shiravon obrazi va uning tasavvufiy talqinlari o‘rganilgan. Qo‘yilgan muammo avtointerpretatsiya – shoirning o‘z talqini asosida o‘rganilgan, Navoiy g‘azallaridan bir bayt tanlab olinib, undagi badiiy obraz, timsolning mohiyati “Hayrat ul-abror” dostonidagi bir hikoyat qahramoni bilan qiyoslangan holda talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, g‘azal, avtointerpretatsiya, tasavvuf, futuvvat, komil inson.

**Раззаков Алишер (докторант Ташкентского гос.университета Узбекского языка и литературы, доктор философских наук в области филологии; [razzoqovalisher45@gmail.com](mailto:razzoqovalisher45@gmail.com))**

#### **ОБРАЗ НОШИРАВОНА И СУФИЙСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ НАВОИ**

*Аннотация.* В данной статье рассматривается образ Ноширавона в творчестве Алишера Навои и его мистические интерпретации. Данная проблема исследуется на основе собственной интерпретации поэта, из газелей Навои выделяется строфа, а ее художественный образ, суть символа, интерпретируется путем сравнения его с героем рассказа из эпоса «Хайрат ул -аброр».

**Ключевые слова:** Алишер Навои, газель, автоинтерпретация, суфизм, футувват, идеальный человек.

#### **IMAGE OF NOSHIRAVON AND MYSTICAL INTERPRETATION IN NAVOI'S CREATION**

*Annotation.* This article examines the image of Noshiravon in the work of Alisher Navoi and his mystical interpretations. The given problem is self-interpretation – studied on the basis of the poet's own interpretation, a stanza is selected from Navoi's gazelles and the artistic image, the essence of the symbol, is interpreted by comparing it with the hero of a story from the dastan “Hayrat ul-Abror”.

**Key words:** Alisher Navoi, gazelle, self-interpretation, Sufizm, futuvvat, perfect person.

**Kirish.** Alisher Navoiy she‘riyati, o‘z mohiyatiga ko‘ra, ma‘rifiy she‘riyatdir, boshqacha qilib aytganda, shoir uchun badiiy ijod faqatgina ishqu muhabbatdangina so‘z yuritadigan ko‘ngil ishi emas, balki o‘z o‘quvchisini ilm-u irfonga oshno qilish, unga umrning mazmunini anglatishdek mas‘uliyatli vazifadir. Shu sabab ham shoir o‘zi tartib bergan birinchi devoni “Badoe’ ul-bidoya”ning debochasida faqat bir mavzudagi g‘azallardangina iborat devonlarni tanqid qiladi. Bu jahatdan hazrat Navoiy o‘z ijodiga ham nihoyatda tanqidiy munosatda bo‘lgan. Shu sabab Alisher Navoiy she‘riyatidagi har bir timsol, obraz o‘z birlamchi ma‘nosidan tashqari ikkilamchi ma‘no qirralariga ham egadir. Boshqa tomondan, adabiyot tarixida yaratilgan asarlarni tahlil va talqin qilishda asar yozilgan davr tarixini, ijtimoiy muhitini, falsafiy qarashlarini hisobga olgan holda o‘rganish lozimdir. Zero, “Adabiyot tarixining asosida tarixiylik prinsipi yotadi. Tarixiylik prinsipi adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bilan bog‘liq hodisa sifatida o‘rganishni taqozo etadi” [Ulug‘ov. 2018:14].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni ko‘plab navoiyshunos olimlarning tadqiqot obyekti bo‘lganiga qaramasdan, ammo undagi No‘shiravon hikoyati va obraziga hali tasavvufiy nuqtayi nazardan, jiddiy yondashilmagan. Doston haqida alohida tadqiqot yaratgan N.Sharipova: “Bu hikoyatida shoir adablilik va xayoni inson uchun zaruriy fazilatlar sifatida e‘tirof etgan” [Sharipova. 2018:492], deb xulosa bildirsa, Navoiyning tarixiy asarlari badiiyatini tad-

qiy qilishga uringan I.Pardayeva esa shoir Anushervoni odilning ikki fazilati – adolatparvarligi va hayosiga alohida urg‘u bergani va uning xayoliy mubolag‘asi emas, balki o‘zining tarixiy asoslariga ega bo‘lgan haqiqati ekanligini ta’kidlaydi [Пардаева. 2018:111]. “Hayrat ul-abror” asariga maxsus sharh yozgan adabiyotshunos A.Malik ham bu talqinlarini davom ettirgan holda, Alisher Navoiy No‘shirvonning toza niyati, hayosi uni olamga shoh qilib, adolatini olam ahli uzra panoh etganlnini ta’kidlash asnosida davlat rahbarlarini hayoga, adabga, adolatga chorlaydi [Малик. 2021:267 – 268] degan xulosaga keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Navoiyshunoslikning eng muhim oltin qoidasi shoirning asarlarini uning o‘zi orqali sharhlash tamoyilidir. Buning uchun Navoiyning har bir asarini sinchiklab o‘qib-o‘rganish lozim. Shoir ijodida eng ko‘p kuzatiladigan hodisa bir asarda qo‘yilgan muammo-ning yechimi, izohi yoki sharhi boshqa bir asarida keltiriladi. Zamonaviy poetika ilmida bu hodisa avtointerpretatsiya deyiladi. Unga ko‘ra, “Avtointerpretatsiya – badiiy asarni uning muallifi tomonidan ta’rif etilishi. Bunda avtointerpretatsiya badiiy asarni to‘liq qamrab olishi, umumiy xarakter kasb etishi yoki uning ayrim jihat va masalalari bilan bog‘lanishi mumkin” [Эркинов. 2018:293]. Avtointerpretatsiya hodisasi ba‘zan biror asar doirasida kuzatilsa, ba‘zi holatlarda ijodkor bir asarida qo‘ygan biror muammo-ning yechimini boshqa bir asarida ham bayon qilishi mumkin. Shu bois maqolada Navoiyning bir baytini “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyat orqalil tahlil qilishga harakat qildik.

**Tahlil va natijalar (Analysis results).** Ko‘p hollarda, Navoiyning epik va nasriy asarlari lirik asarlarining keng plandagi sharhi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shu sabab “Xamsa” dostonlarida yoki “Lison ut-tayr” asarida shoir lirikasidagi muammoli masalalarning badiiy talqiniga duch kelish mumkin. Hatto Navoiy lirikasidagi birgina bayt sharhida ham bu tamoyilning o‘rni katta. Masalan, “G‘aroyib ussig‘ar” devoning 46-g‘azalida shunday bayt mavjud:

*Yor chun barcha zamon nozir erur holinga, bo‘lg‘il*

*Bori holatda mushohid, bori el birla muaddab.* [Навойй (а). 2011:67]

Mazkur bayt tahliliga kirishishdan avval “yor” so‘zining irfoniy lug‘atlardagi izohi bilan tanishish kerak. Sayyid Ja‘far Sajjodiyning “Farhangi istilohot va ta‘biroti irfoniy” (Tasavvufiy atamalar va iboralar) lug‘atida bu so‘zga shunday ta’rif berilgan: “Yor deb shuhud olamiga, ya‘ni Haq zotining mushohadasiga aytadilar” [Sajjodiy. 1370:803]. Ya‘ni Alloh haqida mushohada qilish, Uning ko‘ruvchi va eshituvchi, umuman, har bir holatni biluvchi ekanini anglash. E‘tibor berilsa, yuqoridagi baytda ham “mushohada” so‘zining o‘zakdoshi “mushohid” berilganki, bu ham baytning mazmuni bilan irfoniy ta’rif o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Mushohada “ko‘rish, pardaning ko‘tarilishi, tomosha va sayr qilmoq” degan ma‘nolarni anglatib, tasavvufiy istiloh sifatida: a) Haqning ko‘ngillarda hozir bo‘lishi; b) zotiy tajalli; d) ashyo – narsalarni tavhid dalili ila ko‘rmoq; e) ayn-i jam maqomi; f) haqqul-yaqin holi; g) naqshbandiya shayxlari va oriflarining ma‘no olamida ko‘rgan va bu olam bilan bog‘liq bo‘lgan ruhiy hollariga ham mushohada nomi berilgan [Uludağ. 1995:391].

Yuqoridagi baytida Navoiy aytmoqdaki, “Yor hamma zamonda holinga nazar solib turibdiki, shu sabab hamma holatingda mushohadakor va hamma odamlar bilan adab doirasida bo‘l”. Demak, bayt mantiqiga ko‘ra, bunda “yor” so‘zining dunyoviy ma‘nosi nazarda tutilmagan. Chunki duyoviy yorning “barcha zamon nozir” bo‘lishi mumkin emas. Tasavvufiy adabiyotlarda ham go‘zal xulq ikki turli bo‘lishi, biri Haq bilan, ikkinchisi xalq bilan ekanligi bayon qilingan [Hujviriy. 1435:39].

Bu bayt haqida shoirning o‘z talqinini uning “Hayrat ul-abror” dostonida ko‘rish mumkin. Asarning adab haqidagi oltinchi maqolatiga ilova qilingan shahzoda No‘shirvon hikoyati orqali Navoiy zohiran adabga targ‘ib qilsa-da, botinan Haq ma‘rifatini mushohada etayotgan, o‘zini har doim Haq nigohida ekanini his qilayotgan orif obrazini yaratadi. Eng muhimi hikoyatning asosiy mavzusi adab ham tasavvufning pirovard maqsadlaridan biridir. Navoiyning tasavvuf ta‘rifu tavsifiga bag‘ishlangan “Favoyid ul-kibar” devoninig 306-g‘azalida bu masalani alohida ta’kidlab o‘tgan:

*Tasavvuf rizo ahlidin yaxshi axloq,*

*Erur istilohoti zeb-u takalluf.* [Навойй (b). 2011:311]

Soliklar tarbiyasi bilan shug‘ullangan murshidlar ulardagi kibr, manmanlik singari yomon xulqlar bilan qattiq kurashganlar, go‘zal odob, hilm, tavze‘ni shakllantirishda bor kuch-g‘ayratlarini ishga solganlar, shogirdlarning fe‘l-u tabiati, hatto ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ham ularga turli riyozatlarni buyurganlar. “Hayrat ul-abror” dostonining shu mavzudagi maqolotida adabga tariqat nuqtayi nazaridan munosabat bildirilgan. To‘g‘ri, maqolotda adabning ijtimoiy ahamiyati haqida ham gap boradi. Navoiy mansub naqshbandiya tariqati ham ijtimoiy hayotning barcha qatlamini o‘z ichiga qamrab olgan edi. Chunki islom shariatida ijtimoiy hayotdagi har bir ishning o‘z odobi va qoidasi sunnatga muvofiq belgilab berilgan. Tasavvuf esa islomning ma‘naviy hayotidir, undagi har bir g‘oya, masalaning sarchashmasi islomiy manbalar-

dan paydo bo'lgan. Abu Hafs Haddod tasavvufning barchasi odobdan iborat deydi. Abul Hasan Nuriy esa bu ta'rifni yanada mukammallashtirib, tasavvuf rusum (urf-u odat) ham, ulum (ilmlar majmuasi) ham emas, va lekin (go'zal) axloqdir. Agar u rusum bo'lganida mujohada (sa'y-harakat) bilan hosil bo'lardi; agar ilmlar majmuasi bo'lganida ta'lim bilan qo'lga kiritilgan bo'lardi, deydi [Hujviriy. 1435:41].

Naqshbandiya tariqati ham o'z qoidalarini sunnati nabaviyaga tobelik asosida ishlab chiqqan. Bahouddin Naqshbandning o'z tilidan shunday deyiladi: "Bizning tariqimiz urvat ul-vusqo (kuchli tutqich)ning nodir ko'rinishlaridir, ya'ni, panjai Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallam va atboihi-s-salotu va s-salom sunnatining tobelik etagiga urishdir hamda ulug' sahobalar, ularning barchalaridan Alloh rozi bo'lsin, izlaridan yurishdir" [Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. 1993:78]. Shunday bo'lgach, bu yo'lning ham barcha sa'y-harakatlari, maqsadlari xuddi islomdagi singari insonda go'zal axloqni shakllantirishga, har jihatdan komil insonni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

"Hayrat ul-abror" dostonidagi hikoyat sujetiga ko'ra, No'shiravon shahzodalik paytida biron ishida muhtalo bo'ladi, nihoyat, sevgilisini xilvat bir bog'da uchratadi. Mahbusiga qo'l uzatgan joyda birdan fikridan qaytadi, uzatgan qo'lini yana tortib oladi. Sababini esa shunday tushuntiradi:

*Kim bu visol ichraki voqe' durur –*

*Nargisi shahlo ko'zi mone' durur.* [Навоий (с). 2011:143]

Ma'lum bo'ladiki, No'shiravon mahbusiga qo'lini uzatgan payti ko'zi bog'da o'sib turgan nargis guliga tushadi. Bu gul, odatda, ko'zga o'xshatilishi ma'lum. No'shiravon o'ziga biron tikilib turgandek tuyuladi va qilmoqchi bo'lgan ishidan hayo qiladi:

*Ayni hayo birla futuvvat anga,*

*Bermadi ul amrda quvvat anga.* [Навоий (с). 2011:143]

Demak, shahzodani yomon ishdan to'sgan narsa undagi hayo va futuvvat ekan. Navoiy "Tarixi muluki ajam" asarida No'shiravonning quyidagi hikmatli so'zini keltiradiki, bu "Hayrat ul-abror" hikoyatidagi shahzoda No'shiravon holatiga ham uyg'undir: "...xiradmand uldurkim, maxfiy andoq ish qilmag'aykim, oshkor ani qila olmag'ay" [Навоий (d). 2011:639]. Tasavvuf namoyandalaridan Husayn Masur Halloj futuvvatga shunday ta'rif bergan: "Futuvvat bu sifatga sohib bo'lgan kishining butun tilagini Tangriga bog'lashi va Tangri bilan Tangri uchun Unga yo'nalishidir" [Gölpinarli. 2011:19]. Umuman olganda, tasavvufiy manbalarda futuvvatga juda ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan biridagi ushbu ta'rif Navoiy yaratgan obraz holatiga aynan mos keladi: "Futuvvat sayri ilalloh maqomotining so'nggi bo'lib, bu haqida shunday deyilar: Futuvvat nafsoniy sifatlardan poklangan kimsalar erishgan maqomning ismidir. Bu poklik iymondan so'ng hidoyatning ortishidir" [Porso. 1913:63]. Garchi futuvvatning asosiy g'oyasi insonlarga beg'araz, xolis Alloh uchun yaxshilik qilish bo'lsa-da, hikoyatda Navoiy uning lug'aviy ma'nosiga (arab tilida "fatiy" yigitlik, mardlik degani) ham urg'u beradi. Ya'ni No'shiravon Allohdan qo'rqish, taqvo qilishda mardlik ko'rsatdi, Alloh uchungina yomonlikdan tiyildi, demoqchi bo'ladi. Insonda bu sifat Allohni tanish, Uning ko'ruvchi (Al-Basir) va eshituvchi (As-Sami') kabi ismlariga mazhar bo'lish orqali hosil bo'ladi. Bunday sifatga ega insonning har bir amali, jamiyatdagi o'rni ham adab doirasida bo'lishi tabiiydir. Yuqorida "G'aroyib us-sig'ar" devonidan olingan baytda ham adabga urg'u berishili ham bekorga emas.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bu kichik tahlildan xulosa shuki, garchi Alisher Navoiy ijodi tarixan va mohiyatan islom kontenti (mintaqa) adabiyoti hisoblansa-da, ammo u o'z asarlariga islomga aloqasi bo'lmagan, undan oldingi tarixiy shaxslarni ham bemalol qahramon qilib tanlayvergan. No'shiravon ham shunday obrazlardan biridir. Navoiy uni o'z islomiy-irfoniy qarashlari asosida bir tasavvuf soliki sifatida qayta "jonlantirgan".

Alisher Navoiy ijodi bir butun uyg'un hodisadir. Unda bir-birini inkor qiladigan, zid keladigan hech bir qarash uchramaydi. Navoiyning tasavvufiy qarashlari yaxlit bir obrazda jamlanadi. Navoiy yaratgan obrazlarning har biri uning estetik ideali u orzu qilgan komil insonning u yoki bu sifatlarini o'zida mujasamlashtiradi. Navoiy g'azalining bir baytidagi obraz-timsolning mohiyatini boshqa bir asaridagi hikoyat va obraz vositasida talqin qilish imkoniyati mavjuddir. Ya'ni Navoiy o'z asarlari tilsimini ochadigan "kalit"ni o'quvchilariga o'zi tutqazadi. Buni to'g'ri anglash va talqin qilishning eng birinchi, muhim yo'li esa, eng avvalo, Navoiyni uning o'zi orqali o'rganishdir. Bunga qo'shimcha tarzda Alisher Navoiy ilhomlangan islomiy-tasavvufiy manbalar, shu mintaqada shakllangan klassik adabiyot, she'riyatdagi yetakchi adabiy an'analar, qarashlar, obrazlar tizimi bilan ham yaqindan tanish bo'lmoqlik lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 1-жилд, Тошкент, Ғафур Ғуллом номидаги НМИУ, 2011.

- (2). Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 4-жилд, Тошкент, Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2011.
- (3). Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 6-жилд, Тошкент, Фафур Гулом номидаги НИМУ, 2011.
- (4). Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик, 8-жилд, Тошкент, Фафур Гулом номидаги НИМУ, 2011.
- (5). Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балоғардон. Таржимон Маҳмудхон Маҳдум Ҳасанхон Маҳдум ўғли. Тошкент, “Ёзувчи”, 1993.
- (6). Gölpınarlı A. İslam ve Türk İllarinde Fütüvvet Teşkilati. İstanbul, Akademik Yayınlar, 2011.
- (7). Doktor Sayyid Ja'far Sajjodiy. Farhangi istilohot va ta'biroti irfoniy. Tehron, Tahuriy, 1370 (hijriy-shamsiy).
- (8). Малик А. Алишер Навоий. “Хайрат ул-аброр” (матн, шарҳ, насрий баён, луғат). 2-китоб, Тошкент, “Tamaddun”, 2021.
- (9). Пардаева И. Анушервон адолат тимсоли. “Хорижий филология”, 2018, 2-сон, 109 – 112-бетлар.
- (10). Uludağ S. Tasavvuf terimleri sözlüğü. İstanbul, “Marifet”, 1995.
- (11). Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G'afur Gulom nomidagi NMIU, 2018.
- (12). Sayyid Ali ibn Usmon Hujviriy. Kashf ul-mahjub. Lahor, “Dor un-nur” 1435 (hijriy-shamsiy).
- (13). Хожа Muhammad Porso. Fasul-xitob ba vaslul-ahbob. Toshkent, “Matbaayi G'ulomiya”, 1913.
- (14). Шарипова Н. Шарҳ адабиётида Нўширавон образининг тадрижий тақомили. “ЎЗМУ хабарлари”, 2018, 1/5-сон, 492 – 494-бетлар.
- (15). Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV–XX аср боши). Тошкент, “Tamaddun”, 2018.

Ubaydullayeva Rayxon Abduljalil qizi (Guliston davlat Pedagogika instituti “O‘zbek tili va tillarni o‘qitish” kafedrası o‘qituvchisi; e-mail: [rayhon121274@gmail.com](mailto:rayhon121274@gmail.com))

#### AHMAD A'ZAMNING “O‘ZI UYLANMAGAN SOVCHI” ROMANIDA SUJET KO‘RINISHLARI VA UNSURLARI IFODASI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada roman janrida sujet unsurlari va ko‘rinishlari ifodasi o‘rganilgan bo‘lib, unda o‘zbek va rus adabiyotshunos olimlarining badiiy asar sujeti borasidagi nazariy qarashlari ham keltirilgan. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligidagi dominant sujet turlari, noodatiy romanning o‘ziga xos jihatlari xususida so‘z yuritilgan. Istiqlol davrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topganligi, o‘zbek romanchiligida ushbu davrda yaratilgan an‘anaviy va noan‘anaviy romanlarning sujet turlari va unsurlarining o‘ziga xos jihatlari Ahmad A‘zamning “O‘zi uylanmagan sovchi” romani tahlili misolida o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** sujet, fabula, ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim, xronikal sujet, konsentrik sujet va h.k.

#### ВЫРАЖЕНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ И ВИДОВ СЮЖЕТА В РОМАНЕ АХМАДА АЗАМА «СВАТ, КОТОРЫЙ САМ НЕ ЖЕНАТ»

**Аннотация.** В данной статье исследуется выражение сюжетных элементов и взглядов в жанре роман, а также представлены теоретические взгляды узбекских и российских литературоведов на тему художественного произведения. Обсуждаются доминирующие типы сюжетов в узбекских романах периода независимости и особенности необычных романов. Обсуждаются доминирующие типы сюжетов в узбекских романах периода независимости и особенности необычных романов. Реформы, проведенные в нашей стране в период независимости, нашли свое отражение и в художественной литературе. На примере анализа романа Ахмеда Азама «Сват, который сам не женат» изучаются уникальные аспекты сюжетных типов и элементов традиционных и нетрадиционных романов, созданных у узбекских прозаиков этого периода.

**Ключевые слова:** сюжет, фабула, экспозиция, узел, развитие событий, кульминация, развязка, хронологический сюжет, концентрический сюжет и др.

#### EXPRESSION OF ELEMENTS AND TYPES OF PLOT IN AHMAD AZAM'S NOVEL “THE MATCHMAKER, WHO IS UNMARRIED”

**Annotation.** In this article, the expression of subject elements and views in the novel genre is studied, and the theoretical views of Uzbek and Russian literary scholars on the subject of an artistic work are also presented. The dominant types of subjects in Uzbek novels of the period of independence and the unique aspects of unusual novels are discussed. The reforms carried out in our country during the period of independence were also reflected in fiction, the specific aspects of the subject types and elements of the

*traditional and non-traditional novels created in this period in Uzbek novels. It is studied on the example of the analysis of Ahmad Azam's novel "The Matchmaker who is not married himself".*

**Key words:** *subject, fable, exposition, node, development of events, climax, solution, chronic subject, concentric subject, etc.*

**Kirish.** Badiiy asar mazmunini tashkil etadigan sujet badiiy shaklning eng muhim unsurlaridan biridir. Asarda bir-biri bilan bog‘liq voqealar tizimi: asar qahramonlari hayotidagi voqealar, ana shu jarayondagi aloqalar, munosabatlar, to‘qnashuvlar, o‘sish va o‘zgarishlar syujetni shakllantiradi. “Sujetning birlamchi funksiyasi asarda diqqat markaziga qo‘yilgan muammoni badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishdir” [1;76-b.]. Sujet – fransuzcha “sujet” so‘zidan olingan bo‘lib, “narsa, mazmun, mavzu” degan ma‘noni anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda sujet atamasiga turlicha izohlar berilgan.

“Sujet badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi” [2;288-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O‘zbek adabiyotshunosligida sujet va uning unsurlari haqida I.Sulton, M.Qo‘shjonov, A.Rahimov, T.Boboyev, H.Umurov, D.Quronov kabi bir qator adabiyotshunolar o‘z tahlillarini e‘lon qilganlar. Sujet haqida adabiyotshunoslikdagi nazariy qarashlar bir-biriga juda yaqin, biri ikkinchisini takrorlab keladi va qisman bir-birini to‘ldiradi.

Sujet har doim konfliktga, ya‘ni ziddiyatga asoslangan bo‘ladi. Konfliktsez sujet shakllanmaydi, chunki ziddiyatlarga sujetning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. “Sujetda ijtimoiy ziddiyat rivojlanishda aks ettirilishi, uning qanday hal bo‘lishi va oqibatlari ko‘rsatilishi juda katta ahamiyatga egadir, chunki shu yo‘l bilan ijtimoiy taraqqiyotning tamoyillari va qonuniyatlari ochib beriladi” [3;69-b.]. Subyektiv dunyo tasvirlangan lirikadan farqli o‘laroq, sujet asarlarida obyektiv dunyo, voqealar dunyosi tasvirlanadi. Voqealar, qahramonlarning harakatlari, o‘zaro munosabatlari orqali asarning asosiy g‘oyasi ochiladi, shuningdek, ushbu voqealarda ishtirok etadigan qahramonlarning xarakteri hamda ularning taqdiri ko‘rsatiladi. Jahon adabiyotida sujeti juda keskin xarakterga ega bo‘lgan asarlar bilan bir qatorda sujet rasmiy ravishda mavjud bo‘lsa-da, ikkinchi darajali rol o‘ynaydigan asarlar ham talaygina. Masalan, Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romani sujeti keskin dramatik voqealarga asoslangan bo‘lsa, Chexovning “Kuchukcha yetaklagan xonim” hikoyasi sujeti tasvirida lirik qayg‘u ustuvorligini sezish qiyin emas. Adabiyot nazariyasida bunday asarlar sujetsiz asar deb ham ataladi. Nasriy asarlarda muallif lirikadagi singari o‘zining subyektiv, ya‘ni shaxsiy olamini emas, obyektiv olamni, ya‘ni uni o‘rab turgan tashqi olamni tasvirlaydi. Bu olamni muallif obrazlar sistemasi tasviri, asar qahramonlarining hayoti va harakatlari tasviri hamda shu qahramonlar ishtirok etgan ma‘lum bir voqea-hodisalar tasviri orqali aks ettiradi. Ammo bu voqea-hodisalar ma‘lum tartib asosida tasvirlanadi: bir voqea ikkinchi voqea bilan bog‘liq holda yuz beradi yoki bir voqea ikkinchi voqeadan sizib chiqadi. Shu tariqa, bu voqealar rivojining ma‘lum tartibini yuzaga keltiradiki, xuddi mana shu harakatlar rivojidadagi tartiblanish yoki harakatlar sistemasi badiiy asarning sujetini shakllantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mustaqillik davri romanlari tahlili jarayonida shu jihatni e‘tirof etishimiz kerakki, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar badiiy adabiyotda ham o‘z aksini topdi. Ushbu davrda yaratilgan an’anaviy va noan’anaviy romanlar misolida roman hech qanday qolipga, andozaga tushmasligi, jamiyatimizda ro‘y berayotgan tub islohotlar ta‘sirida ijodkor tafakkurining o‘zgarishi va shu jarayonning mahsuli sifatida yangicha ruhda romanlar yaratilishini ko‘rishimiz mumkin.

2010-yillarda yaratilgan romanlar yangicha ruhda yozilganligini sezish qiyin emas, albatta. Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasining uchinchi kitobi, Omon Muxtorning “Xotin podshoh” va “Muhabbat o‘limdan kuchli”, Ahmad A‘zamning “O‘zi uylanmagan sovchi”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, Jumaqul Qurbonovning “Sardoba”, Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatlar girdobi”, Nurilla Abbosxonning “Sho‘rqishloq”, Abduqayum Yo‘ldoshning “Bankir” romanlari o‘ziga xos sujet chizig‘iga ega ekanligi, qahramonlarning ichki olamidagi turli ziddiyatlar va to‘qnashuvlarni ko‘rsatishga bag‘ishlangani bilan ajralib turadi. “Taniqli yozuvchi Ahmad A‘zamning bir davrda yashab, deyarli bir xil ijtimoiy sharoitda faoliyat ko‘rsata turib, tabiatlari va tutumlaridagi turfaqlar sabab insoniylik sinovlaridan turlicha yo‘sinda o‘tgan yoshlar hayoti aks ettirilgan “O‘zi uylanmagan sovchi” romanida xuddi bir odam kabi butun millat-u jamiyat ham bir ma‘naviy-axloqiy holatdan boshqasiga og‘riqsiz o‘tolmasligi aks ettirilgan” [4;23-b.]. O‘tish davrida ijod qilish yozuvchiga katta mas‘uliyat yuklaydi, albatta. Ahmad A‘zam shunday davrda yozilgan bu asarida sujet liniyasiga hajviy-kinoyaviy tasvir ifodasini kiritishi bilan roman jozibadorligiga erishilgan.

Sujet qurilishi va ularni tiplariga adabiyotshunoslar nazariy jihatdan turlicha yondashganlarini kuza-tishimiz mumkin. Adabiyotshunos A.Rahimov o‘zining “O‘zbek romani poetikasi” (sujet va konflikt) mav-

zusidagi doktorlik dissertatsiyasida bu masalani atroflicha o'rgangan hamda sujetning to'rt xil: xronikali, konsentrik, retrospektiv va assotsiativ kabi tiplari mavjud ekanligini ko'rsatib o'tgan. Adabiyotshunos A. Rahimovning qarashlarini asos qilib olgan holda T. Boboyev ham sujetni xuddi shunday to'rt turga ajratadi. O'zbek adabiyotshunosi H. Umurov sujetning uch turi: xronikali, konsentrik va xronikal-konsentrik sujet singari shakli bor, deya ta'rif bersa, D. Quronov o'z qarashlarida sujet voqealarining o'zaro munosabatiga ko'ra ikki turga: xronikali va konsentrik syujetga ajratadi. E. Xudoyberdiyev esa adabiyot ilmining ko'rsatishicha, syujetning besh xil ko'rinishi: xronikali, konsentrik, retrospektiv, assotsiativ, sintetik sujet mavjud deya uqtirib o'tadi. Voqealar o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan holda, rus olimi Gennadiy Pospelov badiiy asarning sujetini 2 tipga: xronikali va konsentrik kabi turlarga ajratadi va buni quyidagicha izohlaydi: "Sujetni tashkil etuvchi voqealar bir-biri bilan turlicha bog'liq bo'ladi. Ba'zi hollarda ular bir-biri bilan faqat zamon nuqtayi nazardan aloqada bo'lishadi (B voqea A voqeadan keyin sodir bo'lgan). Boshqa hollarda voqealar o'rtasida vaqtinchalik hodisalardan tashqari, sabab-oqibat munosabatlari mavjud (B voqea A voqea tufayli sodir bo'lgan). Shunday qilib, "Qiro'l vafot etdi va qirolicha vafot etdi" iborasida birinchi turdagi aloqalar qayta tiklanadi. "Qiro'l vafot etdi va qirolicha qayg'udan vafot etdi" iborasida bizning ko'z oldimizda ikkinchi turdagi aloqa namoyon bo'ladi" [5;205-b.]. Demak, G. Pospelovning fikricha, badiiy adabiyotda syujetlarning ikki turi mavjud. Voqealar o'rtasidagi zamon bilan aloqadorlik ustun bo'lgan syujetlar xronikali, voqealar orasida sababiy munosabatlarning ustunligi sezilarli bo'lgan sujet shakllariga konsentrik sujetlar deb atashimiz mumkin.

Dastlab, ikki turdagi sujetning qisqacha xususiyatlariga to'xtalsak. Konsentrik (markazlashtiruvchi) sujet epizodlar orasidagi sababiy bog'liqlik bilan ajralib turadi, aniq belgilangan tugun va yechimga ega. Bunday sujetlar aksariyat holatda ko'p chiziqli, ammo barcha hikoyalar ham sabab-oqibat bilan bog'liq bo'lib, harakatning birligini ta'kidlaydi.

**Xronologik** (markazdan tashqari) sujet esa, aksincha, aniq belgilangan tugunga ega emas va voqealarning rivojlanishi vaqt motivlarga asoslangan. Garchi u sabab-oqibat munosabatli epizodlarni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, u mantiqan bog'liq bo'lgan, faqat zamon bilan bog'liq izchil kechadigan voqealar haqida umumiy ma'lumot beradi. Ularning orasidagi asosiy farq voqealar o'rtasidagi bog'liqlikdadir: xronikal sujetida u vaqt bilan ifodalansa, konsentrik sujetda esa u sababiydir.

Ikki yuz yillik yozilgan asarlarni o'rganib chiqqan ingliz jurnalisti va yozuvchisi Kristofer Buker 2004-yil nashrdan chiqqan "Yetti asosiy sujet: nega biz hikoyalar aytib beramiz" nomli kitobida sujetlar nihoyatda xilma-xil va turli ijod namunalarida bo'lsa-da, ularning adabiyotning katta qismini qamrab oladigan yettita asosiy turlarini ajratib ko'rsatdi. Birinchi sujet turi "chiziqli sujet" – bunda voqea-hodisalar boshidan oxirigacha aniq xronologik tartibda ketma-ket ro'y beradi. Bu sujet turi H. Umurov ta'rif bergan xronologik sujet turiga teng keladi. Ikkinchi sujet "chiziqli bo'lmagan" sujet deb atalib, unda vaqt o'tishi bilan harakatlanadigan hikoya usulini o'z ichiga olib, konsentrik syujet turiga yaqin turadi. Uchinchi sujet turi "epizodik sujet" – bir-biriga yaqin bo'lmagan voqea, epizodlardan iborat bo'ladi, ko'pincha, bir necha sujetli asarlarda uchrab, adabiyotshinoslikdagi qoliplash usuliga yaqin turadi. Keyingi sujet turi sarguzasht va fantastik asarlarda keng tarqalgan bo'lib "kvest (jumboqli) sujet" deb ta'rif berilgan. Unda qahramonlar ma'lum maqsadlariga erishish uchun sayohatlarga jalb qilinadi. Beshinchi sujet turini Buker "Bildu-gsroman Plot" deb atagan. Bunda axloqiy va hissiy kamolotni o'rganish orqali adabiy qahramonning shax-siy o'sishi va xarakter rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, uni o'zbek adabiyotshunosligidagi assotsiativ sujet turiga qiyoslasak bo'ladi. Oltinchi sujet turi "fojia sujeti" deb yuritiladi. Ushbu sujet turida qahramonlarning fojiali qulashi yoki fojiali yakun tasvirlangan bo'ladi. Yettinchi sujet turi "komedik sujet" deb atalib unda yengil kulgi, hazil-mutoyibali ohang sezilib turadi. Bu ikki sujet turi ko'proq dramatik asarlarda qo'llaniladi.

Ko'rib turganimizdek, sujetning tiplari xususidagi qarashlardagi bunday turlichalik qisman nazariy asosga ega. "Bir narsani unutmashimiz kerakki, badiiy asarlarda syujetning quyidagi tiplari sof holda uchramaydi, uni badiiy asardan sof holda qidirish esa yuqoridagi nazariy qarashlar singari qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi" [6;2-b.].

Mustaqillik davrida yaratilgan romanlarning konseptual g'oyasini ochib berishda xronikali, retrospektiv, assotsiativ, konsentrik va sintetik syujetlar ham qo'llanilgan bo'lib, qahramonlarning ichki olamini, qalb kechinmalarini badiiy talqin etishda, ijodkor g'oyasini ochib berishda ularning keng imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Hozirgi o'zbek romanlarida noan'anaviy talqin uslublarining qo'llanilishi o'zbek romani poetikasining badiiy yangilanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ta'kidlashimiz kerakki, noan'anaviy talqin usullarining shakllanishida nafaqat g'arb modern romanlarining, balki o'zbek klassik adabiyoti, xalq og'zaki ijodi an'analarining ham ta'siri kattadir.

Dunyo adabiyotshunosligida sujet unsurlari borasida Arastudan so'ng ilk bor nemis olimi va dramaturgi Freytag so'z ochdi. Shekspir asarlari va qadimgi yunon dramalarini chuqur tahlil qilgan nemis dramaturgi Gustav Freytag asar sujetini o'rganishga asoslangan model ishlab chiqdi. Bu haqida Freytag ilk bor 1863-yilda nashrdan chiqqan "Drama texnikasi" asarida xabar berdi [7;101-b.]. O'zining asarida nemis dramaturgi bu texnikani "Freytag piramidasi" deb nomladi. U asarlarning qismlari ketma-ket beshta tarkibiy qismga bo'linganligini aniqladi: ekspozitsiya, yuqoriga qarab harakat (voqealar rivoji), avj nuqtasi (kulminatsiya), pastga qarab harakat va yakun (yechim). Freytag tahlili, asosan, qadimiy dramalarda qo'llanilgan bo'lsa-da, modelni zamonaviy romanlarda ham kuzatamiz. Garchi ba'zi adabiy asarlar Freytag piramidasi-ning an'anaviy rivoyat tuzilishini buzsa yoki uni ag'darishga harakat qilsa-da, har bir hikoya qilish usuli ushbu beshta dramatik element bilan bog'liq.

Ushbu harakat bosqichlariga mos keluvchi sujet unsurlari o'zbek va rus adabiyotshunosligida ham o'rganiladi". Badiiy asar sujeti ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim singari unsurlardan tarkib topadi. ...tugun, voqea rivoji va kulminatsiya sujetni tutib turuvchi asosiy unsurlar sanaladi va ular har qanday sujetda mavjud bo'ladi. Ekspozitsiya bilan yechim esa sujetning shart bo'lmagan elementlari bo'lib, ularning asarda bo'lish yoki bo'lmasligi yozuvchining ijodiy niyati, ijodiy individualligi, badiiy tasvir va talqin yo'sini bilan bog'liqdir. Ayrim adabiyotlarda prolog va epilog ham sujet elementi sifatida ko'rsatiladi" [8;104-105-b.].

**Tahlil va natijalar.** Sujet asarning tuzilishini (kompozitsiyasini) belgilaydi, o'quvchi e'tiborini to'laligicha jalb qilib, asar matnida birinchi o'ringa chiqadi. Sujetlarda harakat bosqichlari va uning asosidagi ziddiyatlar aniq ko'zga tashlanadi. Bulardan biri ekspozitsiya bo'lib, u qahramonlar harakatlanadigan muhit, asarda yuz beruvchi voqealar o'rni, joyi (interyer), asar qahramonlarining harakatlariga turtki bo'luvchi voqealar bilan tanishtiradi. "O'zi uylanmagan sovchi" romanida ekspozitsiya quyidagicha boshlanadi: "Agar kinoga oladigan bo'lsak, ichkaridan ochiq derazadan hovliga qaraymiz. To'g'ridagi, u hovli devoridan bu hovliga qaragan bir ko'zlik katta chorburchak tuynuk lang ochiq. Ana shu tuynukdan radio vag'irlab, maqom ohanglari toshib chiqadi. Maqom xonishlari bilan birga ochiq derazaga qaytamiz, derazadan ichkariga qaraymiz. Karavotda shu kunlarda nima masalalarga duch kelishidan hali bexabar, buni aytdik a, xullas, qahramonimiz NOZIM uxlab yotibdi. Maqom uning ustiga "e tursang-chi!" deytogandek yopiriladi. Nozim cho'chib uygonadi, yotgan joyida boshini burib hovliga norozi qaraydi. Shu chol-u kampirga radioni baqirtirib qo'yish nimaga kerak-a?" [9;1-b.]. Asar ekspozitsiyasida yozuvchi asar yetakchi qahramoni Nozim bilan kitobxonlarni tanishtirgan.

Sujtning navbatdagi unsuri tugun – u asardagi ziddiyatlarning boshlanish nuqtasi bo'lib, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror-bir jiddiy munozara qilishi tufayli paydo bo'ladi. Tugun voqealar rivojini belgilab, qahramonlarni harakatlantiradi. "O'zi uylanmagan sovchi" romanida tugun Sultonning uylanish masalasidagi fikrlari asnosida bog'lanadi. Davlat bilan suhbatda Sulton Dilorom ismli qizni sevishini, lekin onasi uni xolasining qizi Saodatga uylantirmoqchi ekanligini aytishi tugunni keltirib chiqaradi.

Sujetning keyingi unsuri voqealar rivoji bo'lib, tugundan boshlab, to yechimgacha tasvirlar qamrovi voqealar rivoji hisoblanadi. Voqealar ma'lum tugundan so'ng chuqurlashib, kengayib boradi. Tugun kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin, ammo voqealar rivoji bir-biriga bog'liq jarayonga aylanib, uzoq davom etadi. Biz o'rganayotgan asarda voqealar rivoji juda katta hajmni o'z ichiga oladi: bunga Diloromlarnikiga chet elda yashaydigan yigitdan sovchi kelishi, Sharofat ayaning Sultonga qizini berishni istamaganida, Nozimning bor mahoratini ishga solib, uni ko'ndirishi, Saodatning quvliklari, qo'shni Diloromning dugonasiga kelgan sovchilarni o'ziga og'dirmoqchi bo'lishi kabi voqealarni kiritishimiz mumkin. Ayniqsa, sovchilikka borish sahnasi yozuvchi tomonidan hajv elementlari bilan aks ettirilishi asar voqealar rivojining kitob-xon uchun qiziq bo'lishini ta'minlagan.

Sujet chizig'idagi yana bir unsur kulminatsiya bo'lib, unda asardagi ziddiyatlarning eng yuqori cho'qqisi nazarda tutiladi. Kulminatsion cho'qqi shunday "cho'qqiki", undan turib qaralganda asarda ishtirok etgan barcha qahramonlarning qismati aniq ko'rinadi: ularning xarakterlari to'la-to'kis namoyon bo'ladi. Ahmad A'zam asarining kulminatsiyasi ham o'ziga xos tarzda amalga oshgan. Toshkentdan kelin qilishni xohlamagan Jumagul opa yaqinlarining iltimoslari bilan istamaygina Diloromni ko'rish maqsadida Sharofat ayaning eshigi oldiga boradi, lekin adashib, qo'shni Diloromni ko'rib keladi. Qizning behayolar-cha qilgan muomalasi, odobsizligi Jumagul opaning "to'nini teskari kiyib olishiga" sabab bo'ladi. U hatto Sharofat ayaning ostonasini hatlamay, iziga qaytib ketadi. Shu o'rinda kitobxonning yuragiga g'ulg'ula tushadi: nahotki, qo'shni qiz sabab shuncha qiyinchiliklar evaziga ota-onalarini zo'rg'a ko'ndirgan yoshlar birga bo'lishmasa? [9;295-b.].

Sujetdagi yechim unsurida voqea va qahramonlar taqdirining hal bo'lishi, tugunning yechilishi nazarda tutiladi. Bunda kurash xotima topadi va "oqilona hayot" o'z hukmini chiqaradi. "O'zi uylanmagan sovchi" romanida Saodatning zukkoligi sababli yechim topiladi. Xolasi va onasiga Diloromni ko'rsata olgan qiz sujet yechimining xayrli bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Ahmad A'zamning aksariyat asarlari ma'lum bir sujet turida yozilgan deb ayta olmaymiz. Yozuvchi jahon adabiyoti talablaridan kelib chiqqan holda, noodatiy sujet liniyalarini chizuvchi mohir rassom. "O'zi uylanmagan sovchi" guring-romanining sujetini voqealar zamon va mantiqiylik jihatdan birin-ketin, izchillik bilan amalga oshganligi tufayli xronikali sujet deb atasak maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir hikoyachi o'zining hikoya sujetini shakllantirar ekan, unda o'z g'oyasini yoki asosiy mavzusini yaratadi. Badiiy asar yaratish uchun muallif uning matni ustida tinimsiz ishlaydi. Kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan voqea sujeti va kompozitsiyasi borasida izlanadi. Uni jozibali qilib yetkazish, voqealar tizimi o'rini aniqlash ijodkordan katta mahorat va mehnat talab qiladi. Istiqloq davri romanchiligida real hayotni aniqlik va haqqoniylikda ko'rsatish, qahramonning ichki dunyosini kashf qilish maqsadida G'arb adabiyotidagi shaklni milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlikda tasvirlash o'zbek romanchiligida yetakchi tamoyilga aylandi. Ahmad A'zamning "O'zi uylanmagan sovchi" romanida sujet unsurlari va ko'rinishlari ifodasini tahlil qilish asnosida moddiy iste'mol birinchi darajali deb qaralayotgan sharoitda ham ildizlari teran ma'naviy qadriyatlar eskirmasligi ta'sirli aks ettirilganiga guvoh bo'ldik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Abdulla Ulug'ov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
- (2). Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Тошкент, "Akademnashr", 2013, 288-бет.
- (3). Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент, "Шарк", 2008, 364-бет.
- (4). Qozoqbo'y Yo'ldosh. Roman va bugungi o'zbek romanchiligi. "Sharq yulduzi", 2011, 4-son.
- (5). Пospelov Г.Н., Николаев П.А., Волков И.Ф. и др. Введение в литературоведение. М., "Высшая школа", 1988, 528 с.
- (6). Mo'siddinova O'g'ilo'y. Badiiy asarda sujet masalasi <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-asarda-sujet-masalasi?ysclid=lwlcdbookp8153880477>
- (7). Густав Фрейтаг. Техника драмы. Хирцель. 1863, с. 310.
- (8). Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyot, 2004, 223 bet.
- (9). Ахмад Аъзам. Ўзи уйланмаган совчи. Тошкент, "Янги аср авлоди", 2010.

**Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna (tayanch doktorant, Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti;**

**E-mail: [baxtigulsodiqova88@gmail.com](mailto:baxtigulsodiqova88@gmail.com))**

#### **J.FAULZ IJODI ADABIY-TANQICHILIK KONTEKSTIDA**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi va esseisti Jon Faulzning innovatsion va intellektual jihatdan qiyin asarlariga roman tanqidchilari tomonidan berilgan tanqidiy fikrlar borasida fikr-mulohazalar keltirilgan. Maqolada ta'kidlanganidek, Jon Faulz asarlarida innovatsion hikoya usullaridan foydalanilgan, inson tabiatining murakkabliklari hamda san'at va hayot o'rtasidagi munosabatlar yozuvchi ijodining asosiy bahs mavzusi bo'lib xizmat qilgan.*

***Kalit so'zlar:** tushunish va tahlil qilish, hikoya qilish texnikasi, tanqidchi adabiyotshunos, janrning dekonstruksiyasi, postmodernist yozuvchi, postmodern adabiy uslub va g'oyalar.*

**Содикова Бахтигул Ибодуллаевна (базовый докторант, Денауский институт предпринимательства и педагогики; E-mail: [baxtigulsodiqova88@gmail.com](mailto:baxtigulsodiqova88@gmail.com))**

#### **ВЫРАЖЕНИЕ ТВОРЕНИЯ ДЖОНА ФАУЛЗА В КОНТЕКСТЕ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКИ**

***Аннотация.** В этой статье рассматривается критика романов, новаторских и интеллектуально сложных произведений английского писателя и эссеиста Джона Фаулза. Как отмечается в статье, в творчестве Джона Фаулза использовались новаторские методы повествования, сложность человеческой природы и взаимосвязь искусства и жизни служили основной темой творчества писателя.*

***Ключевые слова:** понимание и анализ, повествовательная техника, литературный критик, жанровая деконструкция, писатель-постмодернист, постмодернистский литературный стиль и идеи.*



## THE EXPRESSION OF JOHN FOWLES' CREATION IN THE CONTEXT OF LITERARY CRITICISM

**Annotation.** *This article examines novel critics' critiques of the innovative and intellectually challenging works of English writer and essayist John Fowles. As noted in the article, John Fowles's work used innovative storytelling methods, the complexity of human nature and the relationship between art and life served as the main theme of the writer's work.*

**Key words:** *understanding and analysis, narrative technique, critical literary critic, genre deconstruction, postmodern writer, postmodern literary style and ideas.*

**Kirish (Introduction).** Jon Faulz (1926–2005) ingliz yozuvchisi va esseisti bo'lib, o'zining innovatsion va intellektual jihatdan qiyin asarlari bilan tanilgan. U Angliyaning Esseks shtatidagi Ley-on-Sea shahrida tug'ilgan. Faulz Oksford universitetida tahsil olgan va u yerda adabiyot va falsafaga juda qiziqqan. Faulz o'zining «Kolleksioner» debyut romanini nashr etishi bilan e'tirofga sazovor bo'ldi, unda ayolni o'g'irlagan yigit haqida hikoya qilinadi. Ushbu asar roman tanqidchilarining e'tirofiga sazovor bo'ldi va Faulz iste'dodli yozuvchi sifatida tanildi. Uning eng mashhur asari «Fransuz leytenantining ayoli» postmodern romani bo'lib, ushbu kitob sevgi hikoyasini metanasr elementlari bilan birlashtiradi, muqobil yakunlar va qiyin hikoya konvensiyalarini o'z ichiga oladi [1;78-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Postmodernizmda o'sha davrni qiyoslash va baholash kabi umumiy tadqiqot usullaridan foydalangan holda adabiy asarda o'ziga xos adabiy yondashuvlar, masalan, tegishli zamon va makonni o'rganishda tarixiy-madaniy yondashuv, muallif nuqtayi nafari, falsafiy-estetik hukmronlikni ko'rsatish va psixologik strukturaviy yondashuvlar, adabiy-tanqidiy fikrlar qo'llanilgan. Faulz o'zining keyingi asarlarida, jumladan, «Magus», «Daniel Martin» va «Maggot» kabi asarlarida innovatsion hikoya usullari va falsafiy mavzularni o'rganishni davom ettirdi. Uning asarlari, ko'pincha, ekzistensial savollar, inson tabiatining murakkabliklari hamda san'at va hayot o'rtasidagi munosabatlar bilan shug'ullanadi. Tarixiy metafantastika sifatida yozilgan «Kolleksioner» romani realizm, memuar janrlarining qorishmasi kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi, mavzuviy darajada fashizm mafkurasi va Darvin nazariyasiga, ekzistensializm va psixopatning xulq-atvoriga qaratilgan [1;76-b.].

Faulz o'z romanlaridan tashqari insholar va badiiy bo'lmagan asarlar ham yozgan. Ta'kidlash joizki, u inson salohiyati va o'zini-o'zi anglashning falsafiy izlanishlariga bag'ishlangan «Aristos» va turli falsafiy, ekologik mavzularga bag'ishlangan ocherklar to'plamini ham nashr etgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning adabiyotshunoslik sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil, germeneytik tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Jon Faulz va uning asarlari haqida turli adabiyotshunoslar o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar. Faulz adabiyotini tushunish va tahlil qilishga hissa qo'shgan taniqli tanqidchilarga quyidagilarni keltirish mumkin:

Malkolm Bredberi: Bredberi britaniyalik yozuvchi, tanqidchi va akademik bo'lib, u zamonaviy Britaniya fantastika yo'nalishi, jumladan, Jon Faulz asarlari haqida ko'p yozgan. Uning «Zamonaviy Britaniya romani» kitobida Faulz romanlari tahlili va sharhlari mavjud.

Devid Lodj: Lodj britaniyalik yozuvchi, tanqidchi va adabiyotshunos olim, zamonaviy adabiyotdagi yuksak tajribasi bilan tanilgan. U o'zining «Zamonaviy yozish usullari» va «Yozuv amaliyoti» kabi tanqidiy kitoblari Faulz asarlarini muhokama qilgan.

Kristofer Dreyk: Dreyk Faulz asarlari haqida ko'p yozgan adabiyotshunos sanaladi. Uning «Jon Faulz tili: o'z-o'zini anglagan fantastika nazariyasi va amaliyoti» kitobida Faulzning hikoya qilish texnikasi va tildan foydalanishi har tomonlama tahlil qilingan.

Jeyms Acheson: Acheson Faulzning ekzistensializm bilan aloqasiga e'tibor qaratgan. Uning «Jon Faulz: Izohlangan asosiy va ikkinchi darajali bibliografiya» kitobi Faulzning asarlari va ular atrofidagi tanqidiy adabiyotchilar uchun keng qamrovli manbani taqdim etadi. Bulardan tashqari, Faulz asarlari bilan shug'ullangan ko'plab tanqidchilarga bir nechta misollarni keltirish mumkin. Ularning asarlari Faulz romanlarini ilmiy tushunish va talqin qilishga hissa qo'shib, uning hikoyalarning mavzulari, uslubiy va falsafiy jihatlarini yoritib beradi [2;202-b.].

Jon Faulzning asarlarida ekzistensializmning ta'siri haqida ham bir qator tanqidchilarning mulohazalari mavjud. Jumladan:

Saymon Lavday: Lavdey o'zining «Romantiklar va 1-may an'anasi» kitobida Faulz ijodida ekzistensializmning ta'sirini o'rganadi. U Faulzning «Fransuz leytenantining ayoli» romanini ekzistensial mavzular kontekstida tahlil qiladi, personajlarning kontingent dunyoda ma'no va o'zlikni izlashini tekshiradi.

Robert G. Kollinz: Kollinz o'zining «Jon Faulz: Vizyoner va Voyeur» kitobida Faulzning ekzistensialistik tendensiyalarini muhokama qiladi. U Faulzning «Magus» va «Fransuz leytenantining ayoli» kabi romanlarida erkinlik, haqiqiylik va mavjudlik tabiati kabi ekzistensial mavzularni o'rganishini tadqiq qiladi [3;93-b.].

Kirsten Stirling: Stirling o'zining «Jon Faulz: Ikki dunyoda hayot» kitobida Faulzning ijodida ekzistensializm va feminizmni ta'sirini o'rganadi. U Faulzning asarlarini ekzistensialistik nuqtayi nazardan tahlil qilib, shaxsiy erkinlik, tanlov va o'zini-o'zi anglash mavzulariga e'tibor qaratadi.

Richard J. Pirs: Pirs o'zining «Jon Faulzning ekzistensial tasavvuri» maqolasida Faulzning ekzistensializm yo'nalishini muhokama qiladi. U Faulz asarlarini ekzistensial falsafa kontekstida ko'rib chiqadi, qahramonlarning ekzistensial dilemmalarini, ularning haqiqiylik va o'zini-o'zi anglashga intilishini yoritadi [4;64-b.].

Bu tanqidchilar Faulz ijodidagi shaxsiy erkinlik, ixtiyor erkinligi, begonalashuv, ma'no va o'ziga xoslikni izlash kabi ekzistensialistik mavzularni o'rganish uchun uning asarlariga murojaat qilishadi. Ular o'zlarining tahlillari orqali Faulzning ekzistensialistik g'oyalarga aloqadorligini hamda uning hikoyalari-dagi qahramonlar hayotidagi ekzistensial muammolar bilan kurashish usullarini yoritib beradilar.

Jon Faulzning postmodernist yozuvchi sifatida tan olinishining bir necha sabablarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin:

Birinchidan, Faulz o'z asarlarida tez-tez metafantastika usullaridan foydalanadi, fantastika va haqiqat o'rtasidagi chegarani xiralashtiradi. «Fransuz leytenantining ayoli» kabi romanlarida u o'z-o'zini aks ettiruvchi sharhlar, mualliflik hujumlari va muqobil hikoya yo'llarini tanlaydi, o'quvchilarni hikoya qilish usullari haqida fikr yuritishga chaqiradi.

Ikkinchidan, Faulz o'z romanlarida matnlararo havolalar va boshqa adabiy asarlar hamda madaniy artefaktlarga murojaat qiladi. Misol uchun, «Fransuz leytenantining ayoli» romani Viktoriya adabiyoti va konvensiyalariga tayanadi. Bu esa matnlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlagan holda intertekstuallik haqidagi an'anaviy tushunchalarni buzadi [5;61–62-b.].

Uchinchidan, Faulz, ko'pincha, parchalangan hikoya tuzilmalaridan foydalanadi va o'z asarlarida bir nechta istiqbollarni taqdim etadi. «Fransuz leytenantining ayoli» asarida u o'quvchilarga turli xil imkoniyatlarni tanlash imkonini beruvchi muqobil yakunlar va hikoya usullarini taklif qiladi. Ushbu parchalanish birlashtirilgan, obro'li hikoya g'oyasini shubha ostiga qo'yadi va talqinning subyektivligini ta'kidlaydi.

To'rtinchidan, Faulz o'z asarlarida janr konvensiyalaridan mohirona foydalanadi. Masalan, «Magus» romantika va psixologik triller elementlarini birlashtirib, an'anaviy janr talablarini rad etadi. Faulzning janr chegaralarini o'rganishi va dekonstruksiyasi o'rnatilgan adabiy kategoriyalarga qarshi chiqish va xiralashtirish uchun postmodern tendensiyalarga mos keladi [6;177-b.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Faulz hikoyalarning yuqorida ta'kidlangan jihatlari uning postmodern adabiy uslub va g'oyalar bilan aloqadorligini ko'rsatadi. Garchi u postmodernizm harakatining barcha jihatlari bilan to'liq mos kelmasa-da, uning asarlari an'anaviy hikoyanavislik konvensiyalariga qarshi turish, hikoya qilish tabiatini o'rganish va voqelikning barqarorligini shubha ostiga qo'yishga tayyorligini namoyish etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Ibodyullayevna S.B. (2023). Several reason, power and narrative technique in the novel of “The Collector”. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 1(4), p. 78–86.
- (2). Fowles J. *Collector: Novel*. Per. From English I. Bessmertnaya. M., “Makhaon”, 2001.
- (3). Malcolm R. Godden. *The Cambridge History of the English Language*, Cambridge University Press, 2008.
- (4). Содикова, Б. (2023). Появление определенного типа саморефлексивной метафизики в работе мантисса. *Предпринимательство и педагогика*, 5(1), p. 64 – 69.
- (5). Содикова, Б., & Бобожонов, Д. (2022). Ўзбек адабиётшунослигида модернизм ва постмодернизм оқимиға билдирилган таснифлар. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке* (1), 61–62 с.
- (6). Sodikova, B. (2022). John fowles as a writer of existentialistic and realistic literary trends, and his philosophical and psychological views. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2022(1), p. 176–184.

G'affarova Dilfuza Shavkat qizi (Navoiy davlat Pedagogika instituti "Matematika" kafedrasida o'qituvchisi; [dilfuzagaffarova199312@gmail.com](mailto:dilfuzagaffarova199312@gmail.com))

**TO'PLAMLAR BIRLASHMASI ELEMENTLARI SONINI HISOBLASHNI O'QITISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada matematik analiz fanidagi dastlabki tushunchalardan biri bo'lgan to'plamlar mavzusini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan. Unda to'plamlar birlashmasi elementlari sonini hisoblash usullari muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy innovatsion texnologiyalar, to'plamlar, to'plamlar birlashmasining elementlari soni, muammoli ta'lim texnologiyasi.

Гаффарова Дилфуза Шавкат кизи (Навоийский государственный педагогический институт, преподаватель кафедры "Математика"; [dilfuzagaffarova199312@gmail.com](mailto:dilfuzagaffarova199312@gmail.com))

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПОДСЧЕТУ КОЛИЧЕСТВА ЭЛЕМЕНТОВ ОБЪЕДИНЕНИЯ МНОЖЕСТВ**

*Аннотация.* В данной статье представлены предложения и рекомендации по использованию интерактивных методов при обучении множествам, что является одной из первых концепций в науке математического анализа. Объясняются методы расчета количества элементов объединения множеств с использованием технологий проблемного обучения.

**Ключевые слова:** современные инновационные технологии, множества, число элементов объединения множеств, технология проблемного обучения.

**USE OF PROBLEM-BASED LEARNING TECHNOLOGY IN TEACHING THE CALCULATION OF THE NUMBER OF ELEMENTS OF THE UNION OF SETS**

*Annotation.* This article presents suggestions and recommendations regarding the use of interactive methods in the teaching of sets, which is one of the first concepts in the science of mathematical analysis. It explains the methods of calculating the number of elements of the union of sets using problem-based learning technologies.

**Key words:** modern innovative technologies, sets, the number of elements of the union of sets, problem-based learning technology.

**Kirish.** Jahonda bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitiladigan kasbiy fanlarni, xususan, matematik analiz fanini o'qitishning nazariy-metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning yangicha yondashuvlarini joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Matematik analiz ta'limi barcha mamlakatlarning oliy o'quv yurtlarida ham asosiy o'quv predmeti hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismlaridan hisoblangan bakalavriat bosqichida zamon talblariga javob beradigan malakali matematik mutaxassislarini tayyorlashda matematik analizning ahamiyati katta. Matematik analiz kursi oliy ta'lim muassasalarida matematika o'qituvchilarini tayyorlashga asosiy yo'llanma beradigan fandır.

Bo'lg'usi matematika o'qituvchilariga matematik analiz fanini, xususan, to'plamlar ustida amallar mavzusini o'qitishni zamonaviy tamoyillariga asoslangan, nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda muammoli ta'lim texnologiyalarini loyihalash asosida mashg'ulotlarni tashkil etishga doir ilmiy-nazariy ishlanmalar ishlab chiqish muhim vazifalardan bo'lib qolmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan matematika fanlarini o'qitishni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish va o'qitish samaradorligini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1]. Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida matematik analiz fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish davr talabiga aylandi [2]. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida matematik analiz fanini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [3].

Matematika ta'limini rivojlantirishning asosiy omili bu fanni o'qitish metodikasini takomillashtirishda o'z aksini topadi. Bu borada yurtimiz va xorijdagi olimlar tomonidan bir qator tizimli ishlar amalga oshirilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida matematika fanini

o'qitish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini va axborot-kommunikatsiya vositalarini tatbiq etishga oid tatqiqotlar olib borilgan [4;5-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** To'plam tushunchasi matematik analizning boshlang'ich tushunchalaridan biri bo'lib, u ta'rifsiz qabul qilinadi va misollar orqali tushuntiriladi. To'plamni tashkil qiluvchi predmetlar uning elementlari deyiladi. To'plamlarni  $A, B, C \dots X, Y, Z \dots$  harflari bilan, uning elementlarini esa  $a, b, c, \dots x, y, z, \dots$  harflari bilan belgilanadi. Biror  $a$  predmet  $A$  to'plamning elementi ekanligi, ya'ni,  $A$  to'plamga tegishli ekanligi, quyidagicha yoziladi:  $a \in A$  va "a element  $A$  to'plamga tegishli", " $a \in A$  ning elementi" deb o'qiladi. Agar  $a$  element  $A$  to'plamga tegishli bo'lmasa, u simvolik ravishda  $a \notin A$  ko'rinishda yoziladi.

Birorta ham elementga ega bo'lmagan to'plam bo'sh to'plam deyiladi va u  $\emptyset$  kabi belgilanadi.

Agar  $A$  to'plamning hamma elementlari  $B$  to'plamga tegishli bo'lsa,  $A$  to'plam  $B$  to'plamning qism to'plami deyiladi. Buni  $A \subset B$  (yoki  $B \supset A$ ) ko'rinishida yozish mumkin, " $A$  to'plam  $B$  to'plamning qism to'plami" deb o'qiladi.

Agar bir paytning o'zida  $A \subset B$  va  $B \subset A$  bo'lsa,  $A$  va  $B$  to'plamlar teng deyiladi va  $A = B$  ko'rinishida yoziladi. Bo'sh bo'lmagan ixtiyoriy  $A$  to'plam kamida ikkita qism to'plamga ega: bo'sh to'plam  $\emptyset$  va  $A$  to'plamning o'zi, ya'ni  $A \subset A, \emptyset \subset A$  [6]. To'plamlar ustida bajariladigan amallarning ba'zi xossalari keltiramiz.

Bizga  $A, B$  va  $C$  to'plamlar berilgan bo'lsin:


1.  $A \subset B, B \subset D$  bo'lsa,  $A \subset D$  bo'ladi;
2.  $A \cup A = A, A \cap A = A$
3.  $A \subset B$  bo'lsa,  $A \cup B = B, A \cap B = A$  bo'ladi;
4.  $A \cup B = B \cup A, A \cap B = B \cap A$
5.  $(A \cup B) \cup D = A \cup (B \cup D), (A \cap B) \cap D = A \cap (B \cap D)$
6.  $(A \cup B) \cap C = (A \cap C) \cup (B \cap C)$
7.  $(A \cap B) \cup C = (A \cup C) \cap (B \cup C)$

Bu berilgan xossalar biz o'rganmoqchi bo'lgan tushunchalar uchun juda muhim hisoblanadi. Bizga quyidagi masala berilgan bo'lsin.

**1-masala.** Xalqaro matematikadan o'tkazilgan fan olimpiadasiga borgan o'quvchilarning 28 nafari ingliz tilida, 25 nafari rus tilida, 20 nafari koreys tilida, 8 nafari ingliz va rus tillarida, 6 nafari ingliz va koreys tillarida, 5 nafari rus va koreys tillarida, 2 nafari esa har uchchala tilda ham bema'lol gaplasha oladi. Olimpiadada jami nechta o'quvchi ishtirok etgan?

Bu masalani ishlashning talabalarga ikkita usuli tavsiya etiladi.

**Vaziyatdan chiqishning 1-usuli.** Eyer-Venn diagrammasi orqali hisoblanadi.



Yuqoridagidan biz quyidagi natijani olishimiz mumkin:

$$N(I \cup R \cup K) = 16 + 14 + 11 + 6 + 4 + 3 + 2 = 56$$

**Javob:** Demak, xalqaro olimpiadada jami 56 nafar o'quvchi matematika fanidan qatnashgan ekan.

Eyer-Venn diagrammasi orqali hisoblash talabalarda ko'p muammo tug'dirmaydi. Lekin to'plamlar soni oshib boraversa, bu usul orqali hisoblash talabalarda ko'p chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Shuning

uchun biz bu masalaga umumiyroq yondashamiz, ya'ni, 3 ta to'plamning birlashmasi elementlari sonini topishning formulasini keltirib chiqaramiz.

**Vaziyatdan chiqishning 2-usuli.** Berilgan masaladan ko'rinib turibdiki, bizga 3 ta to'plam berilgan. Demak biz 3 ta to'plam uchun to'plam birlashmasi elementlari sonini topish formulasini keltirib chiqarishimiz kerak.

Bizga ma'lumki, agar to'plamlar soni 2 ta bo'lsa, ularning birlashmasining elementlari soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$N(A \cup B) = N(A) + N(B) - N(A \cap B)$$

Endi biz to'plamlar soni 3 ta bo'lgan hol uchun formulani keltirib chiqaramiz. Bizga A, B, C to'plamlar berilgan bo'lsin:

$$N(A \cup B \cup C) = N((A \cup B) \cup C) = N(A \cup B) + N(C) - N((A \cup B) \cap C)$$

Endi bu yerdan biz quyidagi tenglikni to'plamlarning 6-xossasidan foydalanib, alohida hisoblab olamiz;

$$N((A \cup B) \cap C) = N((A \cap C) \cup (B \cap C)) = N(A \cap C) + N(B \cap C) - N((A \cap C) \cap (B \cap C))$$

Bu yerda  $N((A \cap C) \cap (B \cap C)) = N(A \cap B \cap C)$  bo'ladi.

Endi hammasini umumlashtirib quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$N(A \cup B \cup C) = N(A) + N(B) + N(C) - N(A \cap B) - N(A \cap C) - N(B \cap C) + N(A \cap B \cap C)$$

Berilgan to'plam 3 ta bo'lgan hol uchun formulani keltirib chiqarganimizdan keyin talabalarda to'plamlar, ularning xossalari, to'plam birlashmasi elementlari soniga oid yangi bilimlar hosil bo'ladi.

Topligan formula yordamida berilgan masalani hisoblaymiz.

Bu yerda:

I = {Ingliz tilida gaplasha oladigan o'quvchilar to'plami}

R = {Rus tilida gaplasha oladigan o'quvchilar to'plami}

K = {Koreys tilida gaplasha oladigan o'quvchilar to'plami}

$$N(I) = 28, \quad N(R) = 25, \quad N(K) = 20, \quad N(I \cap R) = 8, \quad N(I \cap K) = 6, \quad N(R \cap K) = 5,$$

$$N(I \cap R \cap K) = 2, \quad N(I \cup R \cup K) = 28 + 25 + 20 - 8 - 6 - 5 + 2 = 56$$

**Javob.** Demak, xalqaro olimpiadada jami 56 nafar o'quvchi matematika fanidan qatnashgan ekan.

Endi biz 4 ta to'plam berilgan holni qaraymiz. Bu holat ancha murakkab bo'lib, uni Eyler-Venn diagrammasi orqali hisoblash chalkashliklarga olib keladi va masala javobini topishda aksariyat holatlarda talabalar xatolikka yo'l qo'yadilar. Bu xatolikni bartaraf etish uchun uning umumiy formulasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bizga 4 ta A, B, C, D to'plamlar berilgan bo'lsin.

$$N(A \cup B \cup C \cup D) = N((A \cup B) \cup (C \cup D)) = N(A \cup B) + N(C \cup D) - N((A \cup B) \cap (C \cup D))$$

Endi bu yerdan biz quyidagi tenglikni alohida hisoblab olamiz;

$$N((A \cup B) \cap (C \cup D)) = N(((A \cup B) \cap C) \cup ((A \cup B) \cap D)) = N((A \cup B) \cap C) + N((A \cup B) \cap D) - N(((A \cup B) \cap C) \cap ((A \cup B) \cap D))$$

Ikkala tenglikni umumlashtiramiz:

$$N(A \cup B \cup C \cup D) = N(A) + N(B) - N(A \cap B) + N(C) + N(D) - N(C \cap D) - N((A \cup B) \cap C) - N((A \cup B) \cap D) + N(((A \cup B) \cap C) \cap ((A \cup B) \cap D)) \quad (1)$$

Bu yerdan biz quyidagilarni alohida hisoblab olamiz:

$$N((A \cup B) \cap C) = N((A \cap C) \cup (B \cap C)) = N(A \cap C) + N(B \cap C) - N(A \cap B \cap C)$$

$$N((A \cup B) \cap D) = N((A \cap D) \cup (B \cap D)) = N(A \cap D) + N(B \cap D) - N(A \cap B \cap D)$$

$$N(((A \cup B) \cap C) \cap ((A \cup B) \cap D)) = N(A \cap C \cap D) + N(B \cap C \cap D) - N(A \cap B \cap C \cap D)$$

Topligan 3 ta tenglikni olib borib, (1) tenglikka qo'yamiz:

$$N(A \cup B \cup C \cup D) = N(A) + N(B) + N(C) + N(D) - N(A \cap B) - N(C \cap D) - N(A \cap C) - N(B \cap C) - N(A \cap D) - N(B \cap D) + N(A \cap B \cap C) + N(A \cap B \cap D) + N(A \cap C \cap D) + N(B \cap C \cap D) - N(A \cap B \cap C \cap D) \quad (2)$$

Keltirilgan (2) formulani yaxshiroq tushunishimiz uchun quyidagi masalani qaraymiz:

**2-masala.** Ma'lum bir hududdagi ixtisoslashgan maktablarning 28 tasi aniq fanlarni, 26 tasi tabiiy fanlarni, 23 tasi gumanitar fanlarni va 20 tasi chet tili fanlarini chuqurlashtirib o'tishga ixtisoslashtirilgan. Shu maktablarning 16 tasi aniq va tabiiy fanlarni, 14 tasi aniq va gumanitar fanlarni, 11 tasi aniq fanlar va chet tillarini, 10 tasi tabiiy va gumanitar fanlarni, 9 tasi tabiiy fanlar va chet tillarini, 8 tasi gumanitar fanlar va chet tillari, 5 tasi aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni, 4 tasi aniq va tabiiy fanlar va chet tillarini, 3 tasi aniq va gumanitar fanlar va chet tillarini, 2 tasi tabiiy va gumanitar fanlar va chet tillarini, 1 tasi esa to'rttala fanlarni ham chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan bo'lsa, berilgan hududda jami nechta ixtisoslashtirilgan maktablar bor?

Bu yerda:

$A = \{\text{Aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar to'plami}\}$

$T = \{\text{Tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar to'plami}\}$

$G = \{\text{Gumanitar fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar to'plami}\}$

$C = \{\text{Chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktablar to'plami}\}$

$$N(A) = 28, \quad N(T) = 26, \quad N(G) = 23, \quad N(C) = 20, \quad N(A \cap T) = 16, \quad N(A \cap G) = 14, \\ N(A \cap C) = 11, \quad N(T \cap G) = 10, \quad N(T \cap C) = 9, \quad N(G \cap C) = 8, \quad N(A \cap T \cap G) = 5, \\ N(A \cap T \cap C) = 4, \quad N(A \cap G \cap C) = 3, \quad N(T \cap G \cap C) = 2, \quad N(A \cap T \cap G \cap C) = 1$$

(2) formulaga asosan

$$N(A \cup T \cup G \cup C) = 28 + 26 + 23 + 20 - 16 - 14 - 11 - 10 - 9 - 8 + 5 + 4 + 3 + 2 - 1 = 42$$

**Javob.** Demak, hududda jami 42 ta ixtisoslashtirilgan maktab bor ekan.

**Tahlil va natijalar.** Qilingan tadqiqot ishi tahlil va natijalari shuni ko'rsatdiki, bu mavzu orqali talabalar to'plamlar va ularning xossalari haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladilar va yuqoridagi kabi berilgan masalalarga to'plamlar soni nechta bo'lishidan qat'iy nazar, javob topa biladilar. Bu ko'rinishidagi masalalar matematikada va jamiyatimizda ham ko'p uchraydi. Ayniqsa, statistik ma'lumotlar shu ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish o'rinliki, to'plamlar mavzusi matematik analiz fanining dastlabki mavzularidan biri hisoblanadi, bu mavzuni yaxshi tushunish orqali talabalar ko'p muammolarning yechimini topishadi. Biz yuqorida ko'rib o'tgan masalalarimiz orqali talabalarga to'plamlar birlashmasi elementlari sonini hisoblashning umumiy usullarini tushuntirdik. Odatda talabalar to'plamlar soni 2 ta yoki 3 ta bo'lgan hollarinigina hisoblashni yaxshi bilishadi. Yuqorida berilgan masaladagi kabi to'plamlar soni 3 tadan oshgandan so'ng uni hisoblash talabalarga muammo tug'diradi. Biz ushbu maqolada shu kabi muammolarning bartaraf etish usullarini muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda ko'rib o'tdik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. S.X.Xoliqov. Bo'lg'usi matematika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida differensial tenglamalar moduli o'qitish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 108 bet (2022).

[2]. S.X.Xoliqov. Methodology of using problem educational technologies in teaching simple differential equations. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities ISSN 2749-0866 Vol.1 Issue 1.5 Pedagogical sciences <http://berlinstudies.de/> (2022).

[3]. J.B.Ergashev. Bo'lajak matematika o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligining mazmunini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati, Toshkent, 48 bet (2018).

[4]. S.Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik, Toshkent, 302 bet (2011).

[5]. Suiv Lee. PISA functional literacy as represented in taiwanese mathematics textbooks. Submitted in partial fulfillment of the requirements for the Degree of Doctor of Education in Mathematics Teachers College, Columbia University, 149 p. (2013).

[6]. T. Azlarov, H. Mansurov. Matematik analiz asoslari. Darslik, 1-qism, Toshkent, 9-bet (1994).

**Maxammatova Ma'muraxon Jalilovna (Andijon davlat Pedagogika instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası o'qituvchisi)**

### **ONA TILI VA O'QISH SAVOXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMLARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini amalga oshirish uchun o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, ularning samaradorligini oshirishning pedagogik usullari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik texnologiyaning tuzilishi, axborot bilan ishlash va guruhlarda ishlashni tashkil qilish bilan bog'liq pedagogik strategiya va usullardan foydalanish bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** innovatsion ta'lim texnologiyalari, uyg'otish bosqichlari, ma'no va mulohaza yuritish, klaster, yozishmalarni izlash, intellektual, "Bilimingni sinab ko'r".*

**Махамматова Мамурахан Джалиловна (преподаватель кафедры педагогики и психологии Андийанский государственный педагогический институт)**

### **ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ НОСИТЕЛЯ И ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ**

***Аннотация.** В данной статье описаны технологии развития критического мышления учащихся для реализации личностно-ориентированной модели обучения, педагогические методы повышения их эффективности. Также описано использование педагогических стратегий и методов, связанных со структурой педагогической технологии, работой с информацией и организацией работы в группах.*

***Ключевые слова:** инновационные образовательные технологии, этапы пробуждения, смысл и рассуждение, кластер, поиск соответствия, интеллектуальный, «Проверь свои знания».*

### **TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF STUDENTS' CRITICAL THINKING SKILLS IN NATIVE LANGUAGE AND READING LESSONS**

***Annotation.** This article describes the technologies for developing critical thinking in students for the implementation of a person-oriented educational model, pedagogical methods for increasing their effectiveness. Also, the use of pedagogical strategies and methods related to the structure of pedagogical technology, working with information and organizing work in groups is described.*

***Key words:** innovative educational technologies, stages of awakening, meaning and reasoning, cluster, search for correspondence, intellectual, "Test your knowledge".*

**Kirish (Introduction).** Butun dunyo ta'lim tizimida ro'y berayotgan modernizatsiya jarayonlari o'quv fanlarining ta'lim salohiyatini ro'yobga chiqarishga, o'quvchilarning bilim qobiliyatlari va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Olimlar va uslubiyotchilar tajribasiga ko'ra, shunday yo'nalishlardan biri o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. O'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi ko'plab ijtimoiy va ilmiy fanlar uchun muhimdir.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitish orqali o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi "Klaster", "Klassik yozishmalar qidirish", "Renking" kabi usullar misolida ko'rishimiz mumkin. Darsning barcha bosqichlarida ushbu metodlarni qo'llashning umumiyligi va samaradorligi ko'rib chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi shaxsiy, metodik ta'minot va uslubiy vositalar majmuyi sifatida o'quv jarayonining diagnostik maqsadlarini amalga oshirishni kafolatlaydi. Texnologiya konseptual va protsessual komponentlarni o'z ichiga oladi. Konseptual komponent tizimli, faoliyatga asoslangan, texnologik va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar bilan ifodalanadi. Texnologiyaning protsessual komponenti maqsadlar, vazifalar, bosqichlar, shakllar, usullar, vositalar, o'rganish natijalarini o'z ichiga oladi.

Texnologiya o'quvchilaringizni tanqidiy fikrlash faoliyatiga jalb qiladigan turli xil interaktiv vositalarni taklif etadi. Masalan, siz onlayn viktorinalar, so'rovlar, o'yinlar, didaktik topshiriqlar berish orqali ularni bilimini sinab ko'rish, ularning taxminlariga qarshi chiqish yoki turli nuqtayi nazarlarni o'rganish uchun foydalanishingiz mumkin. O'quvchilaringizni fikr almashish, fikr bildirish yoki loyihalarda hamkorlik qilishga undash uchun bahs-munozara, debatlar, "Blum savollari" dan ham foydalanishingiz mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu vositalar o'quvchilaringizga qiziqarli va interaktiv tarzda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini mashq qilish va yaxshilashga yordam beradi. Masalan, ruchkani yozishdan boshqa yana 5 ta vazifasini ayting topshirig'i asosida.



**Fikrlash shlapa usuli.** Sinf oltita guruhga bo'lingan, har biri ma'lum rangdagi shlyapa oladi.

Oq shapka: statistik (qancha?).

Bu ma'lumotlarning rangi. Bizni faqat faktlar qiziqtiradi. Biz allaqachon bilgan narsalarimiz, qanday ma'lumotlar etishmayotganligi, bizga yana qanday ma'lumotlar kerakligi va ularni qanday olishimiz mumkinligi haqida savollar beramiz.

Qizil shapka: hissiy (sizga nima yoqdi?).

O'quvchilar ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha o'zlarining his-tuyg'ulari va sezgilarini, nima uchun bunday bo'lganligi haqida tushuntirishga kirishmasdan ifoda etishlari mumkin. Men bu masalaga qanday munosabatdaman?

Qora shapka: salbiy (sizga nima yoqmadi?).

Ushbu shlapa taklif etilayotgan takliflarni tanqidiy baholashga, ularning qanchalik real, xavfsiz va amalga oshirilishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Xulosa shuki, u ishlaydimi? Bu qanchalik xavfsiz? Bu fikr amalga oshishi mumkinmi?

Sariq shlapa: ijobiy (nima yaxshi?).

Sariq shlapa bizdan e'tiborimizni ko'rib chiqilayotgan g'oyaning afzalliklari, afzalliklari va ijobiy tomonlarini izlashga qaratishni talab qiladi. Nega shunday qilish kerak? Natijalar qanday bo'ladi? Bunga arziydimi?

Yashil shlapa: ijodiy.

Yashil shlapa ostida bolalar topishmoqlar, topshiriqlar, matn uchun rebuslar o'ylab topadilar, klaster, sinquain tuzadilar.

Moviy shlapa: analitik (nima uchun?).

Ushbu shlapada guruh butun fikrlash jarayonini aks ettiradi. Bajarilgan ishlarni sarhisob qiladi, keyingi bosqichlarni belgilaydi. Ona tili darolarida bu usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning axborotni idrok etishi, bashorat qilish, matn bilan ishlash, savollar berish va ma'lumotni ijodiy talqin qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda tanqidiy fikrlash texnologiyasining ta'lim jarayonida subyektlari (o'qituvchi va o'quvchilar) o'rtasidagi amaliy o'zaro ta'sir bo'lib, o'qitish uslublari va usullarini aniq loyihalashtirish, tizimlashtirish, standartlashtirishni o'z ichiga oladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, shaxsni rivojlantirish, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini oshirish bo'yicha belgilangan maqsadlarni aniq amalga oshirishda barqaror ijobiy natijaga erishiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi kunda ta'limdagi muammolarni pedagogik maqsadlarning aniq taksonomiyasini qurish va ularni tasvirlash uchun eng aniq modelni yaratish orqali hal qilamiz. Ushbu usullar uzoq muddatli ta'lim natijasi sifatida shakllantirilgan umumiy maqsadlarni to'liq tashxis qo'yish (aniqlash) bo'lishi kerak bo'lgan aniq maqsadlarga bosqichma-bosqich tarjima qilish shaklida amalga oshiriladigan o'quv maqsadlarini aniqlashtirishga asoslanadi. Ta'lim maqsadlarini aniq maqsadlarga aylantirishda doimiy ravishda maqsad to'g'risida to'liqroq tasavvurga ega bo'lish kerak [1]. Mazmun nuqtayi nazaridan, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi – bu o'quv jarayonini intellektual rivojlanishni rag'batlantiradigan, mustaqil va ongli ravishda ta'minlaydigan tarzda qurishga imkon beradigan maxsus texnika va strategiyalar to'plamidir. o'quvchilarning ta'lim maqsadlariga erishishdagi faoliyatidir.

Ushbu shaklda texnologik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri aniq ko'rinadi—bu o'quv jarayonini to'g'rilash, oraliq o'quv natijalarini hisobga olgan holda, texnologiya bosqichlarini amalga oshirishga tuzatishlar kiritishga qaratilgan tezkor aloqadir. yakuniy ta'lim natijasining o'qitish va o'qitishning umumiy ta'lim maqsadlariga muvofiqligi.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasini amalga oshirish jarayonida o'qitishning (tanqidiy fikrlashni rivojlantirish) va o'qitishning (tanqidiy fikrlash qobiliyati) umumiy ta'lim



maqsadlari aniqlashtiriladi va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlashga qaratilgan aniq kichik maqsadlarga bo'linadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi axborot bilan ishlash va guruhlarda ishlashni tashkil qilish bilan bog'liq pedagogik strategiya va usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi ("klaster tizimi", "chalkash mantiqiy zanjirlar", insert, "kalit so'zlar", materialni tashkil qilishning grafik usullari va boshqalar), bu o'quvchilarni kognitiv faollikka rag'batlantirishga va shu orqali ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari ta'lim maqsadlarga erishish uchun ishlatilishi mumkin, shuningdek, har bir o'quvchi fikrining ustuvorligi, har bir hukmning muhimligi, o'qituvchining avtoritar emasligi, yangi bilimlarning mavjud tajribaga tayannishi. U alohida mavjud bo'lishi mumkin emas, har bir holatda foydalanish mumkin. Har bir bosqich o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lib, avvalo, tadqiqot, ijodiy faoliyatni faollashtirishga, so'ngra olingan bilimlarni idrok etish va umumlashtirishga qaratilgan xarakterli usullar majmuasiga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. Проблемы и методы психологии [текст]. М., 1989, 192 с.
- (2). Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта [текст]. М., "Знание", 1989, 80 с.
- (3). Xelpern, D.F. (1996). Fikr va bilim: tanqidiy fikrlashga kirish. Nyu-Jersi: Lourens Erlbaum.
- (4). Pol, R. va Elder, L. (2008). Tanqidiy fikrlash: o'qish va hayotingiz uchun mas'uliyatni o'z zimmangizga olish vositalari. Pearson/Prentis Xoll.
- (5). Zagashev I.O., Zair-Bek S.I. Tanqidiy fikrlash: rivojlanish texnologiyasi. SanktPeterburg, "Alyans" Delta nashriyot uyi, 2003, 284-bet.
- (6). Sattarova, I.M., & Abdulmajidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni samaradorligini oshirishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish pedagogik zaruriyat sifatida. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 1(6), 5–9-betlar.
- (7). Tolibdjanovna, A.Z. (2023). Psychological Factors of Manifestation of Aggressive Behavior in Teenagers during Globalization.
- (8). Abduljalilovna, R.S., & Maftuna, T. (2023). Men tanlagan kasbni egallashda kelgusi rejalarim. world scientific research journal, 20(1), 87–90-betar.
- (9). Sattarova, I.M. (2020). The place and significance of acquaintance activity in the upbringing of intellectual ability youth. theoretical & applied science, (1), 258–261-betlar.
- (10). Sirojiddinova, F.X. Kasb tanlash motivatsiyasi shakllanishining pedagogik-psixologik imkoniyatlari. Psixologiya uchrediteli: Buxarский государственный университет, (4), 151–155-betlar.
- (11). Tolibjonovich, M.T. (2024). The emergence of jadid enlightenment and the formation of statehood ideas. international journal of formal education, 3(2), 24–27-betlar.
- (12). Фуломжонов, О.Р. (2021). Жамият тараққийтининг янги босқичида гендер тенгликни таъминлашининг ижтимоий аҳамияти. Scientific progress, 1(4), 235–242-betlar.
- (13). Думарова, Г. (2023). Замонавий ўзбек оилаларида ижтимоий-маданий жараёнлар динамикаси. Евразийский журнал предпринимательства и педагогики, 1(1), 50–56-betlar.
- (14). Nasriddinovich, A.A., & Isroiljon ogli, K.I. (2022). Problematic issues and solutions to the use of fairy tales in the education of children and students. international journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 impact factor. 7.429, 11(11), 518–521-betlar.
- (15). O.Vakobova. (2021). Socio-psychological aspects of parental responsibility in the family. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture, 1(2), 102–106 p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5595012>

**Ablaqulov Kamoliddin Bahridinovich (TATU Qarshi filiali, assistent; E-mail: [kamoliddin1987@umail.uz](mailto:kamoliddin1987@umail.uz)),  
Xolmurodov Abdulxamid Erkinovich (Qarshi davlat universiteti, t.f.d., professor)  
BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN TA'LIM JARAYONIDA FOYDALANISH**

*Annatsiya. Ta'lim jarayonida "bulutli texnologiyalar"ni qo'llash ta'lim sohasini barcha tarmoqlarini kengroq yoritishga va uni o'quv jarayoniga intensivlashtirishga hamda optimallashtirishga, qolaversa, zamonaviy usullardan foydalanishga olib keladi. Maqolada ta'lim jarayonida "Bulutli texnologiya"ning maqsad va vazifalari, bulutli ma'lumotlarni qayta ishlaydigan xizmatlar turlari, bulutga yo'naltirilgan muhitning xizmat turlari, "Bulutli texnologiyalar"dan foydalanish, ta'lim faoliyatida bulutli texnologiyalarning yo'nalishini boshqarish, shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimiga "Bulutli texnologiyalar"ni joriy etish hamda qo'llashning ahamiyati tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** bulut, "Bulutli texnologiyalar", bulutli muhit, ta'lim jarayoni, virtual, onlayn, masofaviy ta'lim, elektron ta'lim, model, yangi ta'lim texnologiyalari.

**Аблакулов Камолиддин Бахриддинович (Каршинский филиал ТУИТ, ассистент; E-mail: [kamoliddin1987@umail.uz](mailto:kamoliddin1987@umail.uz)).**

**Холмуродов Абдулхамид Эркинович (Каршинский государственный университет, д.т.н., профессор)**  
**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБЛАЧНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Аннотация.** Использование облачных технологий в образовательном процессе приводит к более широкому охвату всех отраслей образовательной сферы и к интенсификации и оптимизации образовательного процесса, а также использованию современных методов. В статье рассмотрены цели и задачи облачных технологий в образовательном процессе, виды сервисов, обрабатывающих облачные данные, виды сервисов облачно-ориентированной среды, использование облачных технологий, управление направлением облачных технологий в образовательной деятельности, а также анализируется внедрение облачных технологий в систему образования Узбекистана и важность их применения.

**Ключевые слова:** облако, облачные технологии, облачная среда, образовательный процесс, виртуальное, онлайн, дистанционное образование, электронное образование, модель, новые образовательные технологии.

**Ablakulov Kamoliddin Bahriddinovich (Karshi branch of the TUIT, assistant; E-mail: [kamoliddin1987@umail.uz](mailto:kamoliddin1987@umail.uz)).**

**Kholmurodov Abdulkhamid Erkinovich (Karshi State University, DSc., prof.)**  
**USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS**

**Annotation.** The use of cloud technologies in the educational process leads to a wider coverage of all branches of the educational field, the intensification and optimization of the educational process and the use of modern methods. In the article, the goals and tasks of cloud technology in the educational process, types of services that process cloud data, types of services of a cloud-oriented environment, the use of cloud technologies, management of the direction of cloud technologies in educational activities, as well as the introduction of cloud technologies into the educational system of Uzbekistan and the importance of application were analyzed.

**Key words:** cloud, cloud technologies, cloud environment, educational process, virtual, online, distance education, electronic education, model, new educational technologies.

**Kirish.** Ta'lim uzluksiz va individual yo'naltirilgani bu ayni damda raqamli texnologiyaning rivojlanganidan darak beradi. Bizga ma'lumki, XXI asr axborot texnologiyalari asri, shunday ekan, bu asrda texnologiyalarning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda texnologiyalarning hamma joyga kirib borishi bir qator muammolarni bartaraf qilib borayotganidan darak beradi. Biz endi ta'limni elektron qurilmalarsiz, ya'ni kompyuter, noutbuk, planshet yoki uyali telefonlarsiz tasavvur qilishimiz qiyin bo'ladi. Bunday qurilmalarning kirib kelishi odamlar hayotining barcha sohalarini yaxshi tomonga o'zgartirib yubormoqda. Masalan: biznes, menejment, ta'lim va tadqiqot uchun yaratilgan innovatsiyalar qisqa vaqtda bir nechta ishlarni amalga oshirish imkoniyatlarini beradi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Informatika fanini o'qitishda bulutli muhitdan foydalanish metodikasi bo'yicha Luciano S., Martinez-Rau, José O.Chelotti, Leonardo L., Giovanini, Veysi Adin, Skleyter N., Tolipov O'.Q., Barakayev M., Sharipov Sh.S., Tojijev M., Ziyomuhhammadov B., Ahrarov Sh.S. va boshqalar shug'ullangan.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, holislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida o'rganish uchun internet muhitidan foydalanib, ta'lim tizimiga bulutli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Kompyuter tizimlarining klassik modellaridan tubdan farq qiladigan yangi bulutli texnologiyalar paydo bo'ldi. Bu turdagi texnologik yechimlar, asosan axborotlarni, dasturiy ta'minotni yoki maxsus xizmatlarni kompyuterda ishlatmasdan saqlash va ishlatishni nazarda tutadi. Buning sababi internetdan foydalanish, internetda fayllarni saqlash, unda online o'ynaydigan ba'zi bir qiziqarli o'yinlarni o'rnatgan "bulutli texnologiyalar"dir.

Bulutli texnologiya kompyuter resurslarini va quvvatini foydalanuvchiga internet xizmati sifatida taqdim etiladigan ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasidir. Bunda foydalanuvchi o'z ma'lumotlariga masofadan turib kirishi mumkin, lekin u ishlaydigan infratuzilmada operatsion tizim va haqiqiy dasturiy ta'minotni boshqara olmaydi [2]. Bulutli hisoblash 2008-yilda e'lon qilingan standart (IEEE) hujjatiga ko'ra, ma'lumotlarni internetdagi serverlarda doimiy saqlash va mijoz tomonidan vaqtincha keshlangan axbo-

rotlarni shaxsiy kompyuterlar, o'yin pristavkalari, noutbuklar, smartfonlar va boshqalar orqali boshqarish imkonini beradi [3].


Bulutli texnologiyada qattiq disklar faqat bulutli xizmatlarga kirish uchun va mijoz dasturlarini o'rnatish uchun ishlatiladi. Uning maqsad va vazifasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi (1-rasm).



**1-rasm. Bulutli texnologiyaning maqsad va vazifalari.**


Bugungi kunda ta'lim tizimini qaytadan ko'rib chiqish va isloh qilish zarurati mavjud bo'lib, bunda ta'lim jarayonida zamonaviy talaba bilim va ko'nikmalarni to'plashi kerak emas, balki mustaqil ravishda boshqa talabalar bilan birgalikda mazmunli maqsadlarni qo'yishi, o'z ustida mustaqil ishlashi kerak. Bu holatda ta'lim jarayonida talabalar faol ishtirok etadilar, talabalarning SaaS texnologiyalardan foydalanish evaziga bulutli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Bu foydalanuvchilar ta'lim jarayonida IT ilovalari va bulutli web-xizmatlar orqali ma'lumotlar almashishlari mumkin [4].

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi asosida interaktiv metodlarni qo'llash orqali dars mashg'ulotlari tashkil etilmoqda. Bu mashg'ulotlarda an'anaviy va noan'anaviy o'qitishda talabalarga zamonaviy axborot-texnologiyalarni qo'llagan holda dars mashg'ulotlarini hamda mustaqil dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni tashkil etish orqali ularning mustaqil ishlashini nazorat qilish imkoniyatlari yaratilmoqda [5].



**2-rasm. Ta'lim jarayonida bulutli texnologiyadan foydalanish.**

Zamonaviy ta'lim tizimida o'rganish uchun internet muhitidan foydalanish birinchi o'rinda turadi [6]. Hozirgi kunda bulutli texnologiyalar rivojlangan davlatlar kabi O'zbekistonda ham keng tarqalgan texnologiyaga aylanmoqda [7]. Oliy ta'lim tizimida elektron ta'lim resurslarining zamonaviy imkoniyatlaridan foydalanish "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va davlat ta'lim standartlari malaka talablari kabi me'yoriy hujjatlarda ko'rib chiqilgan bo'lib, unda elektron ta'lim resurslari ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismini amalga oshirishga xizmat qiladi.



**3-rasm. Ta'limda bulutli texnologiyalar.**

Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning mustaqil dasturiy ta'minotni ishlab chiqarishlarini samarali tashkil etishda kompyuterning pedagogik dasturiy vositalari hamda tarmoq texnologi-

yalari, jumladan Web platformadan foydalanish, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim jarayonida bulutli texnologiyalarni qo'llashlari lozim bo'ladi (3-rasm) [8].

Talabalarining mustaqil ishi auditoriya mashg'ulotlariga nisbatan hozirgi vaqtda kredit-modul tizimini amalga oshirish hisobiga 50%ni tashkil qilishi nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, elektron ta'lim resurslari yordamida o'qitishning zamonaviy shakl va metodlarini qo'llash bilan ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish talab etiladi.

Shu munosabat bilan, professor-o'qituvchilardan qo'shimcha harakatlar: elektron darsliklar va boshqa o'quv materiallarini mahalliy tarmoqqa joylashtirish, savol va topshiriqlar ro'yxatini tuzish, mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish, doimiy ravishda nazoratni olib borish va baholashni ta'minlash, agar kerak bo'lsa, talabalarga onlayn maslahat berish va shu kabilar talab qilinadi.

**Xulosa va takliflar.** Ta'lim jarayonida turli mamlakatlar o'qituvchilarining xalqaro pedagogika olimlari hamjamiyatida innovatsion ta'lim tizimiga bulutli texnologiyalarni integratsiyalashuv jarayonlarining umumiy muammolari, mexanizmlari va jarayonlarini aniqlashga ko'maklashadi.

Axborot va kommunikatsion texnologiyaga asoslangan innovatsion ta'lim tizimini, ijtimoiy hamda samarali qo'llash orqali ta'lim darajasini bulutli texnologiyalarga moslashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Романова И. Облачные технологии и их применение. “Молодой ученый”, № 17.1. 2016, с. 109–112.
- (2). Аблакулов К.Б. Применение облачных технологий и их преимущества и недостатки. Fan, innovation texnika va texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani, Qarshi, 2023, 322–325-betlar.
- (3). Luciano S. Martinez-Rau, José O. Chelotti, Leonardo L. Giovanini, Veysi Adin. Standard for Floating-Point Arithmetic. Park Avenue. IEEE Std, p. 754–2008.
- (4). Skleyter N. Облачные вычисления в образовании. Аналитич. записка [Облачные вычисления в образовании: Аналитич. записка]. М., Институт ЮНЕСКО по информационным технологиям в образовании, 2010.
- (5). Abraqulov K.B. Informatikani o'qitishda bulutli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Talabalarining ilmiy innovatsion loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari. Muammo va yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. Jizzax, 2023, 141–147-betlar.
- (6). Abraqulov K.B. Informatika fanini o'qitishda bulutli texnologiyadan foydalanish metodikasi. “O'zMU xabarlari”, №1/12, 2023, 77 – 80-betlar.
- (7). Емельянова О.А. Применение облачных технологий в образовании. “Молодой ученый”, № 3 (62), 2014, с. 907–909.
- (8). Abraqulov K.B., Ro'ziyev F.E. Informatikani o'qitishda bulutli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Talabalarining ilmiy innovatsion loyihalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari. Muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya, Qarshi, 2023, 141–147-betlar.

**Ashirova Anorgul Ismoilovna (TATU Urganch filiali dotsenti; [anorgul76@gmail.com](mailto:anorgul76@gmail.com)),**

**Allaberganova Muyassar Rimberganovna (TATU Urganch filiali katta o'qituvchisi;**

**[amuyassar83@gmail.com](mailto:amuyassar83@gmail.com)),**

**Saidova Zarina Baxtiyor qizi (TATU Urganch filiali talabasi; [saidovazarina0310@gmail.com](mailto:saidovazarina0310@gmail.com))**

**ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA STEAM TEXNOLOGIYALARINING ROLI**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, STEAM texnologiyasi va uning afzalliklari, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda STEAM texnologiyasining o'rni bo'yicha ilmiy fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** STEM, STEAM, innovatsiya, innovatsion texnologiyalar, STEAM yondashuv.

**Аширова Аноргуль Исмоиловна (доцент Ургенчского филиала ТУИТ; [anorgul76@gmail.com](mailto:anorgul76@gmail.com)),**

**Аллаберганова Муяссар Римбергановна (старший преподаватель Ургенчского филиала ТУИТ;**

**[amuyassar83@gmail.com](mailto:amuyassar83@gmail.com)),**

**Саидова Зарина Бахтиёровна (студентка Ургенчского филиала ТУИТ; [saynovazarina0310@gmail.com](mailto:saynovazarina0310@gmail.com))**

**РОЛЬ STEAM ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

*Аннотация.* В данной статье представлены научные мнения и комментарии об инновационных технологиях в образовательном процессе, технологии STEAM и ее преимуществах, роли технологии STEAM в повышении качества и эффективности образования.

**Ключевые слова:** STEM, STEAM, инновации, инновационные технологии, подход STEAM.

## THE ROLE OF STEAM TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF MODERN EDUCATION

**Annotation.** *Scientific opinions and comments on innovative technologies and educational processes, STEAM technology and its advantages, the role of STEAM technology in improving the quality and effectiveness of education are presented in this article.*

**Key words:** *STEM, STEAM, innovation, innovative technologies, STEAM approach.*

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayonidagi o'rni nafaqat gadjetlarni joriy etish va raqamlashtirishda, balki yangi moslashuvchan texnikalarni integratsiyalashuvda hamdir. Ta'limga bunday innovatsion yondashuvlardan biri STEM dasturidir. U zamonaviy ta'limni yanada qulay va samaraliroq qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, bu metodika o'quvchilarning tug'ma qobiliyatlarini hisobga oladi va shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. STEM texnologiyalari, dastlab, oliy ta'lim muassasalarida professional tadqiqotchilar va muhandislarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va innovatsiyalar kiritish maqsadida ishlab chiqilgan. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar fanlararo integrativ yondashuv elementlari bolalar bog'chasidan boshlab joriy etilsa, ancha katta samaraga erishish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar yangi ma'lumotlarni ko'proq qabul qiladilar, ularning psixikasi ko'proq moslashuvchan va egiluvchandir, shuning uchun bilim tezroq o'zlashtiriladi, ko'nikma va qobiliyatlar qiyinchiliksiz shakllanadi [1].

STEM atamasi ingliz tilidagi Science (fan), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik) va Mathematics (matematika) so'zlarining birinchi harflari bilan tuzilgan qisqartmadir. Ushbu qisqartma ta'limga tobora ommalashib borayotgan yondashuvni – uning mazmuni, tuzilishi, ta'lim jarayonini tashkil etishni anglatadi. Uning mohiyati o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy qo'llashga e'tiborni qaratishda, o'quv fanlari o'rtasida chambarchas bog'lanishni o'rnatishda, ilmiy hodisalarni tasavvur qilishda, sodir bo'layotgan hamma narsaning vizual tasvirini berishda va nazariya tushuntirib beradigan qonuniyatlarni chuqurroq tushunishga yordam berishdan iborat. Ushbu yondashuv g'oyasi 2001-yilda paydo bo'lgan. AQSH Milliy Fan Jamg'armasi olimlari (NSF – tibbiyotdan tashqari barcha ilmiy sohalarda fundamental tadqiqotlar va ta'lim) o'sha paytdagi universitet tadqiqotchilari va muhandislarini tayyorlash tizimini yangilashni taklif qilishdi. Asta-sekin STEM texnologiyasining “mavjudligi” geografiyasi kengaydi va bu yondashuv elementlari oliy ta'limdan tashqari maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalariga tarqaldi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** XXI asrning innovatsion texnologiyalari pedagogik metodlar va o'qitish metodikasini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bugungi kunda eng ilg'or ta'lim tizimlaridan biri bu STEAM. STEAM texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari, uslubiy ishlari ko'p. Xususan, Wyffels, F., Van de Steene, W., Roets, J., Ciocci, M., Carbajal, J., Анисимова Т.И., Семенова Р.И., Козлова Ю. va boshqalar. STEM qisqartmasi boshqa elementlar bilan to'ldirildi va o'zgartirildi [2].

Masalan, Art degan qisqartmaga A harfi qo'shildi va natijada STEAM yondashuvi paydo bo'ldi, unda texnologik taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lgan estetik komponent paydo bo'ldi (masalan, ergonomik dizaynni o'z ichiga oladigan yangi gadjetlar yoki samarali ishlash uchun zarur bo'lgan qulay sharoitlar). 2010-yillarda keng ma'noda ijodkorlikni hisobga olgan holda, STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) qisqartmasi paydo bo'ldi. STEAM, o'z navbatida, STREAMga aylandi - R - Research (tadqiqot) yoki Robotics (robotexnika) asl versiyaga qo'shilganda. STEMM, STREAM va STEAM bir xil fan, texnologiya, muhandislik va matematika + san'at olamiga tegishli qo'shimcha komponent:

STEMM – bu 4 ta asosiy fanlar va musiqa.

STREAM qo'shimcha adabiyot/o'qishni (reading) o'z ichiga oladi.

STEAM – san'at (art).

Xuddi shu prinsipga ko'ra, boshqa ko'plab fanlar kombinatsiyasi paydo bo'ldi – STEM yondashuvining o'zgaruvchan doirasi kengaydi, ular asl tabiiy fanlar, muhandislik, texnologiya va matematikadan tashqari, tibbiyot, ekologiya, innovatsiyalar, iqtisod, va boshqalar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** STEM va STEAM ikkala yondashuv ham kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun bola bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishlarda rivojlanishi, mavjud ko'nikmalarni birlashtira olishi, o'z qobiliyatini doimiy ravishda takomillashtira olishi va dunyoning barcha xilma-xilligi bilan qiziquvchanligini namoyon qilishi kerak degan qarashga asoslanadi. Shuning uchun STEM va STEAM yondashuvlarining asosiy xususiyatlari quyidagi tamoyillardir.

**1. Doimiy tajriba va sinovlar.** O'quv jarayonida talabalar birinchi navbatda nazariy ma'lumotlarga duch kelishadi. Biroq, ular uning ishonchliligiga ishonch hosil qilishlari va u yoki bu hukmni amalda tasdiqlashlari bir xil darajada muhimdir. Shuning uchun tajribalar yoki laboratoriya ishlari uchun maxsus jihozlangan sinf xonalari bo'lishi kerak.

**2. Muayyan amaliy muammoni o'rganish maqsadi sifatida hal qilish.** Ta'lim jarayonida talabalar majburiy ravishda amaliy xarakterga ega bo'lgan ma'lum bir topshiriq beriladi. Bu individual yoki umumiy bo'lishi mumkin. Birinchi holda, bola faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanishni o'rganadi. Ikkinchi holatda, talabalar jamoalarda ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi, maqsadlarni belgilaydi va topshiriqning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uchun javobgarlikni bo'ladi.

**3. Dolzarbligi.** Talabalar aynan nima va nima uchun qilayotganlarini tushunishlari kerak. Agar talabalar o'z faoliyati haqiqiy foyda keltirishini tushunsa, ularning motivatsiyasi va samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Shunday qilib, vazifa, so'nggi yillarda jiddiy zarar ko'rgan atrof-muhitni yaxshilash loyihasi ham bo'lishi mumkin.

**4. Zamonaviy tendentsiyalarga muvofiqlik.** O'qituvchi o'z faoliyatida foydalanadigan barcha qo'llanmalar va tadqiqotlar zamonaviy bo'lishi va so'nggi bir necha yil ichida muayyan sohadagi ishlarning holatini aks ettirishi kerak.

**5. Ma'lumotlarning teng miqdori.** Turli bilim sohalaridagi barcha fanlar va bilimlar teng ravishda o'qitilishi kerak. Misol uchun, gumanitar fanlarni matematika kabi diqqat bilan va tez-tez o'rganish kerak. San'at tarixi, chet tillari, adabiyot kam muhim fanlar emas, shuning uchun ularni texnik fanlar foydasiga yoki aksincha e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

STEM ta'limi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. O'quv jarayoni loyihalar formatida tashkil etilgan. Har bir bunday loyiha ustida ishlash uchun talabalar guruhlariga (jamoalarga) birlashadilar va ta'lim muammolarini birgalikda hal qilishadi.

2. Trening amaliy harakterga ega. Loyihalarni amalga oshirish o'qishda (masalan, o'quv jarayonini yaxshilash uchun), kundalik hayotda (oila ehtiyojlari uchun), ishlab chiqarishda (korxonada yoki shahar darajasida) foydalanishga tayyor natijalarni beradi va boshqalar.

Ta'limning integratsiyasi fanlararo bog'liqligi. Mavzular an'anaviy maktabdagi kabi alohida o'rganilmaydi (turli fan sohalaridan bo'lak-bo'lak bilimlar bordek tuyulsa-da, uni qanday qo'llash va nima sababdan tushunarsiz) bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqiladi. O'qituvchi ta'lim vazifalarini shunday tuzadiki, ularni hal qilish uchun bir vaqtning o'zida bir nechta fanlardan – fanning turli sohalaridan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalanish kerak bo'ladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ko'pgina o'qituvchilar "maxsus xonalarni" jihozlashni tavsiya qiladilar STEM laboratoriyalari sinflarda zamonaviy vizualizatsiya vositalari, o'quv robotlari, me-xatronik tizimlar, 3D texnologiyalari va dasturlash imkoniyatlari bo'lishi maqsadga muvofiqdir [3].

O'quv jarayonining asosini tadqiqotchi va muhandis kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan fanlar tashkil etadi va bular tabiiy fanlar (biologiya, geografiya, fizika, astronomiya, kimyo) va texnik (muhandislik) fanlari (geometriya, informatika, kompyuter grafikasi). Shunday qilib, ta'lim jarayonida qattiq (hard skills) ko'nikmalarni shakllantirishga ham, yumshoq (soft skills) ko'nikmalarni rivojlantirishga ham yetarlicha e'tibor beriladi (1-rasm).

#### TALABADA SHAKLLANADIGAN KOMPETENSIYA



**1-rasm. STEAM texnologiyasi asosida shakllanadigan kompetensiyalar.**

**Hard skills** – ingliz tilidan “qattiq ko'nikmalar” deb tarjima qilinadi. Qattiq ko'nikmalar – inson tomonidan o'qib rivojlantiriladigan texnik bilimlar yoki tajriba orqali shakllanadigan qobiliyatlar hisoblanadi. Qattiq ko'nikmalar (Hard skills) – bu tekshirilishi mumkin bo'lgan aniq ko'nikmalar va bilimlar [4].

**Soft skills**–inglizchadan to'g'ridan to'g'ri tarjimasi “yumshoq ko'nikmalar” degan ma'noni bildiradi. Amaliyotda esa yumshoq ko'nikmalar insoniy ko'nikmalar yoki shaxslararo ko'nikmalar sifatida ham

ishlatiladi. Yumshoq ko'nikmalar (soft skills) – bu shaxsning boshqa odamlar bilan muloqot qilish va turli xil hayotiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati, ko'nikmalari va o'ziga xos xususiyatlari.

Amaliy ko'nikmalar (Soft-skills): hayotning aksariyat holatlarida siz uchun foydali bo'lgan ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar: kommunikativ, yetakchilik, jamoa,

“fikrlash” va boshqalar. Garvard va Stenford universitetlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, karera borasida erishiladigan muvaffaqiyatlarning atigi 15% “hard skills” va 85% “soft skills” hisobiga to'g'ri keladi. STEAM texnologiyalarini ta'limga joriy etish tajribasini tahlil qilish maktab va universitet jarayonini hisobga olsak, STEAM texnologiyalari 4K konsepsiyasi (ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yordam beradigan to'rtta qobiliyat) doirasida talabalarni rivojlantirishga yordam beradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Shunday qilib, STEM texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy talaba qiyofasida singdirilgan bir qator kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bunday kompetensiyalarga axborotni qayta ishlash ko'nikmalari, loyihalash va tadqiqot ko'nikmalari, AKT texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari va muloqot ko'nikmalari kiradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish talabalarining dunyoqarashini kengaytiradi va turli sohalaridagi bilimlarni chuqurlashtiradi. Xulosa qilib aytganda, STEM va STEAM yondashuvlari ta'limdagi eskirgan tushunchalar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi, masalan, bolalar bir vaqtning o'zida ham “texnik”, ham “gumanitar yo'nalish” bo'lishi mumkinligini isbotlaydi. STEM va STEAM yondashuvlari bolalar juda erta yoshdanoq izlanuvchanlikni o'rganadilar, analitik fikrlashni rivojlantiradilar, nafaqat individual, balki jamoada ham ishlashga odatlanadilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

(1). STEA–технология в профильном образовании. Сборник материалов дистанционной конференции 15 апреля 2022 г. (под общей редакцией заместителя начальника филиала (по учебной работе), почётного работника общего образования Российской Федерации Войтенко Е.П.; заведующий методическим кабинетом Гладченко Н.Ю.). Калининград, КНВМУ, 2022, 100 с.

(2). Wyffels, F., Van de Steene, W., Roets, J., Ciocci, M., Carbajal, J. (2016). Building ArtBots to Attract Students into STEM Learning. [https://www.researchgate.net/publication/306186591\\_Building\\_ArtBots\\_to\\_Attract\\_Students\\_into\\_STEM\\_Learning](https://www.researchgate.net/publication/306186591_Building_ArtBots_to_Attract_Students_into_STEM_Learning)

(3). Козлова, Ю. STEM–образование в 2023 году. Козлова Ю., Неверов А., Кырлан М. URL, <https://www.kp.ru/edu/vuzy/stem-obrazovanie>

(4). Abdikarimova X.A. Fizika fanini o'qitishda “soft skills” va “hard skills” ko'nikmalarining ahamiyati <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/download/4705/4565>

#### **Avazova Mohinur Tohirovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi) SULAYMON BOQIRG'ONIYNING MA'RIFIY G'OYALARI ASOSIDA YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY ONGINI SHALLANTIRISH IMKONIYATLARI**

*Annotatsiya.* Shaxsning kamolotga erishishi uchun insoniy fazilatlar, ya'ni mehr-oqibat, saxiylik, ota-onaga va kattalarga, kichkinalarga muruvvatli bo'lish, shu bilan birga, vatan oldidagi burch va vazifalari, vijdonli inson bo'lish, kamtarlik va axloqiy xislatlar kiritiladi. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari va hikmatlarida biz ma'naviy komil inson bo'lish uchun talab qilinadigan insoniy fazilatlarini ko'ramiz.

*Kalit so'zlar:* ta'lim-tarbiya, komil inson, nafs, vijdon, axloq, pedagogik mahorat, pedagogik tajriba.

Авазова Мохинур Тохировна (независимый исследователь Ургенчского государственного университета)

#### **ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ НА ОСНОВЕ ВОСПИТАТЕЛЬНЫХ ИДЕЙ СУЛАЙМОНА БОКИРГАНИ**

*Аннотация.* Для достижения человеком зрелости и совершенства большую роль играют такие человеческие качества, как доброта, щедрость, доброта к родителям, взрослым и детям, а также любовь к Родине, прославление труда и профессии, честность, чистота, дружба, благородство, милосердие, а также наряду с ними представлены такие качества, как сострадание, смирение, честность и совесть. В произведениях Сулеймана Бокиргани мы видим проявление всех вышесказанных качеств.

*Ключевые слова:* образование, совершенный человек, эго, совесть, мораль, педагогическое мастерство, педагогический.

## OPPORTUNITIES TO INCREASE THE SPIRITUAL AND MORAL CONSCIOUSNESS OF YOUNG PEOPLE BASED ON THE EDUCATIONAL IDEAS OF SULAYMON BAKIRGHANI

*Annotation.* In order for a person to achieve maturity, human qualities, such as kindness, generosity, kindness to parents and adults and children, as well as love for the motherland, glorification of work and profession, honesty, purity, friendship, nobility, mercy-qualities such as compassion, humility, honesty and conscientiousness are included. In the works and wisdom of Sulayman Bakyrghani, we see the human qualities required to be a spiritually perfect person

*Key words:* education, perfect person, lust, conscience, morality, pedagogical skill, pedagogical experience.

**Kirish (Introduction).** Buyuk allomamiz Sulaymon Boqirg'oniylarida o'tmishda shaxs kamolotini yuksaltirish, odob-axloq namunalarini tarkib toptirish, halol mehnat bilan kun ko'rishga yo'g'rilgan g'oyalarni ko'rishimiz mumkin. Sulaymon Boqirg'oniylarida fikrni, mutafakkir o'zining hayotiy tajribasiga tayangan holda bayon etgan. U komil insonni faqat ilmi bo'lishi bilan chegaralanib qolmasligini, ma'naviy barkamol inson bo'lishi uchun yuksak axloq, dunyoqarashni shakllantirish, o'z ustida ishlashi va tafakkurini shakllantirish sifatlarining mavjud bo'lishi ta'kidlagan. Uning hikmatlarida ma'naviy komillikka erishgan nafs balosidan kechib, haq yo'lida yurushni, adolatli rahbar bo'lishni, sabr-toqatlilikni o'rganishimiz va yoshlarimizning ta'lim-tarbiya jarayonida bevosita foydalanishimiz muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Sulaymon Boqirg'oniylar ruhiy tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni, uning hikmatlarini o'rganish bo'yicha bir qancha tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Umrboy Emberganov, Jobbergan Shomuradovlarning "Hakim ota" va I.Haqqul, S.Rafiddinlarning "Sulaymon Boqirg'oniylar. Boqirg'on kitobi"da Boqirg'oniylarning ma'naviy-axloqiy qarashlari o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (research Methodology).** Boqirg'oniylar o'zining hikmatlarida insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar, ruhiy komillikka erishish xususida so'z yuritadi. Asarlarida va hikmatlarida, shuningdek, axloqiy fazilatlar, insondagi yomon odatlar va ulardan qutulish yo'llari nafs domiga tushmaslik haqida ham bayon etilgan. Mutafakkir inson kamolotida axloqlilikning eng muhim mezoni odobli, insofli va tarbiyalanganlik bo'lish deb yozgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** O'z asarlarida Sulaymon Boqirg'oniylar adolatli hukmdorlarni, sabrli insonlarni va nafs balosiga berilmagan kishilarning tajribasidan amaliy faoliyatda foydalanishga undaydi. Boqirg'oniylar hikmatlarini tahlil qilar ekanmiz, uning bolalar tomonidan yo'l qo'yilgan xatoliklarni bartaraf etishda ularga jazo berish, aksincha, bolalarga o'zlari yo'l qo'yilgan xatolarning mohiyatini ularga tushuntirish zarurligini aytadi. Hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy xislatlar mohiyatining tahlil qilar ekanmiz, Boqirg'oniylar ta'lim-tarbiya, axloq masalalariga insonlarning ma'naviy olamini, dunyoqarashini shakllantirishga harakat qilganini o'rganamiz. Biz mutafakkir asarlarini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi natijalar bilan yuzlashdik. Inson komil inson bo'lishi, adolatli bo'lishi uchun unda insoniylik xislatlari bo'lishi kerakligini aynan, rostgo'ylik, mehr-shafqatlik, adolatlilik, ishonch va sadoqat, xushmuomalalik va nafsga berilmaslik, bo'lmog'i lozimligini ko'rishimiz mumkin.

Boqirg'oniylar hikmatlarini tahlil qilar ekanmiz, uning hikmatlarida, albatta, insonlarga xos, halol bo'lish, ezgulik kabi xislatlar va kishilarga nisbatan adolatli bo'lishi ulug'lanadi. Kishining hayotida ikki narsa bilan hayotda mangu qolishini, ya'ni, xushxulqlik, ikkinchisi yaxshi so'zlilik ekanining natijisini ko'rishimiz mumkin. Boqirg'oniylar hikmatlari orqali bugun shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy hayotimizda yot g'oyalalar ta'siridan va ommaviy madaniyatdan saqlash va talaba-yoshlarda insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirish, ijtimoiy munosabatlarda adolatlilik, kasbiy faoliyatda halollik, nafsga berilmaslik, ilm yo'lida harakatda bo'lishini o'rgatishimiz mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hozirgi zamon talaba-yoshlarida axloqiy me'yorlarni shakllantirish, halol yurishga, rost gapirishga, mehr-muhabbatli bo'lishga va vatan ravnaqi bilan xizmat qilish ruhi bilan tarbiyalash zarurdir.

*Tanada joning bor ekan, aqling senga yor ekan.*

*Muncha holing bor ekan, ko'pmak kerak do'stlarim.*

*Hakim hoja bandavor, eronlar izin quvor,*

*Asig' qilmas mol-tavor, ko'pmak kerak, do'stlarim.* [5]

Axloqiy tarbiya inson kamolotida muhim o'rni yuqorida qayd etilgan hikmatlarida anglashimiz mumkin. Sulaymon Boqirg'oniylar ilmsizlik inson tarbiyasida barcha illatlarning asosiy sababi ekanligini va ilm egallash va tajriba to'plashda shaxsda intilish va qiziqish, bo'lishini ta'kidlaydi. Globallashuv davrida



insonlarda axloqiy tarbiya masalasi, ilm egallash, muloqot davomidagi konfliktlardan asrash, insonning ruhiy kamolotiga erishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonda nafs balosi ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni va insonlar bilan munosabat jarayonida noxush vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan yoshlarimizda nafs balosiga tushmaslik nafsni tiyish xususiyatlarini o'rgatmog'imiz lozim [4].

Demak, Sulaymon Boqirg'oniy hikmatlarining asosini insonning axloqiy kamolotga erishishi, nafs, vijdon sifatlarini rivojlantirishi tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi kunda yosh avlodni yetuk inson etib tarbiyalashda Boqirg'oniyning axloqiy tizimi, yo'l va usullari qo'l keladi.

Komil insonni shakllantirish masalasi barcha davrlarda ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Boqirg'oniy ham pok qalb bilan, halollik bilan, adolatli inson bo'lib yashashga da'vat etadi. Halollik, insonlarga adolatli bo'lish, o'zini nafs balosidan saqlash bugunning masalalaridan biridir. Bilimli insonning adolatli bo'lishi u insonni yanada yuksaltiradi. Komil inson qiyofasida Boqirg'oniy axloqli, to'g'ri so'zli, odilli, tadbirkor, kamtar, vijdonli insonni ta'riflaydi. Boqirg'oniy hikmatlari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda nafs va ruh ziddiyatlarlaridan kengroq ogoh bo'lishini va o'tkinchi hoy-u havas deb emas, komil inson bo'lib yashashga xalq manfaatlar uchun xizmat qilishga undaydi.

Bevosia hikmatlarini o'rganar ekanmiz, u insonlarni mol-mulk va dunyo boyliklari deb boshqa hamma narsani iymonni, vijdonni, sodiqlikni untayotganlar, shu jumladan, nafs balosiga sho'ng'ib o'zgalarga ozor berayotganlar, boshqalar mehnati bilan qo'lga kiritgan mulkga, boyliklarga, o'zgalarning nasibasiga sherik bo'layotgan insonlar uchun Boqirg'oniy o'z misralarida nafs va ruh bahslashishi misoloda yoritib bergan.

*Nafsim aytur: sadr yonida o'ltiribon,  
Turluk-turlik ne'matlarni keltiribon,  
Yeb-ichib, tun-u kun qorin to'ydiribon,  
Yostuq uzra takya qilib yotgum kelur.*

Ruhning javobi:

*Ruhim aytur: tun-u kuni qatlanubon,  
Haq mavloyim rizosini tilayubon,  
Qul Sulaymon ishq otig'a o'tlanubon,  
Uzoq-kechmish eranlarga yetoyin der.* [5]

Bunday misralar faqat Boqirg'oniy yashab o'tgan davrga emas, balki inson hayotiga, tarixning hamma-hamma bosqichlariga ham daxldordir. Aynan mana shu hikmatlari asosida biz yoshlarimizning ma'naviy olamini go'zallashtirishda, vafo, sevgi, mehr tuyg'ularini shakllantirishimizda ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-farmoni.
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-qarori.
- (3). Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy. Hikmatlar (nashrga tayyorlovchi E.Ochilov). T., 2013.
- (4). Umrboy Emberganov, Jobbergan Shomuradov. "Sulaymon Bogirg'oniy (Hakim ota)". Toshkent, 2015.
- (5). I.Haqul, S.Rafiddin. "Sulaymon Boqirg'oniy. Boqirg'on kitobi". "T-yozuvchi", 1991.

**Muzaffarova Nodira Mardonovna (Nizomiy nomidagi TDPU „Yevropa tillari“ kafedrasini o'qituvchisi; [net44@list.ru](mailto:net44@list.ru))**

#### **CHET TILI DARSLARIDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY HAMDA AMALIY NATIJALARI**

*Annotatsiya.* Mazkur maqola madaniyatlararo yondashuvning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqish, shuningdek, dunyo olimlarining madaniyatlararo kompetensiyaning mazmuni, uning muloqoti va qo'llanilishi tahlilini taqdim etiladi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot xorijiy mamlakatlarda madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishi haqidagi muammolarni o'rganish bo'yicha xulosalarni taklif qiladi.

*Kalit so'zlar:* kompetensiya yondashuvi, lingvistik va madaniy kompetensiya, oliy ma'lumot, o'qituvchi, fransuz tili chet tili sifatida, lingvistik madaniyat, madaniyatlararo yondashuv, mintaqashunoslik, kommunikativ kompetensiya.

Музаффарова Нодира Мардоновна (преподаватель кафедры европейских языков ТГПУ имени Низами; [net44@list.ru](mailto:net44@list.ru))

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

*Аннотация.* В данной статье представлен обзор основных концепций межкультурного подхода, а также анализ содержания межкультурной компетентности, ее коммуникации и применения мировыми учеными. В то же время в данном исследовании предлагаются выводы по изучению проблем развития межкультурной компетентности в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, лингвокультурологическая компетенция, высшее образование, педагог, французский язык как иностранный, лингвокультура, межкультурный подход, страноведение, коммуникативная компетентность.

## THEORETICAL AND PRACTICAL RESULTS OF DEVELOPMENT OF COMPETENCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

*Annotation.* This article provides an overview of the main concepts of the intercultural approach, as well as an analysis of the content of intercultural competence, its communication and application by world scientists. At the same time, this study offers conclusions for studying the problems of developing intercultural competence in foreign countries.

**Key words:** competence approach, linguistic and cultural competence, higher education, teacher, French as a foreign language, linguistic culture, intercultural approach, regional studies, communicative competence.

**Kirish.** Doimiy rivojlanayotgan va o'zgarib borayotgan dunyoda madaniyatlararo tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p madaniyatli jamiyatlar ta'lim tizimlarida madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun uturli usullardan foydalanib kelmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o'qitishda turli usullardan foydalangan holda, madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishga harakat qilinishi tufayli madaniyatlararo til ko'nikmalarini rivojlantirish birinchi o'ringa chiqdi.

Chet til darslarida madaniyatlararo muloqotni o'rganish hozirda O'zbekistonda xorijiy tillarni o'qitishning asosiy elementi hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.


Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunda xalqaro tendensiyalarni tatbiq qilish bilan birga, ko'p madaniyatli jamiyatda hamjihat bo'lib yashashga hissa qo'shish hamda ta'limga qaratilgan o'qitishning eng muhim vazifalari hisoblanadi. Chet tili kompetensiyasidan tashqari, madaniyatlararo kompetensiya pluralistik jamiyat va global iqtisodiy dunyoda muloqot qilish, shuningdek, harakat qilish uchun muhim vosita sifatida qaraladi. Institutsional xorijiy tillarni o'qitish xorijiy madaniyatlar bilan tanishish va bu jarayonda o'z madaniyatingiz, shuningdek, o'zingizning madaniy ta'sirlaringiz bilan kelishish imkoniyatini beradi. Bu ko'nikmalarni o'rgatish uchun an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqish zarur. Madaniyatlararo kompetensiyaning murakkab ta'lim maqsadi faqat muvaffaqiyatli o'rganish orqali rivojlanishi mumkin [1].

Madaniyatlararo kompetensiya va madaniyatlararo muloqot sodir bo'ladigan kontekstlar haqida gapirganda, biz bir vaqtning o'zida madaniyatlar haqida muzokaralar olib boramiz hamda madaniyat haqida ma'lum bir tushunchani qabul qilamiz. Chet tildagi kommunikativ kompetensiya har doim xorijiy madaniyat doirasidagi ma'ruzachining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi bilan chambarchas bog'liqdir, chunki madaniyatlararo muloqot chet el madaniyatida amal qiladigan aloqa standartlari va xorijiy madaniy doirada mavjud bo'lmagan holda muvaffaqiyat qozona olmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Madaniyatlararo kompetensiyaning mazmuni, uning muloqoti va qo'llanilishi faqat ta'lim sohasi bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Madaniyatlararo muloqotni ta'limda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga olish kerak, chunki til va madaniyat bir juftlik bo'lib, ularni boshqasidan ajratib bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, jamiyat va madaniyatlarning rivojlanishi bilan multikulturalizm va madaniyatlararo atamalar paydo bo'ldi. Madaniyat til bilan bog'liq, til esa madaniyat tashuvchisidir. Madaniyat avloddan avlodga va turli jamiyatlarga til va muloqot orqali uzatilishi mumkin. Clanet fikriga ko'ra, "til va belgilarni o'z ichiga olgan muloqotni madaniyatning asosiy elementlari sifatida tavsiflash mumkin" [4;63-b.].

Global miqyosda madaniyatlararo muloqotni to'g'ri shakllantirish - bu butun dunyoda sodir bo'layotgan turli globallashuv jarayonlarini, milliy elementlarning global kontekstga kirib borishini ongli ravishda idrok etishni anglatadi. Global daraja ijtimoiy darajani o'z ichiga oladi, bu esa, o'z navbatida, institutsional darajani o'z ichiga oladi. Ijtimoiy daraja iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tuzilmalar uning har bir a'zo-

sining hayotiga ta'sir ko'rsatadigan ko'p madaniyatli jamiyatni anglatadi. Institutsional daraja – bu “madaniyatlararo o'zaro bog'liqlik” konteksti bo'lib, unda muassasaning to'liq vaqtli xodimlari migratsiya tajribasiga ega bo'lgan mijoz bilan uchrashadi.



Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda madaniyatlararo kompetensiyaning eng zamonaviy nazariyalaridan biri bu migrant oilalar va migrant kelib chiqishi bo'lgan bolalar bilan ijtimoiy ishda qo'llash sohasi hisoblanadi. Biz madaniyatlararo kompetensiyaning ajratish mumkin bo'lgan uchta darajani ajratib chiqdik: global, ijtimoiy va institutsional daraja.

Fantini ta'kidlashicha, madaniyatlararo kompetensiya besh o'lchovdan, ya'ni, bilim, ko'nikma, munosabat va xabardorlikdan iborat. Shuningdek, u chet tilni bilish madaniyatlararo kompetensiyaning ajralmas sharti deb hisoblaydi. U o'z nazariyasida ikkita pozitsiyaga alohida e'tibor beradi. Bir tomondan, u ongni nafaqat kompetensiyaning mustaqil o'lchovi, balki uning modelida markaziy o'rinni egallagan muvaffaqiyatli o'zaro ta'sir o'lchovi sifatida tushunadi. Fantinining fikriga ko'ra, ong har doim “men” bilan, ya'ni “men” ning “kimdir” yoki “boshqa narsa, begona” bilan munosabati bilan bog'liq. U buni so'rov, sinov va tajribani talab qiladigan o'z-o'zini aks ettirishning bir turi deb ta'riflaydi. Ong faqat o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini tekshirish natijasida paydo bo'lishi mumkin [3].

Britaniyalik madaniyat tadqiqotchisi Maykl Byram tomonidan yaratilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasi turli sotsiologik, antropologik va psixologik nazariyalarning mohiyatini ifodalaydi [3;215-b.]. 1970-yillardan boshlab u chet tilini o'rganish va chet tilini o'rganish o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib chiqdi. bir-birlari yoki bu umumiy ta'lim inson shaxsini rivojlantirish uchun qanday oqibatlariga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot uning oldingi nazariyalarida (masalan, 1989-yildagi til va madaniyatni o'qitish modelida) o'z aksini topgan. 1997-yilda u keng e'tirofga sazovor bo'lgan va prinsipial jihatdan keyingi ishlar uchun asosiy model bo'lib xizmat qiladigan modelni nashr etdi. Model chet tillarini o'qitishga yo'naltirilgan bo'lib, unda madaniyatlararo kompetensiya boshqa kompetensiyalar - lingvistik, sotsiologik va nutqiy kompetensiyalar doirasi bilan bog'langan.

Fantini singari, Byram ham bilim, munosabat va ong komponentlarini ta'kidlaydi. Lekin ajralib turadigan narsa, turli xil ko'nikmalarning ikki guruhidir. U izohlash va munosabatlarni o'rnatish qobiliyati (savoir comprendre)ni turli madaniy va tarixiy kontekstlardan matnlar, filmlar, tasvirlar va boshqa axborot tashuvchilarni talqin qilish qobiliyati sifatida izohlaydi. O'quvchi, shuningdek, ushbu talqin natijasini o'z madaniy tajribalari bilan bog'lashi va shu bilan dunyoqarashining yangi qirralarini rivojlantirishi kerak. O'rganish va kashf qilish qobiliyati (savoir apprendre/faire) deb ataladigan ikkinchi ko'nikmalar guruhi qaysidir ma'noda farq qiladigan narsalarni mustaqil izlash va u bilan kurashish qobiliyatini anglatadi [4].

Madaniyat inson xulq-atvoriga qanday ta'sir qiladi degan savol bilan qiziqqan amerikalik psixolog Richard Brislin ham Tokomo Yoshida bilan hamkorlikda madaniyatlararo trening dasturini ishlab chiqdi. Mualliflar trening chora-tadbirlarini shunday tuzadilarki, kerakli kompetensiyaning ayrim qismlarini ko'rish mumkin: xabardorlik, bilim, hissiy qiyinchiliklar va xatti-harakatlar (Brislin va Yoshida. 1994) [5].

**Tahlil va natijalar.** Xulosa qilib aytganda, quyidagilarni aytish mumkin: keltirilgan nazariyalar turli bilim sohalaridan kelib chiqqan bo'lsa-da, ularni tuzilishi va ko'lamida ko'rish mumkin bo'lsa-da, ularning

barchasi bir qator umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Madaniyatlararo kompetensiya bir xil tushunchani ifodalamaydi va shunday bo'lishi mumkin. Biz qiyidagi guruhlar orqali ko'rsatami:

1. Barcha olimlar kompetensiyaning kamida ikkita ajralmas komponentini, ya'ni "bilim" va "mahorat"ni ta'kidlaydilar.
2. "Munosabat yoki munosabat", yoki "ong" kabi komponentlar juda tez-tez tilga olinadi.
3. O'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabat (o'ziga va sherigiga, o'zining va boshqalarning suhbat pozitsiyalariga) barcha nazariyalarda muhim o'rin tutadi.
4. Madaniyatlararo kompetensiya dinamik tuzilishga ega va har bir komponentning rivojlanishi boshqalarning rivojlanishiga yordam beradi.
5. Madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishi chet tili bilan bevosita bog'liqdir, garchi til bilish yoki chet tilida muloqot qilish madaniyatlararo kompetensiyaning zaruriy qismi ekanligi borasida olimlarning fikrlari turlicha bo'lsa-da.

Ushbu beshta ustun ushbu ishda keltirilgan jumboq modeli uchun asos bo'ladi. Biroq, bundan oldin tadqiqot natijalari taqdim etilishi kerak [6].

Yuqorida aytib o'tilganidek, madaniyatlararo kompetensiya dolzarb va ommabop mavzu bo'lib, u turli nazariyalar, tavsiflar, modellar va ta'riflarni keltirib chiqardi. Bu boradagi qarashlarning xilma-xilligi tufayli Bertelsmann jamg'armasi o'z oldiga ushbu konsepsiya bo'yicha muhokamaning hozirgi holatini o'rganish, umumiy nuqtayi nazarni taqdim etish va oxir-oqibat madaniyatlararo kompetensiyaning umumiy fanlararo modelini taqdim etishga harakat qilish vazifasini qo'ydi. Bertelsmann jamg'armasi nomidan olim Darla Dirdorf 2004–2005-yillarda tadqiqot o'tkazdi, uning davomida AQSHning yetakchi mutaxassislari (jumladan, Bennett va Byram, modellari yuqorida keltirilgan) mavzu bo'yicha intervyu oldilar. Ushbu atamaning ettita taklif qilingan ta'riflaridan mutaxassislar, ko'pincha, quyidagilarni tanlaydilar:

"Madaniyatlararo kompetensiya – bu o'zining madaniyatlararo bilimlari, malakalari va munosabatlari asoslanib, madaniyatlararo vaziyatlarda samarali va to'g'ri muloqot qilish qobiliyatidir" [Deardorff n.d., 14-b.].

Ushbu ta'rif allaqachon muhokama qilingan kompetensiyaning uchta komponentini o'z ichiga oladi. Keyinchalik tadqiqot madaniyatlararo bilimlar, madaniyatlararo ko'nikmalar va munosabatlar nima ekanligini aniqlashi kerak. 22 ta eng muhim kichik element kristallangan bo'lib, keyinchalik, ular madaniyatlararo kompetensiyaning piramida modeliga kiritilgan. Model to'rt qismdan iborat: bilim va ko'nikmalar, munosabat va munosabatlar, ichki ta'sir va tashqi ta'sir.

Ushbu umumiy modelda yuqorida keltirilgan nazariyalarning xususiyatlarini aniq ko'rish mumkin. Ba'zi olimlar (masalan, Fantini yoki Byram) kompetensiyaning alohida komponentlari deb hisoblagan narsalar bu yerda klasterda jamlangan. Bilim va ko'nikmalarning ikkita komponenti ikkita "alohida, lekin birbirini to'ldiruvchi va bir-birini to'ldiruvchi kichik guruhlariga" bo'linadi [Deardorff n.d., 18-b.]. Bilim komponenti nafaqat madaniyatga xos bilimlarni, balki xorijiy madaniyatlarni tushunish uchun boshlang'ich nuqta sifatida o'z-o'zini aks ettirishni ham o'z ichiga oladi. Bilim, shuningdek, madaniy xabardorlikni o'z ichiga oladi; Fantini o'z modelida mustaqil superkomponent sifatida tasvirlangan.

Ta'riflarda mualliflar "Men va boshqa"ning takroriy yonma-yonligini payqashdi. Shuning uchun ular ikkita toifaga ega uchinchi klasterni tashkil etdilar: madaniyatlararo kompetensiyaning istalgan ichki ta'siri (perspektivni o'zgartirish, moslashuvchanlik, empatiya) va istalgan tashqi ta'sirlar (tegishli xatti-harakatlar va maqsadlarga erishish qobiliyati). Ijtimoiy o'qituvchilarning ta'sirini ushbu uchinchi klasterda ko'rish mumkin: o'z nazariyasida Fisher kompetensiyalarni ego darajasiga (ichki) va biz va faktik darajaga (tashqi) ajratadi.

Deardorff o'z modelida turli sohalarida paydo bo'lgan madaniyatlararo kompetensiya nazariyalarini umumlashtirishga harakat qiladi; bu ularning afzalligi va kamchiliklari. Garchi bu nazariya barcha qiziqarli jihatlarni eng keng qamrovli tarzda yoritib bersa-da (u talab qilinadigan ko'nikma va munosabatlarning eng ko'p sonini nomlaydi yoki u ikkala komponentni va kompetensiyaning ikki tomonlama xarakterini bir modelda birlashtiradi), ba'zida u noaniq ko'rinadi va emas. muvozanatli. Qobiliyatlarni sanab o'tadigan bo'lsak, biz faqat kognitiv qobiliyatlarga duch kelamiz va empatiya yoki moslashuvchanlik kabi ijtimoiy qobiliyatlarga deyarli duch kelmaymiz. Ular kerakli ichki ta'sir deb hisoblanishiga rozi bo'lish mumkin, ammo ular malakaning zaruriy ko'nikmalarining bir qismidir [8].

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan nazariyalar fanning turli sohalarida mavjud bo'lgan madaniyatlararo kompetensiya nazariyalari haqida umumiy ma'lumot beradi. Ikkita asosiy yo'nalish borligini aytish mumkin. Ba'zi nazariyalarga ko'ra, madaniyatlararo kompetensiya uning tarkibiy qismlariga bo'linadi, masalan, bilim, ko'nikma, xabardorlik, hissiy komponent va boshqalar. Ikkinchi yo'-

nalish nazariyalari zarur kompetensiyalarni “men” va “boshqa” o‘rtasidagi munosabatlarga ko‘ra ajratadi. Deardorff modeli ikki yo‘nalishdagi nazariyalarni va bilimning turli sohalarini birlashtirishga harakat qiladi. Ushbu ishda muallif tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kompetensiyaning jumboq modeli qo‘llaniladi, ular keyingi tadqiqodlarda taqdim etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Berardo, K. and Deardorff, D.K. Building Cultural Competence: Innovative Intercultural Training Activities and Models (Stylus). 2012, p. 361.
- (2). Blanchet P. L’approche Interculturelle en didctique du FLE. Université Rennes 2. Haute Bretagne. 2005, p. 183.
- (3). Byram M. Evaluation and/or assessment of intercultural competence. Modelle, Empirie, Evaluation. Tübingen: Narr, 2009, p. 215 – 234.
- (4). Clanet C. L’interculturel, introductions aux approches interculturelles en Éducation et en Sciences Humaines. Presse Universitaires du Mirail: Toulouse. 1993, p. 164.
- (5). Fantini A.E. New Ways in Teaching Culture. Alexandria, 1997. p. 279.
- (6). Furmanova V.P. Intercultural communication and innovations in teaching of foreign languages at the university. Saransk; 2005, p. 94–127.
- (7). Lussier D. Les compétences interculturelles: un référentiel en enseignement et en évaluation. Colloque ALTE/CIEP, Paris, 2 avril 2007, p. 167.
- (8). Tardieu C. La didactique des langues en 4 mots-clés : communication, culture, méthodologie, évaluation. Paris, 2008, p. 283.

**Jalgasbaeva Gulnaz Jetesbaevna (Ajiniyoz nomidagi NDPI assistent o‘qituvchisi;  
gulnazjalgasbaeva8284@gmail.com)**

### **NOFILOLOGIK TA’LIM YO’NALISHI TALABALARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

***Annotatsiya.** Maqolada oliy ta’lim talabalarining ingliz tilidan leksik kompetensiyasini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlari, talabalarining leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivojlantirishga va uning prinsiplarini ta’lim jarayonida ta’lim tizimiga moslashtirib ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitish, strategiya asosida o‘qitishga qaratilgan mexanizmlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** leksik kompetensiya, kolloboratsiya, kommunikatsiya, leksik birliklar, semantik tahlil, lingvistik iboralar.*

**Жалгасбаева Гулноз Жетесбаевна (преподаватель-ассистент НГПИ им. Ажинияза,  
gulnazjalgasbaeva8284@gmail.com)**

### **ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАПРАВЛЕНИЯ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

***Аннотация.** В статье представлена научно-исследовательская работа по развитию лексической компетенции студентов в высшем образовании, направленная на интеграцию их лексической компетенции на основе научных исследований, и разработка принципов обучения в соответствии с образовательной системой, направленной на преподавание английского языка как иностранного, предоставляют механизмы на основе стратегии для обучения.*

***Ключевые слова:** лексическая компетентность, коллаборация, общение, лексические единицы, семантический анализ, лингвистические выражения.*

### **ISSUES OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF NON-PHILOLOGICAL EDUCATION STUDENTS**

***Annotation.** The article presents scientific research work aimed at enhancing the lexical competence of higher education students in English language. It provides mechanisms based on a strategy for teaching English as a foreign language, tailored to integrate and develop students' lexical competence, along with principles adapted to the educational system for teaching English as a foreign language.*

***Key words:** lexical competence, collaboration, communication, lexical units, semantic analysis, linguistic expressions.*

**Kirish.** “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “chet tillar... kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish”, “Xalqaro ta’lim standartlarini joriy yetish va ta’lim sifatini baholash or-

qali oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilandi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili va tadqiqot usullari.** Xorijiy davlatlardan ta'limi va tadqiqot muassasalarida ta'limga pedagogik yondashuv, xususan, til kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlarini, leksikani o'qitishning leksik minimumni tanlash A.N.Shamov, Y.V.Yataeva, A.V.Ilyushina, L.M.Sareva, M.Muxtorov, I.V.Rahmanov, I.M.Berman va V.A.Buxbinder, B.A.Lapidus, A.A.Miroyubov, D.Hymes kabi taniqli mutaxassislarining asarlarida ochib berilgan.

Maqolani yozishda tahlil, umumlashtirish, lingvometodik tahlil, qiyoslash va til kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy jihatlarini metodlaridan foydalanildi.


**Tahlil va natijalar.** Tadqiqotchi Y.V.Yataeva leksik kompetensiyaning quyidagi komponentlarini o'rgangan: 1) operatsion-faoliyat komponenti; 2) motivatsion komponent; 3) nazorat-baholash komponenti; 4) qadriyatli-motivatsion component [5;34-b.]. Tadqiqotchilar A.V.Ilyushina, L.M.Tsarevalar talabaga ajratilgan leksik birliklar ro'yxati sifatida yemas, balki professional yo'naltirilgan jarayonida chet tili o'qitishning yeng keng tarqalgan yo'llar lug'atni o'zlashtirishga imkon beradigan, ilmiy terminologiyaning izchilligi va professional shartini qo'yidagicha izohlaydi: so'zlarni og'zaki joriy yetish (tarjima, ona tili orqali ta'rif; chet tilidagi tavsif, ta'rif; kontekstualizatsiya, kontekst orqali kontekst orqali tushuntirish; semantik tahlil qilish, qatlam hosil qiluvchi yelementlarning ma'nosini tushuntirish); vizual kirish (chizmalar, xaritalar, diagrammalar, multimedia namoyishlari) [2;469-478-b.].

Leksik kompetensiya fonetik va grammatik kompetensiyani shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liq. Bundan tashqari, hozirda so'zlarga bo'lgan ehtiyoj oshgani sari semantik kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etayapti. Turli so'zlarning ma'nolari bir xil yoki yaqin ma'noga ega bo'lgani bilan ularni to'g'ri interpretatsiya qila olish semantik qobiliyatga ega bo'lishni anglatadi.

Leksik minimalarni tuzish uchun leksik birliklarni tanlash mezonlarini batafsil ishlab chiqish bilan I.V.Rahmanov, I.M.Berman va V.A.Buxbinder, B.A.Lapidus, A.A.Miroyubov va boshqalar shug'ullanishgan [4;12-b.].


M.Muxtorov yangi leksik birlikning ma'nosini o'rganish bir qancha uslubiy omillarga bog'liq: so'zning o'ziga xos xususiyati, aktiv yoki passiv lug'at tarkibiga kirishi, ta'lim bosqichi va talabalar bilimi, so'zlarning tinglash yoki o'qish orqali qanday berilishi; yangi so'z bilan tanishish joyi (dars paytida, uyda, kitobda yoki lug'atda). Yangi leksik birlikni o'rgatish, asosan, ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: tarjimasiz; tarjima bilan. Lekin hozirgi vaqtda, bizning fikrimizcha, defenitsiyalar, ko'rgazmalar orqali o'rgatish ancha unumdorroq hisoblanadi [4;12-b.].

D.Hymes leksik kompetentlikni – "nafaqat talqin qilish va sharhlash qobiliyatini, balki lingvistik iboralar, shuningdek, ushbu iboralarni til hamjamiyatida hukmron bo'lgan og'zaki o'zaro ta'sir konvensiyalariga muvofiq o'rinli va samarali usullarda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi", deb ta'kidlaydi [4;12-b.]. leksik kompetensiya deganda biz kommunikativ vazifaga mos keladigan so'z, ibora yoki tayyor atamani uzoq muddatli xotiradan avtomatik ravishda ishlatish qobiliyatini tushunamiz. Chet tillarni o'qitish metodologiyasida ma'lum bo'lgan leksik kompetensiyani shakllantirish bosqichlarining tasniflarini hisobga olgan holda, shuningdek biz tanlagan lug'atning o'ziga xos xususiyatlarini va uning uslubiy tasnifini hisobga olgan holda, oliy ta'limda chet tilidagi lug'atini o'qitishning quyidagi bosqichlarini 1-2-kurslarda ajratib ko'rsatishimiz mumkin (1-rasm).



Leksik birliklarning tematik taqdim etish bosqichining asosiy vazifasi talabalarni o'zlashtirilishi kerak bo'lgan leksik birliklar bilan tanishtirishdir.

Leksik materialni tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish kerak (2-rasm).



Biz ilgari ko'rib chiqqan uslubiy tasnifni, ya'ni, lug'atni tematik xususiyatlarga ko'ra guruhlashni va lug'atni tanlash uchun tematik mezonni hisobga olgan holda, lug'atni tematik bloklarga kiritishni maqsadga muvofiq degan fikrga keldik.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim jarayonida talabalar-ning ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivojlantirish borasida quyidagilarga e'ti-bor qaratish lozim:

- leksik kompetensiyaning nazariy asoslari, konsepsiyasi va prinsiplarini ta'lim jarayonida ta'lim tizimiga moslashtirish maqsadga muvofiq;
- talabalarning ingliz tilidan leksik kompetensiyasining rivojlanishi va bu orqali jamiyatdagi oliy ta'limga oid muammolarini oldini olinishi nazarda tutib, o'quv dasturlari tuzish;
- talabalarning ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivojlantirish uchun dapslarni amaliy tashkil etish;
- ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivoj-lantirishda bugungi kun talabiga javob beradigan lingvometodik ishlar zaruriyati tug'iladi. Shuning uchun oliy ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivojlanti-rishga qaratilgan materiallardan foydalanish;
- ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida rivojlantirishga va oxirgi xulosani ta-labanning o'ziga qoldirish;
- talabalarda ingliz tilidan leksik kompetensiyasini rivojlantiruvchi darajasini aniqlovchi sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish hamda til o'rganish to'garaklar tashkil etish;
- ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilidan leksik kompetensiyasini integrallashuv asosida CEFR Umumyevropa standarti talablaridan kelib chiqib, talabalarga chet tillarini o'rgatishning pedagogik mexa-nizmlarini takomillashtirishga qaratish;
- tadqiqot ishimizning keyingi bosqichida (English for specific purposes) bo'yicha mutaxassislarga ingliz tilini o'rgatish, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish (Teaching English as a foreign language), strate-giya asosida o'qitishga (Strategy based instruction) qaratilgan metodik ishlar tayyorlashni keyingi bosqich-da olib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-farmoni. 2017-yil 7-fevral. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

(2). Илюшина А.В., Царева Л.М. Мотивация студентов медицинского вуза к межкультурному взаимодействию. Личность в меняющемся мире: здоровье, адаптация, развитие: сетевой журн., 2019, т. 7, №3 (26), с. 469–478.

(3). Митрофанова К.А. Обучение иноязычной лексике медицинской сферы студентов-медиков. 13.00.02 Теория и методика обучения и воспитания (филология; уровень профессионального образования). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук.

(4). Muxtarov M. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining B2 darajada leksik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2023, 12-bet

(5). Ятаева Е.В. Учебный глоссарий как средство развития учебной иноязычнолексической компетенции в профессиональном языковом образовании. Дис. канд. пед. наук, Екатеринбург, 2007, с. 34.

**Qurbaniyazov Jannazar Saparniyazovich (Qoraqalpoq davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida assistent o'qituvchisi),  
Ubbiev Baxitbay Amangeldievich (Qoraqalpoq davlat universiteti “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida assistent o'qituvchisi; jannazar\_09@mail.ru)**

### **OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNI JISMONIY TARBIYAGA O'RGATISH MASALALARI**

***Annotatsiya.** Maqolada, asosan, oliy o'quv yurtidagi nokasbiy yo'nalishlar talabalarining jismoniy tayyorgarligi rivojlanishi tahlil qilingan. Suningdek, turli stressli vaziyatlarda jismoniy yuki masalasi o'rganilgan.*

***Kalt so'zlar:** jismoniy madaniyat, tarbiya, sport, turizm, jismoniy-sport faoliyati.*

**Qurbaniyazov Jannazar Saparniyazovich (Qoraqalpoq davlat universiteti «Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport» kafedrasida assistent o'qituvchisi)**

**Уббиев Бахитбай Амангелдиевич (ассистент кафедры «Мнжфакультетская кафедра физического воспитания и спорта» Каракалпакского государственного университета, jannazar\_09@mail.ru),  
ВОПРОСЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО  
ЗАВЕДЕНИЯ**

***Аннотация.** В статье в основном проанализировано развитие физической подготовленности студентов непрофессиональных направлений высшего учебного заведения. К тому же изучены вопросы физических нагрузок в различных стрессовых ситуациях.*

***Ключевые слова:** физическая культура, воспитание, спорт, туризм, спортивно-физическая деятельность.*

### **QUESTIONS FOR PHYSICAL EDUCATION OF HIGHER EDUCATION STUDENTS**

***Annotation.** The article mainly analyzes the development of physical fitness of students in non-professional areas of higher education. In addition, the issues of physical activity in various stressful situations have been studied.*

***Key words:** physical culture, education, sports, tourism, physical and sports activities.*

**Kirish.** Bugungi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanayotgan bir davrda bolalar va yoshlarning sog'lom hayot keshirishi va o'z jismoniy faolligi oshirib borishi katta ahamiyat kasb etadi. Sababi kam harakat qilish yoshlarda ko'pgina kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, oliy ta'lim sohasi nojismaniy tarbiya mutaxassisliklarida jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor bergan holda, o'qish jarayoniga yangi metodikalarni joriy etib borish dolzarb masalalarning biriga aylanib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oliy ta'limda jismoniy tarbiya o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha qator olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Ulardan S.A.Arxaangelskiy, Y.K. Babanskin, V.P.Bedexanova, B.F.Kurdyukov, V.A.Slastenin va boshqalar. Jismoniy tarbiya va sport fenomenini haqida V.K.Bapsevich, G.G.Natshtov, Y.K.Chernishenko, V.V.Kuzin, N.X.Xakunovlarning tadqiqot ishlarida e'tibor qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qo'yilgan maqsadlarni bajarish uchun pedagogik metodlar, ya'ni adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv metodlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Jismoniy tarbiya – bu pedagogik jarayon, u inson tanasining harakatini yana ham takomillashtirishga qaratiladi.

Zamanoviy insonni tarbiyalashda jismoniy madaniyatning ahamiyati katta hisoblanadi, ya'ni, uning aqliy va ma'naviy yuksalishi ushbu ta'kidlashga bog'liq. U insonlarning ijtimoiy va mehnat faolligini oshiradi, ishlab chiqarishning samaradorligin oshirishga yordam beradi. Jismoniy madaniyat kommunikatsiya,



o'yin, insonlarning o'zini-o'zi aks ettirishning ayrim shakllarida ijtimoiy faol faoliyat asosida shakllantiradi.

Oliy ta'lim jismoniy tarbiya, sport, turizm ko'nikmalarini foydalanishda talabalarning jismoniy holati, jismoniy rivojlanishi e'tiborga olinadi [1]. Bundan tashqari, jismoniy tarbiyaning maqsadli yoqelanishi insonning jismoniy madaniyati shakllanishi, o'quv jarayoni sifatini oshirish, talabalarni tarbiyalash va bilim berishga yo'naltirilgan yangi pedagogik va tashkiliy asoslarni ishlab chiqish [2]. Shuning uchun ham kelajak mutaxassislarini tayyorlashda o'zini-o'zi rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydigan, jismoniy holatini yuqoriga darajaga chiqarishga yordam berishi uchun jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratilishi kerak.

Sport jismoniy madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Unda inson o'z imkoniyatlari chegarasidan chiqishga harakat qiladi. Sport nafaqat musobaqalar jarayoni bo'lib qolmasdan, bu maxsus tayyorgarlik ham hisoblanadi. U ayrim qoidalar asosida yashaydi. Unda g'alabaga va yuqori natijalarga erishishga intilish ko'zga tashlanadi, bunday natijalarga erishish uchun jismoniy, psixik va insonning odobi sifatlarini bir joyga jamlash nazarda tutiladi [3]. Bundan tashqari, sport kundalik hayotda uchraydigan stress holatlarini yumshatishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kuni ko'pgina talabalar uyqusizlik, bundan kelib chiqadigan bosh og'rig'idan aziyat chekishadi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya darslarida talabalarning aqliy va jismoniy tomonini rivojlantirishga e'tibor berish talab etiladi. Nimaga deganda, barcha talabalar ham har kuni fitnes saroylariga borish imkoniyatiga ega emas. Shunday ekan, oliy ta'limda jismoniy tarbiya darslariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Talabalarni jismoniy tarbiyalashda, asosan, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- talabalarda jismoniy yuksalishga va o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan motivlarni shakllantirish;
- talabalarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligini ta'minlash va ularning jismoniy-sport faoliyatining bir yo'nalishini egallashga ko'maklashish;
- talabalarning optimal darajadagi jismoniy rivojlanishiga ko'maklashish;
- oliy talim jarayonidagi o'qishda kelib chiqadigan bosimni kamaytirishga va jismoniy tarbiya uslublari orqali talabaning aqliy faoliyatini yuqorilatishga ko'maklashish;
- talabalarning jismoniy madaniyatning zamonaviy maxsus texnologiyalari va uslublarni egallab olishi yordamlashish;
- gigiyenik ko'nikmalarini shakllantirish.

Bundan tashqari, talabalarni jismoniy rivojlantirish darsdan tashqari sport-tashkiliy tadbirlarning ahamiyati ham katta. Ko'pgina mutaxassislar shunday tadbirlarni tashkil etishning talabalarini ishlab chiqishdi: 1. Sport-ommaviy tadbirlar talabalarning maksimal darajadagi sonini qamrab olishi va ko'ngilochar shaklda tashkil etilishi lozim. 2. Talabalarning o'zlari sport-ommaviy tadbirlari tashkilotchilari hisoblanishi kerak. 3. Sport-ommaviy tadbirlarga tomoshabinlarning e'tibori susayib ketmasligi uchun uning hajmi uncha katta bo'lmasligi kerak. 4. Tadbirning o'zi aniq belgilab qo'yilgan ssenariy va reja asosida tashkil etilishi lozim [4].

Haqiqatdan ham, keyingi yillari davlatimizda amalga oshirilib kelayotgan katta ko'lamdagi reformalar barcha jabhalarda o'z aksini topmoqda. Kafedrada bir nechta yil davomida tajribaga ega o'qituvchilari sifatida qator tendensiyalarni ko'zga tashkil kelmoqdamiz. Nojismoniy tarbiya mutaxassisliklari talabalar orasida futbol, basketbol, voleybol va boshqala mahallalarda uynash imkoniyat yaratilgan sport turlariga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lgan talabalar soni ortib bormoqda. Bunday qiziqishning asosiy sababi sifatida mahallalarda yangi sport maydonchalarining qurilishi va u yerlarda mahalla yoshlarining shug'ullanishiga imkoniyat yaratilishi bilan izohlash mumkin.

Shunga qaramastan, keyingi paytlari talabalar orasida nojismoniy tarbiya mutaxassisliklarida o'qiyotgan talabalar orasida ayrim salbiy holatlar ham kuzatilib kelmoqda. Ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- talabalar orasida ko'rish qobiliyati pastroq bo'lgan talabalar soni biroz ortmoqda. Buning asosiy sababi sifatida talabalarning zamonaviy kommunikatsion texnologiyalardan ko'p foydalanayotganligi bilan izohlash mumkin bo'lsa kerak;
- ayrim talabalarda konsentratsiyani kamligi ham jismoniy mashqlarni bajarishda ancha pand beradi.

Ushbu nuqsonlarni inobatga olgan holda, zamonaviy jismoniy tarbiya darslarida ko'p harakatni talab etadigan sport turlari elementlarini dars jarayoniga olib kirish yaxshi natija berishi mumkin. Shuning uchun talabalarning umumiy chidamliligini oshirishda jismoniy bosim va mashqlar jarayonlarini ketma-ketlik bilan oshirib borish samara beradi. Masalan, yugirish bilan yurishni almashtirib qo'llash mumkin.

Epchillikni rivojlantirishda harakatli o'yinlar, yengil atletika, gimnastika va akrobatika sport turlari mashqlaridan foydalanish mumkin. Qiyin koordinatsion harakatlarni bajarish uchun katta ko'lamdagi jismoniy harakatlar bilan birgalikda asab taranglashishi talab etiladi. Shu qiyin jismoniy sifatni shakllantirish uchun oldin oddiy, keyin esa qiyin mashqlarni bajarish talab etiladi.

Egiluvchanlikni rivojlantirish uchun esa mushaklar va bo'g'imlarni cho'zishga qaratilgan mashqlar tanlanadi. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya darslari talabalarining jismoniy sog'ligini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Jismoniy mashqlarni bajarish bu talabalarining jismoniy sog'ligini mustahkamlashning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

O'quv jarayonini shakllantirishda sog'lomlashtirishga qaratilgan jismoniy mashqlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish kerak. O'quv mashg'ulotlar jarayonida davriylikka ega mashqlarga e'tibor qaratish lozim, bu mashqlar talabalarining yurak-qon tomirlari va dam olish tizimiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat – bu insonning madaniy holatining ajralmas qismi, u insonning sog'ligini mustahqamlaydi, aqliy va jismoniy faoliyatni yuqorilatadi, faol ish va dam olishga undaydi, talabalarga sog'lom hayot keshirish eshiklarini ochadi.

Darslarda oddiy jismoniy mashqlarni qo'llash ish faoliyatida organizmning tez kirishib ketishi va kun davomida ish bo'lgan kayfiyatni oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Гусарова Н.Н. Эффективность развития скоростных способностей студентов на основе данных оперативного контроля. Дис... канд. пед. наук, М., 2015, 145 с.
- (2). Завидська Н. Шляхи оптимізації фізкультурно-спортивної діяльності студентів вищих навчальних закладів. Н.Завидська. І. Ополонець. Фіхичне виховання, спорт і культура здоров'я суспільстві. Луцк, 2010, № 2. с. 50.
- (3). www. Sportedu.by
- (4). Терентьев А.Е., Филатова И.А. Значение спортивно-массовых мероприятий в формировании у студентов ценностного отношения к физической культуре. 2010, № 3, с. 41 – 43.

**Maksudova Hilola Ferdinantovna (O'zMU Xorijiy filologiya fakulteti "Amaliy ingliz tili va adabiyotshunoslik" kafedrasida dotsenti (PhD))**

#### ENGLISH AS A MEDIUM INSTRUCTION TIL TA'LIMI SIYOSATINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarini top 1000 talik ro'yxatiga kiritishning dolzarb masalalari, globallashtirish jarayonida ta'limning xalqarolashuv muammo va imkoniyatlari, ta'limda umumiy bo'lgan tilga murojaat qilish, talabalarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlanishi va English as a Medium of Instruction (EMI) sohaviy fanlarni ingliz tilida o'qitishning xorijiy tajribasi, ta'lim ehtiyojlari va maqsadli kategoriyalari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** globallashtirish, English as a Medium of instruction, ta'limiy, iqtisodiy, siyosiy afzalliklar, kategoriyalar.

#### ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ЯЗЫКОВОЙ ПОЛИТИКИ ЕМИ

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены актуальные вопросы включения высших учебных заведений нашей республики в список ТОП-1000, проблемы и возможности интернационализации образования в условиях глобализации, применения общего языка в образовании, развития межкультурного взаимодействия, развития коммуникативных навыков у студентов. Английский как средство обучения (ЕМИ) – это методы преподавания иностранных предметов на английском языке, обсуждающая образовательные потребности и целевые категории.

**Ключевые слова:** глобализация, английский язык как средство обучения, образовательные, экономические, политические преимущества, категории.

#### PROBLEMS AND OPPORTUNITIES OF EDUCATIONAL LANGUAGE POLICY OF EMI

**Annotation.** This article discusses current issues of including higher educational institutions of our republic in the TOP-1000 list, problems and opportunities for the internationalization of education in the context of globalization, the use of a common language in education, and the development of intercultural interaction. communication skills of students and English as a Medium of Instruction (EMI) are methods of teaching foreign subjects in English, educational needs and target categories are discussed.

**Key words:** globalization, English as a medium of instruction, educational, economic, political advantages, categories.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida ilm-fan sohasining mushtarak nuqtalari dunyo olimlarini bir umumiy tilda muloqot yuritish, muammoli holatlarini bartaraf etishga ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Aynan shu holat, ya'ni bir tilda fikrlashish nafaqat dunyo olimlarini, balki ta'lim sohasi vakillarini ham bir umumiy xalqaro tilda axborot-ma'lumotlarni to'plash ehtiyojini o'rta qo'ydi. Ushbu ehtiyoj o'z-o'zidan ta'limni xalqarolashtirish, bir tilda gaplasha oladigan kadrlarni yetishtira oladigan, izlanishlarni hamkorlikda bajara oladigan kadrlarni yetishtirish, ya'ni xalqarolashuvni oliy ta'limdan boshlash, buning uchun esa mutaxassislarni ingliz tilini mukammal biladigan qilib tayyorlashni taqozo etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari xalqarolashuvining eng yorqin ko'rinishi – ta'lim muassasida xorijiy talabalar sonining ko'payishida namoyon bo'ladi. Bu iqtisodiy mustaqil bo'lgan OTMlarni o'z-o'zini erkin boshqara olish imkoniyatini beradi, chunki xorijiy talabalar o'z hisobidan shartnoma asosida ta'im oladilar. Demak, oliy ta'lim muassasasining xalqarolashuvi, birinchidan, ta'lim muassasasining mustaqilligini ta'minlash, ikkinchidan, mamlakatning iqtisodiy quvvatini va jahondagi obro'-e'tiborini oshishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimidagi xalqarolashuv globallashuvga yordam beradi. F.Albax qayd etishi-cha, Hindiston, Malayziya va Xitoy oliy ta'lim muassasalari xorijiy talabalar soni bo'yicha Osiyoda birinchi o'rinda turdi [1;220-b.]. Biroq xorijiy talabalarni jalb qilish masalasi ancha muammoli bo'lib, ushbu talabalarni o'qitish uchun xorijiy tillarda mutaxassislik fanlarni o'qitish mexanizmi to'liq shakllangan bo'lishi kerak.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini xalqaro darajaga olib chiqish, universitetlarni xalqarolashtirish borasida quyidagi yo'nalishda ishlar amalga oshirilmoqda:

–xorijiy OTMlarda ta'lim olishni yo'lga qo'yish;

–nufuzli OTMlarning filiallarini ochish;

–qo'shma ta'lim dasturlari tuzish hamda talabalar va tadqiqotchilarni jahon universitetlariaro ayri-boshlash dasturlarini amalga oshirish.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** K.Kreber oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashuvining afzalliklari nafaqat ta'limiy, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatlariga ega, deb hisoblaydi. Uning fikricha, ta'limiy afzallik ta'lim va fan sohasini xalqaro standartlariga olib chiqishda ko'rinsa, siyosiy afzallik milliy xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro turli g'oyalardan himoyalashda, ijtimoiy-madaniy afzallik mamlakatning tili, madaniyatini jahon miqyosida ommalashtirishda, iqtisodiy afzallik esa xorijiy talabalarni jalb etish orqali mamlaktdagi OTMlarning iqtisodiy holatini yaxshilash imkoniyatini berishda o'z samarasini beradi, deb ta'kidlaydi [2;118-b.].

X.Jones xalqarolashuv orqali millatlar bir-birlaridan ko'p narsalarni o'rganishlari mumkin va bundan talabalar, ishchilar va millatlar foyda ko'radilar, degan fikrni ilgari suradi. Ayni vaqtda u xalqaro loyihalar, standartlar barcha millatlarning ehtiyojlariga, ta'lim oluvchilarga mos kelavermasligini ham ta'kidlaydi. Uning fikricha, mahalliy OTMlarda ta'lim berish va ta'lim olish, dasturlarni xalqarolashtirish tor doirada va yopiq bo'lmasligi kerak, jahondagi barcha OTMlar bilan aloqada bo'lish, kerakli kadrlarni yetishtirib berish uchun ish beruvchilar bilan doimo aloqada bo'lish, ilmiy sohani rivojlantirish lozim [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Til ta'limida EMI (English Medium Instruction) iborasi 1990-yillarga kelib Yevropaning oliy ta'lim muassasalariga akadem mobilikni oshirish maqsadida kirib keldi. Keyinroq esa Yevropa universitetlarida EMI asosiy ehtiyojga aylandi. Ayniqsa, 2001 va 2014-yillar oralig'ida bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlari to'liq ingliz tilida o'qitilishga o'tdi. Olimlar tomonidan EMI iborasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, buni quyidagi jadvalda jadvalda ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

**EMIGA berilgan tavsiflar**

Olimlar	EMIning ta'riflari
Macaro (2015)	mutaxassislik fanlarni o'qitish uchun ingliz tilidan foydalanish ( <i>the use of the English language to teach academic subjects</i> ) [4]
Pecorari, Malmstrom (2018)	Ingliz tilidan nafaqat mutaxassislik fanlarni o'qitishda, balki foydalanuvchilar uchun ikkinchi til sifatida ham foydalanish ( <i>...the language used for instructional purposes when teaching content subjects although not itself the subject being taught, and also a second language for most participants in the setting...</i> ) [5]
Galloway et al (2021)	ingliz tilining fanlarni o'qitishdagi xalqaro til sifatida qo'llanilishi ( <i>...is part of the broader role of English as a lingua franca, particular in academic domain</i> ) [7]
Dearden (2016)	EMI global jarayon bo'lib, ayniqsa, xususiy ta'limda keng qo'llaniladi ( <i>global phenomenon, widely used in private education...</i> ) [6]

**Tahlil natijalari.** EMI – ingliz tilini mutaxassislik fanlarini o‘qitish tili sifatida turli mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish, xorijiy talabalarni jalb etish, ta'lim imkoniyatlarini va qulaylikni yaratish maqsadida qo‘llanilishidir.

“EMI skills – communicate more effectively in English with students and colleagues. use a range of language in different situations, from lectures and tutorials to conferences and online discussions, increase familiarity with a range of skills for delivering instruction in English” degan ta'rif beriladi. Ushbu ta'rif EMI ko‘nikmasi deganda, mutaxassislik fani o‘qituvchisining talabalar va hamkasbar bilan ingliz tilida samarali muloqot qila olish, ma’ruzalardan to amaliy mashg‘ulotlarni ingliz tilida o‘qita olish, ingliz tilida darslarni o‘tish uchun barcha malakalari (til va nutq ko‘nikmalari)ni qo‘llay olish tushuniladi.

J.Richard va J.Pan EMI ta’limini tanlash sabablari va maqsadlari sifatida quyidagilarni qayd etadilar:

- ingliz tilidagi bilimlarni oshirish;
- ko‘p millatli mamlakatlarda umumiy til ta’limiga siyosatini qo‘llash;
- ingliz tilida so‘zlasha oladigan xodimlarni ko‘paytirish orqali mehnat bozorini oshirish;
- OTMlar salohiyatini, obro‘cini oshirish;
- universitetlar o‘rtasida raqobatni rivojlantirish;
- xalqaro aloqalarni qo‘llab-quvvatlash;
- talabalarning madaniyatlararo muloqot malakalarini rivojlantirish.
- Mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish maqsadlarining turli kategoriyalari mavjud bo‘lib, uni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

2-jadval

#### EMIning maqsadli kategoriyalanishi

Asosiy maqsadi	Tasnifi	Misol tariqasida
Fanni, sohani ingliz tili orqali o‘rganish	Fan ingliz tilida olib boriladi	Oliy ta’im muassasalari
Fanni, sohani ikki tilda o‘rganish	Fan ikki tilda olib boriladi	O‘rta ta’im muassasalarida
Madaniyatlararo muloqotni o‘rganish	Madaniyatlararo ingliz tili o‘qitiladi	Til va soha integrasiyalashgan loyihalar
Ingliz tilidagi ko‘nikmalarni takomillashtirish	Ingliz tili ko‘nikmalarini oshirish	Kasbga yo‘naltirilgan ta’im muassasalari

Mutaxassislik fanlarini ingliz tilida o‘qitish maqsadi doim ham faqat mutaxassislikni o‘qitish bilan chegaralanib qolmaydi, u bilan birga qo‘shimcha ravishda til kompetensiyasi, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar ham rivojlantirib boriladi.

**Xulosa va takliflar.** Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi ta’lim tizimidagi islohatlar ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va kvotalarni kengaytirish borasida farmon va qarorlar imzolandi. Birgina magistratura bosqichi uchun davlat oliy ta’lim muassasalari magistraturasiga qabul bir yilda ikki marta – avgust va yanvar oylarida tashkil etilishi, 2023–2024-o‘quv yilidan boshlab davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo‘yicha tasdiqlanishi, shuningdek, 2026-yilda qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish oliy ta’lim tizimida keng ko‘lamdagi o‘zgarishlar olib borilayotganini ko‘rsatadi.

Ko‘rinadiki, talimning xalqarolashuvi ilm-fan, texnika, tibbiyot sohalarida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi va bu esa, o‘z-o‘zidan, globallashtirishga ta’siri ko‘rsatadi. Ta’limning xalqarolashuvi globallashtirishning barcha tarmoqlarini globallashtirishga olib keladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Altbach Ph., Knight J. the internationalization of Higher Education: Motivation and realities. Journal of Studies in International Education, Vol. 11 № 3/4, Fall/Winter, 2007, p. 290–305.
- (2). Kreber, S. Internationalizing the curriculum in higher education. New directions for teaching and learning, no. 118, Summer, 2009.
- (3). Jones, R.H., & Richards, J.C. (2015). Creativity in Language Teaching: Perspectives from Research and Practice.
- (4). Macaro, E. (2015). Going global 2015: English medium instruction: Seven key points of controversy. [PowerPoint Slides]. Retrieved from [http://www.slideshare.net/British\\_Council/going-global-2015-48709789](http://www.slideshare.net/British_Council/going-global-2015-48709789).
- (5). Pecorari, D., & Malmström, H. (2018, September). At the Crossroads of TESOL and English Medium Instruction. TESOL Quarterly, 52(3), p. 497–515. <https://doi.org/10.1002/tesq.470>.
- (6). Galloway, N., & Rose, H. (2021, January 1). English medium instruction and the English language practitioner. ELT Journal, 75(1), p. 33–41. <https://doi.org/10.1093/elt/ccaa063>.

(7). Dearden, J., & Macaro, E. (2016, September 29). Higher education teachers' attitudes towards English medium instruction: A three-country comparison. *Studies in Second Language Learning and Teaching*, 6(3), p. 455–486. <https://doi.org/10.14746/sllt.2016.6.3.5>.

(8). Cambridge English Language Assessment Center.

**Jumaniyazova Maxira Raximbergan qizi (UrDU Sport va san'at fakulteti, "Sport faoliyati" kafedrası, f.f.b.f.d. (PhD))**  
**ABDULLA AVLONIYNING PEDAGOGIK MEROSIDA YOSHLAR TARBIYASIGA DOIR QARASHLARNING AKS ETISHI**

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada jadid adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asariga oid pedagogik qarashlarning zamonaviy ta'lim jarayonlaridagi representatsiyasi haqida so'z boradi. Shuningdek, muallifning badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va axloq tarbiyasi haqidagi fikrlari tahlil qilinib, ularning mohiyati ochib beriladi.

*Kalit so'zlar:* ta'lim, tarbiya, axloq, ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi, pedagogika, jadidchilik, axloqiy tarbiya, badan tarbiyasi.

Джуманиязова М.Р. (УрГУ факультет спорта и искусств, кафедра спортивной деятельности, ф.ф.б.ф.д. (PhD))

**ОТРАЖЕНИЕ ВЗГЛЯДОВ НА ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ АБДУЛЛЫ АВЛАНИ**

*Аннотация.* В данной статье освещается репрезентация педагогических взглядов произведения «Туркий гулистон йохуд ахлоқ» («Тюркский Гулистан или Этика») в современных образовательных процессах, написанного одним из ведущих представителей джадидской литературы Абдуллою Авлани. Кроме того, мысли автора по физическому воспитанию, умственному воспитанию и нравственному воспитанию анализируются и раскрывается их сущность.

*Ключевые слова:* образование, воспитание, нравственность, ученик, педагог, педагогика, модернизм, нравственное воспитание, физическое воспитание.

Jumaniyazova M.R. (UrSU, Faculty of Sports and Arts, Department of Sports Activities, f.f.b.f.d. (PhD))  
**THE REFLECTION OF VIEWS ON YOUTH EDUCATION IN THE PEDAGOGICAL LEGACY OF ABDULLA AVLANI**

*Annotation.* This article highlights the representation of the pedagogical views of the work "Turkiy Guliston yoxud axloq" (Turkic Gulistan or Ethics) in modern educational processes, written by one of the leading representatives of jadid literature, Abdulla Awlani. Furthermore, the author's thoughts on physical education, mental education and moral education are analyzed and their essence is revealed.

*Key words:* education, upbringing, morality, learner, educator, pedagogy, modernism, moral education, physical education.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asrning boshlarida yurtimizda ta'lim-tarbiyaga doir qarashlarning rivojlanishi va yoyilishida jadid adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Abdulla Avloniyning (1878–1934) xizmatlari kattadir. A. Avloniy o'z davrida nafaqat pedagogikaga doir asarlar muallifi sifatida tanilgan, balki turli hududlarda ta'lim muassasalari, maktablar ochib, ularda shaxsan o'zi muallimlik qilgan. Bu bilan cheklanib qolmasdan, o'zi ochgan maktablar uchun darsliklar va adabiyotlarni yaratish va takomillashtirish ustida ish olib borib "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab Gulistoni" kabi asarlarni yaratib, xalq maorifining yanada rivojlanishiga hissa qo'shgan. Mazkur asarlar ichida o'zining mazmuni, pedagogik mohiyati bilan ajralib turuvchi "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari o'zbek tilida yozilgan ilk axloq-odob haqida yozilgan asardir.

Mazkur asar o'zining pedagogik qarashlarga boyligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, mazkur maqolada aynan talaba yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan qismlariga to'xtalamiz.

**Materiallar va metodlar.** Abdulla Avloniy ijodini o'rginishga qaratilgan tadqiqotlar nafaqat o'zbek olimlari, balki jahon tarixchilari va adabiyotshunos, politologlari tomonidan ham amalga oshirilgan. Jumladan, M. Halmet A. Avloniyning bolsheviklar inqilobiga olib kelgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettiruvchi she'rlarini tahlil qilar ekan, o'sha davrdagi insonlarning mashaqqatli va ma'yus hayoti, boshiga tushgan musibat, ularni bir-biridan ajratgan "zolim qismat/chor Rossiyasi"ga qarshi isyon va nafratining ifodalinishini ta'kidlaydi.<sup>1</sup> Abdulla Avloniy Ismoil Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi jadidchi ziyolilarni

<sup>1</sup>Halmet M. 1916-yilinda yashagan Turkistan bag'imsizlik isyani'nin ceditchi sair Abdullah Avlanin'in shiirlerine yansimasi. *Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi*. 10(31), 26–40-betlar.

yaqindan bilganligi va o'z yurtining kelajagi va birligi uchun kurashganligi haqidagi ma'lumotlarni ingliz adabiyotshunoslaridan E.Allvorzning ishlarida uchratish mumkin.<sup>1</sup> A.Avloniyning Turkistonda yangi usulda ta'lim beruvchi jadid maktablari ochganligi<sup>2</sup> va gazetalar nashr ettirganligi,<sup>3</sup> shuningdek, Turkiston xalqiga teatrni tanishtirishda boshchilik qilganligi<sup>4</sup> ham jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilganini ko'rishimiz mumkin. E.Gungor Avloniyning o'z asarlarida og'zaki nutqni rivojlantirishga, o'quvchilarning o'qishda diksiya va intonatsiyaga ahamiyat berganligini qayd etib o'tadi.<sup>5</sup> A.Avloniy Turkiston xalqlarining ko'zini ochishga, ularni ilmga yetaklashga, birdamlikka undagan, chunki, uning fikricha, to'liq mustaqillikka faqat bilim va birlik orqali erishiladi. A.Avloniyning she'rlari, asosan, vatan, millat, ilm-fan, maktab, ijtimoiy buzilishlar, ijtimoiy muammolar kabi mavzularda bo'lib, ijtimoiy mazmunga ega.

O'zbek olimlari tomonidan A.Avloniyning ijodi, asosan, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan.<sup>6</sup> 60-yillardan boshlab, A.Avloniyning pedagogik merosini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi, xususan, o'sha davrga oid A.Boboxonov, M.Maxsumov, M.Rahmonovlarning,<sup>7</sup> 70–80-yillarda B.Qosimov, A.Jalolov, A.Abdurazzoqovlarning, 90-yillarda esa R.Barakayev, Sh.Rizayevlarning ishlarida A.Avloniyning ijodi tadqiq etilgan.

Lekin zamonaviy ta'lim-tarbiya tamoyillari nuqtayi nazaridan A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi pedagogik g'oyalar va ularning talaba-yoshlarni o'qitishdagi ahamiyati bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlar kamchilikni tashkil etadi va zamonaviy ta'lim sharoitida mazkur masalalarni tadqiq qilish dolzarbligini bildiradi.

**Natijalar va muhokama.** Asarda tarbiya masalalari keng qamrovli shaklda ko'rib chiqiladi, xususan, muallif tarbiya konseptini fan shaklida talqin qilar ekan, uning mohiyatan pedagogika fani bilan bir xil ekanligiga urg'u beradi: "Tarbiya – "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'yalaymiz". A.Avloniy ilmdan ham tarbiyani ustunroq ko'rib, avval, tarbiya va axloqqa to'xtalishni joiz deb biladi. Asarda muallif tarbiya qiluvchilarni, ya'ni, pedagoglarni tabibga qiyoslar ekan, "xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur" deya ta'kidlaydi. Ya'ni, ta'lim-tarbiya beruvchi shaxs o'zi tarbiyalayotgan shaxsning ichini, qalbini, zehni go'zal xulqlar bilan to'ldirishi va ijobiy fazilatlarini rivojlantirishi lozim, shuningdek, uning tashqi ozodaligini, pokligini ham nazorat qilishi zarur. A.Avloniy tarbiya orqali insonlardagi yomon xulq-atvorni o'zgartirsa bo'ladi deb hisoblab, insonlarning tabiati, xulqi o'zgarmaydi degan qarashni ilgari suruvchilarga qarshi chiqadi:

*"Yomon xo'tuzalmaydi darmon ila,  
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila.  
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,  
Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan"*

Mazkur satrlarning mohiyati shuki, agar biror daraxtning mevasi shirin bo'lmasa, unga yaxshilab payvand qilib, e'tibor berib parvarish qilinsa, uning mevasi shiringa aylanadi. Ya'ni, tarbiya jarayonida ham, yomon xulqqa ega bo'lgan yoshlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib yaxshi tarbiyalash zarur. Ana shunda bunday yoshlarda ham go'zal axloqiy sifatlar shakllanadi.

Muallifning tarbiyani kechiktirmaslik borasidagi qarashlari ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda tarbiyani bola tug'ilgan kunidanoq boshlash kerakligiga urg'u berib, yoshlar tarbiyasida

<sup>1</sup>Allworth E. Uzbek Literary Politics. Mouton & Co, London, The Hague, Paris. 1964, p. 45.

<sup>2</sup>Kholmatov E. Taşkentli Ceditçi Şair Abdullah Avlânî ve Anadolu. Turk yurdu. 1–9-betlar, 2016.

<sup>3</sup>Öztürk, G. (2016). Türkistan'da Ceditçilik ve Basın Faaliyetleri. İletişim Çalışmaları Dergisi, 2(1), 95–115-betlar.

<sup>4</sup>Yılmaz Vurgun, S. (2014). Türkistan'da ceditçilik hareketinin etkisinde tiyatro. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 16(2), 219–232-betlar.

<sup>5</sup>Güngör, E. (2011). Türkistan'da Fikir Akımları Ceditçilik Türkçülük İslamcılık, İstanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık

<sup>6</sup>Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат (айрим мулоҳазалар). "Шарқ юлдузи", Тошкент, 1984, 1-сон;

Ўша муаллиф. Ҳаёт кўзгуси (адабий-танқидий мақолалар). Т., "Адабиёт ва санъат", 1984; Ўша муаллиф.

Абдулла Авлоний. Миллий уйғониш. Т., "Маънавият", 2002, 244–291-бетлар; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Т., "Фан", 2004, 158-бет.

<sup>7</sup>Бoboxонов А., Махсумов М. Абдулла Авлонийнинг педагогик фаолияти ва таълим-тарбия тўғрисидаги фикрлари. Т., "Ўқитувчи", 1966; Махсумов М. Авлонийнинг педагогик фаолияти. Филол.фан.номз. ... диссертацияси. Т., 1967; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. Т., "Фан", 1968; Қосимов Б. Абдулла Авлоний. Т., "Ўқитувчи", 1979; Жалолов А. Ўзбек маърифатпарвар демократик адабиёти. Т., "Фан", 1979; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Т., "Фан", 2004, 158-бет.

birdek mas'ul bo'lgan shaxslarni sanab o'tadi, xususan, bola tarbiyasida, avvalo, ona, ota, keyinchalik esa, muallim, mudarris va hukumatning vazifasi katta ekanini ta'kidlaydi. O'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida, ota-onalarning o'zi ham savodsiz, omi ekanligidan kuyunar ekan, ularning o'zini tarbiyalash zarurligini ilgari suradi.

Tarbiyaning mazmun-mohiyati haqida to'xtalar ekan, A.Avloniy uch xil tarbiya turiga alohida o'rin beradi:

1. Badan tarbiyasi.
2. Fikr tarbiyasi.
3. Axloq tarbiyasi.

Badan tarbiyasini birinchi o'ringa qo'yishining asosiy sababini mutafakkir quyidagicha izohlaydi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar". Haqiqatdan ham, tananing jismoniy salomatligi ta'limda hal qiluvchi rol o'ynaydi, bu talabalarning bilim olish qobiliyatiga, ularning akademik samaradorligiga va umumiy yutuqlariga ta'sir qiladi. Jismonan sog'lom bo'lgan shaxslarda kognitiv funktsiya yaxshi ishlaydi, xotira va diqqatning faoliyati ham samarali ishlaydi. Badan tarbiyasi deganda, jismoniy sog'lom bo'lish nazarda tutiladi va u bilan akademik samaradorlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Zero, sog'lom talabalarning kasallik tufayli maktabni o'tkazib yuborish ehtimoli kamroq bo'ladi, bu esa doimiy ravishda davomatni ta'minlaydi. Bunday talabalar ham o'quv, ham darsdan tashqari mashg'ulotlarda faol qatnashadilar. Umumlashtiradigan bo'lsak, jismoniy salomatlik muvaffaqiyatli ta'limning ajralmas qismidir.

A.Avloniy fikr tarbiyasi haqida so'z yuritir ekan, "Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir", deydi. Mazkur masalaga metaforik yondashir ekan, ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini, ularning tan va jon kabi bir ekanligini qayd etadi. Shuningdek, u inson ongini, fikrini bir uyga qiyoslab, "joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida o'tirmak mumkin o'lmadig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturushga yaramaydur" deb, fikr tarbiyasining ahamiyatini ochib beradi. Zero, aniq fikr murakkab muammolarni hal qilish va qiyin mavzularni tushunish uchun zarur bo'lib, ijodkorlikni rivojlantiradi, talabalarga axborotni tanqidiy baholash, ishonchli manbalarni aniqlash va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi. Talabalarda ongni tarbiyalash va ochiq fikrlash qobiliyatini oshirish muloqot qobiliyatini yuksaltiradi, bu ularga o'z fikrlari va g'oyalarini yanada aniq va ishonchli ifodalash imkonini beradi.

A.Avloniyning axloq tarbiyasi haqidagi fikrlari ham e'tiborga loyiq: "insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir". Muallif ta'lim va tarbiyaning farqiga to'xtalar ekan, ta'lim oluvchi shaxsni "biluvchi", tarbiya oluvchi shaxsni esa "amal qiluvchi" deya ta'riflaydi. Muallimlarning o'zlari axloq jihatdan yetuk bo'lishlari kerakligini, o'zlari o'rgatganlariga o'zlari amal qilishlari joiz ekanligini ta'kidlaydi. Buning mohiyati shundaki, talabalar uchun namuna bo'lish ularning rivojlanishi, xulq-atvori va kelajakdagi muvaffaqiyatlarini shakllantirishda juda muhimdir. Ijobiy xulq-atvor, shaxsiy va akademik o'sishda talabalarga namuna bo'lish yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa tarzida ta'kidlash joizki, A.Avloniyning pedagogik qarashlari uning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridan o'rin olgan bo'lib, unda ta'lim-tarbiyaning pedagogik mohiyati bilan bog'liq asosiy masalalarga tarbiyaning ta'limdan farqi, tarbiya olishni yoshlikdan boshlash kerakligi hamda uch turdagi tarbiya masalalari mansubdir. Asarda tarbiya masalalari keng qamrovli shaklda ko'rib chiqiladi, xususan, muallif tarbiya konseptini fan shaklida talqin qilir ekan, uning mohiyatan pedagogika fani bilan bir xil ekanligiga urg'u beradi. A.Avloniyning qarashlarida ta'lim-tarbiya beruvchi shaxs o'zi tarbiyalayotgan shaxsning ichini, qalbini, zehni go'zal xulqlar bilan to'ldirishi va ijobiy fazilatlarni rivojlantirishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Halmet M. 1916-yilinda yashagan Turkistan bag'imsizlik isyani'nin ceditçi şair Abdullah Avlâninin şiirlerine yansimasi. Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi. 10(31), 26–40-betlar.
- (2). Allworth E. Uzbek Literary Politics. Mouton & Co, London, The Hague, Paris. 1964, p. 45.
- (3). Kholmatov E. Taşkentli Ceditçi Şair Abdullah Avlânî ve Anadolu. Turk yurdu. 1–9-betlar, 2016.
- (4). Öztürk, G. (2016). Türkistan'da Ceditçilik ve Basın Faaliyetleri. İletişim Çalışmaları Dergisi, 2(1), 95–115-betlar.

(5). Yılmaz Vurgun, S. (2014). Türkistan'da ceditçilik hareketinin etkisinde tiyatro. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 16(2), 219–232-betlar.

(6). Güngör, E. (2011). Türkistan'da Fikir Akımları Ceditçilik Türkçülük İslamcılık, İstanbul: IQ Kültür Sanat Yaıncılık; Қосимов Б. Адабиёт ва инқилобий ҳаракат (айрим мулоҳазалар). “Шарқ юлдузи”, Тошкент, 1984, 1-сон; Ўша муаллиф. Ҳаёт кўзгуси (адабий-танқидий мақолалар). Т., “Адабиёт ва санъат”, 1984; Ўша муаллиф. Абдулла Авлоний. Миллий уйғониш. Т., “Маънавият”, 2002, 244–291-бетлар; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Т., “Фан”, 2004, 158-бет.

(8). Бобохонов А., Махсумов М. Абдулла Авлонийнинг педагогик фаолияти ва таълим-тарбия тўғрисидаги фикрлари. Т., “Ўқитувчи”, 1966; Махсумов М. Авлонийнинг педагогик фаолияти. Филол.фан.номз. ... диссертацияси. Т., 1967; Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи. Т., “Фан”, 1968; Қосимов Б. Абдулла Авлоний. Т., “Ўқитувчи”, 1979; Жалолов А. Ўзбек маърифатпарвар демократик адабиёти. Т., “Фан”, 1979; Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. Т., “Фан”, 2004, 158-бет.

**О'rinova O'razgul Boyqobil qizi (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti tayanch doktoranti;  
[orazgulinova@gmail.com](mailto:orazgulinova@gmail.com))**

### **BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING OMMAVIY NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasini takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning samaradorligini tadqiq etadi. Ta'lim jarayonida faol kommunikatsiyaning muhim ahamiyat kasb etganligi tufayli, bu ilmiy ish mukammal gapirish ko'nikmalariga ega kelajak o'qituvchilarini yetishtirib chiqishning muhimligiga urg'u beradi. Maqolaning maqsadi ommaviy nutq so'zlashning tarixiy rivojlanishi va uning akademik faoliyatda izchil bog'liqligiga asoslangan holda, zamonaviy pedagogik strategiyalarini tadqiq qilishini ko'zda tutadi. Ilmiy asoslar va amaliy izlanishlardan kelib chiqqan holda, nutq so'zlash mahoratini takomillashtirishda shaxsga yo'naltirilgan o'quv muhitiga qaratilgan uslubiy paradigmani o'zgartirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, nutq tayyorlash va uni yetkazib berishda mustaqil ta'limning muhimligiga urg'u berib, ommaviy nutq so'zlash va o'rganuvchi avtonomiyasi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy tahlil qilinadi. O'rganuvchi avtonomiyasi o'lchamlarini ommaviy nutq so'zlashni o'qitishga birlashtirgan holda, o'qituvchilar nutq so'zlash rivojlantirish maqsadida xolistik yondashuvni qo'llay olishadi.*

***Kalit so'zlar:** ommaviy nutq so'zlash, o'rganuvchi avtonomiyasi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, pedagogik strategiyalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik.*

### **ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАВЫКОВ ПУБЛИЧНОЙ РЕЧИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА**

***Аннотация.** В статье исследуется эффективность подхода, ориентированного на студентов, в улучшении навыков публичных выступлений будущих преподавателей английского языка. Признавая решающую роль эффективного общения в образовательном контексте, исследование подчеркивает важность оснащения будущих учителей навыками разговорной речи. Прослеживая историческое развитие публичных выступлений и их непреходящую актуальность в академических кругах, статья задает контекст для изучения современных педагогических стратегий. Основываясь на теоретических основах и эмпирических данных, автор выступает за смену парадигмы в сторону среды обучения, ориентированной на учащихся, способствующей повышению навыков разговорной речи. Кроме того, исследование изучает пересечение между автономией учащихся и публичными выступлениями, подчеркивая важность самостоятельного обучения при подготовке и произнесении речи. Интегрируя аспекты самостоятельности учащихся с обучением публичным выступлениям, преподаватели могут развивать целостный подход к развитию общения.*

***Ключевые слова:** публичные выступления, самостоятельность учащихся, личностно-ориентированное обучение, педагогические стратегии, критическое мышление, креативность.*

### **LINGUODIDACTIC FEATURES OF ENHANCING THE PUBLIC SPEECH SKILLS OF FUTURE ENGLISH TEACHERS BASED ON THE LEARNER-CENTERED APPROACH**

***Annotation.** This article investigates the effectiveness of a student-oriented approach in improving the public speaking skills of prospective English language educators. Recognizing the crucial role of effective communication in educational contexts, the research underscores the significance of equipping future teachers with proficient speaking abilities. By tracing the historical development of public speaking and its*



*enduring relevance in academia, the paper sets the context for exploring contemporary pedagogical strategies. Drawing from theoretical frameworks and empirical evidence, it advocates for a paradigm shift towards student-centered learning environments conducive to enhancing speaking proficiency. Furthermore, the research examines the intersection between learner autonomy and public speaking, highlighting the importance of self-directed learning in speech preparation and delivery. By integrating dimensions of learner autonomy with public speaking instruction, educators can cultivate a holistic approach to communication development.*

**Key words:** *public speaking, learner autonomy, student-centered learning, pedagogical strategies, critical thinking, creativity.*


**Kirish.** Ma'lumki, ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi ingliz tiliga ixtisoslashgan OTM talabalari o'zlashtirishi zarur bo'lgan akademik ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi ularning kelgusi kasb faoliyatiga professional ravishda rivojlanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Sababi ularning mehnat faoliyati dars mashg'ulotlarini o'tkazish, taqdimotlar qilish, ma'ruzalar olib borish, o'quvchilarga yangi mavzuni yetkazib berish, o'quv-ish faoliyatiga oid turli seminar, konferensiya va tadbiqlarda qatnashish va boshqa omma oldida nutq so'zlash bilan bog'liq bo'lgan holatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Olimlardan biri Mukalel ta'kidlashicha, o'qituvchi, shubhasiz, notiqdir [9;90-b.]. Ular nafaqat dars jarayonida, balki boshqa vaziyatlarda ham auditoriyalarda nutq so'zlashlariga to'g'ri keladi. Ma'ruzachilar talabalarga nutqni qiziqarli tarzda yetkazib berish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu esa o'qitish-o'rganish jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Umuman olganda, ingliz tili o'qituvchilari yoki o'qitishda ingliz tilini foydalanadigan har qanday boshqa ma'ruzachi va o'qituvchilar uchun talabalar oldida ingliz tilida chiroyli nutq so'zlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday qobiliyat, ko'nikmaga ega bo'lgan maruzachi, o'qituvchilar talabalarini o'quv mashg'ulotlariga qiziqitira olishlari mumkin. Aks holda, talabalarining zerikishi va bee'tiborligiga sabab bo'lib, ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsad va natijalarga erishilmasligi mumkin. A.F.Horsesga bir paytlar shunday degan: "Og'zaki aytilgan bir so'z yozma ko'rinishidan ancha samaraliroqdir" [10;27-b.]. Haqiqatan ham, kitob o'quvchiga nisbatan tinglovchi jonli nutq bilan uning o'y-fikrlari o'zaro uyg'un holatda bo'ladi. Sababi ommaviy nutq so'zlash san'ati uning shakllari yozmaga qaraganda erkinroq bo'lishi tamoyiliga asoslanadi. Shuning uchun uning jozibadorligi retorik ko'nikma va o'zgacha emotsional jihatlar bilan bog'liqdir. Brown ta'kidlashicha, o'qituvching asosiy vazifasi o'rganish jarayonida talabaning shaxsiyati bilan uyg'un rivojlanishi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishdan iborat [8;149-b.]. Bu to'g'risida Cornelius-White & Harbaugh qo'shimcha ravishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'rganish jarayonida talaba muvaffaqiyatini keng qamrovli jalb qilishga erishish orqali rag'batlantirishga qaratilgan, har bir talabaning individualligiga urg'u beradigan va o'zaro qulay munosabatlarni ustuvor ko'radigan o'qitish uslubi ekanligini ta'kidlaganlar. Shunday ekan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va nutq so'zlash ko'nikmasi o'zaro uzviy bog'liqdir. Ushbu ilmiy ishda obyekt sifatida I-bosqich filologik OTM talabalari olindi. Ular, yuqorida keltirganimizdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari sifatida ommaviy nutq so'zlash ko'nikmalarini takomillashtirishi lozim. Ularning ko'nikmalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirishning lingvodidaktik xususiyatlari to'g'risida turli olimlar ilgari surgan nazaiy qarashlar va ularning ilmiy tahlili bayon etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tarix mobaynida ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi inson sivilizatsiyasiga yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lib kelgan. Uning kelib chiqishi qadimgi Gretsiya taxminan 2000-yillarga borib taqaladi. Uning fan sifatida shakllanishi 1949-yilda jahon urushidan so'ng sanoat va texnologiya sohasi taraqqiyot topdi. Urush xavotirlaridan forig' bo'lib, o'sha paytdagi mavjud ixtiro radio nisbatan kam sonli sharhlovchi, so'zlovchilarga bor e'tiborini qaratdi. "Radio-oriented" jamiyat kollej nutq kursi, nutq kommunikatsiya kursiga katta ta'sir ko'rsatdi [6;4-b.]. 1950-yillardan 1980-yillargacha ommaviy nutq so'zlash kursi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatning ehtiyojlarini ta'minlash uchun takomillashdi. Asosiy nutq kommunikatsiya kursining muhim komponenti sifatida og'zaki ko'nikmalarga e'tibor 1950-yillarda ham davom etdi. Natijada "Ommaviy nutq so'zlash", "Nutqning fundamental jihatlar" nomli kurslar paydo bo'ldi. 1960-yillarda bu kurs ijtimoiy ehtiyojlarga javoban ommaviy nutq so'zlashga urg'u bergan holda maxsus yondashuv qabul qilindi. Damon and Frandsen xulosasiga ko'ra, ommaviy nutq so'zlash kursi o'sha vaqtda Amerikada universitet va kollejlarda eng ko'p talab qilinadigan kurs hisoblangan [6;7-b.]. Umuman olganda, odamlar bu ko'nikmani muhim aloqa vositasi sifatida qarab kelgan. Ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi barcha turdagi sohalar va kasblarda qo'llanilsa bo'ladi va ish beruvchilar bu asosiy ko'nikma sifatida ko'rishadi. Qiziqishlarimiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar, nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bizning shaxsiy, professional va ijtimoiy hayotimizda yordam beradi. Ayniqsa, samarali ravish-


da muloqotga kirishuvchanlik qobiliyati o'qituvchilik kasbining muhim xususiyatlaridan biridir. Ba'zilar o'z fanida ekspert darajasida mutaxassis bo'lishi mumkin, lekin ular yaxshi muloqotga kirisholmasa, auditoriya ko'p narsani ololmasligi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchi har kunlik dars o'tish jarayonida ommaviy nutq so'zlovchisi. Umuman olganda, ommaviy nutq so'zlash bu omma oldida nutq so'zlash san'atidir. Zamonaviy o'qituvchi nafaqat talabalarning intellektual salohiyatini oshirish, balki ularning ma'lumot qabul qilish va fikrlash jarayonlariga ta'sir etish qobiliyatiga ega ega bo'lishi zarur. O'qituvchi nutqi pedagogik ta'sir o'tkazishning muhim qurolidir, o'z navbatida, talabalari uchun namunadir.

Ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasining nazariy asoslariga to'xtaladigan bo'lsak, bir qator olimlar jumladan, Morreale, Moore, Surges-Tatum va Vebster ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi haqida fikrlar bildirib, "kompetensiya" deb ham ta'rif beradi [4;177-b.]. Bu tushuncha Lukas tomonidan esa rasmiy kontekstda auditoriya oldida odatda rasmiy tilda olib boriladigan og'zaki kommunikatsiya va taqdimot sifatida ta'riflanadi, bundan tashqari, u ta'kidlaydiki, ommaviy nutq so'zlash ko'nikmalari g'oyalar va ma'lumotlarni auditoriyaning barcha a'zolari tushunadigan tarzda yetkazib berish qobiliyatini oshiradi. Lekin bunga qarshi fikrlar ham mavjud. Viera Restuani Adia o'zining "Menjadi Public Speaker Andal" nomli kitobida ta'kidlab o'tadiki, ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasi auditoriya oldida ma'lumot bilan ta'minlash, ishontirish va o'yin-kulgu qilishga qaratilgan kommunikatsiya metodidir [1;323-b.]. Ya'ni, ommaviy nutq so'zlovchisi rasmiy tildan foydalanishi shart emas. Sharoitdan kelib chiqqan holda, turli vaziyatlarga moslasha olish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Xitoy, Whuan Texnologiya universiteti postgraduate talabasi Zhang Shu-ya emotsiyaning til o'rganish jarayoniga ta'siri tadqiqot olib borgan ilmiy ishida aniqlik kiritadi. Unga ko'ra, nutq ikki xil ko'rinishga ega [14;420-b.].



**1.1-rasm. Nutq turlari.**

Akademik nutq chuqur bilim va munozarali g'oyalarning mantiqiy bog'liqligiga asoslangan bo'lib, ular juda ilmiy va ma'lumotlarga juda boy hisoblanadi. Shu sababli akademik nutqlar bilim yetkazib berishga qaratilgan deyarli intonatsiya va imo-ishoralardan foydalanilmaydigan chuqur va turg'un uslubni shakllantiradi. Lekin ommaviy nutq ishontirish maqsadida ko'p imo-ishoralar va emotsional ovoz tonidan foydalanilgan holda tinglovchilarning qarorlarini o'zgartira olish ta'siriga ega bo'ladi [14;420-b.]. Yana bir mutaxassis Bin Yuan ommaviy nutqni uning maqsad va vazifalariga ko'ra, bir necha turlarga ajratadi [13;114-b.].



**1.1-rasm. Ommaviy nutq turlari.**

Ommaviy nutq so'zlash nutq kommunikatsiyasining pragmatikasi bilan bog'liq sababi u tildan foydalangan holda fikrlar almashunivi va ma'lumotlarni uzatishni taqozo qiladi. So'zlovchi nutqining samaradorligi ikkita jihatga bog'liq [3;2-b.].

1. Nutq. 2. Matn.

O'z navbatida, ular nutqning umumiy kommunikativ xususiyatlariga tayanadi. Shu sababli ommaviy nutq so'zlash so'zlovchining kommunikativ nutq kompetensiyasining professionallik darajasini ko'rsatadi. Ya'ni, bu talabaning kommunikativ, janr, stilistik va mantiqiy normalarni o'z ichiga olgan turli konsept-

larga moslashtirgan holda to'g'ri nutq tuza olish qobiliyatini ko'rsatadi. Bundan ko'rinadiki, kinoya, takrorlash, metafora, parellizm, retorik so'roqlar, zidlash va boshqalarni o'z ichiga olgan ingliz tili retorikasi va pragmatika o'zaro bir-biriga bog'liqdir.

Ommaviy nutq retorikaga boy, ya'ni, ommaviy nutqni yetkazib berish retorikaning ma'lum bir turaridan foydalanishni taqozo etadi. Retorika bu nutqni samarali yetkazib berish san'atidir. Ommaviy nutqda ingliz tili retorikasi va uning pragmatik funksiyalaridan foydalanish auditoriya bilan muloqot samaradorligini oshirishda amalda yordam beradi.

**Ommaviy nutq so'zlash komponentlari.** Ingliz tili o'qituvchilari va ma'ruzachilari har kunlik o'qitish jarayonida amalda qo'llashi kerak bo'lgan bir qancha ommaviy nutq so'zlash komponentlari mavjud [9;90-b.]. Ular quyidagilar:



**1.1-rasm. Ommaviy nutq so'zlash komponentlari.**

**Hikoya aytish.** Yaxshi hikoya tinglovchilarga gipnoz ta'sirini bera oladi. Bu tinglovchilarga mazmunini yetkazib berish, bo'lishish va talqin qilish uchun ommaviy nutqda bir vosita sifatida foydalaniladigan realtoki tasavvuriy voqealarning ma'lum bir qolibga solingan hikoyaviy ko'rinishi sifatida ta'rif beriladi. Professional ommaviy nutq so'zlovchilari o'z taqdimotlarida turli maqsadlarda hikoya so'zlab berish uslubidan foydalanishadi. Bu taqdimotni esda qolarli, auditoriyaning jo'shqinlik darajasini oshirish va ma'lumotga urg'u berishga yordam beradi.

**Imo-ishoralar.** Og'zaki bo'lmagan barcha muloqotlarda imo-ishoralar eng muhim jihatlardan biridir. Imo-ishoralar yuz ifodalari, tana harakatlari, mimikalar, ko'z harakatlari, ushlar kabi jismoniy xulq-atvorlar orqali tuyg'ular, maqsadlar va fikrlarning ifodasidir. Nikita ta'kidlashicha ko'pgina professional va shaxsiy holatlarda sizning nima deyishingiz uni siz qanday aytishingizga qaraganda tinglovchilarga kamroq ta'sir kuchiga ega. Boshqacha aytganda, odamlar biz nima deganimizni tez unutib yuborishadi, lekin nutq davomida bizning og'zaki bo'lmagan holda "nonverbally" ifoda etishimiz har doim esda qoladi.

**Ovoz toni.** 'Our Speaking Voice' nomli maqolada aytilishicha, "so'zlovchi sifatida sizning eng muhim qurolingiz bu sizning ovozingizdir. Har safar auditoriya bilan muloqotga kirishganingizda tinglovchilaringiz bilan aloqa qilishing uchun sizning aql-idrokingiz, tanangiz va sizning ovozingiz o'zaro hamkorlik qiladi. Gapirotganingizda sizning ovozingiz siz va tinglovchilaringiz o'rtasida muhim aloqani ta'minlaydi" [9;92-b.]. Ya'ni, bizning ovozimiz ommaviy nutqda katta ahamiyatga ega. Nikitaga ko'ra, ommaviy nutqda ovoz toni tezlik, ovoz baland-pastligi, hajmini o'z ichiga oladi.

**To'xtam.** Andrew Dlugan 2012-yil 19-avgustda nashr etilgan "Six minutes Speaking and Presentation Skills" nomli maqolasida nutqda to'xtamdan samarali foydalanish mukammal texnika ekanligini aytib o'tadi [9;93-b.]. Bundan tashqari, unga ko'ra, samarali to'xtamlarning bir necha foydalari bor, jumladan, to'xtamlar auditoriyaning tushunishi, emotsiyani his qilishi, nutq jarayonida tezlikni boshqarish va tinglovchilar bilan muloqotga kirishuvchanlikka yordam beradi.

**Ko'rgazmali vositalar.** Video, slaydlar, grafik shakllar va rasmlar kabi ko'rgazmali vositalar nutq yoki taqdimotni auditoriya ancha samarali tushunishi uchun foydalidir. Nikita aytishicha, ular taqdimotga ta'sirchanlik va aniqlik qo'shadi va bir vaqtning o'zida murakkab ma'lumot materiali va mavhum tushunchalarini tushunish darajasini oshiradi. Bizning xotiramizning ma'lumotni tahlil qilishiga to'xtaladigan bo'lsak, bizning miyamiz og'zaki so'zlardan ko'ra vizual rasmlarga ko'proq urg'u beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, o'qitish jarayonida hikoya aytish va imo-ishoralar o'quvchilarni qiziqтира oladigan ikkita eng muhim komponentlari ekanligi ma'lum bo'ldi. Bundan ko'rinadiki, ovoz toni, to'xtamlar va ko'rgazmali vositalar kamroq ta'sir kuchiga ega ekan. Shu o'rinda o'quvchilar, talabalar og'zaki taqdimot jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni ham ta'kidlash o'tish joiz. Shen va Chiu esa psixologik (asabiylilik, qo'rquv ishonchsizlik), lingvistik (yetarli bo'lmagan lug'at boyligi, birikmalar, grammatika, struktura) va tashqi muhit (o'rganish muhiti) muammolariga ajaratdi [5;106-b.]. Umuman olganda, ushbu componentlarning barchasi o'qituvchi va ma'ruzachilarning har kunlik ish faoliyatida auditoriya bilan samarali muloqotga kirishishda muhim ahamiyatga ega. O'z sohasi bo'yicha chuqur bilim va yaxshi ishlangan dars rejasi bo'lishidan tashqari, ular yuqorida aytib o'tilgan omillarni e'tiborga olishlari lozim. Bundan tashqari, texnologiya, sun'iy intellekt shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda bugungi Zed avlod talabalar oldingi avlod talabalardan keskin farq qilishi, ayni haqiqat. Bu esa ularning diqqatini jamlash, dars jarayoniga e'tiborini qaratish, o'qituvchini uzoq muddat tinglab tushunishlariga to'sqinlik qiladi. Mening shaxsiy tajribamdan kelib chiqqan holda, bu holatda talabalarni dars jarayoniga jalb qilish uchun o'qituvchining ikkita asosiy quroli bor. Birinchisi, bu dars mashg'ulotiga zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish. Ikkinchisi esa o'qituvchi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi bo'lgan uning ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasidir. Ushbu ilmiy ishimizda ikkinchi tomonlama ochib bermoqchiman. Bu borada zamonaviy o'qitish uslublardan biri sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asos bo'lib xizmat qiladi. U konstruktivist nazariyadan kelib chiqqan bo'lib, unda talabalar kuzatishdan ko'ra amaliyotda qo'llash va tajribalarni boshdan kechirish orqali ko'proq o'rganishadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv faol o'rganuvchi g'oyasiga asoslangan [7;3-b.]. Bu yondashuvning mazmun-mohiyati shundan iboratki, talaba e'tibor markazida va o'qituvchi til o'rgatish jarayonida eng kam dominantlik ta'siriga ega bo'ladi [12;380-b.]. Chou shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quv mashg'ulotlari talabalarga nutqni yetkazib berishda optimal ta'limiy strategiya bo'lishi haqida ilmiy izlanish olib borgan. Uning natijalariga ko'ra, bu yondashuv talabalarning nutq davomida auditoriya a'zolari bilan suhbatga kirishuvchanlikni oshiradi [11;97-b.]. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv (learner-centered approach)ni qo'llash haqida mamlakatimizda O'zbekistonda bir qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan, mavzu bo'yicha ilmiy ishlar, maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar yozilgan. Jumladan, N.Mamatqulova shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan. Shu o'rinda pedagogika bo'yicha professor L.Axmedova o'z ilmiy maqolasida tayanch, interfaol, hamkorlikda o'qitish, o'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kabi shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalarini tavsiya etadi. Bundan tashqari, yana bir qator o'zbek olimlari ham bu borada ilmiy ishlar olib borgan. Jumladan, Sh.Shodmonova, N.S.Mirsagatova, G.N.Ibragimova, M.T.Mirsoliyevalar shaxsga yo'naltirilgan texnologiyani "shaxsga yo'naltirilish asosidagi muallif texnologiyasi" sarlavhasida hamkorlik, inson-shaxs, jadallashtirish va individuallashtirish texnologiyalari sifatida talqin etadilar.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'rganuvchi avtonomiyasi tushunchasi bilan bog'liq holda 1970-yillarda kelib chiqqan [2;195-b.]. O'rganish jarayoniga faol qatnashuvi talabalarning o'z bilimlarini egalashga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Bu, o'z navbatida, o'rganuvchi avtonomiyasi ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llash mumkin sababi talabalarning o'z o'rganish jarayonini boshqarishga bo'lgan qobiliyati muhim. Ya'ni, individual ravishda har bir nutq so'zlash uchun talabalar mavzu tanlash, nutq rejasi, mazmuni, nutq so'zlash tayyorgarligi, repetitsiya va nutq yetkazib berishda o'z qobiliyatini namoyon qilishi kerak. Ingliz tilida ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun talabalar nafaqat nutq so'zlash qobiliyati, balki nutq so'zlash uchun motivatsiya, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, ijodkorlik va auditoriyani jalb qilish uchun o'zaro muloqotga kirishuvchanlik talab etiladi. Lekin o'rganuvchi avtonomiyasi va ommaviy nutq so'zlash borasida ilmiy izlanishlar kamligicha qolmoqda Shunga qaramasdan, Taylandda ingliz nutq so'zlash qobiliyati uchun ALP pedagogik vosita sifatida tadqiqot olib borilgan. Bu o'rinda ALP o'rganuvchi avtonomiyasi o'lchamlari va ommaviy nutq so'zlash qobiliyatiga aloqador adabiyotlarining o'lchamlari tahlilidir.

Bu ilmiy izlanish uchun ALP o'rganuvchi avtonomiyasining to'rt texnikaviy, psixologik, siyosiy-tanqidiy va sotsio-madaniy o'lchamlari asos qilib olindi [2;200–201-b.]. Ingliz ommaviy nutq so'zlash dar-sida o'rganuvchi avtonomiyasining barcha to'rt o'lchamlarini yaxlit tarzda qamrab olgan holda talabalar quyidagi kategoriyalar bo'yicha o'qitilishi lozim.


1. O'zlarining o'rganish strategiyalaridan foydalanish, monitor nazorat qilish va rejalashtirish-Texnikaviy o'lchov

2. O'z qo'rquv, xavotirlarini boshqarish – psixologik o'lchov.

3. Nutqni ijodkorlik bilan va tanqidiy yondashgan holda yetkazib berish – siyosiy-tanqidiy o'lchov.

#### 4. Auditoriya bilan kirishuvchanlik – sotsiomadaniy o‘lchov.

Figure 1  
ALP for English Public Speaking Ability Framework




1.4-rasm. Ingliz tili ommaviy nutq so‘zlash qobiliyati uchun avtonom o‘rganish jarayoni (ALP) [2;196-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola yozilishi jarayonida sinxron tahlil, distributiv hamda davriy-qi-yosiy solishtirishdan metodlari foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmasining tarixiy asoslariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, vaqtlar osha rivojlanib, unga bog‘liq bo‘lgan kurslarga bo‘lgan talablar oshib borgan. Nazariy jihatdan turli olimlar turlicha qarashlar va fikrlar bildirgan. Jumladan, ommaviy nutq so‘zlash bilan bog‘liq atamalar, nutq turlari, uning tarkibiy qismlari borasida aniq, universal, ilmiy asoslangan nazariya mavjud emas, lekin mazmun-mohiyat jihatdan bir-birini to‘ldiradi. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oliy ta’limda bo‘lg‘usi ingliz tili pedagoglarning ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmasini takomillashtirish to‘g‘risida ma’lum bir talimiy yondashuvga ehtiyoj seziladi. Bu borada zamonaviy o‘qitish uslublaridan biri sifatida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rganuvchi avtonomiyasining o‘lchovlari bilan aloqador tushunchalarni quyidagi grafikda xulosasini ko‘rish mumkin [2;200-b.].

Summary of Learner Autonomy as Revealed from the Emerging themes



1.4-rasm. O‘rganuvchi avtonomiyasining xulosaviy ko‘rinishi.

Umuman olganda, ushbu muhokamada ALP qanday qilib o‘rganuvchi avtonomiyasi darajasiga rivojlanishiga hissa qo‘shishini tushuntirib bera oladigan to‘rtta omillar bor. Tadqiqot natijasida, bu omillarga tayangan holda ALP, haqiqatan ham, o‘rganuvchi avtonomiyasining darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, ya’ni, filologik OTM talabalari ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmalarini takomillashtirishi lozim, chunki ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati bevosita nutq so‘zlash bilan bog‘liq bo‘lib, dars mashg‘ulotlarida auditoriyaga bilimni samarali yetkazib berishda muhim rol o‘ynaydi. Muloqotga kirishuvchanlik qobiliyati, shubhasiz, o‘qituvchilik kasbining eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi talabalarning ommaviy nutq so‘zlash ko‘nikmasini takomillashtirishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali qo‘llash va uni amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir. Bu yondashuv talabalarning individual ehtiyojlari va kuchli jihatlari-dan kelib chiqqan holda, o‘qitish tizimiga moslashtirib, o‘qituvchilar sezilarli ravishda ularning ommaviy

nutq faoliyatini oshira olishiga urg'u beradi. Bundan tashqari, ushbu ilmiy tadqiqot qo'llab-quvvatlovchi va ruhlantiruvchi o'rganish muhitini shakllantirishning muhimligiga e'tibor qaratadi, bu esa talabalarning erkin tarzda kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi. An'anaviy o'qitish metodidan farqli ravishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarining gapirish ko'nikmasini rivojlantirishga yor-dam beradi. Sababi bu yondashuv individual faollik va interaktivlikni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, bu yondashuv uning tarkibiga kiruvchi hamkorlik ta'lim metodi va o'rganuvchi avtonomiyasi, ya'ni mustaqil ta'lim bilan o'zaro uzviy bog'liq. Ularga asoslangan holda ta'lim jarayonida talabalarning ommaviy nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishga erishish mumkin. Natijada ularning nutq so'zlash ko'nikmasi bilan bir qatorda, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmasi ham rag'batlantiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Amelia D. et al. Improving Public Speaking Ability through Speech. Journal of Social Sciences and Technology for Community Service (JSSTCS). 2022, t. 3, №. 2, p. 322–330.
- (2). Boonma N., Swatevacharkul R. The effect of autonomous learning process on learner autonomy of English public speaking students. Indonesian Journal of Applied Linguistics. 2020, t. 10, №.1, p. 194–205.
- (3). Bylkova S., Chubova E., Kudryashov I. Public speaking as a tool for developing students' communication and speech skills. E3S Web of Conferences. EDP Sciences, 2021, t. 273, p. 11030.
- (4). Herbein E. et al. Putting a speech training program into practice: Its implementation and effects on elementary school children's public speaking skills and levels of speech anxiety. Contemporary Educational Psychology. 2018, t. 55, p. 176–188.
- (5). Jaya H.P., Petrus I., Pitaloka N.L. Speaking performance and problems faced by English major students at a university in South Sumatera. Indonesian EFL Journal. 2022, t. 8, № 1, p. 105–112.
- (6). McQuillen J.S., Ivy D.K. The Basic Course in Speech Communication: Past, Present and Future. 1982.
- (7). Magaña-Medina D.E. et al. Transformational leadership and the learner-centred teaching approach. South African Journal of Education. 2021, t. 41, №. 2, p. 1–12.
- (8). Matukhin D., Bolgova D. Learner-centered approach in teaching foreign language. Psychological and pedagogical conditions. Procedia-Social and Behavioral Sciences. 2015, t. 206, p. 148–155.
- (9). Novita L. et al. Components of public speaking: The factors that make students interested in English speech and teaching. Inovish Journal. 2020, t. 5, №. 1, p. 89–98.
- (10). Raupovna X.R. The formation of professional speech of students in the learning process at the university. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 2019, t. 7.
- (11). Stefaniak J.E., Tracey M.W. An exploration of student experiences with learner-centered instructional strategies. Contemporary Educational Technology. 2015, t. 6, №. 2, p. 95–112.
- (12). Villacís W.G.V., Camacho C.S.H. Learner-centered instruction: An approach to develop the speaking skill in English. Revista Publicando. 2017, t. 4, №. 12 (1), p. 379–389.
- (13). Yuan B. On the Pragmatic Functions of English Rhetoric in Public Speech: A Case Study of Emma Watson's "HeForShe". English Language Teaching. 2018, t. 11, №. 3, p. 113–118.
- (14). Shu-ya Z. Study on Public Speech and Children Language Teaching From the Perspective of Emotion. Journal of Literature and Art Studies. 2019, t. 9, №. 4, p. 419–424.

**Turdialiyeva Shaxrizoda Umid qizi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi)**

#### **INTEGRALLASHGAN USULDAN FOYDALANIB, TIL BILISH DARAJASINI OSHIRISH**

**Annotatsiya.** Integratsiyalashgan til ko'nikmalari (ITK) – bu talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) o'quv faoliyatida birlashtirishga qaratilgan yondashuv. Ushbu tadqiqot o'qituvchilarning ITKni qo'llashini va o'quv jarayoniga ITKni joriy etishdagi muammolarni o'rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** integratsiyalashgan til ko'nikmalari (ITK), qiyinchiliklar, EFL o'qituvchilari.

#### **ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ ЗНАНИЙ ЯЗЫКА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕГРАЦИОННЫХ МЕТОДОВ**

**Аннотация.** Интегрированные языковые навыки (ILS)–подход, направленный на интеграцию языковых навыков (аудирование, чтение, письмо, говорение) в учебную деятельность с целью развития коммуникативной компетентности учащихся. Целью данного исследования является изучение использования ИЛП учителями и проблемы внедрения ИЛП в образовательный процесс.

**Ключевые слова:** интегрированные языковые навыки (ILS), проблемы, преподаватели EFL.

## IMPROVING LANGUAGE KNOWLEDGE USING INTEGRATION METHODS

**Annotation.** *Integrated language skills (ILS) is an approach aimed at integrating language skills (listening, reading, writing, speaking) in educational activities to develop students' communicative competence. This study aims to investigate the use of ILS by teachers and the problems of implementing ILS in the educational process.*

**Key words:** *integrated language skills (ILS), challenges, EFL teachers.*

**I. Kirish.** Xorijiy tillarni o'rganish talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda, asosan, muloqot qilishga qaratilgan. Shunga qaramay, talabalar madaniyat doirasida jamiyatda qo'llanilishi kerak bo'lgan muloqot qoidalarini bilishlari kerak. Taniqli olim Jing [4] tilni o'rganishga oid adabiyotlar til ko'nikmalarining integratsiyalashuviga yordam berishini va til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularning tilni bilish darajasini oshirishda muhimligini ta'kidlaydi. ITKni amalga oshirish zarur, chunki u o'quvchilarga to'rtta til ko'nikmasini real kontekstda va real hayotda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Braunning ta'kidlashicha [2], ITK til ko'nikmalarini alohida emas, balki birlik sifatida ko'rib chiqadigan demakdir.

Integratsiyalashgan ko'nikmalarni qo'llash bir qator afzalliklarga ega, xususan, ingliz tilidan tabiiy ravishda o'zaro muloqot qilish orqali talabalar uchun haqiqiy til tajribasini hisoblanadi. Shunday qilib, o'quvchilar maqsadli til elementlari va qoidalarini bilishadi, lekin muloqot qilish uchun ulardan foydalana olmaydilar. Til ko'nikmalarining integratsiyasi haqiqiy muloqotga bog'liq.

Vagnerning [13] ta'kidlashicha, ITK haqiqiy maqsadlar va haqiqiy auditoriya uchun birgalikda ishlab chiqilishi mumkin bo'lgan tinglash, gapirish, o'qish va yozish uchun tabiiy o'quv vaziyatlarini ta'minlashni anglatadi. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchilar faqat jumlar yoki alohida so'zlar va iboralar darajasida emas, balki diskurs darajasida dars berishadi. Shu bilan birga, Oksford [6] til o'qitishni o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushinish kabi til ko'nikmalarini o'z ichiga olgan jarayon sifatida tavsiflaydi. Integratsiyalashgan o'qitish atamasini o'quv faoliyati sifatida talqin qilish mumkin, bunda barcha til ko'nikmalari bir vaqtning o'zida o'qituvchi, o'quvchilar hamda ta'lim berish sharoitlari tomonidan yordam beradi.

Haqiqiy hayotdagi ko'plab kommunikativ vaziyatlar ikki yoki undan ortiq ko'nikmalarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Ko'nikmalarni integratsiyalash odatda kundalik hayotda qo'llaniladi. Misol uchun, biror shaxs xatni o'qib, o'qigandan so'ng yozish orqali javob beradi hamda yozgandan keyin u haqida gapirishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq til ko'nikmalari odatda kundalik suhbatda foydalanishda ko'p ishlatiladi. Darhaqiqat, ko'pgina ingliz tili o'qituvchilari, ayniqsa, ingliz chet tili (EFL) kontekstida ta'lim beruvchi ustozlar, integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanmaydilar, aksincha, ular talabalarga til ko'nikmalarini birlashtirmaydigan grammatika, yozish kabi kichik mavzular bo'yicha dars berishadi. Sinfdagi til ko'nikmalari ham real hayotda bo'lgani kabi til o'rgatish jarayonida ham birlashtirilishi kerak. Maqsadli va mazmunli ta'lim muhitini ta'minlash uchun o'qituvchilar tilni o'rgatish va mashq qilish jarayonida til ko'nikmalarini - o'qish, gapirish, tinglash va yozish ko'nikmalarini integratsiya qilishi kerak. Ideal o'qitish va ta'lim jarayoni, o'qituvchilar va talabalar o'z faoliyatida o'qish, gapirish, tinglash va yozish ko'nikmalarini o'z ichiga olishi kerak. Odatda, odamlar boshqa tillar bilan muloqot qilish uchun tildan foydalanadilar, ammo bu boshqa uchta til ko'nikmalari (yozish, o'qish va tinglash) muloqot jarayonida ishtirok etmaydi degani emas. Bundan tashqari, tadqiqotchi Atta-Alla, [1] o'quvchilarning muloqot qilish uchun ingliz tilidan foydalanishlariga imkon berish uchun, muloqotda qulaylikka erishish uchun ingliz tilini integratsiyalashgan holda o'rgatish kerakligini aniqladi.

Integratsiyalashgan til ko'nikmalari (ITK) – bu o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun to'rtta til ko'nikmasini o'z ichiga olgan o'qitish usuli. Shu sababli ITK qay darajada amalga oshirilayotgani va ingliz tilini o'qitishda o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni tasvirlash dolzarbdir. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar o'qituvchilar yaxshi tayyorgarlikni jalb qilgan holda integral til ko'nikmalarini amalga oshira olsalar, ITK yaxshi natijalar berishi mumkin. Richards [9] til o'rgatishda integratsiyalashgan yondashuv til ko'nikmalarini o'qish, yozish, tinglash va gapirishni bir-biri bilan birgalikda o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi, chunki dars tinglash va gapirishni o'qish va yozish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

**II. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. A.** Integratsiyalashgan til ko'nikmalari (ITK) integratsiya deb, ikki yoki undan ortiq narsalarni bitta narsaga birlashtirish jarayoniga aytiladi. Integratsiyalashgan ko'nikmalar ingliz tilining to'rtta asosiy ko'nikmalariga e'tiborni Communicative Language Teaching ((CLT) Kommunikativ tilni o'rgatish) metodologiyasi orqali o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushinishga qaratilgan. Oksfordning fikriga ko'ra [6], integratsiyalashgan yondashuv, tinglab tushinish, o'qish, gapirish va yozish kabi til ko'nikmalarini haqiqiy, mazmunli muloqotni ta'kidlash niyatida bir-biriga bog'lashni o'z ichi-



ga oladi. Tadqiqotchilar Vagner [13] va Atta-Allaning [1] fikriga ko'ra, til ko'nikmalarini integratsiyalashuvi tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishni aniq maqsadlar va haqiqiy auditoriya uchun birgalikda ishlab chiqish mumkin bo'lgan tabiiy o'rganish vaziyatlarini yaratishni anglatadi.

Bekam-ko'st o'qitish va ta'lim berish jarayoni, o'qituvchilar va talabalar o'z faoliyatida o'qish, gapirish, tinglab tushunish va yozishni o'z ichiga olishi kerak. Odatda, odamlar boshqalar bilan muloqot qilish uchun tildan foydalanadilar, ammo bu boshqa til ko'nikmalari (yozish, o'qish va tinglab tushunish) suhbat jarayonida ishtirok etmaydi degani emas. Harmer [14] tilning asosiy ko'nikmalarini o'quvchilarga alohida o'rgatish orqali bir-biridan ajratib bo'lmaydi, chunki ular tildan foydalanishda bir-biri bilan integratsiyalashgan.

**B. ITK shakllari.** Tadqiqotchi Pardedening [8] ta'kidlashicha, ITK o'qitish ikki turga bo'linadi: kontentga asoslangan til o'qitish (CBLT) yoki kontentga asoslangan ta'lim (CBI) va topshiriqqa asoslangan til o'qitish (TBLT). CBLT til o'qitishning uchta asosiy modelini o'z ichiga oladi, ya'ni "Mavzuga asoslangan til o'qitish modeli", "Qo'shimcha til o'qitish modeli" va "Himoyalangan modeli". Mavzuga asoslangan modelda til ko'nikmalari mavzu yoki mavzuni o'rganish bilan o'zaro bog'liqdir (u talabalar uchun juda qiziqarli bo'lishini ta'minlash uchun sinchkovlik bilan tanlangan va turli xil til ko'nikmalarini amalda qo'llashni taklif qiladi, ayniqsa, mavzu bo'yicha muloqot qilishda), bu tildan foydalanish uchun kontekst bo'lib xizmat qiladi.

TBLTda talabalar tarjima tilda kommunikativ vazifalarni bajarishda ishtirok etadilar. Pardedening [8] ta'kidlaganidek, kommunikativ vazifalar – bu asosiy birliklar sifatida mustaqil bo'lishi mumkin bo'lgan va asl tilda tushunish, ishlab chiqarish, manipulatsiya qilish yoki o'zaro ta'sir qilishni talab qiladigan faoliyatdir, bunda, asosan, shaklga emas, balki ma'noga e'tibor beriladi.

**III. Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tavsiflovchi sifat usulidan foydalanilgan. Ma'lumotlar kuzatuv ro'yxati va tuzilgan suhbat orqali to'plangan. Ishtirokchilar O'zbekistonning Andijon shahridagi o'rta maktabning to'rt nafar o'qituvchisi. Kuzatish va suhbatdan olingan ma'lumotlar uch bosqichda tahlil qilindi: ma'lumotlarni qisqartirish, ma'lumotlarni ko'rsatish va xulosa chiqarish yoki tekshirish.

**IV. Tahlil va natijalar.** 1. ITKni Ingliz tilini o'qitish va o'qitish jarayonida joriy etish. Tadqiqot jarayonida tadqiqotchi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan o'qitish jarayonida ITKning beshta shaklini topdi:

*1-jadval*

**ITKni amalga oshirish shakllari**

№	O'qituvchi va o'quvchilarning sinfdagi faoliyatini kuzatish orqali	ITK shakllar
1.	O'qituvchi talabalardan ingliz tilidagi so'zlar, iboralar va jummalarni tinglashni so'radi, o'qituvchi talabalar diqqat bilan tinglamaydigan so'zlarni ham talaffuz qiladi. Shundan so'ng o'quvchilar so'zlarni/iboralarni/gaplarni takrorlaydilar va o'qituvchilarning gaplariga oid ayrim o'qituvchilarning savollariga og'zaki javob beradilar, so'ngra o'qituvchi matni ko'rsatib, o'quvchilarga ovoz chiqarib o'qishni so'radi, so'ngra o'qituvchi noto'g'ri talaffuzlarni to'g'rilab, fikr-mulohazalarini bildiradi. Bundan tashqari, o'qituvchi talabalardan bir necha daqiqa davomida tinglagan so'zlar/iboralar/jumlalar yordamida bir yoki undan ko'proq paragraf yozishni so'radi, so'ngra o'qituvchi o'quvchilarning ishlariga fikr-mulohaza sifatida tuzatish kiritadi.	Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish (2-o'qituvchi)
2.	Asosiy faoliyat boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarga o'qish uchun ajratilgan matni ko'rsatib, o'quvchilardan bir necha daqiqa o'qishlarini so'radi, shundan so'ng o'qituvchi va talabalar og'zaki savol-javob qildilar. Oxirgi mashg'ulotda o'qituvchi o'quvchilardan o'zlari o'qigan matnga tegishli xatboshini yoki o'qigan so'zlarini ko'pini o'z so'zlari yordamida qayta yozishni so'radi.	O'qish, gapirish, yozish (1-o'qituvchi va 3-o'qituvchi)
3.	O'qituvchi birinchi marta videotasvir orqali dialog namunasini ko'rsatdi, o'quvchilar tomosha qildilar va suhbat mazmunini tushunishga, so'zlovchilar tomonidan hosil qilingan so'z/ibora/gaplarning talaffuziga taqlid qilishga harakat qildilar. Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilardan juft-juft bo'lib dialogni mashq qilishni so'radi, so'ngra o'qituvchi o'quvchilar ishlatgan noto'g'ri talaffuz so'zlarini tuzatdi. Oxirgi mashg'ulotda o'quvchilar juftlikda yana bir dialog yozishni mashq qildilar.	Tinglab tushunish, gapirish, yozish (3-o'qituvchi)
4.	O'qituvchi videorolikni ko'rsatdi, o'quvchilar uni tomosha qildilar va videoning ma'nosini tushunishga harakat qildilar. Shundan so'ng talabalardan ko'rilgan videoning mavzusi bilan bog'liq bo'lgan xatboshini yoki undan ko'p qismini	Tinglab tushunish, yozish (1-o'qituvchi va 4-o'qituvchi)



	qayta yozish taklif qilindi. O'qituvchi o'quvchilarning yozishi bo'yicha fikr bildirdi.	
5.	Birinchidan, o'qituvchi "ingliz tilini o'rganishning ahamiyati" bilan bog'liq ba'zi bayonotlarni tayyorladi. O'qituvchi ingliz tilini o'rganishning muhimligini tushuntirdi va talabalar diqqat bilan tinglashdi. Shundan so'ng ularga o'qituvchilarning so'zlari asosida javob olish uchun bir nechta savollar berildi.	Tinglab tushunish, gapirish (4-o'qituvchi)

2 ta dars davomida 4 nafar o'qituvchining kuzatish natijalari shuni ko'rsatdiki, faqat 1 nafar o'qituvchi (2-o'qituvchi) bir vaqtning o'zida til ko'nikmalarini amalga oshirgan: tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish (LSRW). O'qituvchi o'quvchilardan ingliz tilidagi jummalarni og'zaki tinglayotganlarini so'rashdan boshlaydi, ular tinglab tushunishlarini mashq qilishlari mumkin, agar o'quvchilar tushunmasa, o'qituvchi so'zni yozadi. Bu ingliz tilini yangi o'rganayotgan talabalarni tinglashni o'rgatishning bir usuli. Ushbu material bilan talabalardan o'qituvchi va sinfdoshlarining savollariga javob berishni so'rash orqali talabalarining nutqini o'rgatish uchun ham foydalaniladi. Shunday qilib, o'quvchilar nutq qobiliyatiga o'rgatiladi. Bundan tashqari, ushbu material yordamida talabalar tinglangan gaplarni qayta o'qishga o'rgatiladi, so'ngra talabalar to'g'ri imlo, izchil va uyushiq gaplarni qayta yozishga o'rgatiladi. Shunday qilib, barcha to'rtta til ko'nikmalari bir uchrashuvda amalga oshiriladi.

Boshqa o'qituvchi (3-o'qituvchi) ingliz tilini o'rgatishda faqat 3 ta til ko'nikmalarini, ya'ni o'qish, gapirish va yozishni (RSW) integratsiyalagan. O'qituvchi tomonidan olib boriladigan o'quv jarayoni o'quvchilarning o'qishni tushunishga urg'u beradi. Matn mazmuni yuzasidan savol-javoblar o'tkazish orqali o'quvchilarni matn o'qish va o'qilgan matn mazmunini tushunishga o'rgatiladi. Shunday qilib, talabalar o'qish va nutqni tushunishga o'rgatiladi, so'ngra u yozish bilan integratsiyalashtirilganda, talabalar tinglangan va muhokama qilingan matnga tegishli paragrafni qayta yozishni mashq qilishlari so'raladi. Bu o'qish, gapirish va yozish (RSW)ning qo'llanilishidir.

Qolganlari (1-o'qituvchi va 4-o'qituvchi) faqat ikkita til ko'nikmalarini, ya'ni, tinglash va yozish (LW) va tinglash va gapirish (LS)ni ingliz tilini o'rgatishda integratsiyalashtirgan. Umuman olganda, o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishda faqat ikkita til ko'nikmalarini birlashtiradi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishda bir vaqtning o'zida to'rtta til ko'nikmalarini integratsiyalashda hali ham qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

2. Ingliz tilini o'rganish jarayonida til ko'nikmalarini integratsiyalashda o'qituvchilar oldida turgan muammolar.

Qiyinchiliklar uchta omilga bo'linadi, ular maktab, o'qituvchilar va talabalar bilan bog'liq. *Maktab* ingliz tilini o'qitishda ITKni joriy etishda yordam beruvchi omillardan biridir. Maktab sharoitlarining yetarli emasligi ITKni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, masalan, lingafon laboratoriyasi bilan ta'minlash integratsiyalashgan o'qitish va ta'lim berish jarayonini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

O'qituvchilar, shuningdek, maktab tomonidan taqdim etilgan boshqa jihozlar juda to'liq deb tasniflanganligini ta'kidladilar, ammo o'qituvchining lingafon xonasi bo'lishi kutilmoqda, chunki bu o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradi, shuning uchun o'qituvchi ingliz tilini o'rgatishda o'z ijodini ifodalashda ko'proq mustaqil bo'lishi kerak. Intervyuga misol:

**Savol:** Maktab jihozlari bilan bog'liq to'siqlar bormi?

**Javob:** Maktab jihozlari to'liq, LCD televizor va boshqalar mavjud. Bizga ITK o'quv jarayonini to'ldirish uchun lingafon xonasi kerak.

Yana bir omil – o'qituvchining o'zi. Ko'pgina o'qituvchilar ingliz tilini faqat ikkita ko'nikmalarni, masalan, tinglash va gapirish qobiliyatlari yoki o'qish va yozish qobiliyatlarini birlashtirish orqali o'rgatishadi. To'rtta til ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida birlashtirish uchun vaqt yo'qligi duch kelgan qiyinchilik.

**Savol:** ITKni amalga oshirish uchun vaqt ajratish haqida nima deyish mumkin?

**Javob:** Biz til ko'nikmalarini hammasini bitta darsda birlashtira olmaymiz, chunki 4 ta ko'nikma birlashtirilishi kerak, ammo qo'shimcha vaqt bo'lmasa, ajratilgan vaqt yetarli emas.

Oxirgi omil talabalar tomonidan. O'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ayniqsa, ular ITKdan foydalanmoqchi bo'lsalar, ko'pchilik talabalarining ingliz tilini o'rganish motivatsiyasi past, shuning uchun ular sinfdagi o'zaro munosabatlarda faol emaslar.

**Savol:** Talabalarining ITK ta'limidan foydalangan holda, ingliz tilini o'rganish motivatsiyasi qanday?

**Javob:** Faolligi past bo'lgan o'quvchilar bor, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarni nazorat qilish, ularni faollashtirish uchun ko'p harakat qilishi kerak. Biz juda ko'p fikr bildirishimiz kerak,

**A. O‘qitish va ta’lim berish jarayonida ITKni joriy etish.** Ingliz tili o‘qituvchilari ingliz tilini o‘rgatishda ko‘proq integratsiyalashgan 2 til ko‘nikmalarini qo‘llashadi. Ular, ba’zan, uchta ko‘nikmalarni qo‘llashadi, lekin bu maqbul emas edi. Richards ta’kidlashicha [9] til o‘rgatishning kompleks yondashuvi til ko‘nikmalarini o‘qish, yozish, tinglab tushinish va gapirishni bir-biriga bog‘lab o‘rgatishdir, masalan, darsni tinglash va gapirish yoki o‘qish va yozish. Biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar ham integratsiyalashgan o‘qitish tamoyillariga to‘liq amal qilmaydi.

**B. ITKdagi qiyinchiliklar.** O‘qituvchilar asosan o‘qitish va ta’lim berish jarayonida, ayniqsa, to‘rtala til ko‘nikmalarini qo‘llashda muammolarga duch kelishadi. Bu muammo o‘rganishda motivatsiyaga ega bo‘lmagan talabalar bilan bog‘liq. Shunday qilib, bu ularning sinfdagi o‘rganish xatti-harakatlariga ta’sir qiladi, chunki ularda ingliz tilini o‘rganishga qiziqish va motivatsiya past. Richardsning fikricha [9] o‘quvchilarning motivatsiyasi past, til bilimlari juda yomon, o‘qituvchilar va ularning tengdoshlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, ular, ayniqsa, nutq darslarida o‘zlarini ifoda etish yoki introvert shaxsga aylanish qiyin.

ITKni amalga oshirishda qiyinchilik tug‘diradigan yana bir omil – bu o‘qituvchining o‘z idroki, bu o‘qituvchining ITKni kompleks tarzda qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq. Kuzatish natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘rtala o‘qituvchidan faqat bitta o‘qituvchi to‘rtala til ko‘nikmalarini amalga oshirishi mumkin. Uch nafar ingliz tili o‘qituvchilari to‘rtala til ko‘nikmalarini amalga oshirish uchun mavjud vaqt yetarli emasligini aniqladilar.

Xuddi shunday xulosalar Atta-Alla [1] tomonidan ham qilingan, ular sinfda o‘qitishda integratsiyalashgan ko‘nikmalarni qo‘llash bir qator to‘siqlarga duch kelganligini aniqladi. Birinchi to‘siq – bu ingliz tilidan majburiy darslarning juda cheklangan soni, haftada faqat uch soat dars borligi. Ushbu cheklangan soatlar o‘qituvchilarga cheklangan o‘quv vositalari bilan keng qamrovli va ijodiy o‘quv faoliyatini loyihalashni qiyinlashtiradi.

Bundan tashqari, Pardede [8] ta’kidlashicha, maktablar iqlim, siyosat va jihozlar bilan bog‘liq ITKni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Muvaffaqiyatga erishish yoki ITK o‘rganishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun maktablar kuchli institutsion qo‘llab-quvvatlash ramzi sifatida qulay o‘quv muhitini yaratishi kerak. Bu holda tadqiqotchi maktab tomonidan taqdim etilgan sharoitlar yetarli darajada to‘liq ekanligini aniqladi, biroq o‘qituvchining lingafon laboratoriyasiga ega bo‘lishi bir qator mulohazalarga ko‘ra, lekin maktab tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar o‘quv jarayonini amalga oshirish uchun ancha yaxshi, shuning uchun o‘qituvchi o‘z fikrini ifodalashda mustaqilroq bo‘lish, o‘qitish jarayonida ijodkor bo‘lishi kerak. Shunday qilib, o‘qituvchi tomonidan berilgan umumiy javoblardan tadqiqotchilar o‘quvchilarning qobiliyatlari o‘qituvchining qanday o‘rgatganiga qarab aniqlanishini tushunishdi, chunki o‘quvchilarning imkoniyatlari turlicha. O‘quvchilarning muvaffaqiyati o‘qituvchilarning sinfni nazorat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lganda ko‘rinadi, bundan tashqari, o‘qitishda maktab vositalaridan foydalanish juda katta ta’sir qiladi.

**VI. Xulosa va takliflar.** Bu jarayonda shuni aytish mumkinki, asosan, o‘qituvchilar o‘quv jarayoniga to‘rtala til ko‘nikmalarini integratsiya qilmaydilar. O‘qituvchilar tomonidan ITKni amalga oshirishning beshta modeli mavjud. Bular LSRW, RSW, LSW, LW va LS. To‘rt o‘qituvchidan biri vaqtni taqsimlash bilan bir qatorda to‘rtala til ko‘nikmalarni birlashtira oldi. O‘qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar talabalarining ingliz tilini o‘rganishdagi motivatsiyasining pastligi, cheklangan vaqt va maktab jihozlari bilan bog‘liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Atta-Alla, M.N. (2012). Integrating language skills through storytelling. *English Language Teaching*, 5 (12), p. 1–13.
- (2). Brown, D.H. (2001). *Teaching by Principles\_ An Interactive Approach to Language Pedagogy* (PDFDrive). Longman Pearson: USA.
- (3). Idaryani, S. (2013). *Integrated Approach in Teaching Learning English*. SELT 2013 Proceeding, Tesol.
- (4). Jing, W. (2006). *Integrating Skills for Teaching EFL Activity Design for the Communicative Classroom*. *Sino-US English Teaching*, 3(12), p. 1–5.
- (5). Wallace, T., Stariba, W.E., & Walberg, H.J. (2004). *Teaching, speaking, Listening and writing*. Switzerland: The International Academy of Education (IAE).
- (6). Oxford, R. (2001). *Integrated Skills in the ESL/EFL Classroom*. France: The Journal of TESOL France.
- (7). Rebecca L. Oxford, D.C. (1994). *Integrating the Language Skills*. *TESL Canada Journal*, p. 257–268.
- (8). Pardede, P. (2019). *EFL Theory and Practice*. *Voice of EED UKI*. English Education Department (EED) Collegiate Forum 2015-2018 (p. 147), Jakarta, UKI Press.

- (9). Richards, J.C., & Schmidt, R. (2002). Longman Language Teaching & Applied Linguistics Edinburgh: Pearson Education Limited.
- (10). Selma Deneme, P.D. (2010, September 9). An Application of Skills Integration in Language Teaching. Retrieved from [www.languageinindia.com](http://www.languageinindia.com):<http://www.languageinindia.com/sep2010/selmascond.html>
- (11). Sugiyono. (2015). Metode Penelitian Bandung: Alfabeta
- (12). Sbai, M.A. (2016). Integrating or Segregating the Language Skills?" That's the Question! <https://www.researchgate.net/publication/339004597>
- (13). Wagner, Betty Jane. (1985). Integrating the Language Arts. In B.J.Wagner, Document Resume (pp. 2–3). Washington, DC.: ERIC Digests.
- (14). Harmer, J. (2007). The Practice of English language teaching. Cambridge: Pearson Longman.

**Sharipova Fazilat Ollaberganovna (UrDU mustaqil izlanuvchisi; e-mail: [sharipova.fazilat83](mailto:sharipova.fazilat83))  
BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI  
MUAMMOSINING PEDAGOGIK ADABIYOTLARDA YORITILISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada biologiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligin qanday yo‘llar bilan oshirish to‘g‘risidagi xorijiy olimlarning olib borgan ilmiy izlanishlari haqida bir qator ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, maqolada o‘qituvchi faoliyatining ma‘lum bir fan sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi maxsus kompetensiyalarning ta‘rifi berilgan, maxsus vakolatlarni shakllantirishga uslubiy yondashuvlar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchisi, xorijiy olimlar, pedagogik mahorat, tarbiya, kompetensiya, ijodiy yondashuv, ilg‘or tajriba.*

#### **ОСВЕЩЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

***Аннотация.** В данной статье содержится ряд сведений о научных исследованиях, проводимых зарубежными учеными по вопросам совершенствования профессиональной подготовки учителей биологии. Также в статье дано определение специальных компетенций, отражающее специфику определенной сферы деятельности учителя, раскрыты методические подходы к формированию специальных компетенций.*

***Ключевые слова:** будущий учитель биологии, зарубежные ученые, педагогическое мастерство, подготовка, компетентность, творческий подход, передовой опыт.*

#### **EXPLANATION OF THE PROBLEM OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE BIOLOGY TEACHERS IN PEDAGOGICAL LITERATURE**

***Annotation.** This article contains a number of information about the scientific research conducted by foreign scientists on how to improve the professional training of biology teachers. Also, in the article, the definition of special competences reflecting the specific characteristics of a certain field of the teacher's activity is given, methodological approaches to the formation of special competences are revealed.*

***Key words:** future biology teacher, foreign scientists, pedagogical skills, training, competence, creative approach, advanced experience.*

**Kirish (Introduction).** Zamonaviy jamiyat globallashtirish jarayonlari, uning hayotining barcha jabhalarida yuqori texnologiyalarning rolini oshirish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar o‘rta va oliy ta‘limning maqsad va mazmunini yangilashda o‘z ifodasini topadi. Ko‘rsatilgan shart-sharoitlar oliy kasbiy pedagogik ta‘lim tizimini o‘zgartirishga olib keldi, bu o‘z mutaxassislik fanlari bo‘yicha malakali, o‘quv jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni ushbu sohada qo‘llash tajribasiga ega bakalavr talabalarni tayyorlashdan iborat [1;11-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** N.M.Verzilin, B.V.Vsesvyatskiy, A.I. Nikishov, V.V.Pasechnik, I.N.Ponomareva, V.P.Solomin, D.I.Traitaka kabi olimlarning asarlari biologiya fanlarini o‘qitish metodikasi sohasida bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy tayyorlash muammolariga bag‘ishlangan bo‘lsa, yana bir qator tadqiqotchilar (L.N.Orlova, M.N.Mironova, L.N.Suxorukova)ning fikiriga ko‘ra, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining mavjud maxsus tayyorgarligi (V.A.Slastenin) o‘rtasida katta farq mavjudligi ta‘kidlab o‘tishgan. Maxsus tayyorgarligi deganda, biologiya o‘qitish metodlarining mazmuni, tamoyillari va unga qo‘yiladigan zamonaviy talablar, tashkiliy-metodik ko‘nikmalar sohasidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan uslubiy tayyorgarlik tushuniladi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolada ilmiy ish tadqiqotning pedagogika fanlar sohasi uchun qo‘llaniladigan qiyosiy tahlil, ilmiylik va xolislik metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** N.B.Gritsay o‘z ilmiy maqolalarida Markaziy va Janubiy Yevropa mamlakatlari oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini metodik tayyorlash mazmuni, shakllari va usullarini tahlil qilish natijalariga asoslanib, bu mamlakatlarda bu borada yetarlicha e‘tibor qaratilmoqda, uslubiy tayyorgarlikka haq to‘lanadi, ya‘ni:

– didaktika oliy o‘quv yurtlarida (o‘qitish metodikasi) biologiya va boshqa uslubiy yo‘nalishdagi kurslarda o‘qitiladi, ularning mazmuni fan va amaliyotning hozirgi holatini aks ettiradi;

– o‘qitishning an‘anaviy va innovatsion shakllari, usullari va texnologiyalaridan keng foydalanish; Ular umumta‘lim maktablarida o‘qitish amaliyotiga, o‘quvchilarni tayyorlashda AKTdan foydalanishga va hokazolarga katta ahamiyat berishi haqida fikir yuritgan [5].

Eng muhim omillardan biridir o‘qituvchining o‘quvchilar ish faoliyatini belgilashi (masalan, Mahler va boshqalar. 2017)dir. Ko‘pchilik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning kasbiy bilimlari o‘qitishning asosiy omili (Abell. 2007; Kunter va boshqalar. 2013) bo‘lib xizmat qiladi. Shulman (1987) taksonomiyasiga ko‘ra, ta‘lim fanlari bo‘yicha kasbiy bilimlarni uchta asosiy jihatga ajratish mumkin: mazmuniy bilim, pedagogik mazmun bilimi va pedagogik bilim [2;6-b.]. Shunday qilib, kasbiy bilimlarning ushbu sohalari va tegishli tomonlari o‘qituvchilarning diagnostika faoliyatida, masalan, talabalarning bayonotlarini yoki yozma faoliyatini baholashda muhim rol o‘ynaydi (Helmke va boshqalar. 2004).

Bugungi kunda ta‘lim tizimining uchta asosiy elementi mavjud bo‘lib, o‘qituvchilar, talabalar va ta‘lim dasturlaridir. Ta‘lim samaradorligi va uning maqsadlariga eng yuqori darajada erishish ushbu elementlar o‘rtasidagi uyg‘unlikka bog‘liq (Rosli va Suiv. 2020). Talaba, o‘qituvchi va ta‘lim dasturi o‘rtasidagi bu uch tomonlama munosabatlar muayyan malakaga ega bo‘lishi kerak. Ulardan birining kerakli malakaga ega emasligi bevosita ta‘lim jarayoniga ta‘sir qiladi. Biroq ushbu uchta elementdan biri bo‘lgan o‘qituvchi elementining qolgan ikkita elementga, talabalar va o‘quv dasturlariga ta‘sir qilish kuchi boshqalardan ko‘ra ko‘proqdir (Yehya. 2020) [10;13-b.].

David Mc Clelland kompetensiyaga asoslangan shaxsni boshqarish yondashuvining asoschisidir [14]. Olim ishlab chiqarish jarayoni xususiyatlarining psixologik aspektlarini o‘rgangan bo‘lib, mutaxassis motivatsiyasini ishlab chiqarish jarayoni va maqsadlari bilan uzviy birlashtirish nazariyasining asoschisi sifatida taniladi.

Tarixiy jihatdan ta‘lim tizimida “kompetentlik” tushunchasining kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishiga nisbatan quyidagi bosqichlar ajratiladi. Birinchi bosqichda (1960–1970-yillar) – ilmiy doiralar va muomalaga “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari kirib keldi va ularning amal qilish qoidalari, qo‘llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor “kompetensiya” atamasi 1965-yilda Massachusetts universiteti o‘qituvchisi N.Xomskiy tomonidan ishlatiladi.

**Ikkinchi bosqichda** (1970–1990) “kompetensiya” istilohining qo‘llanilish doirasi keskin o‘sadi, mazkur so‘z maxsus istilohga aylanadi va biror-bir sohaga oid xususiyatlar jamlanmasini anglata boshlaydi hamda til nazariyasi, menejment, kommunikatsiyalarni tashkil qilishda qo‘llaniladi. J.Raven o‘ziga ilmiy vazifa qilib, zamonaviy jamiyat nuqtayi nazaridan mutaxassislik kompetensiyasi nimaga teng degan masalani qo‘yadi va effektivlikni ta‘minlovchi kompetensiyaning 37 ta komponentini ajratib, ko‘rsatib beradi va ularni “motivatsion qobiliyat”, deb ta‘kidlaydi [5].

**Uchinchi bosqichda** (1990–2001) butun dunyo, MDHda, xususan, Rossiyada “Boloniya deklaratsiyasi” ijro va ta‘lim taraqqiyoti uchun qabul qilindi, ta‘lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalimetrik ko‘rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan “kasbiy kompetentlik” masalasi qo‘yila boshlandi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan, A.K.Markova [10], Y.F.Zeera, A.V.Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqdilar [16].

Kasbiy kompetensiya tushunchasi quyidagi tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan: L.K.Grebenkin, E.F.Zer, I.A.Zimnyaya, I.F.Isayev, I.A.Kolesnikov, N.V.Kuzmin, L.M.Mitin, V.A.Slastenin, A.P.Tryapitsin va boshqalar.

N.D.Andreeva, E.L.Arbusova, A.C.Ermakova, V.A.Kolmykova, E.A.Makarova, L.N.Orlova, V.P.Solomin, P.V.Stankevichning ilmiy-metodik ishlari va boshqalar ta‘limni modernizatsiyalash sharoitida, jumladan, ikki bosqichli tizimga o‘tish davrida biologiya o‘qituvchilari tayyorlash tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan [5;9-b.].

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlili natijasi shuni ko‘rsatdiki, pedagogik ta‘lim bakalavriatini maxsus tayyorlash jarayonida quyidagilar yuqori darajada hisobga olinishi kerak bo‘ladi:

- kompetensiyaga asoslangan yondashuv;

•o‘quv modullarini nafaqat biologiya va ekologiya sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni, balki biologiyani o‘qitish metodikasini ham shakllantirishga yo‘naltirish;

•kasbiy yo‘nalishdagi vazifalarni qo‘llash;

•auditoriya va mustaqil ishning ma‘lum shakllarini amalga oshirish.

A.P.Seyteshev o‘qituvchining psixologik-pedagogik kompetensiyasi sifatida pedagogik faoliyatga yuqori darajadagi professional tayyorgarligi va o‘quvchilarning o‘quv jarayoni bilan samarali o‘zaro munosabati bo‘lgan shaxsning ma‘lum fazilat (xususiyat)lari to‘plamini tushunishni taklif qiladi. Uning asosiy tarkibiy qismlari sifatida psixologiyaning uchta bloki – pedagogik yo‘nalish ko‘rib chiqiladi:

▪ savodxonlik (ya‘ni, umum professional deb atalgan bilim);

▪ o‘qituvchining o‘zi uchun mavjud bo‘lgan bilimlardan pedagogik faoliyatda, o‘zaro munosabatlarni tashkil etishda foydalanish qobiliyati sifatida;

▪ kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar, ularning mavjudligi pedagogik faoliyat jarayonidan ajralmas.

B.T.Kenjebekov mutaxassisning kasbiy mahorati nuqtayi nazaridan kompetensiyani shaxsning funktsional bilimlari, umumlashtirilgan qobiliyatlari va uning kasbiy ahamiyatli shaxsiy fazilatlarini, yuqori darajadagi texnologik samaradorlik, madaniyat va mahorat, ijodiy yondashish majmui sifatida belgilaydi.

Biologiya o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimini yaratishning uslubiy asosi maktab biologiya ta‘limini isloh qilishning tendensiyalari, yetakchi g‘oyalari va yo‘nalishlari, biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashning davlat ta‘lim standartlari va oliy ta‘lim konsepsiyasi va tuzilmasini ishlab chiqish sohasida bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Boshqa ilmiy ish tadqiqotlarda ma‘lum bo‘lishicha, kompetentlik ma‘lum pedagogik faoliyat asosida shakllanadi va insonlarga xos bo‘lgan qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Olima L.V. Golishning olib borgan tadqiqotlariga ko‘ra, raqobatbardosh mutaxassis modeli uchta komponentdan iborat bo‘lib, ular quyidagilardan iboratligi haqida o‘z fikrlarini bildirgan: kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, shaxsning ijtimoiy muhim sifatleri va xususiyatlaridir.

O‘qituvchining kasbiy tavsifini tuzish, unga qo‘yiladigan talablar, ta‘limning maqsad va vazifalari, ta‘lim qoidalari, ta‘lim-tarbiya metodi va metodikasini belgilashda sharqning taniqli qomusiy allomalari va mutafakkirlari katta hissa qo‘shgan. tarbiya, uning qadimiy ildizlari (genezisi). Sharqning buyuk mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Sa‘diy Sheroziy, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabilar birinchi olimlardan bo‘lgan.

Bugungi kunda Respublikamizda ham B.Adizov, A.A.Ahmadov, A.X.Aminov, T.L.Xurvaliyeva, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov kabi olimlar malaka oshirish muammolari va kasbiy kompetensiya masalalari yuzasida ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar [14;15-b.]. Bu olimlar olib borgan tadqiqotlarning maqsadi malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirishni tashkiliy, pedagogik tashxis masalalari va pedagogik masalalari o‘rganilgan.

“O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi tizimining pedagogik-psixologik muammolari” deb nomlangan 2013-yil 10-aprel oyida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada Z.Ismoilova, T.Abdullayev kabi olimlarimiz “Pedagog kadrlar tafakkurini o‘zgartirishning pedagogik-psixologik muammolari”, N.Abdullayeva “Talabalarning ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirish”, O.A.Qo‘ysinov, N.A.Muslimov “Kasb ta‘limi o‘qituvchilarining malakasini oshirish jarayonida kasbiy-ijodiy kompetentligini shakllantirish”, F.Mirzayevaning “Pedagog shaxsning kasbiy tayyorgarligi xususiyatlari”, shuningdek, Q.Olimov, K.Umatliyeva “Развитие профессиональной компетентности педагога” deb nomlangan ilmiy maqola, maqolalaridan boshqa barcha maqolalar o‘qitish texnologiyalari va pedagogikaning an’anaviy ilmiy nazariyalariga bag‘ishlanganligi haqida bir qator ma‘lumotlarni ko‘rish mumkin.

Taniqli pedagog olimi T.L.Xurvaliyeva kasbiy kompetensiya tizimini beshta guruhga ajratib, shunday ta‘rif beradi. “Kompetensiya – bu bilim, ko‘nikma, malaka, qarashlar, individning qadriyati va shaxsiy sifatleri va ta‘sir ko‘rsatish qobiliyati”dir. Olima nazarda tutgan guruhlar quyidagilardan iboratdir:

•pedagogika va psixologiyaga tegishli bilimlarga ega bo‘lish;

•pedagogni o‘z ustida ishlashi;

•pedagog ta‘lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta o‘rnata olish;

•pedagog ta‘lim berayotgan talabalar ehtiyojini anglay olishi;

•har bir pedagog talabalarda motivatsiyani shakllantirish;

•o‘qituvchi ta‘lim muhitiga yangilik kiritishi;

•pedagog o‘z fanini mukammal bilishi kabilardir.

Kasbiy ta'lim tizimi real maqsadi kompetentli mutaxassisini shakllantirish bo'lib, u shaxs kasbiy sifatlarini rivojlantirishini nazarda tutadi. Kasbiy ta'limning shunday shakllantirilgan maqsadi, shu soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan olimlarning fikricha, XXI asr global ta'limining maqsadiga mos keladi. UNESCO bo'yicha XXI asr ta'limi ta'lim olayotgan talabalarning kompetentligini to'rt tayanch asoslarda shakllantirishi lozim: anglashga o'rganish, bajarishni o'rganish, yashashni o'rganish, bo'lishni o'rganishdan iboratdir [6].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi oliy pedagogika maktabi kompetent yondashuv asosida ta'lim jarayoni uchun oliy kasbiy ta'lim davlat standartlari ishlab chiqilgan va joriy qilingan, standartlardan kutiladigan ta'lim natijalari sifatida universal va kasbiy kompetensiyalarga oid bir qator ma'lumotlar belgilab berilgan. Davlat ta'lim standartlarini maqsadi modulli kompetent yondashuvdan iboratdir. Bu esa dars beruvchi talabalarga moslashgan hamda o'quv texnologiyalari, o'quv dasturlari, o'quv rejalari uchun eng muhim vazifasini bajaradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning nazariy va amaliy masalalari, pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari haqida respublikamiz olimlari M.Abdullajonov, B.Adizov, X.Abdukarimov, Sh.Axrorov, U.Begimqulov, R.Djurayev, H.Ibragimov, Sh.Majitova, Sh.Mardonov, N.Muslimov, D.Nasriddinova, M.Mirsoliyeva, Sh.Olimov, B.Rahimov, O.Tolipov, M.Urazova va boshqalar. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi V.Adolf, Sh.Sharipov, I.Zimnyaya, N.Kuzmina, N.Muslimov, A.Qoraboyeva kabi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan.

Olima J.Tolipova darslarni turli tumanlashtirish, noan'anaviy darslar (muammoli munozarali, seminar, konferensiya) o'tkazish o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, puxta bilim egallashlarida, mustaqilligini rivojlantirishda katta rol o'ynashi haqida ma'lumotlar keltirib o'tdi.

Bu borada bo'lajak biologiya o'qituvchilari biologiya fanidan ham noan'anaviy darslar o'tkazishga butun e'tiborini (J.Tolipova, A.T.G'ofurov) qaratdilar. Davlatimiz tabiiy fanlar bo'yicha metodistlari biologiya fanini faqat umumiy metodikasi bilan emas, balki xususiy metodikasi bilan ham izlanishlarni boshladilar (J.Tolipova va boshqalar).

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchilik kasbi tobora murakkab va tez o'zgarib borayotgan axborot jamiyatida ko'plab ko'nikmalarni talab qiladigan kasbdir. Bugungi kunda o'qituvchilar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun, yuqori professional standartlarga ega bo'lishlari kerak. Axborot asrida axborot jamiyatini yaratish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning uzluksiz rivojlanishi zarur. Talabalarda umidlar oshgani sayin, o'qituvchilarda ham umidlar oshadi. O'quvchilarni yaxshi tarbiyalash uchun o'qituvchilar doimo o'zlarini o'rganishlari va takomillashtirishlari kerak. Ta'lim tarixida o'qituvchilarning malakasini oshirish imkoniyatlarini ta'minlashning asosiy maqsadi talabalar muvaffaqiyatga erishishdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, "Adolat", 2017.

(2). Adi W.C., Saefi M., Setiawan, M., Sholehah, N. (2021). The Impact of COVID-19 to Biology Teacher Education: Emergency Distance Learning at Islamic Universities in Indonesia. *Journal of Turkish Science Education*, 18, p. 60–76.

(3). Bezeljak, P., Scheuch, M. & Torkar, G. (2020). Understanding of sustainability and education for sustainability development among pre-service biology teachers. *Sustainability*, 12 (17), 6892.

(4). Burnner M., Anders Y., Hachfeld A., Krauss S. The Diagnostic Skills of Mathematics Teachers. In *Cognitive Activation in the Mathematics Classroom and Professional Competence of Teachers: Results from the COACTIV Project*; Kunter M., Baumert J., Blum W., Klusmann U., Krauss S., Neubrand M., Eds.; Springer: New York, NY, USA, 2013, pp. 229–248; ISBN 978-1-4614-5148-8.

(5). Н.Б.Грицай. Методическая подготовка будущих учителей биологии в странах центральной и южной европы. Вектор науки ТГУ. Серия Педагогика, психология, с. 51–56, № 3 (22).

(6). Djurayev R. Ta'limda innterfaol texnologiyalar. Toshkent, 2010.

(7). Heitzmann N., Seidel T., Opitz A., Hetmanek A., Wecker C., Fischer M.R., Ufer S., Schmidmaier R., Neuhaus B.J., Siebeck M. et al. Facilitating Diagnostic Competences in Simulations: A Conceptual Framework and a Research Agenda for Medical and Teacher Education. *Frontline Learn. Res.* 2019, 7, p. 1–24.

(8). Hoth J.; Döhrmann M., Kaiser G., Busse A., König J., Blömeke S. Diagnostic competence of primary school mathematics teachers during classroom situations. *ZDM Math. Educ.* 2016, p. 41–53.

- (9). Klug J., Bruder S., Kelava A., Spiel C., Schmitz B. Diagnostic competence of teachers: A process model that accounts for diagnosing learning behavior tested by means of a case scenario. *Teach.Educ.* 2013, 30, p. 38–46.
- (10). Маркова А.К. Психология профессионализма. М., “Знание”, 1996, 340 с.
- (11). Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili. Monografiya, T., Yoshlar nash-riyot uyi, 2020, 184-bet.
- (12). Poulou, M. (2007). Personal teaching efficacy and its sources. Student teachers’ perceptions. *Educational Psychology*, 27 (2), p. 191–218.
- (13). Raven J. (1984). Competence in modern society. Its Identification, Development and Release. UK, p. 220.
- (14). Richard E. Boyatzis. David C. McClelland: For the Wiley Encyclopedia of Personality and Individual Differences Volume IV: Clinical, Applied and Cross - Cultural Research. December 5, 2016.
- (15). Tolipova J.O. Innovative technologies in biology teaching. A textbook for students of pedagogical higher education institutions. Tashkent, 2014.
- (16). Хуторской, А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования. “Народное образование”, № 5, 2003, с. 5–62.

**Otaboyeva Xusniya Sharofiddin qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi)**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI BADIY ASARLARNI O‘QITISH ORQALI SHAKLLANTIRISH**

*Аннотация.* Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy asarlar, ularning turlari: ertak, hikoya, doston, masal, rivo-yat, afsona kabilarni o‘qitish va tahlil qilish, bu orqali ularning kitobxonlik madaniyatini hamda og‘zaki nutqini rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan.

**Калит so‘zlar:** ertak, hikoya, obrazlar, ijobiy qiyofa, salbiy qiyofa, voqealar rivoji, badiiy asar, maqol, masal, doston.

**Отабоева Хусния Шарофиддин кизи (Ургенчский государственный Педагогический институт, студентка 3 курса начального образования)**

**ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ ЧТЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ**

*Аннотация.* В данной статье идёт речь об обучении и анализе художественных произведе-ний, таких как сказки, рассказы, былины, притчи, повествования, легенды, которые служат фор-мированию у младших школьников навыков самостоятельного творческого мышления, помогаю-щих развивать посредством этого их культуру чтения, а также устную речь.

**Ключевые слова:** сказка, рассказ, образы, положительный образ, отрицательный образ, раз-витие событий, художественное произведение, пословица, притча, былина.

**FORMATION OF CREATIVE THINKING SKILLS OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN THROUGH READING WORKS OF ART**

*Annotation.* This article is about teaching and analyzing works of art, such as fairy tales, short sto-ries, bylina, parables, narratives, legends, which serve to form the skills of independent creative thinking in younger schoolchildren, helping to develop through this their reading culture, as well as oral speech.

**Key words:** fairy tale, story, images, positive image, negative image, development of events, artwork, proverb, parable, bylina.

**Kirish.** Har bir jamiyatning istiqboli bugun kamol topayotgan bolalar, yoshlar tomonidan bunyod etiladi. Shu sababli yosh avlod tarbiyasini tashkil etish eng muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa sanaladi. U qanday zamon, qaysi makon bo‘lishidan qat’iy nazar, hamisha ushbu vazifaning ijobiy hal qilinishi jamiyat-ning e’tibor markazida bo‘lgan [1;36-b.]. Shunday ekan, yosh o‘quvchilarda Vatanga, ota-onaga hurmat, mehr tuyg‘ularini shakllantirishda badiiy asar o‘qishga undashning ahamiyati kattadir. Badiiy asar o‘qish orqali ularning nutqi rivojlanishi bilan birga, ijodiy fikrlashi va mantiqiy tafakkuri ham o‘ziga boradi. Bugun-gi kunda yurtimizda ham kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlarni o‘qish shaxsda fikrlash, tasavvur, tahlil hamda tafakkur qo-biliyatini shakllantiradi. Natijada jamiyatni har tomonlama taraqqiy etishini ta’minlovchi g‘oyalar shakl-lanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitob o‘qishning shaxsni intellektual, psixologik va fiziologik ji-hatdan rivojlanishiga yordam beruvchi ta’sirlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, kitob o‘qish orqali o‘quvchilarning nutqi rivojlanadi, lug‘ati boyiydi, tasavvuri o‘ziga, tafakkuri rivojlanadi, xoti-

rasi mustahkamlanadi. Jamiyat a'zolarining ong, tafakkur va keng dunyoqarashga ega bo'lishlariga erishishning muhim omili sifatida kitob o'qishni, kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalasini tobora dolzarb-lashishiga olib kelmoqda. Kitob o'qish (kitob mutolaasi) da eng muhim omil – qiziqish sanaladi. Asar su-jetining qiziqarliligi, bayon etish usulining sodda, ravonligi bolalarni kitob o'qishga bo'lgan e'tiborini tor-tadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitob o'qishga majburlash emas, balki ularda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish hamda tizimli ravishda rivojlantirib borish zarur [1;21-b.]. Shun-day ekan, o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini orttirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning butun e'tibori va diqqatini kitob o'qishga yo'naltira olish ham pedagogdan alohida mahoratni va qobiliyatni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy asarlar vositasida o'qish, fikrlash, his etish, ijod qilish ko'nikmalariga ega bo'lib boradi. Badiiy asar bilan tanishish jarayonida yu-zaga keladigan to'rt holat (o'qish, fikrlash, his etish, ijod qilish) muayyan didaktik vazifalarning bajarili-shini ta'minlaydi. Ya'ni, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, atrof-muhit bilan yaqindan tanishib borish; o'z-lashtirilgan ma'lumotlarga tayangan holda, predmet, voqea va hodisalarni bir-biri bilan bog'lash, natijaga ko'ra xulosaga kelish, voqea, hodisalarning ishtirokchilari bo'lgan qahramonlarning ruhiy holatini tushu-nish, unga hamdard bo'lish, uni qo'llab-quvvatlash yoki tanqid qilish (his etish), asar voqea va hodisalarini-ning boshqacha yechimga ega bo'lishini istash, bu boradagi taklifni ilgari surish [1;30-b.]. Ushbu ko'nik-mlarg ega bo'lgan o'quvchi badiiy asarlarni o'qish davomida o'z fikrini erkin va ravon tarzda bayon qilib bera oladi. Asar qahramonlarining ruhiy holat va kechinmalarini ham his qila olishi bilan birga, unda in-soniylik sifatleri shakllana boradi, ya'ni salbiy qahramonga nisbatan nafrat tuyg'usi uyg'onsa, ijobiy qah-ramonga xos mehribonlik, mehnatkashlik, to'g'riso'zlik, kamtarlik, odoblilik kabi bir qancha sifatlariga havas qilgani holda, ularga o'xshashga harakat qiladi. Qiyin vaziyatlarda ham muammolarni oson hal qi-lishga o'rganib boradilar. Bu o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ham ijobiy ta'sir o'tkazib o'z yo'lla-rini topib ketishlariga ko'maklashadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim jarayoni mobaynida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faol-lashtirish bugungi kunda maktab oldiga qo'yilgan muhim talablardan biri hisoblanadi. Shaxsni har tomon-lama rivojlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyati, faolligini oshirish kabi muhim vazifa darsda faollik prinsipini muvaffaqiyatli qo'llash darajasi bilan uzviy bog'langan.

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarini ertak, rivoyat va afsonalarsiz tasavvur qilib bo'l-maydi. Ertak va rivoyatlar o'qilishi jarayonida bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otishi bilan birga, pok-lik tuyg'ularini anglatib, ezgu orzular olamiga yo'lni ko'rsatadi. Aqlni, fahm-farosatni charxlab, tasavvurni boyitib boradi. Shu bilan birga, ertaklar o'quvchilarni qadriyatlarimizni hurmat qilishga, qadrlashga o'rga-tib, ularning shaxs sifatida ma'naviy qiyofasining shakllanishiga sabab bo'ladi. "Ayniqsa, darsda o'quvchi-larni faolligini oshiradigan ruhiyatlarini shakllantiradigan, tasavvurlarini boyitadigan usullardan foydala-nish, asarlarni janr tabiatidan kelib chiqib rollarga bo'lib o'qitish, qahramonlar nomidan qayta hikoya qilish, qahramonning taqdiri haqidagi hikoyani davom ettirish, qiziqarli mavzularda og'zaki hikoya tuzdirish kabi ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir" [1;709-b.]. Albatta, bu jarayonda qiziqarli va ijo-diy topshiriqlardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada osonlashtiradi, o'quvchilarning faolligi ham ri-vojanib boradi.

**Tahlil va natijalar.** Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, fik-ri, xarakteri, tasavvur va tushunchasi, idrok etish qobiliyati, irodasi, qiziqishi faolligi kabi ruhiy holatlarini o'rganishni taqozo etadi. Shunga ko'ra afsona va rivoyatlar o'quvchilarni ruhiyatini o'stirishga xizmat qila-di Vatan haqidagi tasavvurlarini boyitib boradi. Bola 1-sinfga kelganida, taxminan, 1300, 1400 atrofida so'z boyligiga ega bo'ladi. Maktab ta'limi, o'qituvchilarning pedagogik mahorati bilan unga har kuni 5–6 ta ya-angi so'z o'rgatiladi, bu so'zlar uning lug'atidan joy olishi hamda mustahkamlanishi kuzatilib boriladi.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda, uning ruhiyati shakllanishida afsona va rivoyatlarning sa-marasi kuchli bo'ladi. O'quvchilar bilimini rivojlantirish va uning nufuzini oshirishda pedagogik, metodik va psixologik tamoyillarga amal qilib, har bir o'qituvchi o'z konsepsiyasiga ega bo'lishi va tizimli ravishda bolalar ona tili o'qitishning eng ma'qul uslublarini qo'llash orqali ko'zda tutgan maqsadiga erishishi aniq. O'qituvchi bolalar ruhiyatini chuqur o'rganib, ularning har biriga o'ziga xos munosabatda bo'lish, nutqida tasviriy vositalarni ishlatishga o'rgatishni taminlash kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy ta-blardan biri ilg'or pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdir. DTSdan kelib chiqib, "Shiroq" afsonasini o'quvchilarga o'rgatishda aqliy hujum metodidan foydalanib, savol, javoblar o'tkazamiz bu esa o'quvchilarning ruhiyatini takomilla-shishida yaxshi natijalarga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, ta'limdagi muvaffaqiyatni belgilaydi.



Dunyo ta'lim tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yangi islohotlar davrida ta'lim tajribalariga tayyib ish tutmoq yaxshi natijalarga olib keladi. Iqtisodiy qudrati jihatidan Yaponiya jahonda Amerika Qo'shma Shtatlaridan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Jahonning ko'zga ko'ringan ruhshunoslari va iqtisodchilari Yaponiya rivojlanishidagi bu ulkan parvozni mamlakatda ta'lim tizimlari taraqqiyotiga berilgan yuqori darajadagi e'tibor samarasi, deya qayd etadilar. Turli ta'lim ko'nikmalarini bolalar ongiga singdirish, milliy tarbiyani esa boshlang'ich ta'limda shakllantirish, yaponlarga xos fazilatdir. Masalan, 2-sinf o'quvchisi ko'pchilik oldida nutq so'zlash qobiliyatiga ega bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchisi suvda bemalol suza olishi kerak. Shu bilan birgalikda, bolalar milliy qahramonlarini ham yaxshi bilmog'i zarur. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilari afsona va rivoyatlarni ham o'zlashtirmog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy tarbiyasi shakllanishida ham afsona va rivoyatlarning o'rni beqiyosdir. Masalan, "Shiroq" afsonasida vatanparvarlik, jasurlik, insoniylik olg'a suriladi. Bu asosda bolalar ruhiyati takomillashadi. Afsonalarimizni bolalarga o'rgatishda har xil ilg'or vositalar asosida dars jarayonini olib borsak, maqsadga erishamiz [2;710-b.]. Bu kabi afsona va rivoyatlarning o'quvchi ma'naviyatiga ta'siri yuqori bo'lib, insoniylik ruhida tarbiyalanib boradilar.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, badiiy asarlar vositasidagi ertaklardagi o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alar o'quvchilarning tafakkur va tasavvur olamini boyitadi. Kichik o'quvchilarga har qanday matnni to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qishga o'rgatish ularda asarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilar ijodiy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Voqealar rivojini ochishga, asardagi yetakchi qarashlarni bilib olishga, ular haqida mulohaza yuritib, oq va qorani, to'g'ri va noto'g'rini, halol va haromni farqlashga, o'z ma'naviyatining sog'lomlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). D.A.Muminova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Namangan, 2019, 170-bet.
- (2). Begmatov Azizbek Tursunbayevich. Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili. Qo'qon, 2022.
- (3). "Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari" mavzusidagi seminar trening materiallari. T., 2002.
- (4). Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish: muammolar va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari. Toshkent, 2014.
- (5). Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T., TDPU, 2000.
- (6). Jumayev M.E., Yuldasheva M.Y., Mingbayeva B.U. Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi. O'UM, Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM, 2017.

**Umarova Ra'noxon (Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);**

**E-mail:fartunaboy4@mail.ru)**

### **TA'LIM JARAYONIDA ABOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH–BUGUNGI KUN ZARURATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlanish darajasi, asosan, yuqori sinflarda amalga oshirish, o'quvchilarda intellektual faoliyat ko'nikmalari bir qadar shakllantirish, muntazam holatda nimanidir qurish, yaratish, loyihalashga qaratilgan. Muallif vaziyatni tahlil qilar ekan, o'z navbatida, shaxsiy qarashlari va fikr-mulohazalari bilan ham o'rtoqlashadi.

**Kalit so'zlari:** ta'lim, ta'lim siyosati, axborot axborotlashtirish, axborot-texnologiyalari, internet, multimediya resurslari, kasbiy omilkorlik, o'quv-laboratoriya jihozlari, malaka, dastur, masofaviy ta'lim.

#### **СОВРЕМЕННАЯ ПОТРЕБНОСТЬ В РАЗВИТИИ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ**

**Аннотация.** Данная статья направлена на развитие интеллектуального потенциала учащихся в системе образования нашей страны преимущественно старших классов, формирование у учащихся навыков интеллектуальной деятельности, регулярного строительства, создания, проектирования чего-либо. Анализируя ситуацию, автор, в свою очередь, делится своими личными взглядами и мнениями.

**Ключевые слова:** образование, образовательная политика, информатизация информации, информационные технологии, интернет, мультимедийные ресурсы, профессиональное агентство, учебно-лабораторное оборудование, квалификация, программа, дистанционное образование.

## TODAY'S NEED FOR THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Annotation.** *This article is aimed at developing the intellectual potential of students in the education system of our country mainly in high classes, forming intellectual activity skills in students, regularly building, creating, designing something. Analyzing the situation, the author, in turn, shares his personal views and opinions.*

**Key words:** *education, educational policy, information informatization, information technologies, Internet, multimedia resources, professional activity, training-laboratory equipment, qualification, program, distance education.*

**Kirish.** Respublikamiz ta'lim tizimida sifatni oshirish, bu borada uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblangan umumta'lim maktablari o'quvchilarining o'quv-tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, o'quvchilarga qisqa vaqt ichida mazmunli va foydali bilim berish, muayyan faoliyat yuzasidan turli ko'nikma hamda malakalarni hosil qilish, ijodiy, aqliy jihatdan intellektual salohiyatni egallashlari borasida muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyat ta'lim sohasiga yangiliklar joriy etish, yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash zamon talabiga aylanmoqda. Ayniqsa, axborotlashgan muhitda umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalalari muhim o'rin tutmoqda. Bu esa ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik va metodik xususiyatlarini aniqlashtirish hamda metodik jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha: yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" deb e'tirof etilgan. Sifatli ta'limni tashkil etish, pedagog va o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini yuqori darajada rivojlantirish, ta'lim jarayonini modellashtirishning muvaffaqiyatli yo'nalishlarini belgilashda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni talab etmoqda.

Ta'limni axborotlashtirish bu, birinchi navbatda, global zarurat bo'lib, uning maqsadi global tizimlar orqali ma'lumot yig'adigan, ishlaydigan, ishlab chiqaradigan va tarqatadigan mikroelektronika, mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanishga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Bunday texnologiyalardan foydalanishning jadal rivojlanishi, ta'lim sifatini oshirishga qo'llanilishi va innovatsion yondashuvlarning ta'limga ta'siri natijasida ta'lim tizimi bo'g'inlarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yuzaga keldi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Umuman olganda, oxirgi yillarda pedagogik adabiyotlarda "Ta'limni axborotlashtirish", "Axborotlashgan ta'lim" yoki "Axborotlashgan ta'lim muhiti" kabi tushunchalar juda keng foydalanilmoqda. Bu esa ta'limni axborotlashtirish o'qitish sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlanmoqda. Ta'limni axborotlashtirish muhitida axborot-inson tizimida bir qator o'zaro ta'sir, mutanosiblikni keltirib chiqaruvchi psixologik jarayonlar yuzaga keladi. Psixolog olimlardan E.G'oziyev tadqiqotlarida axborotlarni inson omiliga ta'sirini ochib bergan bo'lsa [3], O.Sokolova ta'biriga ko'ra, "Axborot muhiti – bu dasturiy, texnik, tashkiliy-metodik vositalar majmui yordamida ta'limiy, ilmiy aloqalarni, axborotlardan tezkorlikda foydalanishni ta'minlaydigan, axborotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshiradigan faoliyatning bir sohasi" [4]. A.Andreev tadqiqotlarida "Axborotlashgan ta'lim muhiti bu pedagogik tizim va uning ta'minoti birligi bo'lib, moliyaviy, iqtisodiy, moddiy-texnik, me'yoriy va marketing boshqaruvining quyi tizimidir"[5], deb ta'kidlab o'tadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli xil ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, u "raqamli jamiyat" deb nomlangan jamiyatning rivojlanishiga turtki bo'ldi. "Raqqamli jamiyat" tushunchasi bugungi kunga kelib, eng muhim tushunchalar qatoridan joy oldi. Raqqamli jamiyatning barqarorligi inson taraqqiyotini rag'batlantiruvchi demokratik qadriyatlarga asoslanadi, masalan, ma'lumotlar, bilimlarning erkin almashinuvi, o'zaro bag'rikenglik va boshqalarning xususiyatlariga hurmat munosabatlarini ta'minlaydi. Ijtimoiy guruhlarning sifat ko'rsatkichlari ma'lumot darajasi, intellektual qobiliyat kabi parametrlar nuqtayi nazaridan yaxshilanadi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tahliliy natijalardan kelib chiqib, "ta'lim tizimining barcha bosqichlarida qog'oz shaklidagi materiallarni raqqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qo'llab-quvvatlash hamda huddi shunday yondashuvga ko'ra, mavjud o'quv jarayonini raqqamlashtirish doirasini mutta-

sil kengaytirib borish lozim”.<sup>1</sup>

Bugun hayotimizning barcha jabhalariga axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo‘liga o‘tgan jamiyat hayotiga ham katta o‘zgarishlar olib kirmoqda. Zero, bu o‘zgarishlarning asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari tashkil etadi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishning rivojlanishini axborotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Axborot maydoni jamiyat hayotiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun axborot fan va ijtimoiy hayotning eng muhim sohalaridan biriga aylandi. Undan samarali foydalanish yo‘llari va imkoniyatlarini topish jamiyat taraqqiyotining barcha sohalari, ayniqsa, ta‘limning zaruriy asosini tashkil qiladi. U inson tafakkuriga turli yo‘nalishlarda ta‘sir etuvchi, insoniyatning hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh ijobiy, goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi. Ta‘limni axborotlashtirish shu sohada tub o‘zgarishlar imkoniyatini beradi. O‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali ta‘lim tizimida ularning barkamollik qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, davlat ta‘lim standartida berilgan talablarning to‘laqonli bajarilishini intensivlashtiradi. AKTdan foydalanish o‘quvchilarda ijtimoiy mas‘uliyatlilikning ham rivojlanishini taqozo etadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa sifatida aytish joizki, aynan ta‘limning axborotlashtirilishi uning modernizatsiyalashuviga, o‘quv sifatini ta‘minlash hamda o‘quvchilar qiziqishi va intellektual salohiyatini oshishiga keng sharoit yaratadi, deb hisoblash mumkin. Ta‘limni axborotlashtirish sharoitida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishdan asosiy maqsad jamiyatga zamonaviy fikrlaydigan, yangi g‘oya va ixtirolar yaratishga qodir, intellektual zakovatga ega bo‘lgan kadrlar zarur bo‘lib, bu masala, albatta, maktab tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Jamiyat talab etayotgan yoshlar, avvalo, maktab ta‘limida shakllantirilishi lozim. Buning uchun umumiy o‘rta ta‘limni zamonaviylashtirish, dunyo tan olgan ta‘lim yutuqlaridan maktab tizimida foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish asosiy vazifa hisoblanadi. Ta‘lim jarayoniga axborot texnologiyalarini rivojlantirish bu jamiyat uchun zamonaviy fikrlaydigan, yangi g‘oya va ixtirolar yaratishga qodir, intellektual zakovatga ega bo‘lgan kadrlar zarur bo‘lib, bu masala, albatta, maktab tizimi bilan uzviy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Jamiyat talab etayotgan yoshlar, avvalo, maktab ta‘limida shakllantirilishi lozim. Buning uchun umumiy o‘rta ta‘limni zamonaviylashtirish, dunyo tan olgan ta‘lim yutuqlaridan maktab tizimida foydalanish, yangi axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish asosiy vazifa hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиялари. Т., „Ўзбекистон“, 2021, 464-бет (174–176-бетлар).
- (2). Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиялари. Т., „Ўзбекистон“, 2021, 464-бет (190–191-бетлар).
- (3). G‘oziyev E. Umumiy pedagogika. Darslik, T., 2002, 238-бет.
- (4). Современные информационно-образовательные среды. P-lib.ru-Библиотека для студента. <http://www.p-lib.ru/pedagogika/andreev/andreev9.html>
- (5). Андреев А.А., Рубин Ю.Б., Титарев Л.Г. Кафедра в системе открытого образования. Материалы конференции “Образование в информационную эпоху”. М., МЭСИ, 2001, с. 90–100.

**Xajiyeva Maqsuda Sultonovna (Urganch davlat universiteti, Pedagogika fanlari doktori, professor);**

**Raximova Gularo Ibragimovna (Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi)**

#### **SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIYNING USTOZ ODOBIGA DOIR AXLOQIY-TARBIYAVIY QARASHLARINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI**

***Annotatsiya.** Maqolada Shihobuddin Suhravardiy milliy axloqiy merosi, uning “Avorif ul-maorif” asaridagi ustoz odobiga doir axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini bugungi kun yoshlari tarbiyasi uchun ahamiyatli jihatlari, islom tasavvufi yo‘nalishlaridan biri Shihobuddin Umar Suhravardiy nomi bilan bog‘liq “Suhravardiya” tariqati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ishroq, axloq, odob, tafakkur, diniy-falsafiy tafakkur, so‘fiylik, Avorif ul-maorif, ilohiy-falsafa, Misbah ul-hidaya va miftoh ul-kifoya, muzey-qo‘riqxonona, tasavvuf tariqati, zohidlik, sunniylik, al-Kabou, suhravardiya.*

#### **ЗНАЧЕНИЕ ЭТИЧЕСКИХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ВЗГЛЯДОВ ШИХАБАДДИНА СУХРАВАРДИ НА ПРОФЕССИОНАЛИЗМ УЧИТЕЛЕЙ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ**

***Аннотация.** В статье рассматривается национальное нравственное наследие Шихабуддина Сухраварди, его морально-воспитательные взгляды на нравственность учителя в произведении*

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегиялари. Т., „Ўзбекистон“, 2021, 464-бет (190–191-бетлар).

“Авориф уль-маориф”, значимые для воспитания современной молодежи аспекты, секта “Сухравардия”, связанная с именем одного из направлений исламского мистицизма Шихабуддина Умара Сухраварди.

**Ключевые слова:** ишрак, мораль, манеры, мышление, религиозно-философское мышление, суфизм, Авориф аль-маариф, богословская философия, мисбах-хидая и мифтах-уль-кифая, музей-заповедник, суфизм, аскетизм, сунниты, аль-кабаир, Сухравардия.

## THE SIGNIFICANCE OF SHIHABADDIN SUHRAWARDI'S ETHICAL AND EDUCATIONAL PERSPECTIVES ON TEACHER PROFESSIONALISM IN YOUTH EDUCATION

**Annotation.** The article examines the national moral heritage of Shihabuddin Suhrawardi, the significance of his moral views in the work “Avorif al-Maarif” for the education of modern youth, as well as the “Suhrawardiya” sect associated with the name of Shihabuddin Umar Suhrawardi, one of the directions of Islamic mysticism.

**Key words:** behavior, morals, manners, thinking, religious-philosophical thinking, Sufism, avorif al-maarif, theological philosophy, misbah-hidaya and Miftah ul-kifaya, museum-religion, sufism, asceticism, sunni, al-kabair, suhrawardia

**Kirish.** Ta’lim jarayoni ko’p qirrali xususiyatga ega bo’lib, uning asosini o’qituvchi, ya’ni, ustoz va talaba, shogird o’rtasidagi munosabat va muloqot tashkil qiladi. Shu o’rinda ustoz va shogird munosabatlarning axloqiy tamoyillarga binoan shakllanganligi, ularning muomala madaniyati, saviyasi, shu bilan bir qatorda, bilim darajasi kabi omillar ham sifatli ta’lim berishning muhim shartlari hisblanadi. O’zbek xalqi mentalitetidagi ustoz va shogird munosabatlari G’arb xalqlaridan keskin farq qiladi, chunki milliy madaniyatimizda ustozga qadriyat sifatida qarash, uning hurmatini joyiga qo’yish yuksak axloq belgisidir. Bu azal-azaldan to hozirgi kungacha avloddan avlodga o’tib kelayotgan muqaddas axloqiy kodeks hisoblanadi desak, mubolag’a bo’lmaydi. Zero, “Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini yanada kuchaytirish, talaba yoshlarning qalbi va ongiga milliy istiqloq g’oyasini, xalqimizning yuksak ma’naviyati va insonparvarlik an’analariga sadoqat tuyg’usini chuqur singdirish, biz uchun mutlaqo yot va begona bo’lgan g’oyalarga nisbatan ularda mustahkam immunitet va tanqidiy munosabatni shakllantirishda tarixiy ma’lumotlardan o’z o’rnida foydalanish maqsadga muvofiqdir”.

Ustoz va shogird munosabatlari pedagogika tarixiga oid mutafakkirlarning ijodidan chuqur o’rin olgan bo’lib, bu fikrimiz Shihobiddin Suhrawardiyini ham chetlab o’tmaydi. O’zining “Avorif ul-maarif” asarining ilk boblari aynan shayx va murid odob-axloqi, tarbiyasi masalalariga qaratilgan bo’lib, bu bugungi kundagi ustoz-shogird munosabatlarini muqobil yo’lga qo’yishda xizmat qilishi mumkin. Mazkur imkoniyatga asoslanib, ushbu bobda Shihobiddin Suhrawardiy asarlaridagi pedagogik, tarbiyaviy-axloqiy qarashlarning aks etishiga asosiy e’tibor qaratishni maqsad qildik.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Mutafakkirning asosiy asarlarida biri “Avorif ul-maarif” kirish va 63-bobdan iborat bo’lib, mazkur asarda so’fiylik ilmining paydo bo’lish sabablari va afzalliklari, uning qalb poklanishiga ta’siri (tasfiyat al-qalb), so’fiylik ilmlarining fazilatlarini tahlil qilindi (1–4-boblar), tasavvufning mohiyati va bu tushunchaning etimologiyasi, so’fiy nisbati kimlarga berilishi, mutasavvuf va mutashabbehlar haqida so’z boradi (5–9-bob); so’fiy shayxlari haqida tushuntirish beriladi (10–15-boblar), so’fiylarning safardagi majburiyatlari, ularning safardan kelish, rabotga kirish va undagi odob borasidagi masalalar ko’rib chiqiladi (16–18-boblar), mutasabbib so’fiylar bayon qilinadi, yolg’iz hayot kechiruvchi va turmush qurgan so’fiylar haqida so’z boradi (19–21-boblar); samo va uning qoidalarini tasvirlanadi (22–25-boblar); so’fiylar chillasining tartiblari beriladi (26–28-boblar); so’fiylarning axloqi (29–30-boblar); xulq-atvor, dinga kirish, tahorat, namoz, ro’za, uxlash va uyg’onish, kiyim-kechak va ovqatlanish qoidalari (31–43-boblar); so’fiylarning liboslari, tungi ibodat, kunduzi qilinadigan amallar ko’rib chiqiladi (44–50-boblar). Murid va shayxning odobi (51–52-boblar), suhbat qurish odobi (53–56-boblar), so’fiylarning mukoshafasi, xotirasi, o’y-fikrlar (56–61-boblar), shuningdek, so’fiylik atamalariga sharhlar va xulosalar berilgan (62–63-boblar).

Asar mazmunidan kelib chiqadiki, Shihobiddin Suhrawardiy tasavvufning amaliy jihatlariga alohida e’tibor bergan. U tasavvufiy yo’ldan borgan “sayohatchi”larning (so’fiylarning) xulq-atvori va bilim olish jarayonini islom fiqhi asosida sinchiklab tahlil qiladi, o’z fikrlarini Qur’on oyatlari, turli so’fiylarning ibratli hikoyalari va so’zlari bilan mustahkamlaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Bugungi kunda jamiyatimiz hayotining muhim sohalarida ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy o’zgarishlar keng ko’lamli ijtimoiy munosabatlarga, jumladan, oliy ta’limi tizimidagi munosabatlarga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Bir tomondan, bu munosabatlar zamonaviy mehnat bozorining qat’iy talablari, mutaxassislarining yuqori raqobat-

bardoshligi bilan belgilansa, boshqa tomondan, o'qituvchilarning o'z kasbiy qobiliyatlarini oshirish, ijodiy mahoratini samarali namoyon etish uchun muhim shartlarni yaratadi. Pedagogik tadqiqotlardan ma'lumki, kasbiy rivojlanish dinamikasi ko'p jihatdan shaxslararo munosabatlarning tabiatiga bog'liq. Oliy ta'lim tizimida ta'lim jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlarga kirishishini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning kasbiy hamda shaxsiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Aynan o'zi ta'lim olgan muhitdan, o'qituvchining madaniyati, o'zini tutishidan kelib chiqib, talabalarda, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyat asoslari shakllanadi. Shu sababli pedagogik ta'lim tizimida nafaqat mutaxassislik bo'yicha zarur bilimlar, balki tarbiyaviy-didaktik munosabatlarning, pedagogik muloqot haqidagi bilimlarning o'rgatilishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishda, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ijtimoiy, kasbga yo'naltirilgan, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda professor-o'qituvchilar va talabalarning munosabatlari axloqiy-tarbiyaviy tamoyillarga asosan tashkil qilinishi lozim.

Bu borada amalga oshirilgan ishlar ko'pchilikni tashkil qiladi, shu jumladan, pedagogika universiteti o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi kollegial munosabatlarning muhim xususiyatlarini keltirib o'tamiz, ularga:

- kasbiy va pedagogik yo'nalganlik;
- ikki tomonlama xarakterga egalik;
- funktional-rolli pozitsiya;
- integrativlik;
- ko'p subyektivlik;
- personifikatsiya (shaxslashtirish);
- dialogiklik kabilar mansub bo'ladi.

Muallif kasbiy va pedagogik yo'nalish asosini ochib berishda ushbu turdagi munosabatlarning obyekti, ya'ni o'qituvchilik kasbining mohiyatiga e'tibor qaratsa, uning ikki tomonlama xarakterga egaligini bu turdagi munosabatlarning o'qituvchilar va talabalar tomonidan teng ravishda amalga oshirilishi bilan izohlaydi. Talaba va o'qituvchining funktsional-rolli pozitsiyasi ularga berilgan muayyan vazifa va rollarni bajarishda namoyon bo'lsa, integrativlik omili shaxslar guruhi munosabatlarning ta'lim jarayoniga, shu jumladan, sinfdan tashqari ishlarning turli shakllariga integratsiyalashuvida aks etadi. Bundan tashqari, mazkur munosabatlarda ikki yoki undan ortiq subyektlarning faol munosabatlari, shuningdek, personifikatsiya orqali ta'lim jarayoni ishtirokchilarning yoshi, jinsi, irqi bilan bog'liq individual xususiyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limda markaziy o'rinni egallovchi subyekt – o'qituvchi shaxsi bo'lib, uning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda insoniy fazilatlarini rivojlanganligi ham ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi. Mazkur adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, pedagogik qobiliyatlar tarkibida muloqot jarayoni o'qituvchi va talabalar o'rtasida ijobiy munosabatlarni o'rnatishga imkon beruvchi kommunikativ qobiliyat sifatida ajralib turadi. Aynan o'qituvchi xulq-atvoriga doir tadqiqotlarda o'qituvchining nutqi, hissiy nazorat qilish qobiliyati [5], o'qituvchi xulq-atvorining ekspessivligi, kasbiy xulq-atvori, nizoli vaziyatlarda o'zini boshqara olish qobiliyati kabi masalalar markaziy o'rinni egallashi ma'lum bo'ldi.

O'zbek olimlari ham o'qituvchi shaxsi, uning xulq-atvori, axloqiy xususiyatlari masalasini e'tibordan chetda qoldirishmagan. Mazkur masalaga yo'naltirilgan ishlarda bo'lajak o'qituvchilarning muloqot qobiliyatlarini oshirish, ularda pedagogik odob xususiyatlarini rivojlantirish, o'qituvchi nutqi madaniyati, ta'lim jarayonida muloqotning ahamiyati, shaxslararo munosabat madaniyati, ma'naviy-axloqiy tayyorgarligi kabi jihatlar tahlil qilingan. Shu o'rinda shuni ta'kidlashimiz lozimki, mazkur tadqiqotlardagi yondashuvlarda, asosan, innovatsion, zamonaviy metod va metodikalardan foydalaniladi. Buning asosiy sababi esa zamonning keskin rivojlanib borishi natijasida yuzaga kelgan pedagogik talablardir. Biroq mazkur kontekstda, shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozimki, asl pedagogik munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z ketganda, Sharq mutafakkirlarining mazkur sohaga qo'shgan hissalarini e'tirofga loyiqdir. Chunki Sharq mutafakkirlari va buyuk allomalarning ustoz va shogird o'rtasidagi munosabatlar, ularning odobi, tarbiyasi va madaniyati haqidagi qarashlari bugungi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu esa, bir qator ishlarda o'z aksini topgan. Haqiqatan ham, muqaddas hadislarimizda, Sharqning buyuk allomalari Rudakiy, Koshifiy, Forobiy, Ibn Sino, Sadiy Sheroziy, Alisher Navoiy, Beruniy, Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovuslarning asarlarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi umumiylik, bu ularda ustoz-shogird munosabatlari va axloq-odobi masalalarining qamrab olingaligidir.

Shihobiddin Suhravardiyning bir qator asarlarida ustoz-shogird munosabatlari "ustoz-shogird" munosabatlari asosida yoritib berilganini ko'rishimiz mumkin.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Suhravardiyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlarini o'qitishni differentsiatsion, konstruktiv, reflektiv ta'lim tamoyillari asosida ta'lim jarayoniga nisbatan qiyosiy va invariant tatbiq etishda diagnostik, integrativ, inkremental ta'lim yondashuvlaridan foydalanilishi o'z samaradorligini ko'rsatdi.

Inkremental ta'lim termini murakkab mavzularni o'qitishni bosqichma-bosqich o'rganishda mavzu qism va bo'laklarga ajratishi nazarda tutuvchi metodologiya bo'lib, uning birinchi bosqichda, mavzuga oid eng asosiy va oddiy, tushunish uchun oson bo'lgan tushunchalar o'rgatiladi, ikkinchi bosqichda o'z ichiga dastlabki bosqichdagi asosiy konsepsiyalarni olgan, shu bilan birga, ulardan ancha murakkabroq bo'lgan tushunchalar taqdim qilinadi, uchinchi bosqichda esa eng murakkab va qiyin bo'lgan tushunchalar o'rgatiladi, bu bosqich yuqoridagi barcha ta'kidlangan konsepsiyalarni o'z ichiga olishi bilan birga, ularni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi.

**Kalit so'zlar:** Shadowing texnikasi, gapirish ko'nikmasi, talaffuz qilish, ravonlik, bir-biriga mosligi.

Эсанова Севара Сироджиддин кизи (Узбекский государственный университет мировых языков,  
студентка 4 курса; sevaraesanova0326@gmail.com),

Рахманова Махфуза Сапаралиевна (Узбекский государственный университет мировых языков,  
старший преподаватель; makhfuza.77@gmail.ru)

## УЛУЧШЕНИЕ РАЗГОВОРНЫХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ УРОВНЯ B2 С ПОМОЩЬЮ ТЕХНИКИ “SHADOWING” (ИМИТИРОВАНИЯ РЕЧИ НОСИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА)

**Аннотация.** В статье подчеркивается эффективность применения техники в качестве метода разговорной практики для улучшения разговорных навыков студентов английского языка B2. Цель статьи: "Shadowing" предполагает одновременное прослушивание и повторение слов и фраз носителя языка. Этот метод особенно полезен для студентов уровня B2, которые пытаются улучшить свои разговорные навыки. Он также предлагает стратегии реализации этой техники, включая выбор качественных аудиоматериалов, подходящие подходы к подражанию, регулярные практические занятия, механизмы обратной связи и мониторинг прогресса. Внедряя технику дублирования, можно ускорить приобретение навыков разговорной речи на английском языке.

**Ключевые слова:** техника слежения, разговорные навыки, произношение, беглость речи, совместимость.

**Introduction.** Shadowing is a powerful technique that can help intermediate level learners enhance their speaking skills. By mimicking native speakers and imitating their speech, learners can improve their fluency and confidence in speaking.

In this article, I will explore the benefits of implementing shadowing in language learning and provide practical tips for incorporating this technique into your daily practice routine. I will also discuss how



shadowing can help you overcome common speaking challenges, such as hesitancy, lack of natural flow, and difficulty with pronunciation.

Whether people are learning a new language for travel, work, or personal enrichment, shadowing can be a valuable tool for accelerating your progress and taking your speaking skills to the next level. Additionally, I will give a guidance how to use it.

**Literature review.** The literature on implementing shadowing as a technique to enhance the speaking skills of intermediate level learners in a target language is relatively limited, but there are some studies and articles that provide insight into its effectiveness.

One study by Hashimoto, K., & Masuda, T. (2015) examined the impact of shadowing on the pronunciation skills of intermediate English learners. The researchers found that shadowing helped improve learners' pronunciation accuracy and fluency by providing them with real-time practice in producing target language sounds and rhythms [1].

In another study by Lee, S., & Park, J. (2017), the researchers investigated the effects of shadowing on the development of speaking skills in intermediate Japanese learners of English. They found that participants who engaged in shadowing activities showed improvements in their speaking fluency, pronunciation, and intonation compared to those who did not practice shadowing [2].

Additionally A., Yoshioka Y. (2018) discussed the benefits of shadowing as a speaking practice technique for language learners. Brown highlighted how shadowing can help learners mimic native speakers' pronunciation and intonation patterns, improve their listening skills, and enhance their overall speaking proficiency.[3]

Overall, the existing literature suggests that implementing shadowing as a speaking practice technique can be effective in enhancing the speaking skills of intermediate level learners in a target language. However, more research is needed to explore the long-term effects of shadowing on speaking proficiency and to identify best practices for incorporating shadowing into language learning curricula.

**Research Methodology.** The target participants of this study were intermediate level students who were enrolled in an IELTS course in Everest educational center. They were learning English as a foreign language and their speaking was not very good. In order to make their speech better, instructor Mr. Shakhzod, teacher and the author of this article did shadowing practice. Out of 23 enrolled students, 19 agreed to participate in this study. There are more females (n = 15) than males(n=4).The majority of the participants were majoring in teaching English as a foreign language(students from UzSWLU)(n=11)and more than half learnt as a another purpose(n = 8).With regard to previous experience in shadowing practice before this study, one third of the participants(n=6) had experienced shadowing in the previous lessons, while two-thirds (n =13 ) had never engaged in shadowing before this study.

Research questions

How does shadowing help to improve speaking skills?

What benefits can intermediate level learners gain from practicing shadowing?

Do you believe that shadowing can help students with pronunciation and intonation in a second language?

**Analysis and results.** By imitating someone else's speech, students focused on the sounds of the language.

There are steps taken by the author. She select a model (a short 5 minutes of video) native speaker-Emma Watson's speech. Then students listened carefully by reading scripts of this video. Before students start shadowing, they should listen to the audio at least once to get used to the speaker's accent, rhythm and intonation. It's not a problem if your learners don't understand every word.

Practice shadowing step was a little bit challenging to begin with, but students tried to repeat what the speaker said as quickly and as accurately as possible. They started by doing 20–30 seconds when they got stuck, just stopped the audio and started again. They tried to mimic the speaker's voice.


After that, they were asked to record their speech. Once they had practiced and they felt more confident. Finally, they listened back to the recordings and compared their speech to the original audio.

Shadowing feedback: Then, Teacher Shakhzod Salaydinov began checking their speaking and all participants were provided with feedback. Participants were really satisfied with shadowing performance.

Survey questionnaire for participants

From answers of participants, it is clear that most participants agree partially and completely shadowing helps their speaking, intonation, fluency, coherence and grammar by imitating native speakers.

## Название диаграммы



### Conclusion.

Implementing shadowing as a language learning technique can be highly beneficial in enhancing speaking skills. Shadowing helps learners to improve their pronunciation, fluency, intonation, and overall speaking confidence by mimicking native speakers. It also helps in developing listening skills and improving vocabulary retention. Consistent practice with shadowing can lead to significant improvements in speaking proficiency over time. However, it is important to supplement shadowing with other language learning activities to achieve a well-rounded language proficiency. Overall, incorporating shadowing in language learning can be a powerful tool for individuals looking to improve their speaking skills.

### References:

- (1). Hashimoto, K., & Masuda, T. (2015). Effects of shadowing training on listening and speaking skills: A longitudinal study. *Asian EFL Journal*, 17(4), p. 71 – 89.
- (2). Lee, S., & Park, J. (2017). The impact of shadowing activities on pronunciation and speaking fluency. *Journal of Language Teaching and Learning*, 7(2), p. 45 – 58.
- (3). Yoshioka Y. (2018). The effectiveness of shadowing practice on improving speaking proficiency. *TESOL Journal*, 9(2), p. 153 – 170.
- (4). Taylor, R. (2019). Implementing shadowing techniques in the ESL classroom. *English Teaching Forum*, 57(3), p. 55 – 61.
- (5). Brown, H. D. (2007). *Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy*. Pearson Education.

**Muhammadiyev Ahadjon (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani, f.f.n., dotsent)  
“TARIXI MUHYI XO‘QANDIY”DA TARIXIY VOQELIK IFODASINING O‘ZIGA XOSLIGI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqola Muhyining “Tarix” asaridagi tarixiy voqelik ifodasining o‘ziga xosligi masalalariga bag‘ishlangan. Muhyi o‘z davrida Qo‘qon tarixini tarix zarvaraqlariga muhrlagan muarrixlar qatoridan joy olgan shoirlardan biri hisoblanadi. Biroq uning mazkur asari hali-hanuz tarjima qilinib, batafsil o‘rganilmadi. Maqolada mazkur mavzu ilmiy jihatdan asosli tadqiq etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** musavvada, XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti, manba, odam alayhissalom, Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Turkiya, azvoji mutohharot, G‘aznaviy sultonlar, Usmoniya davlati, Hindiston, Eron, Xorazm.*

**Мухаммадиев Ахаджон (Шахрисабзский государственный педагогический институт декан  
факультета языков, к.ф.н., доцент)**

**ОСОБЕННОСТЬ ВЫРАЖЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ДЕЙСТВИТЕЛЬНОСТИ В ИСТОРИИ МУХИ ХОКАНДИ”**

***Аннотация.** Данная статья посвящена вопросам своеобразия выражения исторической действительности в “Истории” Мухи. Мухи считается одним из поэтов, который в свое время причислил историю Коканда к числу писателей, запечатлевших ее на страницах истории. Однако его творчество до сих пор не переведено и подробно не изучено. В статье представлено научно обоснованное исследование этой темы.*

***Ключевые слова:** мусаввада, кокандская литературная среда XIX века, источник, Адам, Афганистан, Индия, Иран, Турция, аваджи мутоххарот, султаны Газневидов, Османское государство, Индия, Иран, Хорезм.*

**Muhammadiyev Ahadjon (candidate of philological sciences, docent at Shahrisabz State Pedagogical Institute  
Dean of the Faculty of Languages)**

**THE PECULIARITY OF THE EXPRESSION OF HISTORICAL REALITY IN THE “THE HISTORY OF MUHYI KHOKANDI”**

***Annotation.** This article is dedicated to the issues of originality of the expression of historical reality in Muhyi’s “History”. Muhyi is considered as one of the poets who, in his time, ranked the history of Kokand among the writers who stamped it on the jewels of history. However, his work has not yet been translated and studied in detail. The article provides a scientifically sound study of this topic.*

***Key words:** musavvada, 19<sup>th</sup> century Kokand literary environment, source, Adam, Afghanistan, India, Iran, Turkey, azwaji mutohharot, Ghaznavid Sultans, Ottoman state, India, Iran, Khwarazm.*

**Kirish.** Bizning ilmiy maqolamiz uchun eng muhim asarning to‘rtinchi bobi hisoblanadi. Bu bob asarning eng salmoqli qismini tashkil etgan. Bob asar qo‘lyozmasida “Dar bayoni nasli xononi Xo‘qandi latif” (Xo‘qandi latif xonlarining nasli bayoni) tarzida nomlangan va unda Qo‘qon xonlarining tarixi yoritilgan ([4;14-b.).

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Bilamizki, Qo‘qon tarixiga bag‘ishlab yozilgan asarlar [1, 2, 3, 4, 5, 6, 9, 10, 11, 12] juda ko‘p. XIX asrning oxiri –XX asr boshlarida Qo‘qon xonligi hududida 40 ga yaqin tarixiy-biografik, adabiy-tarixiy asarlar nazm-u nasda, o‘zbek, tojik va arab tillarida yaratilgan. Jumladan, Fazliy Namangoniy, Mushrif Isfaragiy, Muhammad Hakimxon, Avaz Muhammad Attor Xo‘qandiy, Dilshod-Barno, Mutrib, Andalib, Mulla Shavqiy. Muhammad Niyoz Xo‘qandiy, Abu Ubaydulloh, Muhammad Solihxo‘ja, Mirzo Olim, Muhammad Yunus Toyib, Muhammad Aziz Marg‘iloniy va boshqa tarixchilar o‘z asarlarida XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan Qo‘qon xonligi tarixini batafsil ifoda etganlar.

Muhyi ham o‘z davrida Qo‘qon tarixini tarix zarvaraqlariga muhrlagan muarrixlar qatoridan joy olgan shoirlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolamiz Muhyining “Tarix” asarida tarixiy voqelik ifodasining o‘ziga xosligi masalalariga bag‘ishlangan. Asar tojik tilida yozilgan. U O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida 604-inventar raqami bilan saqlanadi. Asar 1318/1900-yilda yozilgan va muallif tomonidan shu yilning o‘zida musavvada qilingan. O‘lchami 17x21,5 sm. Asar XIX asr Qo‘qon adabiy muhiti o‘rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Asarda, dastlab, odam alayhissalomning tarixlaridan boshlab, alal oqibat Qo‘qonning Muhyi yashagan davri tarixigacha bayon qilinadi. Shuningdek, asarda Afg‘oniston, Hindiston, Eron, Turkiya podsholarining qisqacha tarixi ham berilgan. Asarda an‘anaviy muqaddima va xotima berilmagan. Asar sodda til va ravon uslubda yozilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Quyida tarixning tabdil, tarjima va sharhlari bilan tanishamiz. “Avval Eshon Humoyunxon, ki ba Oltin beshik shuhrat dorad. Ba Abdulazizxon ibni Abdullohxon muosir buda va ... payvandu muvosilat va ittihodu muhabbat va ... mustahkam buda ba’d az Humoyunxon Tangriyor bo sulton pisari o’ ba hukumati Farg’ona gasht. Ba’d az Tangriyor sulton pisarash Muhammadyor sulton ba qoi o’ nishasta, az in ... Muhammadaminxon barodari Muhammadyor sulton digar shuda, Buxoro ba nazdi Imomqulixon raft. Dar sanai 970 va dar sanai 908 Imomqulixon vafot namud. Jonibek Iskandar sulton ba qoi Imomqulixon nishasta, Jonibek Iskandar sulton muhabbati tamom ba o’ dosht. Chunki Tangriyor sulton vafot kard Muhammadyor sulton ba Farg’ona omada ba qoi barodar nishast. Ba’d az in, ki sipohi o’ maoshi o’ro bixostand ...namuda ba Hinduston ba nazdi Akbar podshoh firistodand. Ba qoi o’ barodarash Abulqosimxonro nasb namudand va o’ hashtsola bud, dar masnadi hukumat nishast. Az on “sulton kuchak” laqab kardand. Ba’d az o’ pisarash sulton Asil sulton ba qoi o’ nishast. Ba’d az vafti o’ ... (Hamuchbey) ba qoi padar nishast. Ba’d az (Hamuchbey) pisarash Shohruxbey ba qoi padar nishast. Ba’d az vay pisarash Ashurqul atoliq ba qoi padar nishast. Ba’d az vay pisarash Shohrux atoliq ba qoi padar nishast. Ba’d az vay Abdurahimxon pisarash ba qoi padar nishast. Ba’d az vay barodarash Abdulkarimxon ba masnadi shohi binishast. Va o’ muosiri (Abulza..xon) va Nodirshoh bud. Dar zamoni o’ ba farmudai o’ Xo’qandi latifro bino kardand. Ta’rixash (1153 Mutohharobod) ibtidoi istiloi Xito ba naqbi shahri Qoshg’ar” [4;14–b.].

Yuqoridagi iqtibosdan anglashiladiki, garchi “Tarixi Muhyi Xo’qandiy” asarining eng salmoqli qismini Qo’qon xonlarining tarixi ishg’ol etgan bo’lsa-da, Muhyi o’zi ko’zi bilan ko’rgan va guvohi bo’lgan voqealarga qadar bo’lgan qism bir qadar ixcham suratda bayon etilgan. Davr tarixchilari uchun deyarli an’ana tusini olgan “Oltin beshik” voqeasini bayon etish Muhyida u qadar batafsil emas. Shu o’rinda qayd etish lozimki, Muhyi Oltin beshik nomi bilan mashhur bo’lgan shaxs sifatida Eshon Humoyunxonning nomini tilga oladi. Bu yanglishlik haqida A.Turdialiyev ham o’z tadqiqotida ta’kidlab o’tgan [10;146-b.]. Bizingcha, bu chalkashlik asarning musavvada nusxa ekani bilan izohlansa yaxshiroq bo’lardi. Negaki, bu asar qayta tahrir etilgan va muallif tomonidan qayta boshdan ko’chirilganda, balki bu chalkashlik bartaraf etilarmidi.

Asardagi yana bir muhim nuqtaga e’tibor qaratish lozim. “Tarixi Muhyi Xo’qandiy”dan o’qiyimiz: “Aksari mardumi Xo’qand asl panç qismand: o’zbek, samarqandī, koshg’arī, ko’histonī va chankatī. Va g’ayr az inho az har qavm çam’ omadaand. Va nomi in baldai ma’mura, xush obu havo va vufuri ne’mat ba Xo’qandi latif nihodand [4;15-b.]. Tarjimasi: Xo’qand aholisining aksariyati quyidagi besh qismdan tarkib topgan – o’zbeklar, samarqandliklar, qashg’arlar, tog’liklar va chankatliklar. Bu qavmlar yig’ilib Xo’qandni tashkil etdilar. Bu Baldai ma’mura (ma’muriy markaz)ning ob-havosi yaxshi, barakasining mo’lligi sababli Xo’qandi latif nomini oldi.

Asarda Muhyi Xudoyorxon va uning ayonlari to’g’risida o’ta muhim va juda batafsil ma’lumotlarni bergan. Tarixchi olim T.K.Beysembiyev “Tarixi Muhyi Xo’qandiy” asarini Xudoyorxonga hamdardlik ruhi bilan sug’orilgan asarlar sirasiga kiritgan [8]. Adabiyotshunos olim A.Turdialiyev esa T.K.Beysembiyevning bu fikrini quyidagicha izohlaydi: Bu bejiz emas, albatta. Zero, Muhyi Xudoyorxon avlodlari bilan yaqin aloqada bo’lgan, ularga bag’ishlab she’rlar, ta’rixlar yozgan. Xudoyorxon avlodlari ham. o’z navbatida. Muhyiga nisbatan do’stona munosabatda bo’lganlar [11].

Yuqorida ta’kidladikki, Muhyi o’zi guvoh bo’lgan, ko’zi bilan ko’rgan tarixni mazkur asarda nisbatan batafsilroq tasvirlaydi. Muhyi mazkur voqealarni “Tarixi Muhyi Xo’qandiy”da quyidagicha batafsil, mayda detallarigacha mahorat bilan tasvirlagan. E’tiborli jihati shuki, o’quvchi Muhyi tarixini o’qirgan undagi qahramonlar ruhiyatini his etib turadi:

Nasriddinxon yana Mahram tomonga bordi. Bir qancha safdosh mulozimlari vafot etdilar. Uning Turdiali, Darvesh va boshqa ayonlari hibsga olindilar. Ammo Darveshni shaharga kirishidanoq boshini kesdilar. Uning boshini mahbuslar yordamida oldilar. Mullo Turdialini egarsiz otga mindirib, boshini otning qorniga bog’lab olib kirgizdilar.

Shu kecha Po’latni qochganligi va Skoblevning Marg’inonni olganligi oydinlashgach, Abdullohbek qirg’iz kechasi chiqib, qochib ketadi. Ahvol shunday ayon bo’lgach, tong chog’i bandilarni mutlaq ishon-tirib, Abdulg’afforbek va Po’latni otaxoni bo’lgan toshkentlik mullo Abdulmo’minlar Nasriddinxonni ol-diga, uni qarshi olishga chiqadilar. Nasriddinxonni Mahramdan olib kelib, otasining o’rniga o’tqazadilar. Mazkur xon anchadan buyon o’zini bu mamlakat yumushlariga aloqador hisoblardi. Skoblev oldiga hech qanday odam jo’natmasdan, uzr va omonlikni o’rtaga solmasdan o’z-o’zicha saltanatni boshqarish bilan mashg’ul bo’ladi. Kutilmaganda xon o’z tarafdorlarini unutib, tuban olomonga e’tibor qaratadi. U bu g’aflat bilan Qo’qonda o’n kun qolib, Skoblevning xabaridan Marg’ilondan Namanganga o’tadi. Namanganda mustahkamlanib, bir necha musulmonlarni rahbarlik qilish uchun o’zi bilan olib, kechasi bilan o’z lashka-

rini daryodan o'tkazadi. Tong payti Qo'qon shahriga qo'shilgan Yakkamulla mavzesiga joylashdilar. Hat-toki, shahar darvozasidan kirishga qancha to'p-u, o'q va kamonlarini qoldirib, bir kishini Saidnasriddinxon huzuriga, biz sizni muborakbod qilish uchun keldik, deb kiritadilar. Istaymizki, sizga tahniyat aytib, otan-gizni o'rmlariga tayinlab, so'ng Xo'jand tomonga o'tib ketsak. Agar istasalar, marhamat qilib, bizni shahar ichkarisiga taklif qilsalar.

Mazkur xon bu voqeadan hayratlanib, maslahat uchun Mirolimxonni chaqiradi. Mirolimxon taklifga binoan, fotiha o'qib, Nasriddinxonni xonlik mansabiga o'tqizadilar. Mazkur xonni tuhfa-yu tortiqlar va bir qancha amaldorlar bilan Skoblev huzuriga olib chiqadilar. Skoblev xondan g'azablanib, unga yomon muo-malada bo'lib:

– Kim sizlarga farmon berdiki, Qo'qonni tasarruf qilibsizlar? deydi. Xon javob beradi:

– Bizga general gubernator Fon-Kaufman izn berib aytdikim, qachonki qo'l kelsa, kelib o'z mulkla-ringga egalik qilinglar. Yana uning o'zi bizni bu xonlik masnadiga tayinlab ketdi.

Skoblev aytdiki:

– Unday bo'lsa, nega mulkingizni tashlab ketdingiz?

Xon:

– Xalq, fuqarolar, siz va hatto butun Farg'ona ahli menga dushman bo'lib, meni ketishim uchun qasdashdilar. Shunga binoan chiqib ketdim. Shundan so'ng Skoblev aytdi:

– Ma'lum bo'lishicha, Farg'ona ahli sizni qabul qilmas ekan. Behudaga o'z'laringizni zahmatga qo'ymoqdasizlar. Yana boshqa jihati shundaki, Qo'qon aholisining barchasi bizga barmoq muhrlarini qo'yib, ariza berdilarkim, biz Xudoyorxon va uning avlodidan bezordirmiz, deb.

Skoblev “Jonu dil bilan Oq podshoga tobe bo'ldik”, deb yozilgan arizalarini mazkur xonga ko'rsatgan ekan. Chorasiz qolgan xonga og'iz ochishga boshqa imkon qolmadi. Mulozimlariga javob berib, xonning o'zini shu yerda qoldiradi. Tevarak-atrofini o'z soldatlari bilan qurshab qo'yadi.

1293-hijriy yilda Skoblev askari bilan Qo'qonga doxil bo'lib, shahar va uning atrofini o'z hifzu hi-moya va farmoniga kiritdi. Mamlakatni zabt etish uchun va dushmanga talofat berish uchun qanday zarurat bo'lsa, barchasini qildi. Ikki kundan so'ng mazkur xonni Toshkent tarafga Qozoq orqali chiqarib, Tosh-kentdan yana Vladimir tomonga qaytadi. Qo'qon butunlay Rusiya tasarrufiga kiradi.

Asarning G'aznaviy sultonlarga bag'ishlangan beshinchi [4;38a–39a v.], Usmoniya davlati sulton-lariga bag'ishlangan oltinchi [4;39–41a v.], Hindistonning Panjob viloyatida sinhlr toifasining paydo bo'lishi bayon qilingan yettinchi [4;41b–42b v.], Hindistondagi Uda mulki podshohlari va navvoblari tarixi yoritilgan sakkizinchi [4;43a–47 v.], Eron shohlari tarixi haqidagi to'qqizinchi [4;48a–49a v.], Xorazm shohlari tarixi haqidagi o'ninchi [4;49–54 v.], Hindiston mamlakatlari vazirlari va amirlari haqidagi o'n birinchi [4;55–57 v.] boblari nisbatan qisqa va lo'nda tarzda bayon etilgan.

Yuqoridagi mundarija siyoqidan ham ma'lumki, Muhyi Hindiston haqida nisbatan kengroq to'xtal-gan. Buning sababini adabiyotshunos olim A.Turdialiyev quyidagicha izohlaydi: “Muhyining Hindiston haqida o'z asarida kengroq to'xtalib o'tgani bejiz emas. Zero, Muhyi umri davomida Hindistonga bir necha bor safar qilgan. U birinchi marta 1861-yili Qo'qon xoni Muhammad Mallaxonning elchisi sifatida Hindis-tonga kelgan. Ikkinchi bor esa 1875-yilda Muhyi haj safariga borganda ham birmuncha muddat Hindistonda bo'lgan. “Tarixi Muhyi Xo'qandiy” asarini yozish asnosida u o'sha safarlari davomida to'plagan ma'lumotlaridan foydalangan” [10;148-b.].

Ulug' imomlar va oliyjanob olimlar to'g'risidagi o'n ikkinchi [4;58a–66 v.], ulug' shayxlar va avli-yolar zikri bitilgan o'n uchinchi [4;67a–73 b.] boblarga, ayniqsa, Sharq mumtoz shoirlari haqidagi ma'lumotlarga ham asarda keng o'rin berilgan. Bu esa, o'z navbatida, A.Turdialiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, Muhyining Sharq mumtoz adabiyoti tarixini chuqur bilganligini ko'rsatadi.

Mazkur faslda o'rganilgan ilmiy adabiyotlar, keltirilgan tabdil, tahlil va talqinlarimizga, asosan, quyidagicha xulosalarga kelishimiz maqsadga muvofiqdir.

**Tahlil va natijalar.** Muhyining mazkur asari (O'zFASHI qo'lyozma asarlar fondida 604-inventar raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma) hozircha yagona nusxada bizgacha yetib kelgan noyob qo'lyozma manba hisoblanadi. Asarning nusxavada (qoralama) nusxa ekani haqiqatga yaqinroq. A.Tur-dialiyevga ko'ra, bu asarning hozirgi kunda saqlanib qolgan yagona dastxat nusxasida muqaddima va xo-timaning yo'qligi, nusxada ko'plab qo'shimcha, o'zgarishlar mavjudligi, shuningdek, muallif asarning ikki joyida o'zi hikoya qilayotgan voqea yoki davr haqida alohida batafsil to'xtashga va'da bergani bu taxminga asos bo'la oladi [10;149-b.].

Muhyining “Tarixi Muhyi Xo'qandiy” asari, garchi juda katta davrni qamrab olgan bo'lsa-da, shoir yashagan davr tarixi, madaniyati va adabiy muhitini o'rganish uchun yetakchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Chunki asarning salmoqli qismini Qo‘qon xonligi tarixiga oid voqea va hodisalar va ularga bildirilgan shoir munosabati tashkil etadi.

Sharqshunos olim Ilyos Nizomiddinov ta‘kidlaganidek, Muhyining Afg‘oniston va Hindistonga qilgan safarlari, keyinchalik, “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asarini yaratishda unga katta yordam beradi. Muhyining bu asarida O‘rta Osiyo, Eron, Turkiya va Hindiston tarixiga oid ko‘pgina ma‘lumotlar keltiriladi. “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asarining muhim joyi shundaki, bunda muallif yuqorida ko‘rsatilgan mamlakatlarda yashab o‘tgan va Muhyi zamonasida yashagan buyuk shaxslar, davlat arboblari, olim va shoirlar haqida qisqa biografik ma‘lumotlar beradi.

**Xulosa va takliflar.** Garchi “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asarining eng salmoqli qismini Qo‘qon xonlarining tarixi ishg‘ol etgan bo‘lsa-da, Muhyi o‘zi ko‘zi bilan ko‘rgan va guvohi bo‘lgan voqealarga qadar bo‘lgan qism bir qadar ixcham suratda bayon etilgan. Qo‘qon xonlarining tarixiga aloqador voqealarni Muhyi nisbatan batafsil, mayda detallarigacha mahorat bilan tasvirlagan. E‘tiborli jihati shuki, o‘quvchi Muhyi tarixini o‘qirgan undagi qahramonlar ruhiyatini qalban his etib turadi.

Mazkur tadqiqotimizda mantiq taqozosi bilan asarning original matnidani qilgan tabdil va tarjimalarimiz asosida fikrimizni dalillashga urindik. Mazkur maqolada qisqacha tavsifini keltirib o‘tgan bu durdona manba nafaqat Muhyi ijodini o‘rganishda, balki shoir yashagan davr – XIX asr Qo‘qon adabiy muhitini o‘rganishda ham katta xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- (1). Vohidov Sh. Qo‘qon xonligida tarixnavislik (genezisi, funksiyalari, namoyandalari, asarlari). Toshkent, “Akademnashr”, 2010, 318 bet.
- (2). Mirzo Olim Toshkandiy. Qo‘qon xonligi tarixi. Toshkent, “Fan”, 2001.
- (3). Mirzo Olim Maxdum hoji. Tarixi Turkiston. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2008, 256 bet.
- (4). Muhyiddin Muhyi. Tarix. Tojikcha nasriy asar. O‘zFASHI qo‘lyozma asarlar bo‘limida 604-inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa. Asar 1318/1900-yilda yozilgan va muallif tomonidan shu yilning o‘zida musavvada qilingan. O‘lchami 17x21, 5 sm.
- (5). Muhammad Aziz Marg‘iloniy, Tarixi Aziziy. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar mualliflari Sh. Vohidov, D.Sangirova. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 1999, 112 bet.
- (6). Muhammadiyev A. Muhyi ijodi: davr, adabiy muhit va shaxs. Monografiya, Toshkent, “Navro‘z”, 2020, 138-bet.
- (7). Nizomiddinov I. Sayyohlarning yozganlari. T., O‘zdavnashr, 1960, 31–32-betlar.
- (8). Nizomiddinov I. O‘rta Osiyoning chet el Sharqi bilan munosabatlari. T., O‘zdavnashr, 1961.
- (9). Tarixi Shaxroxi – История правителей Ферганы. Сочинения муллы Нияза Мухаммадбека, Ашур Мухаммад Хоккандса, изданное Н.Н. Пантусовым. Казань, 1885, с. 333.
- (10). Turdaliyev A. “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asari haqida. “Sharqshunoslik” jurnali, 2015, 2–3-sonlar, 146–149-betlar.
- (11). Turdaliyev A. Muhyi va Xudoyorxon avlodlari. “Qo‘qon sadosi” gazetasi, 2005, 31 mart.
- (12). Xudayqulov T. XIX asrda Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Toshkent, 2009, 116-bet.
- (13). Qur‘oni karim: ma‘nolarining tarjima va tafsiri (tarjima va tafsir muallifi A.Mansur). Toshkent, Toshkent, Islom universiteti, 2009, 624 bet.

**Jumanyozov Nodir Xudayberdiyevich (Xorazm viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i,  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD))**

#### **AHOLINING HUQUQIY MUAMMOLARINI ANIQLASH VA HAL ETISH SOHASIDAGI YANGI TIZIM**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohotlarning yangi bosqichga chiqqanligi, mamlakatimizda demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib borayotganligi, buning sabablaridan biri dunyoda diyorumizdan boshqa hududlarda uchramaydigan mahalla institutining o‘rni alohida ekanligi, uning jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va rolini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli va puxta o‘ylangan islohotlar amalga oshirayotgani, mahallalardagi uy-joy, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning bandligini ta‘minlash, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va boshqa kundalik hayotda uchrayotgan muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa‘y-harakatlari birlashtirish orqali fuqarolarimizning kundalik muammolarini joyida yechimini topishga qaratilgan islohotlar jadal ravishda olib borilayotganligiga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-80-farmo-

ni bilan aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etib borish adliya organlari faoliyatining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, inson huquq va erkinliklari, demokratiya, islohotlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, jamoatchilik boshqaruvi, mahalla instituti, PF-209-farmoni, "mahalla yettiligi", mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi, ijtimoiy xodim, "Fuqaro – mahalla – adliya" tizimi.

**Джуманёзов Нодир Худайбердиевич** (начальник Хорезмского областного управления юстиции, доктор философии в области юридических наук (PhD))

## **НОВАЯ СИСТЕМА В ОБЛАСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ И РЕШЕНИЯ ПРАВОВЫХ ПРОБЛЕМ НАСЕЛЕНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье проводимые в нашей стране фундаментальные реформы вышли на новый этап, наша страна становится страной демократических перемен, широких возможностей и практической работы, одной из причин этого является особое место института махалля, которое нельзя найти больше нигде в мире, его место и роль в управлении обществом проводят масштабные и продуманные реформы, направленные на увеличение жилищного строительства в стране, поддержку малообеспеченных семей, обеспечение занятости граждан, налаживание предпринимательства и другие проблемы, встречающиеся в повседневной жизни. Посвящена тому, что реформы направлены на поиск решения повседневных проблем наших граждан на местах путем объединения усилий представителей государственных органов и организаций в махаллях проводятся своевременно и эффективно.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, права и свободы человека, демократия, реформы, стратегия «Узбекистан – 2030», государственное управление, Институт Махалля, Указ №ПФ-209, «семёрка махалли», председатель махалли, заместитель хакима, женщина-активистка, молодежный лидер, профилактический инспектор, сборщик налогов, социальный работник, система «Гражданин – махалля – юстиция».

## **A NEW SYSTEM IN THE FIELD OF DETERMINING AND RESOLVING THE LEGAL PROBLEMS OF THE POPULATION**

**Annotation.** In this article, the fundamental reforms carried out in our country have reached a new stage, our country is becoming a country of democratic changes, broad opportunities and practical work, one of the reasons for this is the special place of the neighborhood institution, which cannot be found anywhere else in the world, its place and role in the management of society. that they are carrying out large-scale and well-thought-out reforms aimed at increasing, housing in neighborhoods, supporting needy families, ensuring employment of citizens, establishing entrepreneurship and other problems encountered in everyday life. It is dedicated to the fact that the reforms aimed at finding solutions to the daily problems of our citizens on the spot by combining the efforts of the representatives of state bodies and organizations in the neighborhoods are being carried out in a timely and effective manner. According to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan №. PF-80 of May 24, 2024, identifying, analyzing and eliminating legal problems encountered in the daily life of the population is defined as one of the main areas of activity of the judiciary.

**Key words:** New Uzbekistan, human rights and freedoms, democracy, reforms, "Uzbekistan – 2030" strategy, public administration, Neighborhood Institute, Decree № PF-209, "neighborhood seven", Neighborhood chairman, deputy governor, women activist, youth leader, prevention inspector, tax collector, social worker, "Citizen – neighborhood – justice" system.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston – demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va prinsiplarga qat'iy amal qilgan holda pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlatdir.

Fuqarolarning kundalik hayotida uchrayotgan muammolarini hal etish orqali ularni rozi qilish yo'lidagi ishlar aynan ana shunday ezgu va hayotbaxsh g'oyalar asosida olib borilib, tobora yangi ma'no va mazmun bilan boyib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, ularning jamiyatdagi roli, o'rni va ta'sirchanligini kuchaytirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Davlatimiz rahbarining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida muhim ustuvor yo'nalishlar qatorida xalq xizmatidagi davlat tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvinini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamlil sa'y-

haarakatlar belgilangani e'tiborga molik. Uning maqsadi aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'pri"-ka aylantirilishi ko'rsatgan.

Mahalla instituti hech bir mamlakatda mavjud bo'lmagan. Azaldan milliy urf-odat va an'analarimizni bezavo saqlab, xalqimizni o'zaro bir-biri bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatadigan, yosh avlod vakillarini bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, o'z yutuq va kamchiliklarini muhokama qiladigan hamda muammolariga yechim izlaydigan unikal maskan hisoblanadi. Bugungi kunda jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla instituti aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylandi desak, adashmagan bo'lamiz. Keyingi yillarda mahalla institutiga milliy davlatchiligimizning asosiy quyi bo'g'ini sifatida qaralib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlil va puxta o'ylangan islohotlar amalga oshirayotgani hech kinga sir emas. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muoammolarini hal yetishga qaratilgan PF-209-farmoni bilan mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimdan iborat bo'lgan "mahalla yettiligi" faoliyatini yo'lga qo'yilganligini alohida ta'kidlashimiz mumkin.<sup>1</sup>

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda mahallalardagi uy-joy, ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va boshqa kundalik hayotda uchrayotgan muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa'y-harakatlari birlashtirish, mahallalarni qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga ma'sul bo'lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta'minlashga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatli bo'ldi.

Endi odamlar o'zlarini qiynayotgan muammolar yechimini hal etishni so'rab har xil idoralarga qatnashiga hojat qolmadi. Endilikda adliya organlari tomonidan aholini qiynayotgan kundalik muammolari mahallalarda uyma-uy yurgan holda aniqlanib, tahlil qilib boriladi hamda bartaraf etiladi. Joylarda aniqlangan tizimli huquqiy muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qonun hujjatlari loyihalariga takliflar ishlab chiqiladi. Asosiy jihati shundaki, endilikda fuqarolarga huquqiy masalalar bo'yicha birlamchi bepul yuridik yordam ko'rsatib boriladi.

Aholiga huquqiy yordam ko'rsatish borasida muammolarni hal etishda "Fuqaro – mahalla – adliya" tizimi joriy etildi. Bunda aholining kundalik hayotidagi huquqiy muammolar "mahalla yettilik"lari orqlari "Online mahalla" platformasidan foydalanib, adliya organlarga yetkaziladi.<sup>2</sup>

Adliya organlari tomonidan esa mazkur muammolar yechimlari bo'yicha huquqiy tadbirlar, qonun-hujjatlariga takliflar ishlab chiqiladi. Shu orqali "mahallay yettiligi"ga fuqarolarning kundalik hayotidagi huquqiy masalalarga oid muammolarini hal etishda ko'maklashiladi. Bundan tashqari, fuqarolarni qiynayotgan muammolarni aniqlash uchun "Adliya kuni", "Huquqiy ko'mak", "Huquqiy targ'ibot kuni", "Mahalla huquqshunosi", "Tengdoshimga huquqiy yordam", "Street law" loyihalari va huquqiy aksiyalari tashkil etiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida belgilanganidek, O'zbekiston – suveren respublika, huquqiy, ijtimoiy, dunyoviy, demokratik davlat aynan huquqiy mahalladan boshlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. (<https://constitution.uz/oz>)
- (2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-farmoni.
- (3). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muoammolarini hal etishga qaratilgan PF-209-farmoni.
- (4). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-farmoni.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muoammolarini hal etishga qaratilgan PF-209-farmoni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.05.2024-yildagi "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida"gi PF-80-farmoni.



Shodiyev Ma'rufjon Mirsalimovich (Navoiy davlat Pedagogika instituti tadqiqotchisi;  
E-mail:m.shodiyev@mail.ru)

## HUQUQIY TARBIYANING NAZARIY VA PRAGMATIK ASOSLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barkamol avlodni tarbiyalashda huquqiy tarbiyani o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek, huquqiy tarbiyaning rivojlanish tarixi, huquqiy tarbiya tushuncha, uslubiy mezonlari, huquqning kelib chiqishida huquqiy nazariyalarning o'rni, hozirgi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g'oyalar kurashi keskin tus olgan bir paytda, har tomonlama rivojlangan shaxslarni, ayniqsa, yoshlarni voyaga yetkazishda huquqiy ong, madaniyat va huquqiy tarbiyaning ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, huquqiy tarbiya, nazariya, globallashuv, jamiyat, ma'naviyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy mafkura.

Шодиев Маруфжон Мирсалимович (научный исследователь Навоийского государственного педагогического института; m.shodiev@mail.ru)

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРОГРАММНЫЕ ОСНОВЫ ЮРИДИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье говорится о роли юридического образования в воспитании зрелого поколения. Также история развития юридического образования, понятие юридического образования, методологические критерии, роль юридических теорий в зарождении права, в современное опасное время, в эпоху глобализации, особенно в то время, когда борьба идей приняла крутой поворот, в воспитании всесторонне развитых личностей, особенно молодежи, показано значение правового сознания, культуры и правового образования.

**Ключевые слова:** образование, юридическое образование, теория, глобализация, общество, духовность, правосознание, правовая культура, правовая идеология.

## THEORETICAL AND PRAGMATIC BASIS OF LEGAL EDUCATION

**Annotation.** This article talks about the role of legal education in raising a mature generation. Also, the history of the development of legal education, the concept of legal education, methodological criteria, the role of legal theories in the origin of law, in the present dangerous time, in the era of globalization, especially in the time when the struggle of ideas has taken a sharp turn, in bringing up fully developed individuals, especially young people, the importance of legal consciousness, culture and legal education is shown.

**Key words:** Education, legal education, theory, globalization, society, spirituality, legal consciousness, legal culture, legal ideology.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, huquqiy jihatdan bilimli, qonun-qoidalarni biladigan, ularga amal qiladigan, davlat va jamiyat tomonidan belgilangan me'yorlarni bajarishda madaniy saviyasi yuqori bo'lgan shaxslarni shakllantirish borasida huquqiy tarbiya alohida o'rin egallaydi. Shu sababli mamlakatda aholining, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, har bir fuqaroning, har bir oilaning va har bir jamoaning ongida yuksak huquqiy tarbiyani shakllantirish orqali singdirish muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, istiqbol yillarida huquqiy tarbiya, huquqiy ta'lim va huquqiy madaniyatga bo'lgan e'tibor tubdan va sezilarli darajada o'zgarib yangilandi.

Mamlakatimizda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylanib, doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Natijada yangi huquqiy mafkurani yaratishda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar aholining huquqiy tarbiyasi, ongi va madaniyati yuksalishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shuning uchun ham huquqiy tarbiya jamiyatda inson ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Shu maqsadda hozirgi tahlikali zamonda, globallashuv davrida, ayniqsa, g'oyalar kurashi keskin tus olgan bir paytda hamda murakkab sharoit talablariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslarni – yoshlarni voyaga yetkazish uchun mamlakatimizda so'nggi yillarda zarur shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratildi hamda huquqiy islohotlar o'tkazildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlari.** Olimlarning ta'kidlashicha, "Tarbiya-ijtimoiy ahamiyatga molik ehtiyojlarni shakllantiradi. U nafaqat xulq-atvor me'yorlari to'g'risidagi bilimlarni egallashni, rag'batlanish va jazodan qutulib qolish uchun ularga amal qilishni, balki ularni xatti-harakatlarini ichki me'yorlariga aylantirishni va ularga ongli amal qilinishini ta'minlashi kerak" [1;144-b.].

Hozirgi paytgacha, ilmiy izlanishlar va jarayonlarga nazar soladigan bo'lsak, huquqiy tarbiya tushuncha sifatida, uning tushuntirish uslubiy mezonlari olimlarimiz tomonidan yetarlicha hamda to'liq yoritilmagan. Huquqshunos olimlardan O.Yusupov, A.Toshqulov, H.Ikromova, A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo'rayev, O.Muhammadjonov, O.Karimova, A.Saidqosimov, Z.Gafarov, O.A.Karimova, D.Tojiboyeva,

A.Yo'ldoshev, A.Saidov, U.Tadjixonovlarning izlanishlarida huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borishgan.

Nemis olimi R.Gering, rus olimi D.Muromtsev, AQSH olimlari D.Frank, K.Levillin va boshqalarning izlanishlarida umummajburiy bo'lgan normalar yig'indisi o'rganilgan.

V.Stukaningning ta'rif berishicha, "Huquqiy tarbiya—bu shaxsning xususiyatlari va fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan, huquqiy ongini shakllantiruvchi va hayotning turli sohalarida insonning qonuniy xatti-harakatlari uchun ichki zarurat bo'lib xizmat qiladigan, qonun normalari bilan tartibga solingan maqsadga muvofiq tizimli malakali faoliyatdir [2;18-b.]. Demak, huquqiy tarbiya – bu shaxsning jamiyatda ma'naviy fazilatlarini ro'yobga chiqaruvchi ijodiy jarayon.

N.Matuzova va A.Malkolarning fikricha, "Huquqiy ta'lim yosh avlodda ma'lum e'tiqodlarni, ehtiyojlar va qiziqishlarni, qadriyat yo'nalishlari va xulq-atvorini shakllantirishda huquqiy ta'lim va tarbiya egasining maqsadga muvofiq faoliyati" deb hisoblagan [3;776-b.]. A.Kvashaning ta'kidlashicha, "Huquqiy ta'lim bu huquqiy bilimlarni o'rgatish va ushbu bilimlarga ehtiyoj haqida tushunchalarni shakllantirishdir" [4;160-b.].

O.Yusupov va H.Ikromovalarning ta'kidlashicha, "Insonning madaniyatli shaxs bo'lib shakllanishida jamiyatda mavjud an'analar, urf-odat va marosimlarda namoyon bo'ladigan qadriyatlar obyektiv taraqqiyot va sub'ektiv ruhiyatning ifodasi sifatida namoyon bo'lib, kishilarning o'zaro munosabatida, turmush tarzi va faoliyatida, yurish-turishida, axloqi va odobida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jamoadan ajrab qolish kishilarda xudbinlik, jamiyatdagi huquqiy, axloqiy munosabatlarni mensimaslik singari xislatlarni kuchaytiradi" [5;26-b.]. Shunday qilib, huquqiy tarbiyada jamiyatda shakllangan ma'naviy va huquqiy qadriyatlar, urf-odatlar, axloq va odob tamoyillari ham muhim o'rin tutib, rol o'ynaydi.

**Tahlil va natijalar.** Huquqiy tarbiya kun sayin shakllanib, uzoq taraqqiyot va o'z rivojlanish tarixiga ega, qonunlarning ustuvorligi ta'minlashda, ularga so'zsiz amal qilishda hamda bir xilda ijro etilishiga ta'sir ko'rsatishda muhim omil bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Qadimgi Yunoniston va Rimda huquqiy tarbiya aholiga yoshligidan singdirilib, o'rgatishdan boshlagan. Masalan, Qadimgi Rimda bolalar voyaga yetib, 14 yoshga to'lganicha 12 ta mis jadvalni yod olgan bo'lishi lozim bo'lgan. Huquqiy tarbiya muammolari Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi mamlakatlarda ham doimo diqqat markazida bo'lib, uning ko'plab muammolarini yechishga alohida e'tibor qaratilib, atroflicha o'rganilgan va hal etilgan.

Inson huquqlari to'g'risidagi qomusiy lug'atda ta'kidlanishicha, "Huquqiy tarbiya—bu huquqiy madaniyatni, huquqiy ideallarni, huquqiy tajribani va jamiyatdagi nizolarni hal etish mexanizmlarini avloddan-avlodga o'tkazish bo'yicha maqsadli faoliyatdir. Huquqiy tarbiya insonning huquqiy ongini va natijada butun jamiyatning huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir" [6;589-b.].

Insoniyat tarixida ilk davrlarda insonlar orasida bo'ladigan munosabatlar o'ziga xos bo'lgan axloqiy qoidalar va me'yorlar orqali tartibga solingan. Shuning uchun ham davlat va huquqning kelib chiqishini o'rganish uchun huquqiy nazariyalarga katta o'rin berilgan. Shu sababli ham huquqning kelib chiqishi, mohiyati haqida tabiiy huquq nazariyasi, huquqning tarixiy nazariyasi, huquqning psixologik nazariyasi, huquqning sinfiy (marksistik nazariyasi), teologik nazariya, realistik huquqlarda o'z aksini topgan.

Tabiiy huquq nazariyasi uzoq tarixga borib taqaladi, huquq nazariyalarining ajralmas bir qismi, shu sababli ham qadim zamonda vujudga kelib, unga bog'liq holda rivojlangan. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, davlat tomonidan o'rnatilgan huquqdan tashqari insonga (u tug'ilishi bilan) xos bo'lgan tabiiy huquq mavjud. Yoki bo'lmasa, huquqning sinfiy huquqning sinfiy mohiyatiga urg'u beradi. Bunda huquq hukmron sinf irodasining qonun darajasiga ko'tarilganligi sifatida talqin etiladi. Bu iroda mazkur sinf hayotining moddiy sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi, deb asoslaydi.

U huquqning davlat, iqtisodiy tuzum, sinfiy tuzum, zo'rlik va majburlash bilan bog'liq ekanligini bo'rttirib ko'rsatadi. Bu nazariya huquq – huquq normasining majburiy ijrosini ta'minlay oladigan apparatsiz hech narsa emas deb, ta'kidlagan. Shu bilan birga, huquqning jamiyat hayot faoliyatini ta'minlay oladigan tartibga solish sifatidagi qadriyati inkor qilingan, huquqning ta'qib etuvchi, jazolovchi, majburlovchi funksiyasi tadqiq etilgan.

Huquqning mohiyati haqidagi nazariyalardan yana biri bu ilohiy (teologik) nazariya. Haqiqatdan ham, agar inson tabiiy huquqlarga dunyoga kelishi bilan ega bo'lsa, bu holat ilohiy kelib chiqish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, diniy e'tiqod bo'yicha bu huquqlarni insonga jamiyat yoki davlat emas, balki Yaratganning o'zi beradi. Bundan tashqari, teologik (ilohiy) nazariyasida, Aristotel, ayniqsa, Akvinskiy va boshqalar (XII–XIII asrlar) davridan boshlab, huquqning paydo bo'lishi va mohiyatini xudoga bog'lab ilohiylashtiradi. Demak, huquq kelib chiqishi to'g'risidagi bu nazariyalarning hammasi ijtimoiy hayotda bo'lgan va xalqlar, davlatlar tarixidagi misollar bilan tasdiqlanishi mumkin.

Lekin bu jarayonlarni boʻrttirish, huquqning tashkil topishidagi boshqa umumiy omillarni xaspoʻshlash huquq kelib chiqishining ijtimoiy qonuniyatlarini anglash va tushuntirishdan chetlashish, haqiqatni buzib koʻrsatishdir [7;44-b.]. Demak, shuning uchun ham huquq va davlatning kelib chiqishini oʻrganish uchun huquqiy nazariyalarga ulkan oʻrin berilgan.

Yangi Oʻzbekiston huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etish sari dadil qadam qoʻyib, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan milliy huquqiy islohotlarning natijasida mamlakatimizda huquqiy tarbiya va huquqiy taʼlimni isloh qilish borasida sezilarli ishlar amalga oshirishga katta eʼtibor berib kelinmoqda.

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimidagi maʼruzasida “Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak madaniyatli, mustaqil fikrlaydigan, vatanimiz taqdirini va istiqboli uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir yosh kardlar safini kengaytirishga bevosita bogʻliq”, deb taʼkidlagan [8]. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda kelajagimizning egalari boʻlmish farzandlarimizni baxtli yashashlari, munosib farzand boʻlib oʻsishlari, kuchli, aqlli va huquqiy madaniyatli boʻlib voyaga yetkazishda yoshlar tarbiyasiga jiddiy eʼtibor qaratilib, muhim ishlar amalga oshirildi. Bu bilan aholini, ayniqsa, yosh avlodni huquqiy bilim darajasini yuksaltirish, huquqiy jihatdan yuksak bilim saviyasiga ega boʻlgan shaxslarni huquqiy tarbiyasini va huquqiy ongini shakllantirishda, huquqiy tarbiyani uzluksiz va izchil boʻlishini taqozo etadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqiy tarbiya va huquqiy taʼlim orqali amalga oshiriladi.

Tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, yosh avlodni axloqiy tarbiyalashga azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol koʻzga tashlanadi. Misol uchun, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xoʻjaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” va “Mahbub ul-qulub” asarlarida oʻz aksini topgan.

Binobarin, sogʻlom avlod tarbiyasida sharqona axloq-odob va umumbashariy maʼnaviy qadriyatlar, yoshlarimiz uchun ulkan maktabdir.

Maʼlumki, har bir jarayonning oʻz maqsadiga muvofiq boʻlgan vazifalari boʻladi. Huquqiy tarbiyaning vazifasi odamlar ongida huquqning ahamiyatini, maqsadini toʻgʻri tushunishni, uning talablarining haqiqatligini, ularga ongli ravishda rioya qilish zarurligini shakllantirishdan iborat [9;115-b.]. Demak, huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqiy tarbiya va huquqiy taʼlim orqali amalga oshiriladi. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham qonunni bilishi, unga amal qilish uchun, avvalo, uni yaxshi oʻzlashtirishi kerak.

Huquqiy taʼlimni va tarbiyani olgan shaxs qonunni yaxshi tushunishi, bilishi, hayotga tatbiq etishi, ijrosini taʼminlashi va har bir shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilishi, shuningdek, tatbiq eta olishi hamda soʻzsiz amal qilishi lozim. Demak, qonunlarga hurmat va itoatkorlik bu yuksak umummilliy madaniyatlikning aniq namoyon boʻlishi, hosilasi va mezonidir.

Huquqiy tarbiya, umumiy tarbiyaning ajralmas qismi boʻlganligi sababli, fuqarolarning qonunlarga itoatkorlik fazilatlarini, eng avvalo, mavjud qonun va qonunosti hujjatlarini puxta va aniq bilishi, rioya etishi, hurmat qilishini va ularga toʻlaqonli amal qilib yashashga chorlaydi. Chunki qonunga itoatkorlik – davlatda qonuniylikning yuzaga chiqishi va huquqiy tartibot tizimining asosini tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar.** Yangi Oʻzbekistonning istiqboli boʻlgan hamda tayanchimiz va suyanchigʻimiz hisoblangan yosh avlodni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash uchun tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, har bir jamiyatning huquqiy tarbiyasi mukammal boʻlsa, yoshlarning huquqiy ongi va tafakkuri oʻsib, huquqni anglash darajasi huquqiy madaniyati shunchalik yuqori darajada shakllanadi, jamiyatga keltiradigan foydasi katta boʻladi. Shuning uchun ham yoshlarni tarbiyalashda, avvalo, huquqiy tarbiyani tizimli, toʻgʻri va kompleks tarzda yondashish orqali tashkil qilishimiz kerak.

•buning uchun, avvalo, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga oʻzining salbiy tusuni koʻrsatuvchi holatlariga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirishimiz;

•huquqiy savodxonlikni oshirish boʻyicha interaktiv mashgʻulotlar olib borishimiz;

•huquqiy taʼlim-tarbiya borasidagi ishlar tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviy ravishda olib borishga alohida eʼtibor qaratish;

•huquqiy tarbiyasining yangi shakllarini yaratish vositalarini joriy etish;

•huquqiy savodxonlikni oshirish orqali yosh avlod ongiga huquq va burch, itoatkorlik, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqatni chuqur singdirib borish, konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab oʻrgatish;

•vatanparvarlikni, avvalo, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uygʻotishimiz orqali kuchaytirishimiz lozim.

Bu sa'y-harakatlar natijasida huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati o'sib kelayotgan yoshlarning go'zal tarbiyaga ega bo'lgan, ilmiy, jismonan yetuk inson bo'lib, farovon, baxtli hayot kechirishlari, qonunlarda belgilangan huquq va majburiyatlarini anglagan jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalashga xizmat qilishi, shubhasiz. Natijada butun O'zbekiston xalqi bundan manfaat topadi, yurt gullab-yashnaydi, davlatning ma'naviy va moddiy qudrati yanada mustahkamlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Симонов П., Ершов П. Темперамент. Характер. Личность. Москва, «Мысль», 1994, 144 с.
- (2). Стуканов В. Правосознание личности как предмет правового воспитания. "Народная асвета", 2016, №10, 18 с
- (3). Теория государства и права. Курс лекций. Под ред. Н.Матузова, А.Малко. "Юрист", 2001, 776 с.
- (4). Кваша А. Правовые установки граждан. Дис. канд.юридич.наук, Волгоград, 2002, 160 с.
- (5). Yusupov O., Ikromova H. Diniy va dunyoviy madaniyat uyg'unligi. Toshkent, «Ma'naviyat», 2015, 26-bet.
- (6). Права человека. Энциклопедический словарь. Отв.ред. С.С.Алексеев. М., "Юрид. норма", М., 2016, 589 с.
- (7). Davlat va huquq nazariyasi. Darslik, X.Odilqoriyev, I.Tulteyev va boshq., prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostid, Toshkent, 2020, 44-bet.
- (8). O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. 07.12.2017-yil. <https://president.uz/oz/lists/view/1328>
- (9). X.Odilqoriyev (tahriri ostida). Davlat va huquq nazariyasi. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010, 115-bet.
- (10). Sh.Mirziyoyev. "Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". 2-jild, "O'zbekiston", <https://e-library.sammu.uz/uz/book/94>, 2018, 82-bet.

**Rahmonova Mahfuza Xolmurodovna (Qarshi davlat universiteti  
"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari" kafedrasini mudiri, dotsent)  
O'ZBEKISTONDA MA'NAVIVY ISLOHOTLAR RIVOJI**

***Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston mustaqilligining ilk yillaridan boshlab ma'naviy islohotlarning boshlanish zarurati va uni amalga oshirish jarayoni haqidagi fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, so'nggi yillardagi ma'naviyatga jiddiy yondashuvlarning qaror topishi bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, ijtimoiy siyosat, ma'naviy tarbiya, ma'naviy hayot, ma'naviy yetuklik.*

**Рахмонова Махфуза Холмуродовна (заведующий кафедрой национальной идеи, основ духовности, доцент, Карши государственный университет)**

#### **РАЗВИТИЕ ДУХОВНЫХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ**

***Аннотация.** В статье представлены размышления о необходимости начала духовных реформ с первых лет независимости Узбекистана и о процессе их реализации. Приводятся также отзывы о роли и значении духовности в жизни человека и общества, о становлении серьезных подходов к духовности в последние годы.*

***Ключевые слова:** духовность, просвещение, культура, социальная политика, духовное воспитание, духовная жизнь, духовная зрелость.*

**Rahmonova Mahfuza Xolmurodovna (Head of the department of the national idea, foundations of spirituality, docent, Karshi State University)**

#### **DEVELOPMENT OF SPIRITUAL REFORMS IN UZBEKISTAN**

***Annotation.** The article provided feedback on the need for the beginning of spiritual reforms and the process of its implementation from the first years of independence of Uzbekistan. Also, the role and importance of spirituality in the life of a person and society has provided feedback on the decision-making of serious approaches to spirituality in recent years.*

***Key words:** spirituality, enlightenment, culture, social policy, spiritual education, spiritual life, spiritual maturity.*

**Kirish (Introduction).** XX asrning oxiri–XXI asr boshlariga kelib, milliy taraqqiyotimizda o'ziga xos yangi xususiyatlar vujudga keldi. Ma'naviyat iqtisodiyot kabi huquqiy-demokratik, fuqaroviy jamiyat qurishning muhim omili, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb e'tirof etildi. "Ana shunday

ijobiy o'zgarishlar asosida odamlarimizning dunyoqarashi, ongu tafakkuri yuksalmoqda. Ularning hayotga, mehnatga munosabati tubdan o'zgarimoqda. O'z kuchi va imkoniyatlariga, ertangi kunga bo'lgan ishonchi mustahkamlanmoqda" [1]. Ma'naviy yetuklik insoning o'z shaxsiy manfaatlarini, jamoa, el-ulus, yurt manfaatlariga moslashtira olishidir. Bu esa kishidan o'z manfaatlarini ham, jamiyat manfaatlarini to'g'ri tushunishni, soxta qadriyatlarga, jozibali, ammo puch va g'arazli chaqiriqlarga uchmaslikni, aldanmaslikni talab qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlarning asosiy maqsadi – milliy-madaniy qadriyatlar va ajdodlar merosini qayta tiklash, ularning asl mazmunini kelgusi avlodga yetkazish, insonparvarlik, bag'rikenglik tamoyillari asosida barkamol avlodni shakllantirishdir. Mamakatimiz xalqlarining tili, urf-odatalari, an'analari, dinidan qat'iy nazar, teng huquqlilikni ta'minlash, sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishdir. O'zbekiston xalqining tub manfaatlarini, yuksak orzu-umidlari, ezgu niyatlari va buyuk ishlarni amalga oshirish yosh avlodga bog'liq.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ko'zlangan oliyjanob maqsadlarga erishish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Chunki islohotlar bilan bir vaqtda taraqqiyot sur'ati ham sezilarli darajada tezlashdi. Bugungi kunda dunyoda axborot tarqatish kuchaydi, universal axborot texnologiyalari paydo bo'ldi. Bu esa g'oyaviy ta'sir o'tkazish ko'lamini kengaytirmoqda. Dunyoning biron nuqtasida sodir bo'lgan voqealar haqida xabarlar bir zumda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamlar ma'lum davlatlar va siyosiy kuchlarning, turli mafkuraviy markazlarning doimiy bosimini sezib yashashga majbur bo'lmoqda. Masalan, internet saytlarida g'arazli niyatda tarqatilayotgan har xil shov-shuvlar, mish-mishlar buzg'unchi g'oyalar tahdid mazmunidagi xabar va ma'lumotlar odamlarda vahima, qo'rquv uyg'otmoqda, huzur-halovatini o'g'irlamoqda. Bunday salbiy ta'sirlar, ayniqsa, hayotiy tajribasi kam, mustaqil fikrga ega bo'lmagan yoshlarni ko'proq chalg'itmoqda. Bu esa ta'lim va tarbiyaga yangicha yondashuvni, har bir insondan doimo ogoh va hushyor bo'lib yashashni talab qiladi.

Bugungi kun ma'naviy tarbiya jarayonini yanada takomillashitirishni, yoshlarda mafkuraviy va ma'naviy-madaniy immunitetni hosil qilishni o'ta dolzarb vazifaga aylantirmoqda."Ma'naviyat axloqdan boshlanib axloqda mujassamlashadi" [2]. Bir so'z bilan aytganda, sog'lom tarbiyani hayotga tatbiq etish, yoshlarni ezgu amallar va foydali ishlarga o'rgatish, yomon va zarali ishlarni qilmaslikka odatlantirish, har bir shaxsni ma'naviy yetuk bo'lishiga erishish, unda yuksak insoniy tuyg'u va xislatlarni shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xo'sh, nima uchun kishilar ongi va qalbi uchun kurash turli mafkuralarning bosh maqsadiga aylanib qoldi? Gap shundaki, muayyan g'oya tom ma'noda ta'sirli kuchga aylanishi uchun kishilar ongini egallashi, ularning qalbidan joy olishi shart. U shundagina insonni harakatga keltiruvchi kuchga aylandi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tajovuzlarning oldini olishda, ularga qarshi sog'lom mafkurani targ'ib qilishda ta'lim –tarbiya dargohlari, madaniy-ma'naviy muassasalar, mahalla, oila, turli jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari faoliyati muhim o'rin tutadi. Yoshlar ongiga sog'lom mafkurani singdirish jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini qamrab olishi darkor. Miliy mafkurani shunchaki hayotga tatbiq etib bo'lmaydi. U konkret yondashuvni, chuqur munosabatni talab qiladi. Quruq so'z va pand-nasihat bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Buning uchun katta avlod vakillarining namuna va o'rnak bo'lishlari, orttirgan hayotiy tajribalarini yosh avlodga o'rgatishlari muhim hisoblanadi. Buyuk fransuz ma'rifatparvari J.J. Russoning "Haqiqiy tarbiya qoidalarda emas, mashqlardadir" [3] degan hikmatli so'zi bugun hammamizdan yon-atrofimizda yuz berayotgan voqea va hodisalarga teran munosabat bildirishni va bu yo'nalishdagi ishlarimizni yanada kuchaytirishni talab qilmoqda.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Ma'lumki, har qanday maqadga erishishda mustahkam ishonch va e'tidoq hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mustahkam va barqaror e'tiqodni shakllantirishda yoshlarimizga zamonaviy bilim sirlarini puxta o'rgatish, ta'lim-tarbiyaga yangicha yondashuvni joriy qilish, tanqidiy va tahliliy munosabatni shakllantirish zarur. Yoshlarda milliy istiqlol g'oyasiga sodiqlik va yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar (Vatan tuyg'usi, milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, tarix, adabiyot, tasviriy san'at va h.k.) alohida ahamiyatga ega va ularni chuqur o'qitish lozim. Xususan, adabiyot olamni obrazli bilish, insoning badiiy-estetik ehtiyojlarini qondirish va tarbiyaviy funksiyani bajaradi. Rassom tomonidan chizilgan san'at asari uni ko'rgan odamga zavq-shavq bag'ishlaydi, estetik ehtiyojlarini qondiradi va uni go'zallik va ezgulikka oshno etadi. Uni ta'sirlanishiga va hayratiga sabab bo'ladi. Sahnada ijro qilinayotgan spektaklni ko'rgan odam qahramon qiyo-fasida odamlardagi, jamiyatdagi kamchiliklar, yutuqlar, illatlarni ko'radi. O'zining va boshqalarning harakatiga baho beradi, nimani qilish mumkin va mumkin emasligini anglaydi. O'ylaydi, fikrlaydi, mushohada

yuritadi va shu asosda o'zida ijobiy his-tuyg'ularni sezadi. Masalan, "Oltin devor" spektaklida tinch va osoyishta yashayotgan kishining eski devor ostidan oltin topib olishi va bu uning hayotini ag'dar-to'ntar qilganligi haqida hikoya qilinadi. Bunda oltining topilishi va oltin vasvasasi orqali inson his-tug'ularining tinim bilmasligi, tez o'zgarishi, inson ongidagi beqarorlik holatlari ifodalanganligini ko'rish mumkin. Qahramoning boylikdan eskankirab qolishi, bir qarorga kelishga qiynalishi kulgili yoritib beriladi. Oltin vositasida qahramonning ma'naviyatida kemtiklik borligi (ko'p yillik qo'shnisi bilan munosabatning buzilishi) va irodasizligi, jur'atsizligi (boylikni davlatga topshirib, maktab va kasalxonalar bunyod etish haqidagi fikrida bir to'xtamga kela olmasligi) namoyon bo'ladi. Albatta, buni ko'rgan tomoshabin xuddi shu holatda o'zini tasavvur qiladi, qalbida ezgulik va yaxshilik bo'lgan ishtiyoq ortadi, el-yurt taqdiriga aloqadorlik hissi kuchayadi.

San'at asari insonni zamon talablari asosida yashashga moslashtirib, o'zligini tushunish jamiyat va davlat manfaatlarini anglashga da'vat etadi. Olib borilayotgan islohotlarning tub mazmunini tushunish va uni anglab yetish, bu talablarni o'z faoliyatida qo'llay bilish inson ma'naviyati bilan bevosita bog'liq. Chunki ma'naviyat bu, avvalo, munosabatdir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** Mustqillikning dastlabki kunlaridan boshlab moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligiga erishish borasida ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilmogda. O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar ta'sirida shaxs ma'naviy qiyofasi ham o'zgaradi. Fuqarolar ruhiyati va dunyoqarashida yangi elementlar paydo bo'ldi. Xususiyl mulkchilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochib berildi. Bir so'z bilan aytganda, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar o'zaro mutanosiblik kasb etmogda. Olib borilayotgan ma'naviy sohadagi islohotlarning pirovardida ma'nau yetuk, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi turibdi. Iqtisodiy islohotlarimiz esa xalqimizni farovon yashashini ta'minlashdek olijanob vazifaga qaratilau. Iqtisodiyot jamiyat hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi va uning barcha sohalaridagi munosabatlar tabiatini belgilab beradi [4]. Xulosa shuki, chinakam bilimni shakllantirish, ma'naviy tarbiya jarayonini izchil va uzluksiz amalga oshirish orqali har qanday tahdid va tazyiqni oldini olish va bartaraf etish mumkin. Buning uchun esa jamiyatimizning har bir a'zosi islohot va o'zgarishlarning nimaga qaratilganini, qanday amalga oshirilishi va uning natijasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i va faoliyatini shu asosda tashkil etishi muhimdir. Xalqimiz ko'ngilidagi mustahkam ishonch, tilidagi cheksiz shukronalik tuyg'usi, minnatdorchilik kayfiyatining asosiy boisi olib borilayotgan islohotlarning xalqchil ekanligidan ularning barchasi inson omiliga, uning manfaatlariga xizmat qilishidadir. Bu jarayonda ma'naviyat insonga kuch bag'ishlaydi, uni harakatga undaydi va uning mustahkam ishonchiga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Mirziyoyev Sh.M. Ona-Vatanimizning yuksak e'tirofi. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild, T., "O'zbekiston", 2017, 96-bet.
- (2). Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Ikkinchi tom, T., "Ma'naviyat", 2018, 133-bet.
- (3). V.Voronsov. Tafakkur gulshani. T., Gafur G'ulom nomidagn Alabiyot va san'at nashriyoti, 1989, 127-bet..
- (4). Spirkin A.G. Filosofiya. M. "Gardariki", 2000, 592-657-betlar.

**Abdullayev Bahodir Ismailovich (Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi, Urganch Ranch texnologiya universiteti dekani o'rinbosari; bahodirabdullayev@gmail.com; O'zbekiston, Urganch shahri)**  
**MA'NAVIY MADANIYAT TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI, FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada ma'naviy-axloqiy muhitini barqarorlashtirish milliy rivojlanishning muhim omili hisoblanishi, ma'naviyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanganligi va ma'naviyat – bu, insonning ichki olami, uning tasavvurlari, tushunchalari, qarashlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari, ichki haqiqatlari va qadriyatlarini yaxlit holda ifodalashi hamda ma'naviyat kategoriyalari haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ma'naviyat, eklektik yondashuv, lm-fan va ma'naviyat, ma'naviyatning namoyon bo'lishi, virtual ma'naviy ma'ruzalar, huquqiy-axloqiy me'yorlarga moslashtirish, ta'lim samaradorligining asosiy mezonlari, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati, pedagogik faoliyatning xususiyatlari, ma'naviy g'oyalar va amaliyotlar, ma'naviy madaniyat evolutsiyasi.*

Абдуллаев Баходир Исмаилович (научный исследователь Ургенчского государственного университета, замдекана Ургенчского технологического университета Ranch;  
[bahodirabdullavev@gmail.com](mailto:bahodirabdullavev@gmail.com));

## СОДЕРЖАНИЕ, ФУНКЦИИ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОНЯТИЯ ДУХОВНАЯ КУЛЬТУРА

**Аннотация.** В данной статье стабилизация духовно-нравственной среды рассматривается как важный фактор национального развития, продвижение духовности стало одним из приоритетов государственной политики, а духовность – это внутренний мир человека, его воображение, обсуждаются понятия, взгляды, чувства, отношения, внутренние истины и ценности в целом, а также категории духовности.

**Ключевые слова:** духовность, эклектический подход, наука и духовность, проявление духовности, виртуальные духовные лекции, адаптация к правовым и этическим нормам, основные критерии эффективности образования, универсальная сущность ценностей, особенности педагогической деятельности, духовные идеи и практики, эволюция духовной культуры.

### CONTENT, FUNCTIONS AND DEVELOPMENT FEATURES OF THE CONCEPT OF SPIRITUAL CULTURE

**Annotation.** In this article, the stabilization of the spiritual and moral environment is considered as an important factor in national development, the promotion of spirituality has become one of the priorities of state policy, and spirituality is the inner world of a person, his imagination, concepts, views, feelings, relationships, inner truths and values are discussed in general, as well as categories of spirituality.

**Key words:** spirituality, eclectic approach, science and spirituality, manifestation of spirituality, virtual spiritual lectures, adaptation to legal and ethical standards, basic criteria for the effectiveness of education, the universal essence of values, features of pedagogical activity, spiritual ideas and practices, the evolution of spiritual culture.

**Kirish (Introduction).** Jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini barqarorlashtirish milliy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Shuning uchun ham ma'naviyatni yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu qonuniyatni anglash, davlat siyosatiga nazariy asos qilib olish, uning to'g'ri va ilmiy asoslashni taqozo qiladi.

Ma'naviy madaniyat-madaniy, diniy va falsafiy nuqtayi nazardan farq qiluvchi keng va ko'p qirrali tushunchani anglatadi. Mazkur terminning izohi har xil bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ma'naviy madaniyat, odatda, ma'lum bir guruh yoki jamiyatdagi ma'naviyat bilan bog'liq jamoaviy va individual ifodalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, urf-odatlar va tajribalarni anglatadi. Mazkur konseptni yanada chuqurroq tushunish uchun uning asosini tashkil etuvchi ikki asosiy subkonspetlar, ya'ni ma'naviyat va madaniyatning mohiyatini anglash lozim.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** A.Erkayevning ta'kidlashicha, "Ma'naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura, insonning odobi, axloqiy fazilatlar, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlar, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma'nodagi orzu-havaslar va rejalari dahldordir" [1;11-b.]. Ma'naviyat –bu, insonning ichki olami, uning tasavvurlari, tushunchalari, qarashlari, his-tuyg'ulari, munosabatlari, ichki haqiqatlari va qadriyatlarini yaxlit holda ifodalaydi.

Ma'naviyat kategoriyasining asosida arabcha "ma'no" so'zi yotadi. Demak, ma'naviyat – insonning ma'nosi. Insonning ma'naviy qiyofasi uning shu ichki olamida namoyon etiladi. Professor Q.Nazarov e'tirof etganidek, ma'naviyat insonning ichki va tashqi xatti-harakati, go'zalligi, his-tuyg'ulari, kechinmalarini aks ettiradi. Ma'naviyat insonlardagi yuqori darajada takomillashgan insonparvarlik fazilatlarining yig'indisi. Ma'naviyat keng qirrali sermazmun va insondagi nozik tomonlarni qamrab olgan falsafiy tushunchadir. Ma'naviyat – insonlarning o'zaro munosabatlari, olgan ta'lim-tarbiyalari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va ichki olamlarida namoyon bo'lgan holda, insonlarning xatti-harakatlari, munosabatlari belgilaydigan tizimdir [2;91-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasi uchun qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil, mantiqiylik, ilmiylik va xolislik metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Madaniyatni inson yaratadi va madaniyat yaratilishining natijasi ham aslida insonning o'zi ekanligi haqidagi qarashlar turli tarixiy davrlarda yashab ijod qilgan faylasuflar M.Sitseron, J.Gerder, G.Gegel tomonidan tasdiqlagan. J.Gerder madaniyatni "insonning ikkinchi

tugʻilishi” deb taʼrif berar ekan, unga til, sanʼat, fan, din, hunarmandchilik, oilaviy munosabatlar, davlat boshqaruvi, anʼana va urf-odatlar mansubligiga alohida nisbat bergan. E.Kassirer inson nafaqat jismoniy, balki ramziy dunyoda ham yashashini taʼkidlaydi.

Uning fikricha, bu dunyo til, afsona, sanʼat, din kabi qismlardan iborat boʻlib, ular ramziy maʼnoda inson tajribasi bilan bogʻlangan [3;96–97-b.]. Insonning atrofini til shakllari, badiiy obrazlar, diniy urf-odatlar shu qadar oʻrab olganki, u faqat shu vosita orqali koʻrishi, bilishi va anglashi mumkin. M.Berdyayev madaniyatni sigʻinish bilan bogʻlab, uning asosini diniy sigʻinish tashkil qiladi deb hisoblaydi [4;679-b.]. N.I.Shevchenko shunday deb yozadi: “Maʼnaviy qadriyatlar insonning hayotini tashkil qiladi. Ular jamiyatni barqarorlashtirish, uning buzilishining oldini olishga qaratilgan ijodiy va konstruktiv mexanizmlari boʻlib, doimo muntazamdir” [5]. Maʼnaviyat mavjudlikning asosini, har bir hayotiy harakatni yuksak axloqiy-estetik yoki diniy qadriyatlar bilan taʼminlashga imkon beradigan shaxsning tashqi va ichki holatining uygʻunligini ifodalaydi. V.I.Dalning aytishicha, “maʼnaviyat – bu ruhiy holat. Maʼnaviyat jismdan emas, faqat ruhdan iborat ... inson qalbiga tegishli barcha narsalar, uning barcha aqliy va axloqiy kuchlari, aqli va irodasi uning maʼnaviyatini belgilaydi” [6;1880-b.]. Haqiqatdan ham, maʼnaviyat axloqiy va intellektual manfaatlarning moddiy manfaatlardan ustunligini koʻrsatadi.

Maʼnaviyat tushunchasi adabiyotlarda uch xil nuqtayi nazarga koʻra talqin qilinadi:

1. Diniy tajriba nuqtayi nazariga koʻra.
2. Axloqiy qadriyatlarga egalik nuqtayi nazariga koʻra.
3. Estetik tamoyilga koʻra.

Hayotning maʼnaviyligini ideallar, qadriyatlar, shaxsiy tanlov va inson faoliyati modeli orqali idrok etish mumkin. Zamonaviy insonning maʼnaviyati yuqoridagi turlarning uygʻun birlashuvini oʻz ichiga oladi. Maʼnaviy madaniyatga egalik – haqiqat, ezgulik va goʻzallikning birligini bildiradi. Bunday maʼnaviyatning asosiy mezonlaridan biri maqsadga yoʻnalganlik boʻlib, ideal maqsadlarni belgilash maʼnaviy rivojlangan shaxsning koʻrsatkichidir. Zero, inson borligining mazmunini tashkil etuvchi asosiy hayotiy qadriyatlar haqida fikr yuritish va oʻz hayotidagi tanlovlarni oʻzi qilish, oʻz taqdirini oʻzi belgilash deb tushuniladigan erkinlik, yaʼni tashqi sharoitlar bosimi ostida emas, balki oʻz maqsadlari va qadriyatlariga muvofiq harakat qilish qobiliyati yuksak maʼnaviy madaniyatdan dalolat beradi. Inson maʼnaviyati tushunchasi – shaxs qadriyatlar tizimi, uning fikr-mulohazalari, tafakkuri, oʻzi haqidagi, oʻz irodasini belgilovchi xatti-harakatlarini qamrab oladi. Maʼnaviyat bu insonning shaxsiy oʻziga xosligi, uning oʻz intellektual va axloqiy-psixologik salohiyati orqali voqelikni aks ettirish qobiliyatidir.

Maʼnaviy ongning kategoriyalari burch, insoniylik, ezgulik, adolat, xushmuomalalik, halollik boʻlsa-da, uning markaziy kategoriyasi vijdondir. Maʼnaviyatning mavjudligi, ruhning tozaligi, shaxs ruhiyatining ijodiy cheksiz imkoniyatlarga ochiqligi, qalbning komillikka, erkinlikka, yaxlitlikka doimiy tashnalgida namoyon boʻladi. Umumlashtiradigan boʻlsak, zamonaviy yoshlarni tarbiyalashda maʼnaviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish va targʻib qilishda, mazkur jarayonga jamiyatning oʻzi taʼsir qilishini hisobga olish kerak. Jamiyat taʼsirida insonning ijtimoiy tabiatini oʻzgartirish istiqbollari aks etadi. Yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda maʼnaviy madaniyatga ega shaxs va intellektual madaniyatga ega shaxs oʻrtasida farq paydo boʻladi.

Demak, maʼnaviy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

–maʼnaviy madaniyat shaxsiy fazilat sifatida insonning oʻz tarixini, oʻz xalqi tarixi bilan birlikda tushunish, oʻz hayotidan maqsadini anglash, oʻz hayoti uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish qobiliyatida namoyon boʻladi;

–maʼnaviy madaniyat, shaxsning haqiqatga, ezgulikka, goʻzallikka intilishida, boshqa odamlar bilan muloqot qilishga intilishida, tabiatga mehr bilan munosabatda boʻlishida namoyon boʻladi, yuksak maʼnaviyat bilan ajralib turadigan inson oʻzining salbiy jihatlarni yengishga qodir boʻladi;

–maʼnaviy madaniyat shaxsning axloqiy, madaniy, diniy qadriyatlar dunyosining yuqori darajada rivojlanganligini, shaxs individual dunyosini, uning asosiy xususiyatlarini ochib beruvchi psixik hodisalar majmuyi, shaxsning ideallari, eʼtiqodlari, axloqiy fazilatlarini, shaxsning dunyoni bilish, anglash va ijtimoiy (boshqa ehtiyojlar uchun yashash) yuksalishi uchun motivatsiyasini anglatadi.

Madaniyat tushunchasi keng maʼnoda kishilarning faoliyati va hayotiga oid ijod qilish, yaratish jarayonlarining hamma bosqich va turlarini qamrab olsa, tor maʼnoda, ularning maʼnaviy hayot tarziga oidlik maʼnosida qoʻllanilishi maʼlum. Zamonaviy jamiyatda maʼnaviy madaniyatning rivojlanishi eʼtiqodlar, qadriyatlar va odamlarning oʻzaro munosabatlaridagi dinamik oʻzgarishlarni aks ettiradi. Jamiyatlar turli oʻzgarishlarga uchrar ekan, maʼnaviy madaniyatning roli ham moslashib, oʻzgarib bordi.



XXI asr individualizm yuksalishining guvohi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shaxsiy tajriba va individuallikka, mustaqillikka urg'u berish ma'naviyatga nisbatan eklektik yondashuv paydo bo'lishiga olib keldi. Sharqiy ma'naviy an'analardan olingan tajribalar zamonaviy jamiyatning turli jabhalariga, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarga integratsiya qilinmoqda, bu esa ilm-fan va ma'naviyat o'rtasidagi tafovutning bartaraf etilishiga olib keldi. Raqamli asr ma'naviyatning namoyon bo'lish shakliga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi, onlayn hamjamiyatlar, virtual ma'naviy ma'ruzalar berish osonlashdi. Texnologiyalarning rivojlanishi ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini osonlashtirdi, natijada zamonaviy jamiyatdagi ko'p odamlar o'zlarining ma'naviy e'tiqodlarini ijtimoiy adolat va insonparvarlik harakatlari bilan uyg'unlashtiradilar.

Akademik O.Suxomlinskaning fikricha, shaxs va jamiyat ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiya yetakchi o'rin tutadi. Ushbu tushunchalarning ma'nosi va mazmuni ta'lim va tarbiyaning ma'lum bir tarixiy davrga ijtimoiy aloqadorligiga bog'liq [7;287–299-b.]. Olim ma'naviyatga falsafiy, teologik, madaniy, antropologik, sotsiologik, psixologik, eng muhimi, pedagogik kontekstlardan qarash kerak, deb hisoblaydi.

Zero, A.Aliyarov ta'kidlaganidek, "Ma'naviy qadriyatlar yosh avlodga yanada teran anglab yetish, jamiyatning huquqiy me'yorlariga rioya etish, o'zlarining hayot tarzini huquqiy-axloqiy me'yorlarga moslashtirishga yordam beradi. Shuning uchun ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plangan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim samaradorligining asosiy mezonlari sanaladi. Chunki falsafiy milliy va umuminsoniy qadriyatlarining mohiyati pedagogik faoliyatning xususiyatlari, uning ijtimoiy roli va shaxsni shakllantirishdagi imkoniyatlari bilan belgilanadigan milliy va umuminsoniy qadriyatlar pedagogikada ham madaniy yondashuvni talab qiladi" [8].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Globallashuv madaniyatlar o'rtasida ma'naviy g'oyalar va amaliyotlar almashinuvini osonlashtirdi, natijada shaxslar turli xil ma'naviy ta'limotlar va amaliyotlardan ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Zamonaviy jamiyat zamonaviy ehtiyojlarga javob beradigan yangi ma'naviy harakatlar va amaliyotlarning paydo bo'lishiga guvoh bo'ldi. Umuman olganda, zamonaviy jamiyatda ma'naviy madaniyat evolutsiyasi an'anal va innovatsiyalar o'rtasidagi dinamik munosabatni aks ettiradi. Odamlar o'zlarining ma'naviy sayohatlarini turli yo'llar bilan oshirishga harakat qilmoqdalar, ular qadimgi xalq axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarini zamonaviy tushunchalar bilan uyg'unlashtirmoqdalar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи том. Т., "Маънавият", 2018, 11 бет.
- (2). Назаров Қ.Н. Аксиология (Қадриятлар фалсафаси). Т., "Академия", 2011, 91-бет.
- (3). Кассисер Е. Опыт о человеке [Эссе о человеке]. Человек, 1990, 3, р. 96 – 97.
- (4). Berdyayev N.A. Dukh i realnost' [Spirit and reality]. Moscow, AST; Khar'kov: Folio, 2006, 679 p.
- (5). N.I.Shevchenko, Revival of spirituality: monograph (Belgorod, изд-во BGTU im. V.G.Shuhova, 2004).
- (6). V.I.Dal'. Explanatory dictionary of the living Great Russian language (Moskva, Izdanie knigoprodavca tipografa M.O.Vol'fa 1, 1880).
- (7). Сухомлинська, О.В. (2019). Духовність як надбання особистості: український вимір. В кн. Й.Кевішас, О.М.Отіч (Уклад.), Горизонт духовності виховання (с. 287–299). Вільнюс, "Zuvedra".
- (8). А.Д.Алиyarov. Олий таълим муассасалари талабаларида маънавий қадриятларни ривожлантриш. Дисс. пед.фан., Тошкент, 2020.

**Madatov Xabibulla Axmedovich (f.-m.f.n., dotsent, Urganch davlat universiteti "Kompyuter ilmlari" kafedrasini mudiri; habi1972@mail.ru)**

#### **TF-IDF USULI YORDAMIDA O'ZBEKCHA MATNING MUHIM QISMINI TOPISH**

*Annotatsiya.* Berilgan matnning nomuhim so'zlar kam uchraydigan qismi matnning muhim qismi kabi qaraladi. Matnning muhim qismini avtomatik topish masalasi berilgan matndan kalit so'zlarni avtomatik topish, berilgan matnni avtomatik xulosalash kabi tabiiy tillar jarayoni (NLP) masalalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu maqolada TF-IDF usuli asosida o'zbek tilida yozilgan matnning muhim qismini topish masalasi tadqiq qilingan.

*Kalit so'zlar:* muhim qism, TF, IDF, TF-IDF, unikal so'zlar lug'ati.

#### **НАХОЖДЕНИЕ ВАЖНОЙ ЧАСТИ УЗБЕКСКОГО ТЕКСТА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДА TF-IDF**

*Аннотация.* Часть данного текста, в которой несущественные слова встречаются редко, рассматривается как важная часть текста. Проблема автоматического поиска важной части

текста тесно связана с задачами обработки естественных языков (НЛП), такими как автоматический поиск ключевых слов из заданного текста, автоматический вывод заданного текста. В данной статье на основе метода TF-IDF исследуется проблема поиска важной части текста, написанного на узбекском языке.

**Ключевые слова:** важная часть, TF, IDF, TF-IDF, словарь уникальных слов.

## FINDING THE IMPORTANT PART OF THE UZBEK TEXT USING THE TF-IDF METHOD

**Annotation.** The part of the given text, in which stop words are rare, is considered as the important part of the text. The problem of automatic search of the important part of the text is closely related to the tasks of natural language processing (NLP), such as automatic search of keywords from the given text, automatic output of the given text. In this article, based on the TF-IDF method, the problem of finding the important part of the text written in the Uzbek language is studied.

**Key words:** important part, TF, IDF, TF-IDF, dictionary of unique words.

**Kirish.** Matnni intellektual tahlil qilish bu sun'iy intellektning yo'nalishi bo'lib, uning maqsadi mashina o'rganish va tabiiy tilni qayta ishlashning amaliy usullaridan foydalanishga asoslangan matnli hujjatlar to'plamidan ma'lumot olishdir. Matnni avtomatik tahlil qilish atamasi matnni intellektual tahlil qilishning dastlabki bosqichiga mos keladi. Bu esa matnni intellektual tahlil qilish va matnni avtomatik tahlil qilishning maqsadlarini, axborotni qayta ishlashga yondashuvlarni va ularning qo'llanilish sohaslarining o'xshashligini ifodalaydi. Matnni avtomatik tahlil qilish masalasi yechim topmas ekan, matnni intellektual tahlil qilish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Shu fikrni e'tiborga olgan holda, kam resursli (elektron resurs nuqtayi nazaridan) tillar sinfiga mansub o'zbek tili uchun o'zbek tili matnlarining intellektual tahlilini matnlarni avtomatik tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Matnni avtomatik tahlil qilish yuzasidan qilingan asosiy ishlar sifatida matnni so'zlarga ajratish, so'zlarning o'zaro leksik va sintaktik munosabati, so'zlarning semantik munosabati, gaplar, jumalarning semantik munosabatlarini aniqlash, shuningdek, matndagi nomuhim so'zlarni ajratib olish, matnning muhim qismi topish, matnni xulosalash kabi ishlarni keltirish mumkin. Yuqoridagi masalalar uchun matnning muhim qismini topish masalasi dolzarb ekanligi ma'lum bo'ladi. Ushbu maqolada o'zbek tili matnlarining TF-IDF usuli asosida muhim qismini avtomatik topish masalasini ko'rib chiqamiz.

**Dastlabki ma'lum ma'lumotlar, atamalar.** Term Frequency (TF), so'z chastotasi deganda so'zlarning hujjatda necha marta paydo bo'lishini hisoblash tushuniladi. Tabiiy til kontekstida atamalar so'z yoki iboralarga mos keladi. Lekin atamalar matndagi har qanday tokenni ham ifodalashi mumkin. Hammasi uni qanday aniqlashga bog'liq. So'z chastotasi, odatda, deep learning, machine learning va berilganlar qidirish vazifalarida qo'llaniladi. So'zning TFi quyidagicha hisoblanadi:

$$TF(a) = \frac{s}{N}$$

Bu yerda:  $s$  –  $a$  so'zning berilgan matnda paydo bo'lishlarning soni.  $N$  – matndagi jami so'zning soni.

Inverse Document Frequency (IDF), teskari hujjat chastotasi. So'zning chastotasi bilan bog'liq muammo shundaki, matnda tez-tez uchraydigan so'zlar doim ham eng muhim so'z bo'lavermaydi. IDF tushunchasi – bu hujjatlar to'plamida yoki matnda tez-tez uchraydigan so'zlarning vaznini kamaytirish maqsadida kiritilgan. Ya'ni so'z IDFni berilgan so'z hujjatlarning barchasida ishtirok qilganligini ham e'tiborga oladi. So'z IDFni quyidagicha hisoblanadi:

$$IDF(a) = \ln\left(\frac{N}{m}\right)$$

bu yerda:  $N$  – jami hujjatlar soni,  $m$  –  $a$  so'zni o'z ichiga olgan hujjatlar soni.

Nomuhim so'zlar. Agar so'zlarni matndan olib tashlaganda, ular matnning ma'nosini mantiqan o'zgartirmasa yoki kam o'zgartirsa, bunday so'zlar nomuhim so'zlar deb ataladi.

TF-IDF. Matnda shunday so'zlar uchraydiki, ularning chastotasi yuqori bo'lgani bilan bu so'zlar nomuhimdir. Shunday so'zlar borki, ularning chastotasi kichik bo'lgani bilan bu so'zlar matn uchun muhimdir. Chastotasi yuqori bo'lgan nomuhim so'zlarning son qiymatini pasaytirish va muhim so'zlarning son qiymatini oshirish maqsadida matndagi  $a$  – so'zning chastotasini  $TF(a)$ ni uning  $IDF(a)$  – teskari matn chastotasiga ko'paytiramiz va uni  $TF-IDF(a)$  deb belgilaymiz. Ba'zan  $TF-IDF(a)$ ni  $a$  so'zning vazni deb ataymiz [1].

Noyob so'zlar. A matn noyob so'zlari lug'ati deb, A matndan so'zlar ketma-ketligini buzmaganda holda takror uchraydigan so'zlardan birinchisini olib (qolganlarini tashlab), takrorlanmas so'zlarning barchasiga aytiladi.

**2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oldingi tadqiqotlarimizda o'zbek tilidagi matndan nomuhim so'zlarni avtomatik aniqlash, nomuhim so'zlarning matndagi o'rni masalalari bilan shug'ullangan edik

[2]. Quyidagi ishlar mavzu doirasida yaqin bo‘lib, o‘zbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash jarayoni (TTQIJ)ni o‘rganishga bag‘ishlanadi. Maktab korpusi misolida o‘zbek tili matnlaridan nomuhim so‘zlarini avtomatik ajratib olish bo‘yicha ishlar tadqiq qilingan (X.Madatov va boshqalar. 2022) [3] va (X.Madatov va boshqalar. 2022) [4]. O‘zbek tili matnlaridan nomuhim so‘zlarni avtomatik aniqlashning aniqlik darajasi (X.Madatov va boshqalar. 2022a) [5], o‘zbek tilining matnlarini avtomatik stemming va lemmalash masalasi (Sharipov va Sobirov. 2022) [6]. O‘zbek tilida TTQIJ bilan bog‘liq tadqiqot ishlari va resurslari, jumladan, mashina transliteratsiyasi vositasi (Salaev va boshq. 2022a) [7], hissiyotlarni tahlil qilish ma’lumotlar to‘plami va analizator modellari (Kuriyozov va boshqalar) [8] ishlab chiqarishda so‘nggi paytlarda o‘shish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

**3. Tadqiqot metodologiyasi.** Matnning nomuhim so‘zlar kam uchragan qismi gaplari to‘plamiga matnning muhim qismi deymiz. Statistik taqqiqotlarga ko‘ra, berilgan matnning muhim qismi yoki matnning boshida, yoki o‘rtasida, yoki oxirida bo‘ladi. Berilgan matnning muhim qismini topish va tahlil qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshiramiz.

Matn berilgan bo‘lsin. Uni  $A$  orqali belgilaymiz. Matnni so‘zlarga, ya’ni tokenlarga ajratamiz (Token – bo‘sh joy belgisi bilan boshlanuvchi va bo‘sh joy belgisi bilan tugaydigan, bo‘sh bo‘lmagan belgilar ketma-ketligidir).

Token (Matn)  $\rightarrow \{a_1, a_2, \dots, a_n\}$ , bunda  $n$  – matndagi jami tokenlar soni.

Natijani  $\{a_1, a_2, \dots, a_n\}$  ko‘rinishda yozib olamiz. A matn noyob so‘zlari lug‘ati deb, A matndan tokenlar ketma-ketligini buzmaganda takror uchraydigan tokenlardan birinchisini olib (qolganlarini tashlab), takrorlanmas tokenlarning barchasini matnda kelish tartibida olib tuzilgan lug‘atga aytiladi. Ya’ni,

$\{a_1, a_2, \dots, a_n\} \xrightarrow{\text{noyob}} \{u_1, u_2, \dots, u_m\}$ ,  $m$  – matndagi noyob so‘zlar soni.

(I) modelga, asosan, noyob so‘zlarning TF-IDF qiymatini hisoblaymiz [9]:

$\{u_1, u_2, \dots, u_m\} \rightarrow \{TFIDF(u_1), TFIDF(u_2), \dots, TFIDF(u_m)\}$ .

(II) modelga asosan, noyob so‘zlarning muhimlik ehtimolini topamiz [9]:

$$\{TFIDF(u_1), TFIDF(u_2), \dots, TFIDF(u_m)\} \rightarrow \{p_1, p_2, \dots, p_m\} \rightarrow p_i = \frac{TFIDF(u_i)}{\sum_{i=1}^m TFIDF(u_i)}$$

Muhimlik ehtimoli orqali noyob so‘zlarning matematik kutilmasi hisoblanadi. Tabiiyki, savol tug‘iladi: matnning qaysi joylarida nomuhim so‘zlar ko‘p uchraydi? Bu savolga javob berish uchun matematik kutilmani hisoblaymiz:

$$E = \sum_{i=1}^m i * p_i$$

Bu yerda:  $m$  – noyob so‘zlar soni,  $i$  – so‘zning indeksi,  $p_i$  har bir so‘zning muhimlik ehtimoli.  $E$  – matematik kutilmadan kvadratik chetlanish  $\sigma$  ni topish uchun dispersiyani hisoblaymiz:

$$D = \sum_{i=1}^m (i - E)^2 * p_i$$

Formula orqali noyob so‘zlarning dispersiyasini hisoblaymiz. Dispersiya orqali noyob so‘zlarning o‘rtacha kvadratik chetlanishini hisoblaymiz:

$$\sigma = \sqrt{D}$$

$$E_k = \sum_{i=1}^m p_i * i^k$$

Formulasi orqali noyob so‘zlarning  $k$ -tartibli momentini topamiz. Shu orqali noyob so‘zlarning uchinchi tartibli markaziy momentini hisoblaymiz.


$$\mu_3 = E_3 - 3 * E_1 * E_2 + 2 * E_1^3$$

Hisoblangan markaziy moment qiymati orqali nazariy taqsimot assimetriyasini topamiz:

$$A_s = \frac{\mu_3}{\sigma^3}$$

Matnning muhim qismi assimetrik qiymatiga qarab aniqlanadi. Ya’ni, agar berilgan matn uchun:

$A_s < 0$  bo‘lsa, muhim qismi matnning oxirida joylashgan bo‘ladi. Uni ifodalash uchun  $E$  va  $\sigma$  qiymatlaridan  $b_1$  va  $b_2$  larni hisoblaymiz:



2.7-rasm. Matnning muhim qismi matn oxirida joylashgan.

Noyob soʻzlarning lugʻatdada joylashgan tartib raqami  $\{1, 2, \dots, m\}$  ekanligi bilgan holda, yuqorida hisoblangan  $b_1$  va  $b_2$  larning qiymatini joylaymiz:

$$\{1, 2, \dots, b_1, \dots, b_2, \dots, m\} \quad (1)$$


Noyob soʻzlar lugʻatidan tartib raqami  $b_1$  va  $b_2$  qimatiga mos soʻzlarni (2)dagi koʻrinishda topib olamiz:

$$\{1, 2, \dots, b_1, \dots, b_2, \dots, m\} \rightarrow \{u_1, u_2, \dots, u_{b_1}, \dots, u_{b_2}, \dots, u_m\} \quad (2)$$

2.7-rasmda tasvirlangan, matnda birinchi uchragan  $u_{b_1}$  soʻzidan boshlanib, birinchi uchragan  $u_{b_2}$  soʻzigacha boʻlgan qismi berilgan matnning muhim qismi qilib olinadi, qolgani tashlab yuboriladi.

$A_s > 0$  boʻlsin. Berilgan matnning muhim qismi matnning boshida joylashgan boʻladi. Uni ifodalash uchun  $E$  va  $\sigma$  qiymatlaridan foydalanib,  $b_1$  va  $b_2$  larni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} b_1 &= E - 2\sigma \\ b_2 &= E. \end{aligned}$$




2.8-rasm. Matnning muhim qismi matn boshida joylashgan.

Noyob soʻzlarning lugʻatida joylashgan tartib raqamini keltirib, hisoblangan  $b_1$  va  $b_2$  larning qiymatini (1) koʻrinishda joylaymiz. Shu orqali noyob soʻzlarning lugʻatidan  $b_1$  va  $b_2$  qimatiga mos soʻzlarni (3) dagi koʻrinishda topib olamiz:

$$\{1, 2, \dots, b_1, \dots, b_2, \dots, m\} \rightarrow \{u_1, u_2, \dots, u_{b_1}, \dots, u_{b_2}, \dots, u_m\} \quad (3)$$

2.8-rasmda tasvirlangan, matnda birinchi uchragan  $u_{b_1}$  soʻzidan boshlanib, birinchi uchragan  $u_{b_2}$  soʻzigacha boʻlgan qismi berilgan matnning muhim qismi qilib olinadi, qolgani tashlab yuboriladi.



2.9-rasm. Matnning muhim qismi matn oʻrtasidada joylashgan.

$A_s = 0$  boʻlsin. Berilgan matnning muhim qismi oʻrtasida joylashgan boʻladi. Uni ifodalash uchun  $E$  va  $\sigma$  qiymatlaridan  $b_1$  va  $b_2$  larni hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} b_1 &= E - 2\sigma \\ b_2 &= E + 2\sigma. \end{aligned}$$

Noyob soʻzlarning lugʻatida joylashgan tartib raqamini keltirib, hisoblangan  $b_1$  va  $b_2$  larning qiymatini (1) koʻrinishda joylaymiz. Shu orqali noyob soʻzlarning lugʻatidan  $b_1$  va  $b_2$  qimatiga mos soʻzlarni (4) dagi koʻrinishda topib olamiz:

$$\{1, 2, \dots, b_1, \dots, b_2, \dots, m\} \rightarrow \{u_1, u_2, \dots, u_{b_1}, \dots, u_{b_2}, \dots, u_m\} \quad (4)$$

2.9-rasmda tasvirlangan matnda birinchi uchragan  $u_{b_1}$  soʻzidan boshlanib, birinchi uchragan  $u_{b_2}$  soʻziga boʻlgan qismi berilgan matnning muhim qismi qilib olinadi, qolgani tashlab yuboriladi.

**4. Natija.** Yuqoridagi mulohazalardan foydalangan holda, oʻzbek tilidagi ixtiyoriy matnning muhim qismini avtomatik ravishda ajratish mumkin.

**5. Xulosa.** Maqolaning tadqiqot xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, oʻzbek tili matnlarining noyob soʻzlari muhimlik ehtimoli va ularning taqsimot zichligiga qarab, shuningdek, taqsimotning assimmetrik darajasi alomatlariga qarab berilgan matnning muhim qismi qaysi soʻzdan boshlanib qaysi soʻz bilan tugashini matematik jihatini aniqlash mumkinligi koʻrsatildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Madatov X., Matlatipov S. Kosinus oʻxshashlik va uning oʻzbek tili matnlariga tatbiqi haqida. “OʻzMU xabarlari”, Vol. 2, № 1, 2016. pp. 200–204.

(2). Madatov Kh., Bekchanov S., Vičić J. Accuracy of the Uzbek stop words detection: a case study on “School corpus” arXiv preprint arXiv:2209.07053, 2022.

(3). Madatov K., Bekchanov S., Vičić J. Lists of Uzbek stopwords. Дис. Univerza na Primorskem, Institut Andrej Marušič, 2021.

(4). Madatov Kh., Bekchanov S., Vičić J. Automatic detection of stop words for texts in the Uzbek language. 2022.

(5). Madatov Kh., Bekchanov S., Vičić J. Dataset of stopwords extracted from Uzbek texts. Data in Brief. 2022. T., 43, c. 108351.

(6). Sharipov M., Sobirov O. Development of a rule-based lemmatization algorithm through Finite State Machine for Uzbek language. Preprint version of the paper to be published in The International Conference and Workshop on Agglutinative Language Technologies as a challenge of Natural Language Processing (ALTNLP). Koper, Slovenia, 2022.

(7). Salaev U., Kuriyozov E., Gómez-Rodríguez C. SimRelUz: Similarity and Relatedness scores as a Semantic Evaluation dataset for Uzbek language. arXiv preprint arXiv:2205.06072, 2022.

(8). Kuriyozov E., Matlatipov S., Alonso M.A., Gómez-Rodríguez C. Construction and Evaluation of Sentiment Datasets for Low-Resource Languages. The Case of Uzbek. Human Language Technology. Challenges for Computer Science and Linguistics: 9th Language and Technology Conference, LTC 2019. Poznan, Poland, 2019.

(9). Мадатов Х.А. Математическая модель автоматического определения несущественных слов текстов на узбекском языке. Проблемы вычислительной и прикладной математики. 2024, № 2(56), с. 99–106.

#### Kallibekova Gulnara Palbekovna (Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD) MUNTAZAM RUKNLAR TILI VA USLUBI

**Annotatsiya.** Davriy matbuotda tashkil etilgan muntazam ruknlar tili va uslubi oʻrganilgan. Gazeta tili va uslubi, gazeta sarlavhalari boʻyicha ilmiy mehnatlar mazmuni bayon etilgan. Muntazam ruknlarda qoʻllanilayotgan leksik birliklar tizimli tahlil etilgan. Ayniqsa, gazeta perifractalari shakllanayotganligi aniqlangan. Gazeta maqollari xilma-xil mavzularda berilayotganligi aks ettirilgan. Maqolalarda berilayotgan dialoglarda ogʻzaki uslubdan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** gazeta, maqol, perifraza, dialog, fakt, janr, jurnalistika.

#### ЯЗЫК И СТИЛЬ РЕГУЛЯРНЫХ РУБРИК

**Аннотация.** Изучаются язык и стиль регулярных рубрик периодической печати. Язык и стиль газеты, содержание научных трудов изложены в газетных заголовках. Систематически анализируются лексические единицы, используемые в регулярных рубриках. В частности, было обнаружено, как формируются газетные перифразы. Газетные пословицы даются на самые разные темы. В диалогах, представленных в статьях, говорится об умении использовать устный стиль речи.

**Ключевые слова:** газета, пословица, перифраза, диалог, факт, жанр, журналистика.

#### THE LANGUAGE AND STYLE OF REGULAR HEADINGS

**Annotation.** The language and style of regular columns organized in the periodical press are studied. The language and style of the newspaper, the content of scientific work on newspaper headlines are described. The lexical units used in regular columns have been systematically analyzed. In particular, newspaper periphrases have been found to be forming. Newspaper proverbs are reflected in the fact that they are given on a wide variety of topics. In the dialogues given in the articles, the skill of using oral style is spoken.

**Key words:** newspaper, proverb, periphrasis, dialogue, fact, genre, journalism.

**Kirish (Introduction).** Gazetada rasmiy va norasmiy xabarlar, ichki va tashqi xabarlar, qisqa va ke-ngaytirilgan xabarlar beriladi. Xabarlar gazetalarning bosh sahifalarda o‘z aksini topadi. Bosh sahifalarda islohatlar, taraqqiyot odimlari, chora-tadbirlar, bayramlar, milliy qadriyalar, xalqaro hamkorlik masalalari, xalqaro konvensiyalar, ilm-fan, allomalar, kashfiyotlar va hududlar hayoti haqida ko‘plab ma‘lumotlar bilan tanishamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Demak, yuksak ma‘naviyatning targ‘i-botchisi va tashviqotchisi – ommaviy axborot vositalari. Gazeta, jurnal, radio, televideniya va internet. «Jurnalistik. Ma‘naviyat. Jamiyat» nomli kitobida barcha ommaviy axborot vositalarining xizmat faoliyati, jamiyatda tutgan o‘rni haqida fikr bildirilgan. Shularning ishida gazetani ham, uning faoliyatini ham tushuntirib o‘tgan. «Gazeta – ommaviy axborot vositalarining asosiy turlaridan biri sifatida ommalashdi. U jamiyatning shu kundagi siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-marifiy hayotini yoritib, shu kunning tarixini to‘laligicha aks ettiradi. U o‘quvchiga dunyoni bildiradi, uning ongini oshiradi, ma‘naviy oziq beradi, ijtimoiy faoliyatini yo‘naltiradi va faollashtiradi. Shuning uchun ham gazeta matbuotning o‘zagi hisoblanadi» [1; 12-b.]. Gazetaning jamiyatimizdagi faoliyati, uning tili va uslubi, gazeta sarlavhalari haqida qator monografiyalarda [2;51–52, 60-b.], darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda [3], ilmiy maqolalarda [4;80–83-b.] so‘z yuritilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqolamizda muntazam ruknlar tili va uslubi o‘rganishda qiyosiy-tarixiy, tahliliy metodlardan foydalanganmiz. Tadqiqotchilarning bu mavzuga oid qarashlarini va davriy matbuotning mavzusi, tili, uslubi mazkur metodlarni qo‘llangan holda o‘rganish ahamiyatli. «Globallashuv jarayonida ommaviy kommunikatsiyalarning roli va masuliyati» mavzusidagi maqolada ham gazeta haqida so‘z yuritiladi: «Bugungi kunda omma ijtimoiy-siyosiy fikrini shakllanishini tahlil etishga va jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy muhitning muvozanatini ta‘minlashdagi ommaviy kommunikatsiyaning mas‘uliyati yuqoriligi ma‘lum. Takidlash joizki, «Turkiston», «Xalq so‘zi», «Jamiyat», «Hurriyat», «O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati», «Markaziy Osiyo madaniyati» va shu kabi boshqa gazeta jurnallari jamiyatda kechayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlarni, milliy qadriyatlarni xalq ongiga singdirishda, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy fikrini shakllantirishga xizmat qilmoqda» [5;30-b.]. Haqiqatdan ham, har bir gazeta jamiyatda kechayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlarni, milliy qadriyatlarni xalq ongiga singdirishda, targ‘ibot ishlarini olib borishda faollik ko‘rsatib kelmoqda.

Davriy matbuot tili, jurnalist, jurnalistika, jurnalistika janrlarining asosiy mazmuni haqida «Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari» (V jild) kitobida so‘z yuritilgan: «Jurnalistikaning ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar haqida jamoatchilikka xabar berishga qaratilgan asosiy faoliyati bilan birga, jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqarish, jamiyatning turli guruhleri, jamoalari, kishilari o‘rtasida kommunikativ munosabatlar o‘rnatish, muayyan g‘oya va mafkuralarni targ‘ibot va tashviqot qilishi, tarbiyalashi, axborot bozoriga mahsulot etkazib beruvchi ishlab chiqarish korxonasi aylanishi singari faoliyat turlari rivojlandi. Endilikda jamiyat azolari faqat OAV orqali axborotni qabul qilibgina qolmasdan, o‘zlari ham bu jarayonda bevosita ishtirok etayapti. Bu esa zamonaviy jurnalistikaning mohiyati va vazifalariga o‘zgartirishlar kirityapti» [6;108-b.]. Demak, jurnalistlar atrofimizdagi voqea-hodisalar haqida jamoatchilikka xabar berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va boshqarishi kerak. Jamiyatning turli guruhleri, jamoalari, kishilari o‘rtasida kommunikativ munosabatlar o‘rnatish, muayyan g‘oya va mafkuralarni targ‘ibot va tashviqot qilishi, tarbiyalashi ham zarur. Mazkur vazifani bajarish jarayonlarini biz muntazam ruknlarda ko‘rishimiz mumkin. Aynan gazeta sahifalarida tashkil etilayotgan bu ruknlarda xabar berish bilan birga bilim va tarbiya berish, targ‘ibot ishlari ham olib bormoqda. Masalan: «Xotira uyg‘onsa go‘zal», «Yuz bilan yuzlashganlar», «Oramizdagi odamlar», «Bugunning gapi», «Dolzarb mavzu», «Taraq-qiyot odimlari», «Ta‘lim odimlari» va hokazo.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Gazetalarda berilayotgan muntazam ruknlar tili va uslubi qator misollar asosida o‘rganish. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi 2024-yil 7-mart, 48-sonida qator muntazam ruknlarni ko‘rishimiz mumkin. Ularning biri «Xotira uyg‘onsa go‘zal» ruknida «Farg‘onaning Lolasi» maqolasi chop etilgan. Maqola muallifi O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a‘zosi Xadichaxon Kariyeva. Maqolada lid matnlari yaxshi tanlangan. Lid matni qora shriftida va maqola matnida qaraganda kattaroq shriftida beriladi. Lid matnlari mazmuni qator faktlar bilan boyitilgan. Masalan: «Farg‘onaning oq ro‘moli Lolasi. Halol va fidoyi mehnat, shu aziz Vatanga, onajon xalqimizga sadoqat, samimiyat va kamtarlik uni yuksak maqomlarga ko‘tardi: O‘zbekiston Qahramoni, senator, jamoat arbobi... sanab, adog‘iga yetib bo‘lmasdek. Mana shunday martabalarni hadya etgan mehnatga qulluq». Bu maqolada keltirilgan birinchi lid matni hisoblanadi. Endi ikkinchi lid matnida ham faktlar muntazam keltiriladi. Masalan: «Lolaxon mak-

tabni bitirib, texnika bilim yurtida, keyinroq Toshkentdagi industriya texnikumida o‘qib, mexanik mutaxassisligini egalladi. Oltiariqdagi bilim yurtida yoshlarga traktorchiilik kasbi ko‘nikmasini berib yurgan paytda jamoa xo‘jaligiga traktorchiilikka ishga taklif qilishdi». Endi maqolaning bayon qilishi uslubiga diqqat qaratamiz: «Umr deganlari shu ekan-da. Vaqti kelib, Lolaxon haqida xotira bitaman, deb yetti uxlab tushimga ham kirmagan». «Donishmand xalqimizning «yuk ko‘targan yuzaga chiqadi» degan hikmati bejiz emasda. Yosh Lolaning shijoati, uddaburonligi tez orada el og‘ziga tushdi». Misollardagi yetti uxlab tushimga ham kirmagan, «yuk ko‘targan yuzaga chiqadi» deb qo‘llanilgan jummalari, xalq maqollarining biri. Muallif bu maqollarni xalq tilidan olib, gazeta tiliga moslashtira olgan. Matn mazmuniga mos ravishda foydalanilgan. Keyingi misol: «U borliqni uyg‘otguvchi ayni bahorning avvalida tavallud topgan». Misoldagi borliqni uyg‘otguvchi – ayni bahor, deb keltirilgan qatorlarda perifrabadan foydalanilgan. Shuningdek, muntazam ruknlarda dialog ham beriladi. Masalan: «Yo‘q, hozir borolmayman, – deydi u bir oz tajang ohongda qatiyat bilan. – Ishning ustida bo‘lmasam, ko‘nglim xotirjam tortmasligini bilasiz-ku. Yo‘qligimda arzimagan kamchilik chiqsa, marom buziladi. Ishlarni tugatib olay, keyin barcha topshiriqlarni bajarishga harakat qilaman. Suhbat tugab-tugamay, yana kimdir yo‘qladi. – Labbay, eshitaman. Ha, ha urug‘likni olib kelib qo‘yganmiz. Eng maqbul muddatda ekib olish choralarini ko‘ryapmiz. Xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo‘ladi». Dialoglar qahramon tilida qanday aytilgan bo‘lsa, gazeta tilida shunday yozilgan. Shu jihatdan ham dialoglar har qanday ruknning, maqolaning qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasi 2024-yil 2-mart, 45-sonida ham qator muntazam ruknlarni ko‘rishimiz mumkin. Ularning biri «Yuz bilan yuzlashganlar» ruknida «Qadr ayoldan boshlansa, qadrimiz yanada baland bo‘ladi» maqolasi berilgan. Muallif «Yangi O‘zbekiston» muxbiri Gulichehra Durdieva. Maqolada perifrabadan, maqollarni ushratish mumkin. «– Bahor yarashtiruvchi fasl, ammo har tashrifi hayotimning bir varag‘ini yulib ketadi». «Baxtimizga oilamizning farishtasi va duago‘yimiz bo‘lmish oyijonim sog‘omon bo‘lsin!». «Ikki asr bilan yuzlashgan, yuzlaridan nur yog‘ilib, o‘z xonadonining farishtasi bo‘lib o‘tirgan onaxonlar bilan xayrlashayotganimizda ularning har biri yurtimizda tinchlik va xotirjamlik hukm surishini, yoshlarimiz baxtli-saodatli bo‘lishini hamda Prezidentimiz sog‘ligini Yaratgandan so‘rab, qayta-qayta duoga ko‘l ochdi». «Xa, «Qarisi bor uyning farishtasi bor» degan hikmatli gap bejiz aytilmagan». Misollarda perifraza juda o‘rinli ishlatilgan. Masalan: yarashtiruvchi fasl–bu bahor hisoblanadi, oilamizning farishtasi, o‘z xonadonining farishtasi – bu bibijonlarga, onaxonlarga qarata aytiladi. «Qarisi bor uyning farishtasi bor» degan maqol xalq og‘zaki tilida faol qo‘llaniladi. Jurnalist maqolada asosiy mavzuga mos yaxshi tanlay olgan.

«Yangi O‘zbekiston» gazetasi 2024-yil 2-mart, 45-soni «Oramizdagi odamlar» ruknida «Insoniylikni ko‘tarib yurgan haydovchi» maqolasi berilgan. Muallif «Yangi O‘zbekiston» muxbiri Jonibek Alijonov. Maqolada xalq maqollaridan kirish va xulosa qismidan juda o‘rinli foydalanilgan. Masalan: «O‘zbekni ko‘chganda ko‘r» degan maqolni eshitgansiz. Juda topib aytilgan». «Men savol beraman: «Asablaringiz charchab ketmaydimi bu tirbandlikda tinimsiz yuraverib?» Qisqagina qilib, «Elga kelgan to‘y», deydi. Shunda o‘ylayman, tig‘iz shaharlarda kirakash bo‘lish ham kishidan keng fe‘l talab qilarkan». Misollardagi «O‘zbekni ko‘chganda ko‘r», «Elga kelgan to‘y» degan maqollar xalq tilidan olinib, mavzu mazmuniga moslashtirilgan. Bir jurnalist tilidan bayon qilgan bo‘lsa, ikkinchisi qahramon tilidan aytilgan. Bu ham gazeta tilining imkoniyati va mahorati hisobalanadi.

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasi «Aramizdagi adamlar» ruknida «Juzim bag‘tan baslangan omir g‘uzari» («EQ» 2024.14.03. №32) mavzusidagi maqola berilgan. Mazkur ruknda berilgan maqolalar tili janrning keng imkoniyatlaridan yaxshi foydalana olgan. Perifrabadan, o‘xshashtishlar, matnning ta‘sirchanligini ta‘minlash maqsadida xalq tilida faol qo‘llaniladigan jummalarni o‘rnida ishlata olgan. Masalan: «Insonning baxtin belgilep beretug‘in turmis mektebinde Da‘wletbay ag‘a o‘mirlik joldasi Abadan apa Esimbetova menen birgelikte kamalga keltirgen perzentlerinen aqliqlar suygen baxitli shaħaraq basshisı» («EQ». 2024. 14.03. №32). «Anasi bar adamlar qartaymaydi. Qaharmanimizdin buggingidey darejeje jetiwinde anasi, 82 jastagi Almagul Abdijamilovani xizmetlerin hesh narse menen salistirip bolmaydi» («EQ». 2024.14.03. №32). «Aramizdagi adamlar» ruknida «Ilm pidayisina hurmet» mavzusidagi maqola professor Q.Jarimbetovning 70 yillik yubileyiga tayyarlangan. «Insan omiri dawamında miynet etedi, lekin ilimni izinen quwıw iyne menen qudıq qazganday mashaqatlı narse» («EQ». 2018.20.01. №10). «Yadnama» ruknida «Araldan tulep ushqan suñqarlar» mavzusidagi maqola jurnalist O.Ötewliev muallifligida tayyorlangan. «Kánarina sıymay aqqan Ámiwdárya teñizge quyargá jaqın bes barmaqtaý sallansa jağalawlarındağı jasaytuğın balıqshı awıllar suwalıspalardan jábir kóredi» («EQ». 2024.14.03.№32). Mazkur misollardagi omirlik joldasi – perifraza, anasi bar adamlar qartaymaydi – xalq tilida faol qo‘llaniladigan to‘rtliklar, iyne menen qudıq qazg‘anday, bes barmaqtaý – o‘xshashtishlar bilan ta‘riflab berishga erishganligini aytishimiz mumkin.

«Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasida beriladigan muntazam ruknlardagi maqolalarda maqollardan faol foydalanilgan. Masalan: «Yadnama» ruknida «Ustazdın ibratlı ómiri» mavzusidagi maqolada: «Waqtında xalıq bilimlendiriw tarawınıń jankúyeri, shańaraqta úlgili áke, el-jurtı xızmetinde bolǵan belsendi basshı, «*Jaqsınıń jatı bolmaydı, ismi ólmeydi*» degendey, xalıq sıylaǵan ustaz, shımbaylı marhum atamız Reyimbay Saparov boldı» («EQ».2018.23.01. №11). «U'lkemizdın ájayıp adamları» ruknida «Kókti gózlegen suńqar» mavzusidagi maqolada: «Al, qızı Sayora bolsa «*Anaǵa qaray qız óser*» degenindey, muǵallımshilik kásibin tańlaptı» («EQ».2018.20.07. №94). «Usı perzentlerinen órbigen aqlıqlar bolsa, Bayron aǵanıń erteńgi kúngi tayanışı dep tolıq ayta alamız, «*Jaqsı perzent súyinish*» degen usı bolsa kerek» («EQ». 2018.20.07. №94). «Maqtanış» ruknida «Gulnaz bárshede háwes oyattı» mavzusidagi maqolada: «Xalqımızdın «*Bolar bala bes jasınan belgili*» degen naqılınıń ámeldegi tastıyǵın Gulnaz mısasında kóriwimizge boladı» («EQ». 2018.21.07. №91). «Aramızdaǵı adamlar» ruknida «Óz kásibiniń pıdayısı» mavzusidagi maqolada: «Xalqımızda «*Qay jeriń awırsa, sol jeriń janıń*» degen gáp bar. Haqıyqatında da, *densawlıqtıń qádirin qáste bol-ǵanda bileseń*. Usınday payıtta járdem qolın sozıp, hár qanday kesellikten sawallandırgan densawlıqtı saq-law xızmetkerleriniń miynetin hesh nárese menen bahalap bolmaydı» («EQ». 2018.11.01. №5).

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytganda, gazetalarda berilayotgan muntazam ruknlar tili va uslubi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

–muntazam ruknlarda lid matni faktlar bilan boyutilgan va matn mazmuni mavzuga oid ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

– muntazam ruknlar orqali har xil mavzuga mos yangi perifrazalar gazeta tili orqali shakllanmoqda. Gazetalarda berilgan maqollar mazmunida an'anaviy va zamonaviy uyg'unlikni aks ettira olgan.

– maqolalardagi qahramonlarning ish faoliyati, ijodi, o'ziga xos ish uslubi o'xshatishlar yordamida taqqoslab berilgan. Dialoglardagi qahramon tilida esa og'zaki uslubning o'ziga xos xususiyatlari nomoyan bo'lgan.

– gazetalardagi ruknlar mavzusi xilma-xil. Har birining o'z mushtariyi mavjud. Mushtariy e'tiborini jalb qilishda ruknlarning bayon qilish uslubi katta ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Miralimov Sh., Eshbekov T. Jurnalistika. Ma'naviyat. Jamiyat. Toshkent, "O'zbekiston", 2010, 12-bet.
- (2). Orazımbetova Z. Qaraqalpaq ku'ndelikli baspaso'zi tiliniń stillik o'zgeshelikleri. Toshkent, «Hilol Media», 2019, 51–52-betlar.
- (3). Kallibekova G.P. Tarao'lıq gazeta materiallarınıń tili hám stillik ózgeshelikleri. No'kis, "İlimpaz", 2022, 60–70-betlar.
- (4). Marziyayev J.K., Kallibekova G. Media tili ha'm stili. O'quv qo'llanma, Tashkent, "Metodist", 2023, 124-bet.
- (5). Pirniyazova A.K., Kallibekova G.P. Jurnalist do'retio'shiliginde perifrazalardıń xızmeti. "İlim hám jámiyet", No'kis, 2023, № 2, 80–83-betlar.
- (6). Toshpo'latova N. Bosma ommaviy axborot vositalarida janrlar va mahorat masalalari». V jild, Toshkent, "O'zbekiston", 2019, 108-bet.

**Toshtonov Soyibjon Abdusami o'g'li (ADCHTI "Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi" kafedrası o'qituvchisi)**

#### **FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR HAMDA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI**

**Annotatsiya.** *Atrof-olam haqidagi bilimlar ajralgan guruhlarni tashkil etuvchi elementlarni o'rganishdan boshlanadi. Dastlabki falsafiy qarashlarda dunyoning birlamchi unsurlari (suv, havo, yer, olov) sifatida namoyon bo'lgan. Ana shu dunyoning birlamchi unsurlari borliq va tafakkur, ong va bilish tushunchalari farqlangandan keyin ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Demak, insonlar atrof-muhitdagi narsalarning asosini to'rt unsur: suv, havo, yer, olov tashkil qilgan deb bilishgan. Mazkur maqola ana shu masalalarni ochishga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** *unsur, birlamchi unsur, assotsiatsiyalar, elementlar, antropogen frazeologizmlar, falsafiy qarashlar, frazeologizm konponenti, konponentli frazemalar.*

#### **ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ИХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ**

**Аннотация.** *Познание окружающей среды начинается с изучения элементов, образующих дискретные группы. В первых философских воззрениях они были показаны как первоэлементы мира*



(вода, воздух, земля, огонь). Первоэлементы этого мира не утратили своего значения даже после дифференциации понятий существования и мышления, сознания и познания. Итак, люди верили, что четыре стихии: вода, воздух, земля и огонь составляют основу вещей в окружающей среде. Данная статья посвящена этим вопросам.

**Ключевые слова:** элемент, первоэлемент, ассоциации, элементы, антропогенная фразеология, философские воззрения, компонент фразеологии, компонент фразеологизма.

## PHRASEOLOGICAL UNITS AND THEIR LINGUOCULTUROLOGICAL FEATURES

**Annotation.** Knowledge of the environment begins with the study of elements that form discrete groups. In the first philosophical views it was shown as the primary elements of the world (water, air, earth, fire). The primary elements of this world have not lost their meaning even after the differentiation of the concepts of existence and thinking, consciousness and cognition. So, people believed that the four elements: water, air, earth and fire constitute the basis of things in the environment. This article is dedicated to these issues.

**Key words:** element, primary element, associations, elements, anthropogenic phraseology, philosophical views, phraseology component, phraseology component.

**Kirish.** Insonlar o‘zlarini qurshab turgan olamdagi narsalarni o‘rganish jarayonida ularning muhim belgilariga ko‘ra ma’lum guruhlariga, asosiy va ikkilamchi turlarga ajratishadi. Atrof-olam haqidagi bilimlar ajralgan guruhlarini tashkil etuvchi elementlarni o‘rganishdan boshlanadi. Dastlabki falsafiy qarashlarda dunyoning birlamchi unsurlari (suv, havo, yer, olov) sifatida namoyon bo‘lgan. Ana shu dunyoning birlamchi unsurlari borliq va tafakkur, ong va bilish tushunchalari farqlangandan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Demak, insonlar atrof-muhitdagi narsalarning asosini to‘rt unsur: *suv, havo, yer, olov* tashkil qilgan deb bilishgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** B.A.Musukovning fikricha, ayrim ranglar jamiyat hayotidagi ko‘plab yirik o‘zgarishlar va atrof-muhitdagi hayotiy muhim elementlar: *olov, osmon, quyosh, suv* haqidagi assotsiatsiyalarni hosil qiladi.<sup>1</sup> Ko‘rinadiki, atrof-muhitdagi hayotiy muhim elementlar deb, *olov, osmon, quyosh* va *suv* ta’kidlanayapti. Agar falsafiy jihatdan dunyoning birlamchi unsurlarini B.A.Musukovning hayotiy muhim elementlarini solishtirsak, deyarli farq bilinmaydi (*olov, suv, havo (osmon)* har ikkalasida ham bor, faqat *yer* va *quyosh* farqlanadi).

**Imiy ishning maqsadi.** Falsafada dunyoning birlamchi unsurlari deb, *suv, havo, yer* va *olov* ko‘rsatilgan bo‘lsa, hayotiy muhim elementlar, ya’ni inson hayoti uchun zaruriy bo‘lgan elementlar deb, *olov, osmon, quyosh* va *suv* ko‘rsatiladi. Shu sababli biz naturogen frazeologizmlarni tahlil qilishda *suv, yer, osmon (ko‘k)* va *olov* komponentlari qatnashganlarini ajratib tahlilga tortishni ma’qul ko‘rdik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Til materialining tadqiqi jarayonida tavsifiy, distributiv, transformatsion va o‘rni bilan applikativ usullardan foydalanildi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, struktural va semantik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**1. Biz ajratib olgan to‘rt unsurdan birinchisi – suv.** O‘zbek tilida *suv* komponentli frazemalar ko‘p, ulardan ba’zilarni tahlil qilamiz. Masalan, *suvga tushgan kesakdek jim bo‘lib ketdi*. Kesakni suvga tashlasak, ivib ketadi va loy bo‘ladi, o‘zining qattqlik xususiyatini yo‘qotadi, uni suvdan olgan vaqtda o‘sha avvalgi shaklini yo‘qotgan bo‘ladi, oqar suvda o‘sha tashlangan kesak uzoq vaqt tursa, uni qo‘lga ham olib bo‘lmaydi, maydalanib ariq loyiga qo‘shilib ketadi. Kesakning mana shu xususiyati odamga ko‘chirilgan<sup>2</sup>.

Doimiy kelib turgan odam birdaniga o‘zini ko‘rsatmay yo‘q bo‘lib ketadi, qadam bosmaydi. Mana shunday odamni kesakka o‘xshatib, “suvga tushgan kesakdek jim bo‘lib ketdi”, deydilar.

*Sirkasi suv ko‘tarmaydi.* Bu frazema tanqidga mutlaqo chidamaydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. O‘z-o‘zidan bu frazema salbiy ma’noda qo‘llatiladi. Masalan, *Ha, rostdan, ko‘ngillarining nozikligini ayt-maysizmi? Sirkalari suv ko‘tarmaydi* (A.Muhiddin. Tatatatxo‘ja). *Nasihatga toqatim yo‘q, bilasizki, sirkam suv ko‘tarmaydigan shoirlardanman* (M.Muhamedov. Gavhar). *Sirkasi suv ko‘tarmas yigit chiqdi* (Mir-muhsin. Jamila).<sup>3</sup>

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tilida ham *suv* komponentli frazemalar ko‘p. Masalan, *Test the waters* (suvlarni sinab ko‘ring). To cautiously assess a situation (vaziyatni ehtiyotkorlik bilan baholash uchun).

<sup>1</sup> Мусуков Б.А. Лексико-семантические особенности цветообозначающих прилагательных в тюркских языках (на материале карачево-балкарского языка). Фундаментальные исследования, № 5-5, 2014, с. 1121–1126.

<sup>2</sup> Шомаксудов Ш., Долимов С. Кенг уйнинг келинчаги. Тошкент, 1961, 141-бет.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т., “Ўқитувчи”, 1978, 213-бет.

*In hot water* (issiq suvda). In trouble or facing difficulties (Qiyinchilikda yoki qiyinchiliklarga duch kelganda). Demak, ingliz tilida *issiq suv* qiyinchilikni bildiradi.

*Throw cold water on* (sovuq suv quyung). To discourage or dampen enthusiasm (Ishtiyoqni soʻndirish yoki susaytirish uchun). Ingliz tilida *sovuq suv* esa oʻziga kelish, oʻzini oʻnglab olish maʼnosini bildiradi.

*Like water off a duck's back* (Oʻrdakning belidan tushgan suv kabi). Something doesn't affect or bother someone (Biror narsa kimgadir taʼsir qilmaydi yoki bezovta qilmaydi).

*Hold water* (suvni ushlab turing). To be logical or valid (mantiqiy yoki toʻgʻri boʻlishi uchun). Suvni ushlab turish shoshilmaslikni, hamma narsa toʻgʻri boʻlishini, sabr qilishni bildiradi.

*Fish out of water* (suvdan chiqqan baliq). Feeling out of place or uncomfortable (oʻzingizni joyingiz yoʻqligi yoki noqulay his qilish). Suvdan chiqqan baliq qanday qiyin ahvolga tushsa, noqulaylik his qilsa, oʻz joyi yoʻqligi ham insonni shunday holga soladi.

*Blood is thicker than water* (qon suvdan quyuqroq). Family bonds are stronger than other relationships (Oilaviy rishtalar boshqa munosabatlarga qaraganda kuchliroqdir).

*Keep your head above water* (boshingizni suv ustida tuting). To manage a difficult situation (qiyin vaziyatni boshqarish uchun).

*Water under the bridge* (koʻprik ostidagi suv). Past events that are no longer relevant or significant (Oʻtmishdagi, endi ahamiyatli yoki ahamiyatli boʻlmagan voqealar).

*Come hell or high water* (jahannamga yoki baland suvga kel). Determined to do something despite challenges (qiyinchiliklarga qaramay, biror narsa qilishga qaror qildi).<sup>1</sup>

**2. Biz ajratib olgan toʻrt unsurdan ikkinchisi – yer (turpoq).** *Yer* unsuri hayot uchun zaruriy unsur hisoblanadi. *Yer* bizni boqadi, shuning uchun “Ona yer” deb atashadi. *Yer* komponenti qatnashgan frazemalarning son jihatdan koʻpligi ham shundan dalolat beradi.

*Yer* komponenti qatnashgan frazemalarda *oʻlcham* semasini ham bildiradi. Jumladan,

*Yer bilan osmongacha*. Juda katta, beqiyos (farq). Masalan, *Oʻtmishdagi qozi bilan hozirgi xalq sudi orasida yer bilan osmongacha farq bor* (S.Anorboyev. Oqsoy).

*Yer-u koʻkka ishonmaslik*. Oʻta darajada ardoqlamoq, parvona boʻlmoq. Demak, bu frazemada oʻlcham semasi bor. Masalan, *Zulayho xola Mukarramani yer-koʻkka ishonmaydi* (Gʻ.Gʻulom. Qizaloq).

*Oyogʻini yerga tiramoq (oyogʻini tirab olmoq)*. Oʻz fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq. Bu frazemada qaysarlik semasi yoritilayapti. Masalan, *Siz ham oyogʻingizni tirab olmang, insofga keling* (Parda Tursun. Oʻqituvchi).<sup>2</sup>

*Yer* komponentli frazemalarda salbiy maʼno ham ifodalanadi. Jumladan, *Yer bilan bitta boʻlmoq* (er bilan yakson boʻlmoq). Masalan, *Hoshimjonning xotining boʻynida marvaridi bor ekan, yer bilan bitta boʻldi* (S.Zununova. Rashk).<sup>3</sup>

*Yerga kirgizib yubormoq* (erga kirib ketmoq). Qattiq izza boʻlmoq, oʻsal boʻlmoq. Masalan, *U uyidan... “Mastonbibini bir boplayki, yerga kirib ketsin”, – deb chiqqan edi. Boʻlmadi. Qaytaga oʻzi gap eshitdi* (Said Ahmad. Mastonbibi).

*Yerga urmoq*. Ortiq darajada kamsitmoq. Masalan, *...bundan yaxshi xonadonlar ham ogʻzimga tikilib oʻtiribdi, bolam. Bunaqa oʻz qadringni oʻzing yerga urmasdan, bilib gapir, ha!* (O.Yoqubov. Tilla uzuk).

*Yer tishlamoq (yer tishlatmoq)*. Oʻldirmoq. Masalan, *Chunki Toʻxtash aka qoʻlidagi choʻyan toʻqmoq bilan bir urishdayoq uni tappa sulaytirmoq edi. Mirshab miq etmay yer tishladi* (N.Mahsudiy. Ilon bolasining zahri).

**Xulosa va takliflar.** *Suv* komponentli frazemalarda suvning narsalarni erituvchanlik belgisi, suvning yuqmasligi belgisi, suvning tiniqligi belgisi, suvning holati (issiq va sovuqligi), suvning suyuqligi belgisi kabilar; *yer* komponentli frazemalarda oʻlcham belgisi, izza qilmoq belgisi, xavfsizlik belgisi kabilar; *osmon* komponentli frazemalarda maqtamoq, muallaq turish belgisi, yangilik belgisi, tetiklantiruvchi belgisi kabilar; *olov* komponentli frazemalarning doʻzah belgisi, mushkullik belgisi, xavflilik belgisi, bosim belgisi, qiyinlik belgisi kabilar markerlanadi.

<sup>1</sup> <https://idioms.thefreedictionary.com>

<sup>2</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўша асар. 190-бет.

<sup>3</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўша асар. 79-бет.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Мусуков Б.А. Лексико-семантические особенности цветообозначающих прилагательных в тюркских языках (на материале карачево-балкарского языка). "Фундаментальные исследования", №5-5, 2014, с. 1121–1126.
- (2). Шомақсудов Ш., Долимов С. Кенг уйнинг келинчаги. Тошкент, 1961, 141-бет.
- (3). Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Т., "Ўқитувчи", 1978, 21-бет.
- (4). <https://idioms.thefreedictionary.com>

Abdusamatova Nozanin (Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi; [nozaninabdusamatova8@gmail.com](mailto:nozaninabdusamatova8@gmail.com))

### FRAZELOGIYA SOHASIDA ANTISEMIYA HODISASI VA ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA FRAZELOGIK ANTISEMIYALAR TAHLILI

*Аннотация.* Ushbu maqolada frazeologik birliklar, frazeologiyada antisemiya hodisasining vujudga kelishi, frazemalarning antisemiya hosil qilish imkoniyatlari, frazeologik antisemiya va antonimiyaning farqli jihatlari haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Shuningdek, maqolada frazeologik antisemiya hodisasi turli xil misollar, jumladan, Abdulla Qahhor asarlari negizida tahlil qilib o'rganilgan.

*Калит so'zlar:* frazema, antisemiya, antonimiya, leksik birlik, badiiy adabiyot, hikoya.

Абдусаматова Нозанин (студентка факультета узбекского языка и литературы Ургутского филиала Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова; [nozaninabdusamatova8@gmail.com](mailto:nozaninabdusamatova8@gmail.com))

### ФЕНОМЕН АНТИСЕМИИ В ОБЛАСТИ ФРАЗЕОЛОГИИ И АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ АНТИСЕМИЙ В РАССКАЗАХ АБДУЛЛЫ КАХХОРА

*Аннотация.* В данной статье изложены мнения о фразеологических единицах, возникновении антисемии во фразеологии, возможностях идиом создавать антисемию, различных аспектах фразеологической антисемии и антонимии. Также в статье анализируется феномен фразеологической антисемии на основе различных примеров, в том числе произведений Абдуллы Каххора.

*Ключевые слова:* словосочетания, антисемиа, антонимия, лексическая единица, художественный вымысел, рассказ.

### THE PHENOMENON OF ANTISEMY IN THE FIELD OF PHRASEOLOGY AND THE ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL ANTISEMIES IN THE STORIES OF ABDULLA KAHHAR

*Annotation.* In this article, opinions are given about phraseological units, the occurrence of antisemy in phraseology, the possibilities of idioms to create antisemy, the different aspects of phraseological antisemy and antonymy. Also, in the article, the phenomenon of phraseological antisemy is analyzed on the basis of various examples, including the works of Abdulla Qahhor.

*Key words:* phrases, antisemy, antonymy, lexical unit, fiction, story.

**Kirish.** Frazeologik iboralar, ya'ni frazemalar ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'naviy jihatdan o'zaro bog'langan so'z birikmasi yoki gapga teng keluvchi birlik hisoblanadi. Misol uchun, "ko'ngliga malol kelmoq" – og'rinmoq, "nafasi ichiga tushib ketmoq" – qo'rqmoq, "orqasiga oftob tegmoq" – ishi yurishmoq, "yuragiga qil sig'maslik" – tajang bo'lmoq kabilar bir necha leksemalar bilan ifodalansa-da, umumiy ma'nosi bir so'zga teng bo'ladi.

Frazemalarning yana bir xususiyati, ulardagi ziddiyat kategoriyalari bo'lib, tilshunosligimizda qarama-qarshilik xossalari – antonimiya hodisasi misolida tahlil qilinishi ma'lum. Ba'zi o'rinda esa Antonimiya hodidasidan farq qiluvchi yana bir zidlanish turi ham borki, mazkur jarayon tilshunosligimizda antisemiya hodisasi sifatida tahlil qilib o'rganiladi. Ammo ba'zi hollarda antisemiya hodisasi antonimiya bilan deyarli bir xil tahlil qilinadi. Ularning ba'zi farqli xususiyatlari ham mavjud bo'lib, ularni izohlab o'tsak.

Antisemiya hodisasiga to'xtaladigan bo'lsak, "antisemiya" so'zi "anti" – zid, "sema" – belgi degan ma'nolarni anglatib, uning antonimiyadan farqi quyidagicha izohlanadi:

- a) leksik birliklar antonimiyada semantik qarama-qarshilikka asos bo'ladigan vaziyatni yuzaga keltiradi, ammo antisemiya bunday vaziyat to'laligicha talab etilmaydi;
- b) lingvistik jihatdan antisemiya antonimiyaga nisbatan keng qamrovli tushuncha hisoblanadi;
- d) antisemiya qarama-qarshilikni umumiy jihatdan tahlil qilsa, antonimiya qarama-qarshilikning ma'lum xossasining ifodalab keladi. Demak, antisemiya antonimiyaga nisbatan keng qamrovli tushuncha hisoblanar ekan.

Ularning farqi xususiyatlarini misollar orqali izohlasak: *yaxshi va yomon, go‘zal va xunik, baland va past, semiz va ozg‘in* kabi so‘zlar ma‘no jihatdan antonimlikni yuzaga keltirsa, xuddi shu so‘zlarning antisemiyasi quyidagicha: yaxshi va yomonlik, go‘zal va xuniklashmoq, baland va pasaymoq, semiz va ozg‘inlik kabilar mazkur hodisa sifatida qo‘llanadi.

Keltirilgan bu xususiyatlar antonimiya va antisemiyaning farqli xususiyatlari hisoblansa, ular orasida o‘xshashlik xossalari ham mavjud bo‘lib, ular:

- a) sintagmatik jihatdan antisemiya va antonimiya bir-biriga juda o‘xshash;
- b) antonimiya antisemiyaning yuqori bosqichi hisoblanadi.

Mazkur hodisa o‘zbek tilshunosligida Dildora Abdullayeva tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, tilshunos olim mavzuga oid dissertatsiyasida antisemiya ta‘rif berar ekan: “Antonimlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur hodisa bir so‘z turkumi doirasida mavjud deb qaralgan. Ammo leksik birliklardagi qarama-qarshilikning ifodalanishi turli turkum doirasida ham kuzatilishi, ayni haqiqat. Aytish mumkinki, antonimik holat leksik birliklar semantikasidagi qarama-qarshi semalarning reallashishi uchun eng qulay sharoit hisoblanadi. Chunki bunday vaziyatda mazkur qarama-qarshi semalardan boshqa barcha semalarning aynan bo‘lishi qarama-qarshilikni yanada yorqin ifoda etadi. Ammo leksik birliklarning semantik qarama-qarshiligiga asos bo‘luvchi semalar doim ham ana shunday simmetrik holatda emas, asimmetrik holatda bo‘lishi ham juda ko‘p kuzatiladi. Ularda ham antonimlarga xos bo‘lgan mantiqiy, psixologik, leksik, kommunikativ tomonlar mujassamlashgan. Shunga ko‘ra, lingvistik qarama-qarshilikning faqat antonimiya mezonlari asosida belgilanishi hodisa mohiyatini to‘liq ochishga imkon beradi. Demak, leksik birliklardagi semantik qarama-qarshilik munosabatini antonimiya doirasidagina emas, balki undan tashqarida tekshirish maqsadga muvofiqdir” [1].

Frazemalar orasida antisemiya hodisasiga ko‘plab misollarni uchratishimiz mumkin. Bunda bir so‘z atrofida turli tushunchalar va ma‘noviy birliklar hosil qiluvchi bir necha o‘nlab misollarda uchratishimiz mumkin. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da (Sh.Rahmatullayev. 1978) shu kabi frazeologik birliklarni ko‘plab kuzatamiz. Ma‘lumki, frazemlar orasida kiyim-kechak, urf-odat, meva-sabzavot, raqamlar ishtirokidagi iboralarni ko‘p uchratamiz. Bular orasida, ayniqsa, tana a‘zolari ishtirokidagi frazemalar yetakchi o‘rniga ega, ya‘ni iboralar orasida tana a‘zolari bilan bog‘liq.

Ko‘z qirini tashlamoq – tez va sezilar-sezilmas qaramoq.

Miyasini qoqib qo‘liga bermoq – bezdirmoq, joniga tegmoq.

Oyoq uchi bilan ko‘rsatmoq – kamsitmoq.

Og‘iz ko‘pirtirmoq – maqtanmoq kabi iboralar inson tana a‘zolarini qo‘llash natijasida yuzaga kelgan. Tana a‘zolaridan eng ko‘p qo‘llangan **bosh** a‘zosi misolida kuzatadigan bo‘lsak, tilshunosligimizda juda ko‘p frazemalar, masalan, “bosh chayqamoq” – yo‘q javobiga ishora, “bosh egmoq” – taslim bo‘lmoq, “bosh ko‘tarib yurmoq” – hijolat bo‘lmay yurmoq, “bosh qo‘shmoq” – qatnashmoq, “bosh o‘ynab, jon tarkin urmoq” – hayotini xavf ostiga qo‘ymoq, “boshi ikkita bo‘lmoq” – o‘ylanmoq, “boshida kaltak sinmoq” – zarba yemoq, “boshi yostiqa tegmaslik” – uxlamaslik va yana xuddi shunga kabi frazemalar bosh a‘zosi bilan qo‘llangan. Bu kabi frazemalarning ba‘zilari antisemiyasiga to‘xtalib o‘tsak:

Ibora	Antonimik birlik	Antisemik mazmundagi birlik
Bosh ko‘tarmoq	Bosh egmoq	Itoatkor
Bosh qo‘shmoq	Bosh tortmoq	Aralashmaslik
Boshi ochiq	Boshi bog‘liq	Unashtirilgan
Boshi egik	Boshi ko‘kka yetmoq	Mag‘rur yurmoq

Keltirilgan jadvaldagi iboralar antonimlik munosabati bilan xuddi shu iboraga mos antisemik munosabat ham ifodalab berilgan. Iboralar tarkibida antisemiya hodisasini o‘rganish, tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki frazemalarning ifoda planida antonimlik xususiyatlariga to‘laqonli mos kelmaydigan jihatlarni aynan shu hodisa umumlashtirib ifodalaydi. “Frazemalarning o‘zaro va leksemalar bilan qarama-qarshi ma‘no anglatishi tabiiy bo‘lgan holda, frazemaning aniq bir turkumga xos ekanligini aniqlash mushkul. Bizningcha, frazemalarni muayyan turkumga sun‘iy ravishda tirkash to‘g‘ri emas. Frazemalarga turkumlik xos emas. Shuning uchun frazema va leksemaning qarama-qarshi ma‘no anglatishini antonimiya emas, antisemiya chegarasida o‘rganish kerak” [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada frazeologik antisemiya antonimiya hodisasi o‘zaro cho‘g‘ishtirish, ya‘ni qiyoslash metodi asosida tahlil qilib o‘rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Frazemalarning mazkur turi nafaqat so‘zlashuv uslubida, balki badiiy, publitsistik uslubda ham faol qo‘llanilishini turli asarlar, badiiy adabiyot vositasida kuzatishimiz mumkin. Ma‘lum-

ki, o‘zbek adabiyotining juda ko‘p namoyandalari asarlarida iboralardan muntazam foydalanib keladi. Boisi iboralar xalqqa o‘z jayoti, tili, madaniyati, urf-odati haqida axborot beruvchi tushuncha hisoblanadi. Shu sababdan ham badiiy asar tilini boyitish, asarning o‘qishligini, badiiy bo‘yoqdorligini ta‘minlash borasida iboralar yetakchi hisoblanadi.

“Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazemalar qo‘llanilganda, bu birliklar bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning bir guruhi uzual, ya‘ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkazional, ya‘ni nutqiy (uslubiy) vazifalardir. Frazeologizmlarning ichki ma‘nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi” [3].

Demak, badiiy asar tilining ravonligi, ifodaning mukammaligida frazemalarning o‘rni beqiyos. Bu o‘rinda o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, XX asr adabiyotimizda sezilarli iz qoldirgan yozuvchi Abdulla Qahhor ijodi ham salmoqli ahamiyatga ega. Qahhor ijodidan o‘rin olgan qator asarlar, jumladan, “Qishloq hukm ostida”, “O‘tmishdan ertaklar” qissalari, “Tangrining kulgusi”, “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Tomosha-bog‘”, “Millatchilar”, “Daxshat” kabi hikoyalari milliy adabiyotimizda o‘z o‘rniga ega nodir asar namunalari hisoblanadi.

Darhaqiqat, adib ijodidagi mohirona chizgilar, ko‘plab birliklar, maqol, hikmatli so‘z, iboralardan unumli foydalanganligi Qahhor ijodining o‘ziga xoslik jihatlari va mazmundorligini ta‘minlaydi. Shu o‘rinda Qahhor ijodidan o‘rin olgan hikoyalarda frazemalardan ham unumli foydalangan. Misol uchun, “Mayiz yemagan xotin” hikoyasida qo‘llangan: “Qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urmoq” (O‘n bir yasharida paranji yopinmagan qizdan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa ura bering) – ixlosi qaytib, ishonmay, diqqat e‘tiboridan soqit qilmoq;

“Bo‘yi yetmoq” (Bo‘yi yetib qolgan qizlarni maktabga yuborgan otalariga hayronmam) – turmush qurush darajasiga yetgan;

“Ta‘bi kir bo‘lmoq” (Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha ko‘nglim g‘ash, ta‘bim kir bo‘lib yurdim) – kayfiyati yomonlashmoq [4] kabi va yana bir qator frazemalardan unumli foydalanilgan. Bundan tashqari adib ijodidan o‘rin olgan frazemalarning turlari ham anchayin talay. Mazzuga muvofiq “Nurli cho‘qqilar” hikoyasida qo‘llanilgan frazemalar va ularning antisemiyasiga ham to‘xtalib o‘tsak.

Ibora	Antonimik birlik	Antisemik mazmundagi birlik
Jon-jonidan o‘tib ketmoq	Joniga oro kirmoq	Toqatli
Yuragini yormoq	Yuragida gap saqlamoq	Ichida saqlamoq
Otning qashqasi	Nazardan qolmoq	Nom-nishonsiz
Ko‘z qirini tashladi	Qarashni ep ko‘rmadi	Qaramaslik
Damini chiqarmaslik	Labi labiga tegmaslik	Valdiramoq

Mazkur jadvalda iboralar antisemiyasi ularning antonimlari bilan birgalikda ifodalangan. Abdulla Qahhor asarlarida bu kabi birliklarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Demak, frazemalarning antisemiyasi xuddi frazemik antonimiya singari tushuncha ifodalaydi, ammo ma‘no jihatdan antonimdan bir pog‘ona ustun turishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Antonimlarda ma‘noviy ziddiyat to‘liq shakllansa, antisemiyada buning aksi, ziddiyat to‘liq ifodalanmaydi.

**Xulosa.** Ma‘lumki, bugungi kunda frazeologiya sohasi jadal sur‘atlarda o‘rganilib, keng mushohadalar olib borilmoqda. Bu o‘rinda frazemalar turlari, ularning xususiyatlari, bir qator jihatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o‘rinda esa frazemalarda antisemiyasi hodisasini o‘rganish o‘z dolzarbligiga ega. Frazemalarning qarama-qarshilik hodisalarini faqatgina antonimiya yuzasida o‘rganish har doim ham o‘zini oqlamaydi. Zero, bir frazemaning turli turkumlar orasidagi so‘zlar bilan ziddiyat ma‘nosini antonimiya emas, antisemiyasi hodisasi yuzaga keltiradi. Chunki antonimiya bir so‘z doirasida ifodalansa, antisemiyasi esa aksincha, turli so‘z turkumlari vositasida munosabat ifodalaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). D.Abdullayeva. “O‘zbek tilida antisemiyasi”. T., 2010, 45-bet.
- (2). M.Faxriddinova. “Frazemalarda antisemiyasi”. T., 2019, 58-bet.
- (3). B.Yo‘ldoshev. “Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari”. Toshkent, 1993, 33-bet.
- (4). Sh.Rahmatullayev. “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”. T., 1978.

- (5). Q Sapayev. "Hozirgi o'zbek tili". T., 2009.
- (6). A.Mamatov. "O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari". T., 1991.
- (7). I.Umirov. "O'zbek tili parafrazolari". T., 1996.
- (8). R.Shukurov. "O'zbek tilida antonimlar". T., 1997.
- (9). H.Shamsiddinov. "O'zbek tilida so'zlarning funksional-semantik munosabatlari". T., 1996.
- (10). [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Hodjanova O'ringul Smayilovna (O'zDJTU "Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrası"  
o'qituvchisi; Email: [hojanovauringul01@gmail.com](mailto:hojanovauringul01@gmail.com))  
BADIIY MATN SEMANTIK MAYDONIDA O'XSHATISHNING O'RNI**

**Annotatsiya.** Turli tizimlarning bir qator tillari materiallari bo'yicha badiiy matnda o'xshatishshni o'rganishga kognitiv yondashuv keng tadqiqot nuqtayi nazaridan taqqoslashning murakkab va asosiy tarkibiy qismlarini to'liq aniqlash va tavsiflash imkonini beradi. Uning kognitiv tabiatining ko'p qirralarini, shu jumladan, kognitiv semantik salohiyatni va kognitiv, stilistik xususiyatlarini ochib beradi. Bu zamona-viy tilshunoslikning nazariy qoidalari amaliy jihatining samaradorligi va istiqbolini ko'rsatadi va bilimning lingvistik va nolingvistik tuzilmalari o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan badiiy matn va uning individual stilistik ahamiyatga ega bo'lgan birliklari muammolarini hal qilishning yangi usullarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, kognitiv lingvistika, semantik maydon, kontseptuallashtirish, turkumlash-tirish, o'xshatish, adabiy matnlar, idrok, obraz.

**Хожанова Урингул Смайиловна (преподавательница УзГУМЯ, Кафедры теоретические аспекты  
английского языка; имейл: [hojanovauringul01@gmail.com](mailto:hojanovauringul01@gmail.com))**

**РОЛЬ СРАВНЕНИЯ В СЕМАНТИЧЕСКОМ ПОЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА**

**Аннотация.** Когнитивный подход к изучению сравнения в художественном тексте на материале ряда языков разных систем позволяет в расширенном исследовательском ракурсе наиболее полно выявить и описать ключевые компоненты сложного содержания сравнения, выявить многие стороны его когнитивной природы, в том числе когнитивный смысловой потенциал и когнитивные, стилистические особенности. Это свидетельствует об эффективности и перспективности прикладного аспекта теоретических положений современной лингвистики и открывает новые пути решения проблем художественного текста и его отдельных стилистически значимых единиц, основанных на соотношении языковых и неязыковых структур знания и их мысленные представления.

**Ключевые слова:** художественный текст, когнитивная лингвистика, семантическое поле, концептуализация, категоризация, сравнение, художественные тексты, восприятие, образ.

**THE ROLE OF SIMILE IN THE SEMANTIC FIELD OF LITERARY TEXT**

**Annotation.** Cognitive approach to the study of the simile in literary text on the material of a number of languages of different systems allows in an expanded research perspective, to reveal and describe the key components of the complex content of the simile, most fully and adequately identify many aspects of its cognitive nature, including cognitive-semantic potential and cognitive-stylistic features. This testifies to effectiveness and prospects of the applied aspect of theoretical provisions of modern linguistics and opens up new ways for solving the problems of a literary text and its individual stylistically relevant units, based on the correlation of linguistic and non-linguistic structures of knowledge and their mental representations.

**Key words:** cognitive linguistics, cognitive semantics, conceptualization, categorization, mental identity, simile, literary texts, perception, the image.

**Kirish.** Matnning to'liq va terminologik tasnifi hali to'liq ishlab chiqilmagan bo'lsa-da, tilshunoslik ham boshqa fanlar singari, ko'pincha, to'liq izohini topmagan tushunchalar bilan faoliyat ko'rsatadi. Matn ko'p qirrali soha bo'lib, unga turli xil tomondan yondashish mumkin. Agar nutq harakatdagi jarayon bo'lsa, u holda matn tabiatan ikkilamchidir, ya'ni sokinlikda yoki harakatda bo'lish qobiliyati bilan xarakterlanadi. Nutq mavjudligi vaqt nuqtayi nazaridan chegaralangan bo'lsa, u holda matnning mavjudligi amaliy jihatdan cheksizdir [Galperin. 2007:11]. Matn nafaqat borliqni aks ettiradi, balki u haqda xabarni tashiydi. Matn semantikasi nominativ va kommunikativ tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Matnda kommunikativ, kognitiv (borliqni idrok qilish) va hissiy funksiyalar kesishadi. Matn tizimli va individual birlikdir. Matnning tizimliliigi qabul qiluvchining jo'natuvchiga bo'lgan talabini aks ettiradi, yozuvchi matnni til kodi ko'rsatilgan modellarga muvofiq modellashtiradi. Matnning individualligi badiiy obrazni tashuvchi moddiy shaklning cheksiz o'zgaruvchanligi natijasidir. Badiiy matn yozuvchining tasavvurida haqiqatni aks ettirish mahsulidir. Badiiy matnda nafaqat semantik, balki badiiy yoki estetik ma'lumotlar ham aks etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Badiiy matn har bir san'at asarining rassom tomonidan voqe-likni obrazli bilish va aks ettirish natijasida dunyoga kelgan ijod mahsulidir. Badiiy matn tadqiqot obyekti sifatida ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jahon tilshunosligida V.F.Gumboldt, F.de Sossyur, A.A.Potebnya, E.B.Benevist, I.B.Sapir, B.L.Uorf, V.V.Vinogradov, B.A.Larin, G.O.Vinokur, K.R. Yakobson, V.V.Vinogradova, I.R.Galperin, N.M.Shanskiy, O.I.Moskalskaya, A.N.Vasileva, A.A.Potebnya, L.Y. Maksimov, A.I.Efimov, G.O.Vinokur, V.M.Jirmunskiy, Y.M.Lotman, Lukin, Shanskiy. L.A.Novikov kabi olimlar tomonidan olib borilgan badiiy matn borasidagi tadqiqotlarga asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda.

Yurtimiz tilshunosligida badiiy nutq B.G.Hisamovna, D.U.Ashurova, N.M.Djusupov, Sh.Shoabdu-rahmonov, I.Qo'chqortoyev, Q.Samadov, E.Qilichev, B.Bafoyev, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, L.Abdullaye-va, N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, Z.Xolmonova, D.Xudoyberganova, R.M.Galiyeva B.Abdushukurov, B.Choriyev, B.Yariyev, R.Normurodov, S.Boboyeva, G.Muhammadjonova, S.Normamatov, Sh.Toshxo'jayeva, Q.M.Qurbonova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilingan.

Tadqiqotchilar badiiy matn xususiyatlarini o'rganar ekan, uni estetik hodisa degan postulatga kelishgan. So'ngi yillarda tilshunolar tilni matn orqali o'rganishlari natijasi o'laroq matn kategorik xususiyatlarining oshishiga va uning rasmiy prametrlarini takomillashuviga olib keldi. Shu bilan birga, mening nazarimda, badiiy matnlar talqini doirasida quyidagilar muhimligicha qolmoqda: estetik ahamiyatga egaligi, badiiy matnning semantik ko'p qatlamliligi, turlicha talqinlarni o'z ichiga olgan "yashirin ma'nolar kategoriyasi" (ma'no yadrosining invariantliligi) va inson idroki bo'lib kelgan. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar ifodaning semantik yetishmasligini badiiy matnning ontologik xususiyati, uning badiiylik mezoni sifatida tan oladi, chunki chinakam adabiy asar har doim so'zlarning to'g'ridan to'g'ri ma'nolaridan ko'ra yashirin ma'nolari orqali ifodalibroq yetqazib beradi. Ma'noning yashirinchanligi, noaniqligi o'zbek-forsiy she'riyatning namoyandalari Hisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Germaniyaning romantik uslub davridan beri badiiylikning muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotimiz obyekti badiiy matndagi individual o'shatish bo'lib, Abdulla Oripov asarlaridagi o'xshatishlarni kognitiv modellashirish metodidan foydalangan holda, badiiy matnning "chuqur mazmuni"ni yoritish uchun qo'llanildi va freym tahlili qilindi.

Semantik sohalar uchun qiziqarli foydalanish jargonni antropologik o'rganishdir. Turli xil narsalarni tasvirlash uchun ishlatiladigan jarangli so'zlarning turlarini o'rganish orqali tadqiqotchilar subkulturalarga tegishli qadriyatlarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Konseptual domenlar va semantik maydonlar. "Tilshunos Anna Vierzbicka bir qator leksik elementlarni tahlil qilar ekan, nafaqat semantik ma'lumotni tekshiradi. U, shuningdek, lingvistik elementlar tomonidan ko'rsatiladigan sintaktik naqshlarga e'tibor beradi, bundan tashqari, semantik ma'lumotlarni ko'proq qamrab oluvchi skriptlar yoki ramkalarda tartibga soladi. Shuning uchun u konseptual sohalarining yaqin ekvivalentini topish uchun sifatli tahlil usulining aniq va tizimli namunasini taklif qiladi.

"Ushbu turdagi tahlilni leksik sohalar va kontent sohalar o'rtasidagi farqni taklif qiladigan Kittay (1987, 1992) kabi olimlarning semantik maydon tahlili bilan solishtirish mumkin. Kittay yozganidek:"

Kontent sohasi aniqlanishi mumkin, ammo leksik yoki semantik maydon cheksizdir. Boshqacha qilib aytganda, leksik maydonlar kontent domenlariga (yoki konseptual sohalariga) kirishning boshlang'ich nuqtasini ta'minlashi mumkin. Ammo ularning tahlili konseptual sohalarining to'liq ko'rinishini ta'minlamaydi.

**Tahlil va natijalar.** Abdulla Oripov she'riyati ma'no va mazmun jihatidan juda boy semantik maydonga ega bo'lib, tadqiqotimiz markaziga aylandi.

*Holbuki, orzularidan judo ham bo'lganim yo'q,*

*Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.*

*Erta xazon gul kabi sarg'ayib, so'lganim yo'q,*

*Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,*

*Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.*

"Yulduz" so'zining semantik maydonida o'quvchi ongida yaraqlovchi obyekt bo'lib keyinchalik esa xursandchilik va baxt ma'nosini gavdalandiradi, natijada "yo'q" so'zi yordamida semantik maydonning aksi ko'rinadi: g'amgin shoir obrazini yaratadi.

**Xulosa va takliflar.** Maqolada mazmuniy maydon tilshunoslikning asosiy konsepti sifatida tahlilga tortildi va uning lingvistik xususiyatlari yoritib berildi. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligidagi semantik maydon nazariyasi borasidagi izlanishlar va ularning ilmiy natijalari haqida izlanishlar va nazariy fikrlar ko'paysa, kelajakda kognitiv tilshunoslik rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lardik.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Lakoff, G., (1982). Categories: An essay in cognitive linguistics. LiMed. Linguistics in the morning calm: Selected papers from the SICOL-1981. Seoul: Hanship, pp. 139–193.
- (2). Lakoff, G., (1980). Metaphors we live by G. Lakoff & M. Johnson. Originally published: University of Chicago Press. Date Views, 28.05.2016.
- (3). <http://shu.bg/tadmin/upload/storage/161.pdf>.
- (4). Teun, A. van Dijk, (1985). Discourse and communication. Berlin/New York: de Gruyter.
- (5). Langacker, Ronald W. 1987. Foundations of Cognitive Grammar. Vol. I: Descriptive Application. Stanford: Stanford University Press Minsky, Marvin. A framework for representing knowledge. Cambridge, 1974.
- (6). DOI:10.1007/978-94-015-8315-2\_3 Corpus ID: 60351175. Generating Metaphors from Networks: A Formal Interpretation of the Semantic Field Theory of Metaphor. E. Steinhart, E. Kittay. Published 1994. Linguistics.

**Kushmanov Jasur Baxodirovich (UrDU, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); [jasur.k@urdu.uz](mailto:jasur.k@urdu.uz)),  
Qalandarova Begoyim Aybek qizi (UrDU 1-kurs talabasi)  
INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR GRADUONIMIYASI**

**Annotatsiya.** Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tushunish va qo'llashda graduonimiya yoki ma'no va shakldagi gradatsiya hodisasi katta rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot ingliz frazeologiyasidagi graduonimiyaning murakkab tomonlarini o'rganadi, shakl va intensivlikdagi o'zgarishlar ma'noga qanday hissa qo'shishini o'rganadi. Ushbu tadqiqot bir qator frazeologik birliklarni tahlil qilib, ma'nodagi nozik o'zgarishlar va ularning kommunikativ ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Topilmalar ingliz frazeologiyasining moslashuvchan tabiati haqida tushuncha beradi, bu iboralarni talqin qilish va ulardan samarali foydalanishda kontekstual omillarning muhimligini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** graduonimiya, frazeologik birlik, semantik o'lchov, kommunikativ ta'sir, intensivlik, lingvistik nuans, leksik o'zgarish, strukturaviy o'zgarish.

**Кушманов Жасур Баходирович (УрГУ, доктор философии (PhD) по филологии; [jasur.k@urdu.uz](mailto:jasur.k@urdu.uz))  
Каландарова Бегойим Айбек кизи (студент 1 курса УрГУ)**

### ГРАДУОНИМИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

**Аннотация.** Градуонимия или явление градации значения и формы играет большую роль в понимании и применении фразеологических единиц в английском языке. В работе исследуются сложности градуонимии в английской фразеологии, изучая, как изменения формы и интенсивности влияют на значение. В этом исследовании был проанализирован ряд фразеологизмов и сосредоточено внимание на выявлении тонких изменений значения и коммуникативного эффекта обучения. Результаты дают представление о гибкой природе английской фразеологии, подчеркивая важность контекстуальных факторов в интерпретации и эффективном использовании фраз.

**Ключевые слова:** градуонимия, фразеологизм, семантическое измерение, коммуникативный эффект, интенсивность, языковой нюанс, лексическое изменение, структурное изменение.

**Kushmanov Jasur Bakhodirovich (UrSU, Doctor of Philosophy in Philology (PhD); [jasur.k@urdu.uz](mailto:jasur.k@urdu.uz)),  
Kalandarova Begoyim Aybek kizi (1<sup>st</sup> year student of UrSU)**

### GRADUONYMY OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH

**Annotation.** Gradonymy or the phenomenon of gradation of meaning and form plays a large role in the understanding and use of phraseological units in the English language. This study explores the complex aspects of gradonymy in English phraseology, exploring how changes in form and intensity contribute to meaning. This study aims to identify subtle changes in meaning and their communicative impact by analyzing a number of phraseological units. The findings provide insight into the adaptive nature of English phraseology, highlighting the importance of contextual factors for the interpretation and effective use of phrases.

**Key words:** graduonymy, phraseological unit, semantic dimension, communicative effect, intensity, linguistic nuance, lexical change, structural change.

**Kirish.** Frazеologik birliklar yoki idiomatik iboralar ingliz tilining asosiy jihati bo'lib, muloqotning boyligi va chuqurligini ta'minlaydi. Ushbu birliklar, ko'pincha, graduonimiya deb nomlanuvchi hodisani namoyon qiladi, bu yerda shakl va ma'nodagi nozik gradatsiyalar turli intensivlik va nuanslarga ega bo'lgan iboralar spektrini yaratadi. Graduonimiyani tushunish ushbu iboralarning to'liq kommunikativ imkoniyatlarini tushunish uchun juda muhimdir. Ingliz frazeologiyasida graduonimiyani o'rganish idiomatik ibora ichidagi so'zlar yoki tuzilishdagi o'zgarishlar uning ma'nosini qanday o'zgartirishi mumkinligini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot bu o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, ular muloqotning



umumiy talqini va samaradorligiga qanday hissa qo'shishiga e'tibor qaratadi. Turli frazeologik birliklarni o'rganish orqali ushbu tadqiqot ingliz tilida graduonimiya qo'llanilishiga asos bo'lgan qonuniyatlar va tamoyillarni aniqlashga intiladi. Ushbu tadqiqotning ahamiyati uning tilshunoslikda ham, ta'limda ham qo'llanilishidadir. Tilshunoslar uchun graduonimiyani tushunish tildan foydalanish va rivojlanish tahlilini kuchaytiradi. Ushbu tadqiqot ingliz frazeologiyasidagi graduonimiya va uning tilni o'qitish va o'rganishga ta'sirini har tomonlama tahlil qilishni taklif qilib, ushbu sohalarni birlashtirishga qaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi frazeologik birliklarni batafsil tahlil qilishga qaratilgan sifatli tadqiqot dizaynidan foydalanadi. Tadqiqot kontekstual tekshiruvdan foydalangan holda ushbu birliklar ichidagi graduonimiya shakllarini aniqlash va tavsiflashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot uchun ma'lumotlar ingliz frazeologik birliklarini har tomonlama tahlil qilish uchun bir nechta manbalardan to'plangan. Idiomatik iboralar, shuningdek, turli adabiy asarlar, gazetalar, jurnallar va onlayn ommaviy axborot vositalaridan hozirgi foydalanish va kontekstual o'zgarishlarni qo'lga kiritish uchun to'plangan. Frazeologik birliklar aniqlandi va to'plangan ma'lumotlar manbalaridan ajratib olindi. Bunga idiomalar, birikmalar va boshqa turg'un iboralar kiradi. Har bir frazeologik birlik shakl va ma'no o'zgarishiga qarab tahlil qilindi. Leksik o'zgarishlar, tuzilish o'zgarishlari, intensivlik va nuans, kontekst tahlili va mavzuiy tahlillar amalga oshirildi.

"Graduonomik paradigmadagi so'zlar har xil denotatsiyalarga ishora qiladi, lekin bu denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko'rsatkichlaridadir", deb yozadi Mirzaakbarov S. [1]. U bu birliklarning ichki tuzilishini o'rganib chiqib, ibora ichidagi turli elementlarning o'zaro ta'siri va uning umumiy ma'nosiga qanday hissa qo'shishini tushunish uchun tizimli yondashuvni taklif qiladi. J. Djumabayeva "O'zbek va ingliz tillarida leksik va stilistik graduonimiya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida leksik va stilistik darajada graduonimiya hodisasini o'rgangan [2].

**Natijalar.** Tadqiqot davomida to'plangan birliklar o'zlarining strukturaviy-semantik xususiyatlariga ko'ra turkumlarga ajratilgan, jumladan, idiomalar, qo'shma gaplar va turg'un iboralar. Tasniflash ingliz frazeologiyasining dinamik xususiyatini ta'kidlab, graduonimiyani ko'rsatadigan turli xil iboralarni ochib berdi. Leksik variatsiyalar tahlili shuni ko'rsatdiki, frazeologik birlik doirasidagi alohida so'zlardagi mayda o'zgarishlar ma'noning sezilarli siljishiga olib kelishi mumkin. Masalan: "Break the ice (birinchi bo'lib gapirish)" va "Shatter the ice (suhbatni boshlash)": Ikkala ibora ham ijtimoiy o'zaro munosabatlarni boshlashni ko'rsatsa-da, "muzni parchalash" yanada kuchliroq yoki dramatik boshlanishni bildiradi. "Piece of cake (oson)" va "Easy as pie (judayam oson)": Ikkala ibora ham osonlikni ifodalaydi, lekin "Piece of cake", ko'pincha, tasodifiy yoki norasmiy ma'noga ega. Ushbu leksik va kontekstual o'zgarishlar iboraning intensivlik va nutq jozibadorligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, frazeologik birliklarning strukturaviy o'zgarishlari ham graduonimiyaga yordam beradi.

– "A piece of cake" vs. "As easy as pie": Ot so'z birikmasidan o'xshatishga o'tish boshqa sintaktik tuzilishni keltirib chiqaradi, bu esa ifodaning idrok etilgan uslubiyligi va urg'usiga ta'sir qiladi.

– "Burn the midnight oil" va "Stay up all night": Birinchisi metaforik tuzilmadan foydalangan bo'lsa, ikkinchisi soddaroq bo'lib, ifodaning tasviri va ta'sirini o'zgartiradi.

Strukturaviy o'zgarishlar, ko'pincha, iboraning turli kontekstlarda qanday qabul qilinishi va tushunilishiga ta'sir qiladi. Frazeologik birliklardagi o'zgarishlar turli darajadagi intensivlik va nuanslarni bildirishi aniqlandi. Masalan: "A little bird told me (birov aytdi)" va "I heard through the grapevine (hammani o'g'zida shu gap)": ikkalasi ham ma'lumotni bilvosita qabul qilishni nazarda tutadi, lekin birinchisi ko'proq yopiq yoki maxfiy manbani nazarda tutadi, ikkinchisi esa kengroq, potensial kamroq ishonchli manbani bildiradi. Ushbu o'zgarishlar ma'nodagi nozik farqlarni talqin qilishda kontekstning muhimligini ta'kidlaydi. Kontekstual tahlil shuni ko'rsatdiki, frazeologik birlikning o'zgaruvchanligini tanlash ko'pincha janr, registr va vaziyat omillariga bog'liq. Masalan: rasmiy uslubda "Take it slow (sekin harakat qiling)" dan ko'ra "Proceed with caution (ehtiyotkorlik bilan davom eting)" kabi iboralar afzalroqdir.

Frazeologik o'zgarishlarning chastotasi va tarqalishi turli kontekstlarda sezilarli darajada farq qilishi aniqlandi, bu ingliz frazeologiyasining moslashuv qobiliyatini ta'kidlaydi. Tematik tahlil graduonimiyadan foydalanishda bir nechta takrorlanadigan mavzularni aniqladi: Rasmiylik va norasmiylik: Ko'p o'zgarishlar rasmiyatchilikdagi o'zgarishlarni aks ettiradi va turli kommunikativ ehtiyojlarni qondiradi. Tasvir va metafora: Variatsiyalar, ko'pincha, tasvir yoki metaforadagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, bu ifodaning yorqinligi va ta'siriga ta'sir qiladi. Ta'kid va intensivlik: Shiddat va urg'udagi farqlar keng tarqalgan bo'lib, ma'ruzachilarga turli darajadagi shoshilinchlik yoki muhimlikni yetkazishga imkon beradi. Ushbu mavzular

graduonimiyaning ko'p qirrali xususiyatini va uning ingliz tilining ekspressivligini oshirishdagi rolini ko'rsatadi.

**Munozara.** Frazeologik birliklar ichida graduonimiyani o'rganishda tilning turli darajadagi ma'no va hissiyotlarni qanday yetkazishini tushunish uchun ushbu darajali iboralarni aniqlash va ularning turli kontekstlarda qo'llanilishini tahlil qilish juda muhimdir. Graduonimiyaning ahamiyati frazeologik birliklarni o'rganish doirasidan chiqib, leksik semantikaning kengroq sohasini qamrab oladi. Frazeologik birliklardagi graduonimiya deganda iboralar shiddat, his-tuyg'u yoki boshqa semantik o'lchovlar bo'yicha darajalangan hodisaga aytiladi. Ingliz frazeologik birliklarida graduonimiya:

*Intensivlik va daraja:*

- Past intensivlik: “a little bit of rain – bir oz yomg'ir”.
- O'rtacha intensivlik: “raining cats and dogs – sharros yog'ayotgan yomg'ir”.
- Yuqori intensivlik: “a torrential downpour – kuchli jala”.

*Chastotasi va darajasi:*

- Kamdan kam: “once in a blue moon – har-hardda bir”.
- Ba'zan: “from time to time – vaqti-vaqti bilan”.
- Tez-tez: “all the time – har doim”.

*Hajmi va miqdori:*

- Kichik miqdor: “a drop in the ocean – okeandan tomchi”.
- O'rtacha miqdor: “a fair bit – biroz”.
- Katta miqdor: “a ton of – tonna”.

So'z ma'nolari murakkab va ko'p qatlamli bo'lib, graduonimiya tushunchasi o'xshash so'z yoki iboralar o'rtasidagi ma'nodagi nozik farqlarni ko'rsatib, bu murakkablikni yoritib beradi. U frazeologik birliklarning ma'nosini tushunish uchun aniq va izchil asos yaratadi hamda g'oyalarni yanada to'g'ri va samaraliroq yetkazish imkonini beruvchi yanada nozik va aniq nutq yaratishga yordam beradi. Ba'zilar graduonimiya zaruriy tushuncha emas, degan fikrni ilgari surishi mumkin, chunki frazeologik birliklar o'rtasidagi ma'nodagi nozik tafovutlarni ular qo'llanilgan kontekstdan xulosa qilish mumkin. Biroq ma'no chiqarishda faqat kontekstga tayanish noaniqlik va chalkashlikka olib keladi, chunki bir frazeologik birlik turli kontekstlarda turli ma'noga ega bo'lishi mumkin. Demak, frazeologik birliklarning ma'nosini tushunish uchun aniq va izchil asos yaratishda graduonimiya tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, graduonimiya ingliz tilidagi frazeologik birliklarning semantik jihatlarini tushunishda muhim tushunchadir. U o'xshash so'zlar yoki iboralar o'rtasidagi ma'nodagi nozik farqlarni farqlash uchun aniq va izchil asos yaratadi hamda aniqroq va ta'sirchan til yaratishga yordam beradi. Ushbu tadqiqot natijalari ingliz frazeologiyasida graduonimiyaning keng tarqalgan xususiyatini ko'rsatadi. Leksik va strukturaviy o'zgarishlar idiomatik iboralarning boyligi va moslashuvchanligiga sezilarli hissa qo'shadi. Ingliz frazeologiyasining turli kommunikativ ehtiyojlarga moslashishini reflektiv kontekstda foydalanish uchun mos variantni aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Belgilangan mavzular graduonimiyaning asosiy tamoyillarini tushunish uchun asos bo'lib, lingvistik tahlil va amaliy tildan foydalanish uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi. Umuman olganda, ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, graduonimiya ingliz frazeologiyasining dinamik va nuansli tabiatining asosiy omili bo'lib, tilshunoslik va til ta'limi uchun muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Mirzaakbarov S. (2020). The comparative analysis of hyponymic english and uzbek phrases in graduonymic manner. Архив научных публикаций JSPI.
- (2). Djumbayeva J. Turli tizimli tillarda leksik hamda stilistik darajalanish. T., 2017.
- (3). Hojiyev A. O'zbek tili leksikologiyasi. T., “Fan”, 1981, 312-bet; 294-bet.
- (4). Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. T., 1996.
- (5). Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy darajalanish. T., 1997.
- (6). Белова Е.П. Вопросы организации статьи морского терминологического многозначного словаря. Лексикографические ракурсы: традиции и вызовы ХХИ века. Материалы Международной школы-семинара, Иваново, 8–10 сентября 2011 г., с. 252.
- (7). Макарова О.С. О принципах составления словарной статьи в “Словаре сочетаемости фразеологизмов русского языка”. Ученые записки.
- (8). <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/>

Jo'rayev G'anisher Alisherovich (O'zbekiston davlat Jahon tillar universiteti "1-amaliy ingliz tili" kafedrasida o'qituvchisi)  
**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MEHNATGA MUNOSABAT KONSEPTINI IFODALOVCHI  
LEKSIK BIRLIKLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabat konseptini ifodalovchi leksik birliklarni tahlil qiladi. Har ikkala tilda mehnat konseptining qanday ifodalanishi, bu so'zlarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishi misollar bilan ko'rsatilgan. Maqolada «work», «job», «labor» kabi inglizcha so'zlar va «mehnat», «ish», «kasb» kabi o'zbekcha so'zlarning ma'no va qo'llanilishi tahlil etiladi. Ushbu tahlil ikki tilda ham mehnat konseptining madaniy, ijtimoiy va til vositasida qanday aks etishini tushunishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** ingliz tili, o'zbek tili, mehnat konsepti, leksik birliklar, til tahlili, mehnat madaniyati, ish, kasb, mehnatga munosabat.*

**Джораев Ганишер Алишерович (Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель кафедры «Кафедра прикладного английского языка №1»)**

**ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ, ВЫРАЖАЮЩИЕ ПОНЯТИЕ ОТНОШЕНИЕ К ТРУДУ В  
АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

***Аннотация.** В данной статье анализируются лексические единицы, выражающие понятие отношение к труду в английском и узбекском языках. На примерах показано, как понятие труд выражается в обоих языках, как эти слова употребляются в разных контекстах. В статье анализируется значение и употребление таких английских слов, как «работа», «работу», «труд», а также узбекских слов, таких как «мехнат», «иш», «касб». Этот анализ помогает понять, как концепция труда отражается в культурных, социальных и языковых средствах на обоих языках.*

***Ключевые слова:** английский язык, узбекский язык, понятие труда, лексические единицы, языковой анализ, культура труда, труд, профессия, отношение к труду.*

**LEXICAL UNITS EXPRESSING THE CONCEPT OF ATTITUDE TO LABOUR IN ENGLISH  
AND UZBEK LANGUAGES**

***Annotation.** This article analyzes lexical units expressing the concept of attitude to labour in English and Uzbek languages. How the concept of work is expressed in both languages and how these words are used in different contexts are shown with examples. The article analyzes the meaning and usage of English words such as «work», «job», and «labor» and Uzbek words such as «mehnat», «ish», «kasb». This analysis helps to understand how the concept of work is reflected in cultural, social, and linguistic means in both languages.*

***Key words:** English language, Uzbek language, labor concept, lexical units, language analysis, labor culture work, profession, attitude to labor.*

**Kirish.** Mehnat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi. Har bir jamiyatda mehnatga bo'lgan munosabat o'ziga xos madaniy, ijtimoiy va tarixiy omillarga asoslanadi. Ushbu munosabat turli tillardagi leksik birliklarda, ya'ni so'zlar va iboralarda o'z aksini topadi.

Ingliz va o'zbek tillari ham bu borada istisno emas. Har ikkala tilda ham mehnatga bo'lgan munosabat turli xil leksik birliklar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida «work», «job», «career» kabi so'zlar keng qo'llanilsa, o'zbek tilida «mehnat», «ish», «kasb» kabi so'zlar keng tarqalgan.

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabatni ifodalovchi leksik birliklar tahlil qilinadi. Misollar yordamida bu so'zlarning ma'no va konteksti chuqur tahlil etiladi, ikki tilda mehnat konseptining ifodalanishidagi o'ziga xosliklar aniqlanadi. Bu tahlil ikki tilda ham mehnatga bo'lgan munosabat va uning til vositasida qanday aks etishini tushunishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Oxford English Dictionary (OED) ingliz tilidagi leksik birliklarning ma'nosi va qo'llanilishini tahlil qilish uchun eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Leksik birliklarning etimologiyasi, tarixiy rivojlanishi va turli kontekstlardagi qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Masalan, «work», «job», «labor», «career» kabi so'zlarning har biri uchun keng qamrovli izohlar, misollar va tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Bu lug'atning asosiy afzalligi shundaki, u ingliz tilidagi so'zlarning keng tarqalgan ma'nolarini va ularning tarixiy rivojlanishini o'rganish imkoniyatini beradi.

O'zbek tilidagi leksik birliklarning ma'nosi va qo'llanilishi haqida muhim ma'lumot manbayi hisoblanadi. «Mehnat», «ish», «kasb», «xizmat» kabi so'zlarning izohi va misollari keltirilgan bo'lib, ularning

turli kontekstlardagi qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu lug'at o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nosini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ularning madaniy va ijtimoiy ahamiyatini yoritadi.

Ingliz tilida mehnatga munosabat konsepti haqida yozilgan ilmiy maqolalar bu mavzuni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun muhim manbadir. Masalan, «Work and Society: Sociological Perspectives on Labor» (Edgell. 2012) asari mehnatning sotsiologik jihatlarini o'rganadi.

**Maqolada qo'llanilgan tadqiqot metodlari.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabat konseptini ifodalovchi leksik birliklarni tahlil qilishda bir necha tadqiqot metodlari qo'llanildi: leksik-semantik tahlil (ushbu usul yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatga munosabatni ifodalovchi so'zlar va iboralar chuqur tahlil qilindi. Bu metod so'zlarning ma'nosini, ularning turli kontekstlardagi qo'llanilishini va sinonimik qatorlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi «work», «job», «labor» va «career» so'zlari va ularning o'zbek tilidagi «mehnat», «ish», «kasb», «xizmat» so'zlari bilan bog'liq ma'no farqlari tahlil qilindi), qiyosiy tahlil (ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklar qiyosiy tahlil qilindi. Bu metod orqali ikki tildagi so'zlarning o'zaro bog'liqligi, o'xshashlik va farqlari aniqlanadi), korpus lingvistika ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning qo'llanilishini o'rganish uchun korpus lingvistika usuli qo'llanildi. Masalan, ingliz tilidagi «work» so'zi va o'zbek tilidagi «mehnat» so'zining turli kontekstlarda qo'llanilishi korpus tahlili yordamida o'rganildi, etimologik tahlil (ingliz va o'zbek tillaridagi mehnatga oid so'zlarning kelib chiqishini o'rganish uchun etimologik tahlil qo'llanildi. Masalan, ingliz tilidagi «labor» so'zining lotin tilidan kelib chiqishi va o'zbek tilidagi «mehnat» so'zining turkiy ildizlariga asoslanishi tahlil qilindi, madaniyatlararo tahlil har ikkala til va madaniyatda mehnat konseptining qanday aks etishini o'rganish uchun madaniyatlararo tahlil metodidan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Sotsiologiya nuqtayi nazaridan mehnat “insonning kamoloti va tabiiy boyliklarni moddiy, intellektual va ma'naviy ne'matlarga aylantirishga qaratilgan faoliyatdir. Bunday faoliyat majburlash (ma'muriy, iqtisodiy) yoki ichki motivatsiya yoki ikkalasi bilan amalga oshirilishi mumkin” [7;5-b.]. Marshall tomonidan berilgan yana bir ta'rif mavjud: «mehnat – bu to'g'ridan to'g'ri ishning o'zidan olingan qoniqishni hisobga olmagan holda, biron bir natijaga erishish uchun qisman yoki to'liq amalga oshirilgan har qanday aqliy va jismoniy harakatdir» [7;5-b.]. Boshqacha qilib aytganda, mehnat – bu odamlarning moddiy va madaniy boyliklarni yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyati. Mehnat inson hayotining asosi va ajralmas, abadiy va tabiiy shartidir. Binobarin, «mehnat» tushunchasini ko'rib chiqish mutlaqo qiziqish uyg'otadi, chunki u har qanday madaniyatning, shu jumladan inglizlarning asosiy tushunchasidir.

Ingliz tilida mehnatga munosabatda bir necha muhim jihatlar mavjud, masalan, G'arb madaniyatida, ayniqsa, AQSHda, individualizm va o'zini amalga oshirish juda muhim. Mehnat, ko'pincha, shaxsiy muvaffaqiyat va o'zini anglashning bir qismi sifatida qaraladi. Mehnat qilish jarayonida kasbiy mahorat va tajriba katta ahamiyatga ega. Ish joyida professionalizm saqlash, o'z vazifalarini mukammal bajarish muhim. Innovatsiya va yangi g'oyalarni yaratishga katta e'tibor qaratiladi. Bu ish jarayonlarini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Mehnatsevarlik o'zbek milliy madaniyatida mavjud bo'lgan asosiy konseptlardan biridir. Bu tushuncha insonlar orasida azaldan qadr topib kelgan ezgu fazilatdir. Ko'rinib turibdiki, “mehnatkashlik” konsepti ham ingliz va o'zbek madaniyatida o'sha millat kishilarining hayotiy tajribalari asosida turlicha talqin qilinadi. Har ikkala tilda ham “mehnatkashlik” tushunchasini yorituvchi turli leksik birliklar mavjud [5; 267-b.].

1-jadval

<b>Ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabat turli xil so'z va iboralar orqali ifodalanadi</b>	
<b>Work</b> –ingliz tilida eng keng tarqalgan leksik birliklardan biri bo'lib, u umumiy mehnat faoliyatini ifodalaydi. « <i>He works hard every day to provide for his family</i> »	<b>Ish</b> – bu so'z umumiy faoliyatni anglatib, ko'pincha, kundalik ishlarga nisbatan qo'llaniladi. « <i>Bugungi ishlarimni tugatdim</i> »
<b>Job</b> – muayyan ish joyi yoki lavozimni anglatadi. « <i>She found a new job in the city</i> »	<b>Mehnat</b> – bu so'z umumiy ish faoliyatini anglatadi. « <i>Mehnat qilmagan odam rohat topa olmaydi</i> »
<b>Labor</b> – bu so'z jismoniy yoki og'ir mehnatni ifodalaydi. « <i>The laborers worked tirelessly under the hot sun</i> »	<b>Kasb</b> – bu so'z muayyan bir sohadagi ishni anglatadi. « <i>Uning kasbi – shifokor</i> »
<b>Career</b> – insonning ish faoliyatidagi yutuqlar va professional rivojlanishni anglatadi. « <i>He has built a successful career in finance</i> »	<b>Xizmat</b> –xizmat ko'rsatish sohasidagi mehnatni anglatadi. « <i>Xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish kerak</i> »
<b>Occupation</b> – bu so'z insonning kasbi yoki doimiy ishini bildiradi. « <i>Her occupation as a teacher brings her great satisfaction</i> »	<b>Ish joyi</b> – bu so'z insonning ishlaydigan joyini ifodalaydi. « <i>Yangi ish joyi topish qiyin</i> »

Adabiyotshunoslikda ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabat konsepti turli asarlar va yozuvchilar ijodida aks etgan bo'lib, bu o'ziga xos madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlar bilan bog'liq. Charles Dickensning «Oliver Twist» va «Hard Times» asarlarida mehnatning qiyin sharoitlari va ishchilarning ahvoli tasvirlangan. Bu davrda adabiyotda mehnatga qarshi isyon va adolat talabi ko'tarilgan. Ralph Waldo Emerson va Henry David Thoreau kabi yozuvchilar o'z asarlarida mehnatning ichki ma'no va ahamiyatini ta'kidlab, insonning o'zini anglash va tabiiy hayotga yaqinlashish zarurligini ko'rsatganlar. Zamonaviy ingliz adabiyotida mehnatning muvozanati, ish joyidagi adolat va ishchi huquqlari mavzulari muhim o'rin tutadi. Ish va hayot muvozanati, professionalizm va shaxsiy rivojlanish mavzulari ko'tariladi.

O'zbek adabiyotida mehnatga munosabat, ko'pincha, jamoaviylik, hurmat va sabr-toqat bilan bog'liq, masalan, Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi yozuvchilar o'z asarlarida mehnatning mashaqqatli sharoitlarini, qishloq hayoti va dehqonchilikni tasvirlaganlar. Mustaqillikdan keyin Abdulla Oripov va Erkin Vohidov kabi shoirlar o'z she'rlarida mehnatning ahamiyati, milliy g'urur va o'zlikni anglashni ta'kidlaganlar. Ish va mehnat orqali o'z-o'zini anglash va milliy taraqqiyot mavzulari ko'tarilgan.

Ingliz va o'zbek adabiyotida mehnatga munosabat konsepti turli davrlarda va madaniy kontekstlarda turlicha tasvirlangan. Ingliz adabiyotida individualizm, professionalizm va innovatsiya ko'proq ta'kidlanar ekan, o'zbek adabiyotida jamoaviylik, hurmat va sabr-toqat asosiy o'rinda turadi. Har ikki adabiyotda mehnat mavzusi ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy kontekstlarda muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Ingliz va o'zbek tillarida mehnatga munosabatni ifodalovchi leksik birliklar har ikkala tilda ham keng qamrovli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos ma'no va kontekstga ega. Ushbu birliklar orqali mehnatga bo'lgan munosabat va jamiyatdagi mehnat madaniyatining xilma-xilligi aks etadi. Bu maqolada keltirilgan misollar va tahlillar esa ushbu konseptni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Edgell S. Work and Society: Sociological Perspectives on Labor. London, Sage Publications, 2012, 264 p.
- (2). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006, 984 bet.
- (3). Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press, 2010, 2310 pp.
- (4). Spencer-Oatey H. Intercultural Communication and Cultural Concepts of Work. Cambridge, Cambridge University Press, 2008, 292 p.
- (5). Tursunov M.M. "Mehnatsevarlik" konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklar yordamida ifoda etish usullari. [Internet]. 2023 May 31 [cited 2024 Jun. 27]; 266-9. <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/1065>
- (6). Xudoyberdiyeva M. O'zbek tili va madaniyatida mehnat tushunchasi. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2015, 320-bet.
- (7). Генкин Б. Организация, нормирование и оплата труда на промышленных предприятиях (5 изд). М., "Инфра-М", 2014, 416 с.

#### **Jabborova Aziza G'ayratovna (Turon universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida o'qituvchisi) SAN'AT VA KINO SA'NATI: O'ZARO ALOQADORLIK, XUSUSIYATLARI VA IJTIMOY FUNKSIYALARI**

**Annotatsiya.** Maqolada sa'nat ijtimoiy ong shakli sifatida inson va jamiyat jamiyat hayotida muhim ekanligi, ma'naviy hayotdagi o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, kino o'ziga xosligi, bugungi kundagi eng keng tarqalgan sohasi ekaligi haqidagi nazariy fikr-mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** san'at, kino san'ati, ijtimoiy ong, shaxs ma'naviyati, janr, drama, badiiy tasvir.

**Джабборова Азиза Гайратовна (преподаватель кафедры педагогики и психологии, университет Турана)**

#### **ИСКУССТВО И КИНОИСКУССТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ, ХАРАКТЕРИСТИКИ И СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ**

**Аннотация.** В статье говорится об искусстве как форме общественного сознания, о важности человека и общества в жизни общества, о его роли и значении в духовной жизни. Также приводятся теоретические рассуждения о том, что киноискусство является составной частью искусства, наиболее распространенной на сегодняшний день отраслью.

**Ключевые слова:** искусство, киноискусство, общественное сознание, духовность личности, жанр, драма, художественный образ.

## ART AND FILM ART: INTERRELATIONSHIP, CHARACTERISTICS AND SOCIAL FUNCTIONS

**Annotation.** *The article talks about the importance of Man and society in the life of society as a form of social consciousness, its place and importance in spiritual life. There are also theoretical reflections on the uniqueness of cinema, the cultivation of the most common field today.*

**Key words:** *art, cinema, social consciousness, personality spirituality, genre, drama, artistic image.*

**Kirish. (Introduction)** San'aning ko'pfunksionallik xususiyati insonni estetik ongi, his-tuyg'u va tafakkur uyg'unligidagi amaliy faoliyati bilan kechadi. Bunda san'atning inson ma'naviyatining mahsuli ekanligini va u noyob va betakrorligi bilan inson ruhiyatini junbushga keltiradigan va unga ruhiy qudrat bag'ishlaydigan kuch ekanligini anglash kerak bo'ladi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Bugungi kunda sa'natning barcha sohalarida avvaligidan boshqacha bo'lgan tur va janrlarning yuzaga kelishi va turli talqinlar paydo bo'lmoqda. Umuman olganda san'at sohasi fundamental o'zgarishlar boshdan kechirmoqda. Xususan, kino sa'nati haqida ham shunday deyish mumkin. Biz kino sa'nati haqida so'z yuritilgan oldin san'at tushunchasi, mazmuni va uning ijtimoiy funksiyalariga to'xtalishga qaror qildik. Chunki har qanday muammoni o'rganishdan avval uning asosiy tushunchasi, uning tarkibiy elementlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Tadqiqotchini ta'kidlashicha, zamonaviy san'at "badiiy tasvir, yo'nalish"dan voz kechdi [2].

San'at – ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli. San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. Estetik tafakkur tarixida san'at narsa va hodisalarni qanday bo'lsa shunday aks ettirish va hayotni go'zallik qonunlari asosida badiiy ifodalash g'oyalari sari yuksalib bordi [2]. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda badiiy ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy-estetik ideal nuqtayi nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** San'at insoniyat ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi, dunyoni ma'naviy anglashning maxsus turidir. "San'at" keng ma'noda, badiiy qadriyatlar, ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini qamrab oladi. San'at hozirgi davrga qadar insoniyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib kelgan. Bizga yaxshi ma'lumki, san'atning ikki turi farqlanadi: amaliy va badiiy san'at. Amaliy san'at turlariga kulolchilik, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, libos yaratish kabi sohalar kirsa, badiiy san'at turlariga rassomlik, musiqa, haykaltaroshlik, kino, teatr, badiiy adabiyot kabilar mansub. Shuningdek, ifodali va tasviriy san'at turlari farqlanadi.

**Estetik zavq-shavq manbayi.** Har qanday sa'nat turi insonga estetik zavq ulashishi lozim bu san'atning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biridir. Har qanday san'at turida yetakchi omillar mavjuddir. Kino san'atida mazkur jarayon mutlaqo boshqacha aks etadi. Kinoda adabiyot, teatr, tasviriy san'at va musiqa tajribalari, uning estetik jihatlari uyg'unlashtirilib, o'ziga singdirilgan holda voqelik o'ziga xos ifoda vositalarida fotografik tasvir orqali ko'rsatiladi.

**Inson hayotiga go'zallik baxsh etadi.** San'atning mukammalligi, go'zalligi uning ijobiy qahramon obrazini yaratishida emas, go'zallikni targ'ib etishda yoki chiroyli hayotni ko'rsatishida emas, balki mahoratli yaratilgan obrazlar, voqealar orqali ezgulik va insonparvarlikni izchil himoya qilishida namoyon bo'ladi. Kino san'atining ommani ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan tarbiyalashda, kishilar ongi, fikr va qarashlari, estetik did va his-tuyg'ulari, umuman, ma'naviy dunyosining shakllanishida g'oyaviy-badiiy ta'siri kuchlidir.

**Odamlarda voqelikka nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi.** Axloqiy kategoriyalarning barchasini ezgulik va yovuzlikka keltirib bog'lash mumkin bo'lganidek, estetik kategoriyalarni ham go'zallik va xunuklikka bog'lash mumkin. Haqiqiy tragik (fojiaviy) kino asari insonning yuksak tuyg'ularini, sof, oliyjanob qalbini, ulug' niyati va fidoyiligini ko'rsatadi. Hissiy munosabatalar har doim ijobiy bo'lverayami. Kinoning ta'sir kuchlaridan biri uning seriyalab namoyish etilishida bo'lib, tomoshabin uzoq vaqt mobaynida asardagi g'oyaviy ta'sir qurshovida bo'ladi.

**Hayotni kuzatish, o'rganish va bilish vositasi.** San'at hayotning turli sohalarini kuzatishga unda kechayotgan voqea va hodislarni tahlil qilishiga yordam beradi. Bu shunchanki kuzatish va o'rganish bo'lib qolmasdan shunga doir bilimlarni egallashga ham da'vat etadi. Bunday bilimlar ba'zan kundalik turmush darajasida ba'zan esa ilmiy shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan, Komil Yormatov tomonidan suratga olingan "Alisher Navoiy" filmi (1947)ni ko'rgan tomoshabin o'sha davrdagi ijtimoiy hayot, odamlar turmush tarzi haqida ma'lumot olish bilan bir qatorda, A.Navoiy ijodi va uning hayot yo'li haqida ham ilmiy bilimga ega bo'ladi.

**Hayotni inson orzu qilgan tomonga o'zgartirishda yordam beradi.** San'at yordamida inson borliqning ko'zdan yashirin yoki aniq-ravshan ko'rinmaydigan, shu paytgacha o'zi e'tibor qilmagan jihatlarini, ziddiyatlari va qonuniyatlarini aniqroq, ravshanroq ko'radi va idrok etadi. San'at odamlarni hayot talablariga moslashtiradi, qiyinchiliklarni xayolan yengib o'tishga, ular bilan kurashishga o'rgatadi va irodasini chiniqu tiradi. Masalan, kinodagi qarama-qarshiliklar asoslangan asarlar nihoyatda ko'p.

**Tarbiya vositasi.** San'at komil insonni shakllantirishga, inson iste'dodi va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasi ham uning o'ziga xos hajviyoti va xalqchil yumorga boy badiiy-estetik tafakkurining bir samarasi bo'lib yaratilganini yaqqol ko'rishimiz mumkin. "Oltin devor" komediyasida sujet voqealarini harakatga keltiruvchi asosiy tugun bu ikki qo'shni hovlisi o'rtasidagi devor ostidan topilgan bir xumchadagi oltinlarning mojarosi bilan bog'liqdir. Muallif inson dunyoqarashidagi, xarakteridagi ziqnalik, boylikka, mol-mulkka o'chlik, tajanglik kabi xislatlarni qoralashni ushbu komediyasiga bosh leytmotiv (asosiy, yetakchi motiv) qilib olgan, desak, xato bo'lmaydi.

**Hayotdagi go'zallikdan ilhomlanishga, xunuklikdan nafratlanishga chorlaydi.** Estetik kategoriya sifatida xunuklik go'zallikning muqobilidir. U ham juda murakkab, ziddiyatli mazmunga ega. Xunuklik va go'zallik o'rtasida aniq chegara o'tkazish qiyin. Hatto ba'zan xunuklik shaklan jozibali, chiroyli shaklda, go'zallik esa tashqi xunuklikda voqe bo'lishi mumkin.

**Odamlarning badiiy-estetik didini tarbiyalaydi, ularda ma'lum dunyoqarashni shakllantiradi.** Ma'lumki, estetik tuyg'udan farqli, did o'ziga ma'qul hodisalarni tanlaydi, unda qiziqish, "g'araz" mavjud. Did ko'proq individual xususiyatga ega. O'z asosida ancha sobit, barqaror. Ammo ma'naviy muhit ta'sirida rivojlanishga, noziklashishga, teranlashishga, aksincha, ba'zan dag'allashishga, sayozlashishga, qashshoqlashishga moyil.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Estetik ongning yuqori darajasi – tafakkur estetik tushunchalar, g'oyalar, kategoriyalar, mulohazalar, tizimlashtirilgan qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, estetik idealdan iborat. Kino san'ati barcha mintaqalardagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatgan zamonaviy madaniyatning dominant hodisalaridan biridir. Mustaqillik yillarida milliy kino san'atini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki davrdagi moliyaviy qo'llab-quvvatlashlar 2004-yili "O'zbekkino" milliy agentligi tashkil etilgandan keyin yangi bosqichga ko'tarildi. 2017-yil kino san'ati uchun ham muhim yil bo'ldi. Birgina shu yilning o'zida "O'zbekkino" milliy agentligiga davlat budjetidan 12 milliard 400 million so'm ajratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 29-dekabr kuni milliy kino san'ati xodimlari va mutasaddilari bilan uchrashdi. Unda kino san'atining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari, tajriba va malaka oshirishini tashkil etish, hududlarda kinoteatrlar qurish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, kinematografiya sohasini rivojlantirish borasida qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash, xorijiy kinostudiyalar va kinoijodkorlar bilan aloqalani mustahkamlash, ular bilan hamkorlikda filmlar yaratishni yo'lga qo'yish ta'kidlandi [3]. Yoshlarimizni milliy va umumbashariy g'oyalar asosida kamol toptirishda madaniyat sohasi, xususan, tetar san'atining kata o'rni bor. Hozirgi kunda mamalakatimizda 40 ta teatr faoliyat ko'rstamoqda. Har yili 40 ta yagi spektaklga davlat buyurtmasi berilmoqda [4].

**Xulosa va takliflar (Conclusion and recommendations).** Kino insonni tarbiyalaydi. Unga ma'naviy ozuqa beradi. Undan taskin topishi, ozularga intilishi, buyuk tuyg'ularni qadrlashni o'rganish kerak. Ammo xususiy filmlarning maqsadi – kinodan yaxshi daromad qilish. Lekin ayrim sayoz filmlarga ketadigan mablag' milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini oshirishga undovchi yoki bugungi kundagi oddiy odamning o'ytashvishi, ma'naviyati haqida o'ylantiradigan filmlar yaratish uchun sarflansa, kinoning davr bilan hamnafasligi sezilardi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). I.Meliqo'ziyev. Tarixiy filmlarda sujet rivoji va kompozisiya. <https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-23>.
- (2). Бычков В.В. Пост-культура и современное искусство – эстетизация дискурса. Бычков В.В., Маньковская Н.Б., Иванов В.В. Триалог. Разговор первый об эстетике, современном искусстве и кризисе культуры. М., ИФ РАН, 2007, с. 10.
- (3). <https://daryo.uz/2017/12/29/shavkat-mirziyoyev-milliy-kino-sanati-va-kinoindustriyani-rivojlantirish-bo-yicha-yigilish-otkazdi>.
- (4). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqi. 2023-yil 22-dekabr, "Xalq so'zi" gazetasi, 274-son.

(5). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. "Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida". <https://lex.uz/docs/-5374440>.

(6). <https://topref.ru/referat/75728.html>.

**Vapayeva Fazilat Shuhratovna (Andijon davlat Pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3-kurs talabasi; vapayevaf@gmail.com)**

### **REFLEKSIV MUNOSABATLARDI TA'LIM NAZARIYASINING O'RNI**

*Annotatsiya. Keyingi paytlarda ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada avvallari an'ana bo'lgan ta'lim jarayonida qo'llanadigan metodlar o'rniga yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlar kirib kela boshladi. mavzularning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va ularning mustaqil fikr yuritishlariga undash bevosita o'qituvchi faoliyatiga bog'liqdir. Zero, yangi ta'lim standartlarini o'zlashtirish kafolati yangicha zamonaviy metodlarni qo'llashni talab etadi.*

*Kalit so'zlar ta'lim nazariyasi, boshlang'ich refleksiya asoslari, o'quvchi faoliyati, pedagogik tizim, pedagogik mahorat.*

### **РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕОРИИ В РЕФЛЕКСИВНЫХ УСТАНОВКАХ**

*Аннотация. В последнее время в теории и практике образования произошли серьезные изменения. В результате вместо традиционных методов обучения используются новые современные педагогические методы. Усвоение предметов учащимися и побуждение их к самостоятельному мышлению напрямую зависят от деятельности учителя. Ведь освоение новых образовательных стандартов – это гарантия.*

*Ключевые слова: теория образования, основы начальной рефлексии, студенческая деятельность, педагогическая система, педагогическое мастерство.*

### **THE ROLE OF EDUCATIONAL THEORY IN REFLECTIVE ATTITUDES**

*Annotation. Recently, there have been serious changes in the theory and practice of education. As a result, new modern pedagogic methods are used instead of traditional educational methods. The mastery of subjects by students and encouraging them to think independently depends directly on the activity of the teacher. After all, mastering new educational standards is a guarantee.*

*Key words: theory of education, basics of initial reflection, student activity, pedagogical system, pedagogical skill.*

**Kirish.** Ta'lim nazariyasi islohot munosabati bilan boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar o'qish darslarida pedagogik texnologiyalarning rivojlantiruvchi, differentsiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda, boshlang'ich sinf o'qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, musobaqa–bellashuv metodlaridan, turli interfaol metodlardan foydalaniladi. Darslarni "Aqliy hujum", "Mustaqil tahlil", "Ta'limiy o'yin", "Turli sahna ko'rinishli" andazasiz usullardan foydalanib, uyushtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'rgatish davrida o'quvchilarning mavzuni chuqur tushunishlarini va tahlil qilishlarini ta'minlash uchun metod tanlash kerakligini hisobga olgan holda e'tibor berildi. Bunda metodlarni maqsadga moslash uchun foydalanish muvofiqdir. Zamonaviy ta'limni shakllantirish uchun muhim talablardan biri tez vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir, lekin bu jarayonda ruhiy va jismoniy kuch sarflamasligi ham juda muhimdir.

Ilk bor refleksiya tushunchasi, insonning o'z ongida yuzaga kelgan va kechayotgan mulohazalari haqida, qadimgi Yunon falsafasida paydo bo'lgan. Dekart fikr yuritish jarayonida, o'z fikrlarining ma'nosini tahlil qilishga e'tiborini jalb qildi. Sokrat, Platon, Lokk, and other Greek philosophers emphasize the importance of reflection in recognizing one's own abilities and understanding what they are capable of. Kant, Hegel, Fichte, Schelling va boshqa Avropa olimlari, insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni muhim deb topishganlar.

O'qituvchi refleksiyani o'rganib, bir necha olimlar uning kommunikativ va kooperativ usullarini yuqori qiymat bermoqda, bu tarzlar o'qituvchining faoliyatida va o'quvchilar bilan muloqotda ko'proq ko'rinadi, deb hisoblaydilar (V.A.Krivosheev, G.P.Shchedrovitskiy va boshqalar). Fransuz sotsiologi Burdieu o'zining refleksiv konsepsiyasini o'rganish orqali ijtimoiy sohalardagi kishilarning xarakter hara-



katlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun xatti-harakatlarni va refleksiv amallarni muntazam tarzda ko'rsatadi.

Bu olimlar, sotsiologiya, antropologiya va mos keladigan sohalarida o'zimizni o'zlashtiruvchi munosabatlarni tushunishimizda muhim ahamiyatga ega bo'ldilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Refleksiv munosabatlarda ta'lim nazariyasi, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqani yoritishda ahamiyatga ega. Bu nazariya o'quvchilarga o'zlarining baholarini, xatolarini aniqlash va ularni yaxshilashda qo'llab-quvvatlashni o'rgatadi. Ular bir-birini yaxshiroq tanishishlarini va qo'llab-quvvatlashlarini ifoda qiladi.

Ta'lim nazariyasi refleksiv munosabatlarda, o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatlarni o'rganishda muhim rolni o'ynaydi. Bu konsept o'qituvchilarga o'quvchilarga mentorlik qilish, ularning o'zlarini baholash va rivojlantirish uchun qarorlarini qanday qilib qabul qilishlarini tushuntiradi. Ular o'quvchilarga o'zlarini tanishish, o'zlarini o'rganish va o'zaro qo'llab-quvvatlashni o'rganishda yordam beradi. Shu sababli o'qituvchilar o'quvchilar bilan munosabatlarni rivojlantirishda ahamiyatga ega.

Refleksiv munosabatlarda ta'limning nazariyasi, o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va o'quvchilarning o'zlarini o'zlashtirishda katta e'tibor beradi. Bu nazariya o'qituvchilarga, o'quvchilarga yordam bermaslik, o'zlarini baholash va o'zlarini takomillashtirish uchun kerakli strategiyalarni aniqlashga yordam beradi. Ular o'quvchilarni o'zlarining o'zlarini yaxshiroq tushunishlarini, o'zlarining o'zlarini o'rganishlarini va bir-birlariga qo'llab-quvvatlashlarini o'rganishga yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar o'quvchilar bilan o'rtacha savollar va muzokaralar o'tkazishda muhimdir, o'quvchilar o'z fikrlarini ifodalash va o'z vazifalari ustida ishlashlari kutiladi.

**Tahlil va natijalar.** Refleksiv munosabatlarda ta'lim nazariyasi, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, o'quvchilarning o'zlarini o'zlashtirish va o'zlashtirish amaliyotida o'quvchilarni yordam berishga katta e'tibor beradi. Bu nazariya o'qituvchilarga, o'zlarining o'quvchilarga yordam berish, ularning o'zlarini o'zlarini baholash va takomillashtirish uchun kerakli strategiyalarni tushuntiradi.

O'yinli dars shaklida ta'lim jarayonida didaktik o'yin texnologiyalari foydalaniladi. Ushbu darslarda talabalar bilim olish jarayonini o'yin faoliyati bilan tushuntiriladi. O'quvchilar ta'lim olish faoliyati darslarining o'rtasida o'yun faoliyatlar bilan to'ldirilgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Insonlar o'yin orqali quyidagi vazifalarni bajaradilar:

– shaxsning o'qish va mehnat qilishga qiziqishi, o'yin faoliyati yordamida oshadi.

– o'yin jarayonida foydalanuvchi kommunikativ – muloqot madaniyatini o'rganish uchun imkoniyat beriladi, yani, muloqotga kirishishi;

– har bir kishining o'z iqtidarini, qiziqishini, ilm-fanini va shaxsiy xususiyatlarini ko'rsatishga imkoniyat yaratiladi;

– hayot va o'yinda paydo bo'ladigan murakkab umuman muammolarni hal etish va maqsadlarni to'g'ri tanlashda yordamchi bo'ladi;

– o'yin jarayonida kamchiliklarga barham berish, ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash imkoniyati yaratiladi.

– shaxsning musbat xususiyatlarini ko'rsatish uchun tayyorlanadi;

– insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

– o'yin ishtirokchilari o'rtasida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish muammo qilinadi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

Men maqolani o'rganish davomida shunday natijalarni qo'lga kiritdimki, ular o'qituvchi-pedagog, avval, o'quvchlarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozimligini bilib oldim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik yo'nalishining texnologik tomoni ma'lum malakalarda namoyon bo'ladi. Slasteninga ko'ra [1], ixtiyoriy faoliyat sohasidagi mahoratning asosiy ko'rsatkichi maxsus umumiy ko'nikmalarni egallashdir. Tadqiqotimiz yo'nalishini hisobga olgan holda biz quyidagi kasbiy va pedagogik mahorat guruhlarini ajratamiz:

a) pedagogik mahorat;

– konstruktiv ko‘nikmalar (talabalar faoliyatining turli shakllarini rejalashtirish va o‘tkazish qobiliyati, faoliyat maqsadlariga muvofiq materialni tahlil qilish, sintez qilish va tanlash qobiliyati);

– kommunikativ ko‘nikmalar (talabalar bilan munosabatlarni o‘rnatish, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish, turli odamlar bilan to‘g‘ri muloqot ohangini topish, jamoada normal psixologik muhitni o‘rnatish qobiliyati);

– nazariy-tahliliy ko‘nikmalar;

– tashkilotchilik qobiliyatlari (o‘quvchilarning har xil turlarini tashkil etish qobiliyati);

b) reflektiv qobiliyatlar: reflektiv-idrok etish malakalari; pedagogik faoliyatni reflektiv-funksional tahlil qilish malakalari.

**Xulosa va takliflar.** O‘z-o‘zini amalga oshirish qobiliyati bo‘lgan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida pedagogik aksini rivojlantirishning ikkinchi mezonini reflektiv-shaxsiy imkoniyat bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning pedagogik va reflektiv-perseptiv qobiliyatlari, shuningdek, o‘zlari, bolalar va pedagogik faoliyat bilan tizimli munosabatlarini amalga oshirish, o‘z-o‘zini namoyon qilish qobiliyatiga o‘zi natijasidir, deb hisoblaymiz.

Shaxsning ijodiy va ma‘naviy imkoniyatlarini sintetik ravishda amalga oshirish, barcha imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish, o‘z o‘rnini adekvat idrok etishni o‘z ichiga oladi, dunyoni va o‘ziga o‘zini rivojlantirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Slavenin V.A. O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida uning shaxsini shakllantirish. M., “Prosvetshchenie”, 1976, 160-bet.

(2). Анисимов О.С. Педагогическое мышление как средство управления и развития педагогической деятельности. Самарканд, 1986, 43 с.

(3). Falsafiy ensiklopediya: V 5 t., T.5, Gl. Ed. F.V.Konstantinov. M., 1970, 740-bet.

**Музафарова Луиза Умаровна (и.о. доцента кафедры теории и практики английского языка Самаркандского государственного института иностранных языков, доктор философ. (PhD) по филологии; E-mail: [muzafarovaluiza22@gmail.com](mailto:muzafarovaluiza22@gmail.com))**

